

78.5
A-15

ABDULLAYEV ABDUQAYUM ABDULXAYEVICH

SPORT VA HARAKATLI O'YINLAR O'QITISH METODIKASI (FUTBOL)





45.5
A-15



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUQAYUM ABDULLAYEV

**SPORT VA HARAKATLI O'YINLAR
O'QITISH METODIKASI
(FUTBOL)**

2193

O'quv qo'llanma



2193

"TAFAKKUR" НАШРИЁТИ
ТОШКЕНТ - 2019

KBK: 75.578

UO'K: 796.332

A 15

Abdullayev A.

Sport va harakatli o'yinlar o'qitish metodikasi [Matn] O'quv qo'llanma / A. Abdullayev – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 216 b.

KBK: 75.578

Sport va harakatli o'yinlar o'qitish metodikasi (futbol) o'quv qo'llanmasi Oliy ta'lif muassasalari 5112000 Jismoniy madaniyat fakultetlari o'quv jarayoni, olimpiya zaxiralari kollejlari, maxsus sport mакtablar o'quvchilari, talabalar hamda futbol murabbiyatlari uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanmada futbol sport turining mazmun-mohiyati, mashg'ulotlar jarayonining umumiy qonuniyatlari, vositalari va mashq qildirish usullari, jismoniy fazilatlarni tarbiyalashning nazariy va amaliy xususiyatlari, tababani futbolga tayyorlash va mashg'ulot jarayoni masalalari yoritilgan.

Muallif:

A. Abdullayev – o'qituvchi

Taqrizchilar:

Sh.Q.Mardonov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fan dekani, pedagogika fanlari doktori, prof.

B.B.Musayev – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, pedagogika fanlari nomzodi

K.D.Raximqulov – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti

O'quv qo'llanma Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti kengashida 2019-yil 30-maydag'i 8-sonli majlis bayonnomasini bilan ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019 yil 20 iyuldag'i 654-sonli buyrug'iga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN: 978-9943-24-282-1

© A. Abdullayev, 2019 yil.

© "Tafakkur" nashriyoti, 2019 yil.

KIRISH

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan so'nggi yillarda Respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va isloh qilish bo'yicha tizimli ishlar olib bortilmoqda, iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy va xalqaro mu-sobaqalarda hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ilm-fanni, shu jumladan, sportni respublikamizda rivojlantirish fikrlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori buning isbotidir.

Prezidentning mazkur farmoniga muvofiq mamlakatimiz ilmiy salohiyatini oshirish va ilmiy tadqiqotda yangi yondashuvlarga o'tish, ilm-fanda yechilmay turgan muammolarni ilmiy tadqiqot obyekti qilib olish alohida ta'kidlangan. Shuni qoniqish bilan qayd etish lozimki, jahonga yuz tutgan O'zbekistonimizda sportni rivojlantirish asosida barkamol avlodni sog'lom tarbiyalash va sohadagi muammolarni ilmiy tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Bu bejiz emas, albatte, jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rinn egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun taraqqiy qilgan chet eldar bilan hamkorlik – hamjihatlikda o'zining buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun sport sohasida yetuk sportchilarni tarbiyalash va ularni tarbiyalovchi mutaxassislarni tayyorlash masalasi yetakchi o'ringa chiqdi.

Shu boisdan ta'lif tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama sog'lom, yetuk va yuksak ma'naviyatli komil insonlar etib tarbiyalash davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bolalarning jamoatchilik, mehnatsevarlik va jamoat oldida o'z burchini his qilish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim masalalari hisoblanadi. Bola maktabga qadam qo'ygan birinchi kundan boshlab unda mehnatga nisbatan muhabbat uyg'otish, uyushqoqlik, ishchanlik va boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilish xususiyatini tarbiyalash kerak. Buning uchun tarbiyaning barcha vositalaridan, jumladan, bolalarni sevimli o'yinlaridan foydalanish ayni muddaodir.

O'yinlar hayotdagi to'siqlarni yengish hamda har xil xislat va qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy mashqlarning turli majmuasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, odatda, bolalar sevib o'ynaydigan, ularga baxt, quvonch baxsh etadigan musobaqa elementlari ham harakatli o'yinlarga kiradi.

Hammamizga ma'lumki, kichik maktab yoshidagi bolalarning o'yinlari taqlid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak-atrofidagi borliqni kuzatadi, undagi ba'zi narsalarni o'yinga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olamni bilib oladi, shunday ekan, unda turmush hodisalariga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi.

Futbol bilan shug'ullanish kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga imkon yaratadi. Futbol yosh avlodni aqliy va irodaviy tarbiyalashda ahamiyatga ega vositadir. Futbol mashg'ulotlari va musobaqalarini to'g'ri tashkil qilish intizomlilik, tashkilotchilik, intiluvchanlik, irodalilik, quvnoqlik, ishchanlik va to'g'ri qaror qabul qilish kabi sifatlarni tarbiyalashga ijobiyligi ta'sir qiladi. Bularning barchasini inobatga olib meto-

dik qo'llanma mustaqil ta'lim tizimi, leksiya kursi va amaliyot mashg'ulotlaridan tashkil topgan, jumladan, metodik vazifalarini individual tarzda mustaqil ishlashni ham o'z ichiga ola-di. Mazkur metodik qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat nazariyasi bo'limidagi futbolga oid talablar asosida yozilgan, amaliyot mashg'ulotlari shuning jumlasidan, albatta, bularning barchasi DTSga mos ravishda tayyorlangan. Mazkur metodik qo'llanmani yozishdan maqsad – talabalarga futbol nazariyasi asoslarini va amaliyotini o'rgatishdir. Unda futbol tarixi, futbol mashqlaridan sog'lik uchun foydali jihatlar tarif qillinadi. Mazkur metodik qo'llanmani tayyorlashda manba sifatida futbol nazariyasi bo'yicha yozilgan adabiyotlardan foydalанилди, jumladan, jismoniy madaniyat va futbol sohasining yetakchi olimlari ishlari o'rganilgan holda tahlil qilindi.

I BOB. FUTBOLNING RIVOJLANISH TARIXI

"Futbol" so'zi, foot – oyoq, ball – to'p, ya'ni oyoqda to'p o'ynash ma'nosini bildiradi.

Futbol bu – chinakam atletik o'yin. U tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik va sakrovchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchi o'yin paytida haddan tashqari ko'p ish bajaradi. Bu esa odamning funksional imkoniyatlari darajasini oshirishga, ma'naviy, irodaviy xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Futbol o'ynash umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rishda yaxshi vosita bo'lib xizmat qila oladi. Yo'naliishni o'zgartirib xilmalix yugurish, sakrashning turli xillari, tuzilish jihatdan turlicha gavda harakatlari, to'pni tepish, to'xtatib olish va olib yurish, maksimal tezlikda harakat qilish, irodaviy xislatlarning, taktik tafakkurning kamol topishi kabilar futbolni har qanday ixtisosdagи sportchiga zarur bo'lgan ko'pgina muhim xislatlarni o'stiradigan sport o'yini deb hisoblash imkoniyatini beradi.

Bundan juda ham ko'p yillar avval har xil davlatlarda odamlar shahar maydonlarida yoki bo'sh yotgan yerlarda to'p o'ynashni o'ylab topdilar, bu o'yin esa harbiylarni raqib lageriga kirib olishi ishtiyoqiga o'xhash harakatni eslatar edi.

Partiya o'yini (ikki jamoaga bo'linib), ma'lum chiziq orqasida ko'p marta to'pni olib o'tgan jamoa partiyada g'olib hisoblangan. Bunday o'yinlarda ayrim vaqtarda bir necha yuz kishi qatnashar edi.

Futbolni qaysi oyda, qaysi yilda tug'ilganligi yoki keilib chiqqanligi tarixga ma'lum emas. Bu faqat futbol foydasi-gadir, chunki bu qadimgi oyoq to'p o'yinlari uning yer shari-dagi ko'pchilik xalqlar orasida ommaviy়lashganligi haqida guvohlik beradi.

Juda qadim vaqtlardan beri xalqlarni qiziqtirayotgan savollardan biri: bu o'yin kim tomonidan qachon o'ylab topilgan? Arxelogik qazilmalarining isbotlashiga ko'ra, futbol "ajdodlaridan" biri Qadimgi Misrda yashagan ekan. Bu yerda olimlar

to'p o'ynovchi tasvirini, balki to'pning statuetkasini ham topdilar.

Tarixchilarning isbotlashiga ko'ra, futbol o'yini qadim zamonalarda paydo bo'lgan. Bu o'yin elementlarini dunyodagi ju'da ko'p xalqlarda uchratish mumkin. Masalan, Qadimgi Yunonistonda to'pni o'ynashni bilgan kishi katta shuhrat qozonardi, bu o'yin gimnastika jismoniy mashqlar doirasiga kiritilgan edi.

To'p o'yini haqidagi birinchi yozma ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi zamon futboliga o'xshash to'p o'yini 180-yildan tilga olnadi. Pollukosning yunoncha lug'atida o'ynovchilar ikki partiyyaga (jamoaga) bo'linganligi yozilgan. Har qaysi jamoada to'pni raqib o'yin maydoni orqasiga o'tkazishga harakat qildi. Xarakter jihatidan bu o'yin ko'proq hozirgi regbi o'yiniga o'xshab ketadi. Lekin bu o'yinda qo'l bilan o'ynash taqiqlangan edi. Qadimgi to'p o'yinlarining qaysi biridan hozirgi futbol kelib chiqqanligini aniqlashning iloji yo'q.

Qadimgi Yunonistonda to'p bilan o'ynaladigan boshqa o'yinlar ham bo'lgan. Antik to'p o'yinlarining qaysi biri hozirgi zamon futbolining qonuniy asoschisi, uning asoschisi kim okanligi aniq belgilanmagan yoki aytilmagan, bugun uni o'z-o'zidan tasavvur qilib bo'lmaydi. Baribir ko'pchilik futbol mutaxassislarining aksariyati, futbol "Garkasto'm" degan qadimgi Rim o'yinidan kelib chiqqan bo'lib, uni Britaniya, Italiya va Garbiy Yevropaning boshqa mamlakatlariga Yuliy Sezar yoki Rim legionerlari olib kelganlar, deb taxmin qiladilar.

Shuni eslatib o'tish zarurki, to'p bilan o'ynaladigan o'yinlarni boshqa davlatlarda ham o'ynaganlar. Shu bilan birga, u juda ommabop bo'lib, har xil tabaqa va sinflar orasida ixlo'mandlari bo'lgan. Masalan, eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda Xitoyda o'ynaladigan o'yin futbolga o'xshab ketadi. U harbiy tayyorgarlikning muhim elementlaridan biri hisoblanar edi. Xoilar sulolasiga tarixida (eramizdan avvalgi 206-yildan to'oramizning 25-yillarigacha) "CHJU - KE" o'yinining tavsifi yoki bayoni saqlanib qolgan. "CHJU" – oyoqda tepish, "KE" charm-

li to'ldirma to'p ma'nosini bildiradi. Yozma manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, imperatorning tug'ilgan kunda, imperator saroyi oldida ikkita kuchli jamoa o'ttasida o'yin o'tkazilardi. O'yinga maxsus maydoncha tayyorlashar edi. 30 funt balandlikdagi bambukli tayoqchalar o'ttasiga ipakli to'r tortilardi, unda diametri bir funtdan ko'proq teshik qilinar edi. Ikkala jamoaning o'yinchilari teshikka oyoqlari bilan to'pni kiritishga harakat qilardilar. G'oliblar gullar, mevalar, vino, kumush billur (kubok) bilan taqdirlanar edilar. Ayni vaqtida mohir o'yinchilarni xizmat yuzasidan yuqori lavozimga ko'tarish kutilardi. Shunday voqealar bo'lganki, bir o'yinchi to'p bilan chiroqli o'yin ko'rsatganligi uchun general lavozimigacha ko'tarilardi. Shu bilan birga yutqazgan jamoa sardorini odatda, oshkora ravishda qamchilash bilan jazolashardi.

Tabiiyki, uzoq o'tmishda hozirgi zamon futboliga o'xshash bo'lgan o'yinlarni o'ynagan Xitoy birdan-bir davlat bo'lgan emas. Masalan, o'n to'rtinchi asr davomida "Komer" o'yini om-malashib borgan. Yaponlarning bu sevimli o'yinini o'tkazish uchun 14 kv. m kattalikdagi maydonda 8 o'yinchi joylashib turadilar. Maydonchaning shimoliy-g'arbiy burchagida tog' terak, janubiy-sharqiy burchagida tol, shimoliy-sharqiy burchagida olcha, janubiy-g'arbiy burchagida zarang (daraxtlari) qo'yilgan bo'ladi. O'yinning asosiy mazmuni shundan iboratki, o'rnatilgan an'anaga rioya qilgan holda, to'pni bir-biriga oshirish lozim.

Mashhur fransuz futbolchisi Moris Pefferkorning ta'kidlashiga ko'ra, "La sul" o'yinini to'g'ridan-to'g'ri hozirgi zamon futbolining ajdodi deb qo'rmasdan aytish mumkin, chunki bu o'yinda ikkita jamoa havo bilan to'ldirilgan charm to'pda o'ynashar edi. Bu o'yin o'rta asrlardayoq Pefferkorning mamlakatida ommabop bo'lgan edi.

Italiya sport tarixchilari tasdiqlashiga ko'ra, hozirgi futbol Fransiyada XVI asrda "La sul" o'yinidan emas, balki "Kalchie" o'yinidan tarqalgan.

"Kalchie" o'yinini to'pda 100x50 maydonda o'ynaganlar. "Kalchie" o'yini hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan.

An'anaga ko'ra P'yassa Dela janob Feorensiya maydonida yilliga ikki marta: may oyining birinchi yakshanbasida va 24-iyunda o'tkaziladi. Jamoalarning biri "White" (oqlar), boshqasi "Rossi" (qizillar) deb ataladi. Ularning har birida 27 dan o'yinchi o'ynaydi, shulardan 15 tasi hujumchilar, 12 ta-si himoya vazifasini bajaradilar. Ular butun maydon kengligida yoyilib, darvozani himoya qiladilar.

Ko'rib turibsizki, hozirgizamon futbolining o'tmishdoshlari ham emas. Eramizdan avvalgi 1300-yilda Meksika yeri-da "Pok-ta-pok" nomi bilan o'yin dunyoga keldi. "Pok-ta-pok" o'yinchilar uchun jiddiy sinov edi va ulardan dadillikni hamda yaxshi jismoniy tayyorgarlikni talab qilar edi. Bu o'yin qat-nashchilar tez-tez shikastlanib turardilar, gohida o'yin fojea bilan tugardi. Chunki "Pok-ta-pok" kauchukdan qilingan og'ir to'p bilan o'ynalardi. Arxeologik qazilmalar guvohlik berishiga ko'ra, o'yin qaltis bo'lishiga qaramay, yerli xalq o'rtasida juda ommabop edi. "Pok-ta-pok" o'yini Meksikadan asta-sekin butun Markaziy Amerika bo'ylab XVI asrgacha tarqaldi, keyinchalik Ispaniya mustamlakachiligi davrida u taqiqlab qo'yildi.

O'yinning maqsadi shundan iboratki, to'p devordagi diametri 20 sm dan katta bo'lgan doiraga yo'naltirilishi lozim. Buni faqatgina oyoqda bajarish mumkin.

Ehtimol, meksikaliklar o'zlarini futbolga asos soluvchilar deb hisoblashlari mumkin: aynan shu yerda birinchi mar-to futbol deb atalgan. Bu o'yinni rasmiy ravishda tan olinganidan emas, balki uning taqiqlanganidan kelib chiqqan, deyish mumkin.

1349-yili qirol Eduard III o'zining maxsus farmonida London amaldorlari diqqat-e'tiborini qaratib shunday dedi. Kamondan o'qotish yoshlar uchun foydali bo'lsa ham har xil befoyda va futbolga o'xhash "qonunsiz yoki qonunga xilof bo'lgan" o'yinlarni ko'paytirish hisobiga, uni ikkinchi o'ringa surib qo'ydilar. Shunday qilib, birinchi deb atalgan futbol rasmiy ravishda birinchi bo'lib xush kelmay qoldi. Buni amalga oshirish shart edi, lekin sheriflar qirolning farmonini bajarishga, avvalam-

bor, harakat qilmadilar, roppa-rosa 40-yildan keyin Richard II yangi farmon qabul qilib, qirolliklarda futbol o'ynashni man etdi.

Xuddi shunga o'xshash qonun 1401-yilda Genrix IV tomonidan qabul qilindi. Lekin uning yoshlar sevib qolgan o'yinni taqiqlashga qilgan urinishi zoye ketdi. Ana shunday urinishlarga qaramasdan to'p o'yini o'ziga baribir yo'l ochdi. Nihoyat, XIX asr, ayniqsa, uning ikkinchi yarmidan boshlab bu o'yin rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Ayniqsa, shu davrdan boshlab sport metodi ko'proq jismoniy tarbiyani maqsadga tan oldi, sport va sport o'yinlari esa jismoniy tarbiya ishlarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib qoldi. To'p o'yini, birinchi navbatda, Angliya kollej va universitetlarida tarqaldi. To'p o'yini XIX asrning ikkinchi yarmida takomillashtirildi, uning mazmu ni aniq ikki yo'nalishga belgilandi – uning beshtasi qo'llab-quvvatlandi. Kembrij kolleji 1863-yili futbol uyushmasini tashkil qildilar va dumaloq to'p bilan oyoqda o'ynash o'yini deb atashga qaror qabul qildilar. Regbi shahar universiteti shaxsan ikkinchi yo'nalish tarafdoqlari oval shaklidagi to'pda ham qo'l, ham oyoq bilan o'ynashga qaror qildilar. Undan ilgari to'p o'ynashning bir xil qoidalarini o'rnatishga va ishlab chiqishga harakat qilgan edilar. Biroq bu o'yin dunyo ko'zini ko'rmasdan yo'qoldi. Mana shunga qaramasdan, bu qoida ko'pchilik kollejlarda "Kembrij qoidasi" sifatida ma'lum edi. Bizga yetib kelgan birgina qoida 1863-yili dekabr oyida nashr qilindi. Albatta, unda hozirgi zamon qoidalari bilan solishtirib ko'rulganda katta o'zgarish bor. Baribir ushbu qoidalarni qo'llanilib bordi, astasekinlik bilan zamonaviy ko'rinishga keldi.

1866-yili "o'yindan chiqqan" qoidalarni yengillashtirildi. Endi raqib chizig'i bilan o'zi o'rtasida qarshi tomon o'yinchilardan uch kishi bo'lsa, bu o'yinchi "o'yindan chiqqan" bo'lmaydi. Yana shu yili darvoza ustunlarini gorizontal arqon tortib birlashtirishga qaror qilinib, arqonning yerdan balandligi 5,5 m qilib belgilandi. 1871-yildagina darvozabonga qo'lda o'ynashga ruxsat etildi. To'p himoyadagi o'yinchiga tegib sirt chiziqdan may-

don tashqarisiga chiqib ketganda, burchakdan to'p tepish qoidasi 1873-yilda kiritildi.

1875-yili ustunlarni birlashtirib turgan arqon yerdan 2,44 m balandlikdagi to'singa almashtirildi. O'sha yili darvozaga to'p kiritilgandan keyin tomonlar almashinish qoidasi o'rniغا, o'yinchilar tanaffusdan qaytgandan keyin almashinish qoidasi joriy qilindi.

1882-yili to'rtta mustaqil futbol ittifoqi Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya futbol ittifoqlari birlashdi. Yagona qoidalalar qabul qilindi va qoidalarga biron-bir o'zgarish kiritish huquqiga ega bo'lgan xalqaro kengash tasdiqlandi.

Futbol maydonida hakam birinchi marta 1880-1881-yillarda paydo bo'ldi. O'yinni belgilangan qoidalarga muvofiq o'tkazish, urilgan gollar nechta bo'lganligini aniqlash va boshqalar, hatto o'sha vaqtlardayoq hakamning vazifasi edi. 1891-yildan hakam maydonga ikkita yordamchisi bilan chiqadipan bo'ldi.

1871-yilda Angliyada mamlakat kubogi uchun o'yin ta'sis etildi. Ingliz futbol klublari hozirgi vaqtda ham o'sha kubok uchun kurashib kelmoqdalar.

Xalqaro miqyosdagi dastlabki futbol o'yini 1873-yili Angliya bilan Shotlandiya futbol jamoalari o'rtasida bo'lgan edi. Jamoalardagi o'yinchilar soni 11 kishidan ko'p bo'lmasa-da, ularning joy-joyiga qo'yilishi hozirgi vaqtdagidan boshqacharoq bo'lgan. Angliya jamoasida yetti o'yinchi hujumda, beshtasi yarim himoyada, ikki himoyachi va darvozabondan iborat edi. Keyingi yili ingliz futbol jamoalari ham o'yinchilarni shotlandchariga joylashtirishga o'tadi, chunki ana shunday joylashtirish o'zini oqlagan bo'lsa kerak.

Qoldaga kirgan o'zgarish va takomillashuvlar so'zsiz o'yin texnikasi va taktikasiga ta'sir qilmay qolmaydi.

XIX asrning 80-yillarida futbol o'yini kontinental Yevropa qit'asi mamlakatlariga ham tarqaldi. Futbol 1875-yilda Hollandiya, sal keyinroq Daniyada o'ynala boshlandi. Daniya ko'p o'tmay qit'ada futbol bo'yicha yetakchi o'ringa chiqib,

Birinchi jahon urushiga qadar shu mavqeyini saqlab qoldi. Futbol 1882-yilda Shveysariyada, 1890-yilda Chexiyada, 1894-yilda Avstriyada o'ynala boshlandi.

1904-yili Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) tuzildi. FIFA bilan bir qatorda 1954-yildan buyon Yevropa futbol ittifoqi UEFA ham ishlab turibdi. 1930-yildan beri har to'rt yilda jahon championati, 1958-yildan beri Yevropa championati o'tkazilib ularda milliy terma jamoalar qatnashib kelmoqda. 1900-yildan boshlab futbol sportning Olimpiya turlari qatoriga kirdi, biroq 1908-yildagina u rasman Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritildi. UEFA rahbarligida quyidagi kubok o'yinlari o'tkazilib turiladi. Yevropa championatlari kubogi (1956-yildan), Kubok egalari kubogi (1961-yildan beri) va Yarmarkalar kubogi (1958-yildan) endilikda UEFA kubogi deb ataladi.

1948-yildan boshlab o'smirlar jamoasi uchun UEFA turniri o'tkazilib kelmoqda. Bundan tashqari, 1977-yildan boshlab har yili FIFA rahbarligida o'smirlar o'rtasida jahon championati o'tkaziladi.

1906-yilni O'rta Osiyoda futbol dunyoga kelgan yil deb hisoblash mumkin.

1912-yili Qo'qon shahrida ilk bor tuzilgan futbol jamoasi mahalliy millat o'yinchilaridan iborat edi.

1913-yildan boshlab Andijon, Farg'ona, Samarqand shaharlarda futbol keng tarqala boshladi.

1922-yil 17-noyabrda Qo'qon, Andijon va Jalolobod jamoalari o'rtasida futbol uchrashuvlari o'tkazildi. Futbol jamoalari ning uchrashuvlari o'sha vaqtarda Qo'qon va Andijon jamoalari, ayniqsa, kuchli bo'lganini ko'rsatdi.

1921-yilda Toshkentda "Olimp" birlashgan sport jamiyatni tashkil etildi. Bu o'sha davrda Turkistondagi eng yirik sport tashkilotlaridan biri edi. Mazkur jamiyatning futbol jamoasi ko'p yillar davomida O'rta Osiyodagi eng kuchli jamoalardan biri bo'lib hisoblanib keldi.

1921-yilda II O'rta Osiyo Olimpiadasi o'tkazildi. Bu Olimpiada dasturiga boshqa sport turlari bilan birga futbol ham kiritil-

gan edi. Olimpiadada Toshkentning futbol jamoasigina barcha uchrashuvlarni mag'lubiyatsiz o'tkazdi.

1924-yilda Turkiston futbol jamoasi birinchi marta Rossiya birinchiligidagi qatnashib, yuksak natija ko'rsatdi.

1928-yili Qo'qon musulmonlar jamoasi, Toshkent va respublikamizning boshqa jamoalari bilan o'tkazilgan shaharlارaro matchlarda qatnashdi.

1926-yil O'zbekistonga Sankt-Peterburg shahridagi Proletar zavodi futbol jamoasi keldi. Bu jamoa Toshkent futbolchilari bilan ikki marta uchrashdi. Ikkala uchrashuvda ham toshkentliklar (3:0 ; 5:2) g'olib chiqdilar.

1927-yil iyulda O'zbekistonda birinchi spartakiada o'tkazildi. Bunda futbol jamoalarini juda chiroyli o'yinlarni ko'rsatdilar. Birinchi o'rinni Toshkent futbolchilari, ikkinchi o'rinni farg'onaliklar egalladi. O'zbek futbolchilaridan iborat jamoalar o'rtasida esa farg'onaliklar birinchi, toshkentliklar ikkinchi bo'ldi.

Qo'qondagi Kamol va Husan Muhiddinovlar, Oxunjon Boymatov va Hosiljon Alimov kabi fidoyi kishilar tashkil etgan, keyinchalik toshkentlik Vladimir Dovjenko ustozlik qilgan jamoa shuhrati 1930-yillarda Turkiston o'lkasi bo'ylab keng tarqaldi.

1934-yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakiadasida O'zbekiston futbol bo'yicha ikki jamoa bilan ishtirok etdi. Biri "musjamoa", ikkinchisi respublika terma jamoasi; "musjamoa"ning yetakchi futbolchilaridan Husan va Qodir terma jamoa safidan joy olishdi.

Birinchi uchrashuvni turkistonliklar bilan o'tkazib 2:0 hisobida, keyin Tojikiston terma jamoasi ustidan 1:0 hisobida g'alaba qozonildi. Qirg'iz futbolchilari esa "musjamoa" bilan maydonga tushmaslikni afzal ko'rdilar. Musulmonlar jamoasi shu tariqa O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakiadasining g'olibi bo'ldi. Husan Muhiddinov, darvozabon Kimygarov va Jo'ra Xonazarov turnirning "Eng yaxshi futbolchilari" deb tan olindi.

1928-yilda Moskvada o'tkazilgan sobiq ittifoq spartakiadasida O'zbekiston Rossiya jamoasi bilan 2:2 hisobida durang qildi. Futbol championatida 23 jamoa Rossiyadan 12 jamoa, sobiq ittifoq respublikalaridan 5 jamoa va chet el sport delegatsiyalari (Angliya, Finlandiya, Urugvay, Shveysariya, Avstriya hamda Germaniya)ning 6 jamoasi qatnashdi. O'zbekiston jamoasi yettinchi o'rinni egalladi.

1928-yilda o'zbek futbolchilari bir qator o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazdilar. Masalan, Toshkentning KOR jamoasi Moskva championini 3:1 hisobida mag'lub etdi.

1929-yil qardosh respublika Zakavkazye bilan O'zbekiston o'rtaida futbol bo'yicha do'stlik uchrashuvi 3:1 hisobida O'zbekiston jamoasining g'alabasi bilan tugadi.

1931-yil 4-oktyabrda O'zbekiston sportchilari Toshkentga kelgan Norvegiya sportchilari bilan ilk bor uchrashdilar. Norvegiyalik futbolchilar O'zbekistonda uchta uchrashuv o'tkazdi. Birinchi uchrashuvda Toshkent terma jamoasi 4:2 hisobida g'alaba qozondi. Kasaba uyushmalari jamoasi bilan o'tkazilgan ikkinchi uchrashuvda norvegiyalik sportchilar 5:2 hisobi bilan g'olib chiqdilar. O'zbekiston terma jamoasi bilan bo'lgan uchrashuv 2:2 durang natija bilan tugadi.

1932-yili O'zbekiston sportchilari ikkinchi marta xalqaro uchrashuvda qatnashdilar. Bu safar O'zbekistonga Germaniya futbol jamoasi (ishchilar terma jamoasi) kelgan edi. Mehmonlar bilan ikkita match o'tkazildi. Toshkent shahri terma jamoasi bilan bo'lgan birinchi uchrashuvda o'zbekistonlik futbolchilar 4:2 hisobida g'olib chiqdilar. O'zbekiston terma jamoasi bilan bo'lgan ikkinchi uchrashuv ham o'zbek futbolchilari foydasiga hal bo'ldi (3:1).

Ikkinci jahon urushi yillarida respublika spartakiadalar bo'lib o'tdi; O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqaro spartakiadasi Olma-ota shahrida o'tkazildi, unda o'zbek futbolchilari birinchi o'rinni egalladilar.

1946-yilda Toshkentga Moskva "Lokomotiv" masterlar jamoasi kelib O'zbekiston terma jamoasi bilan o'rtoqlik

uchrashuvi o'tkazdi. Bu uchrashuvda O'zbekiston futbolchilari 3:0 hisobida g'alaba qozondilar. O'sha yili Toshkent "dynamo"chilari moskvalik klubdoshlarini qabul qildi. Bu uchrashuv durang bilan tugadi. Shuni aytish kerakki, O'zbekiston futbol jamoalari 1930-yildan boshlab faqat O'rta Osiyodagina emas, balki sobiq ittifoqda ham kuchli jamoalardan hisoblanib keldi.

Ayniqsa, 1947–1949-yillarda respublikada futbol yuksalayotgani yaqqol sezila boshladi. Bu davrda O'zbekiston futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi yaxshilanib, texnik va taktik jihatdan kamol topayotgani ko'zga tashlanib turardi. Biroq undan keyingi yillarda O'zbekiston futbolchilarining o'yin mahorati pasaya boshladi, bu esa respublikamiz yoshlari o'rtasida futbol yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligiga yetarli e'tibor berilmagani natijasi edi.

O'sha yillarda yoshlardan tuzilgan bir qancha kuchli jamoalar paydo bo'ldi. Masalan, 1947-yilda "Pishchevik" ko'ngilli sport jamiyatining yosh jamoasi respublika championi bo'ldi.

1947-yilda Toshkent Okrug ofitserlar uyining futbol jamoasi "II" klass magistrler jamoalarini o'rtasida sobiq ittifoq birinchiligi kiritildi. U O'rta Osiyo zonasida birinchi o'rinni ishg'ol qilib, zonalar g'oliblari o'rtasida o'tkazilgan final o'yinlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Futbol qishloq joylarda ham keng yoyila boshladi. Juda ko'p jamoa tuzilib, ular o'z mahoratini tinmay takomillashtira bordan. 1948-yilda Toshkent viloyatidagi "Polyarnaya zvezda" jamoasi futbol bo'yicha respublika championi bo'ldi. O'sha yilning o'zida O'zbekiston futbolchilari O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakiadasida g'olib chiqdilar. Toshkent ofitserlar uyini jamoasi sobiq ittifoq Qurolli Kuchlari championi dejan sharaflı nomga sazovor bo'ldi.

1951-yilda O'zbekistonning yoshlari jamoasi musobaqlarida muvaffaqiyatli qatnashib, O'rta Osiyo hududida birinchi o'rinni egalladi.

Shundan keyingi yillarda respublika birinchiliklari munisibat o'tkazib turildi va bu musobaqlarda O'zbekiston sha-

harlari jamoalari qatnashib keldi. 1953-yilda Toshkentdag'i yoshlari sport maktabining futbol jamoasi respublika championi nomini oldi. Bu yoshlari o'rtasida futbolni rivojlantirishdan dalolat berar edi. Respublika birinchiliklaridan tashqari har yili O'zbekiston kubogi uchun ham musobaqalar o'tkazilib kelindi. Bu musobaqalarda yil sayin ko'proq jamoalar qatnashadi. Masalan, 1954-yili O'zbekiston kubogi uchun o'tkazilgan musobaqalarda 300 dan ortiq jamoa qatnashdi.

1955-yil mavsumida O'zbekiston bilan Afg'oniston futbolchilari o'rtasida xalqaro uchrashuv bo'ldi. Bu uchrashuv 4:0 hisobida O'zbekiston futbolchilarining g'alabasi bilan yakunlandi. Keyingi yili O'zbekiston "Paxtakor" jamiyatining futbolchilari Efiopiya futbolchilarini qabul qildilar. G'oyat do'stona vaziyatda o'tgan bu xalqaro uchrashuv 3:0 hisobida "Paxtakor" jamoasining g'alabasi bilan tugadi.

1956-yilda O'zbekiston futbolchilari sobiq ittifoq xalqlari spartakiadasida qatnashib 12 o'rinni egalladi.

1962-yilda "Paxtakor" jamoasi sobiq ittifoq championati "A" klassida 6-o'rinni egallab, katta muvaffaqiyat qozondi. Lekin 1965-yil mavsumida 10-, 1966-yil 9- va 1967-yili 15-o'ringa tushib qoldi. 1968-yildagi kubok o'yinlarida ikkinchi o'rinni (Torpeda M – Paxtakor 1:0) oldilar.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin futbol yanada rivojlanishi bordi. O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994-yil 21-mayda tashkil topdi. O'zbekiston futbol federatsiyasi 14 ta hududiy va viloyat futbol federatsiyasini, 200 dan ortiq usta jamoalari, futbol klublari, sport makkablari, iqtidorlilar va terma jamoa tayyorlash markazlarini birlashtiradi. O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994-yil 7-iyundan boshlab FIFAGa, ya'ni Xalqaro futbol federatsiyasiga a'zo bo'ldi. Hududiy joylashuv jihatidan O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994-yil dekabr oyida Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK)ga a'zo bo'ldi. Shu yo'l bilan mamlakat futbol jamoalari yirik xalqaro turnirda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Jahon, Osiyo championatlari Olimpiada va Osiyo o'yinlari musobaqalarida ishtirok etish imkonini

yaratildi. O'zbekiston milliy terma jamoasi 1994-yilda Yaponiyaning Xirosima shahrida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida champion bo'ldilar. Bu yutuq O'zbekiston milliy terma jamoasining eng katta yutuqlaridan biri sanaladi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston milliy championati o'tkazilib kelinmoqda, unida Toshkentning "Paxtakor" jamoasi (1992, 1998, 2002, 2003, 2004, 2005, 2006) yillarda O'zbekiston championi, (1993, 1997, 2001, 2002, 2003, 2004, 2005, 2006) yillarda O'zbekiston kubog'i sohibi bo'ldilar. 2007-yil yanvar oyida Moskvada o'tkazilgan Mintaqil Davlatlar Hamdo'stligi kubogi musobaqasida qatnashib oliy o'rinni egallab kubok sohibi bo'ldilar. Farg'onanining "Neftchi" jamoasi, (1992, 1995, 2001)-yillarda O'zbekiston championi, (1994, 1996)-yillarda O'zbekiston kubogi sohibi; Namanganning "Navbahor" jamoasi (1996-yil) O'zbekiston championi, (1992, 1995, 1998)-yillarda O'zbekiston kubogi sohibi; Toshkentning MHSK futbol jamoasi (1997-yilda) O'zbekiston championi bo'ldilar.

O'zbekiston futbol jamoalaridan Toshkentning "Paxtakor", Farg'onanining "Neftchi" hamda Qarshining "Nasaf" futbol jamoalari Osiyo futbol konfederatsiyasi tomonidan o'tkaziladigan Osiyo championlar ligasi musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtiroketib kelishmoqda. 2002-yil Qarshining "Nasaf" jamoasi Osiyo championlar kubogi musobaqasining saralash o'yinlarida h tasida g'alaba qozonib yarim finalda Eronning "Istiqlol" jamoasiga 2:5 hisobda mag'lubiyatga uchrab 4-o'rinni egalladilar. 2003-yil Toshkentning "Paxtakor" jamoasi Toshkentda bo'lib o'tgan Osiyo championlar ligasida Turkmanistonning "Nurz" jamoasini 3:0, Eroining "Peruza" jamoasini 1:0 va Iroqning "Al - Toliba" futbol jamoasini 3:0 hisobda mag'lubiyatga uchratib yarim finalda Taylantning "Bek - Tero Sosana" futbol jamoasiga 2 o'yin natijasiga ko'ra imkoniyatni boy berdi. 2002-2003-yillarda 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilardan iborat bo'lgan O'zbekiston yoshlar terma jamoasi, Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan Jahon championatining final ishtiroketini bo'ldilar. Milliy terma jamoamizning bu muvaffaqiyati

Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda futbolni rivojlantirish to'g'risidagi chiqarilgan qarorlariga javob beradi.

Mustaqillikdan so'ng Vazirlar Mahkamasi futbolni rivojlantirish uchun qarorlar qabul qildi. 1993-yil 18-martdag'i 144-sonli "O'zbekiston Respublikasida futbolning keyingi istiqbollarini belgilash to'g'risida"gi qarori, 1996-yil 17-yanvardagi 27-sonli "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori, 1998-yil 16-iyul 238-sonli "O'zbekistonda futbol taraqqiyoti jamg'armasining faoliyatini yaxshilash va uni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi" qarori, 2006-yil 1-maydag'i "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori Respublikamizda ko'plab futbol mакtablari, maxsus sport mакtab internatlari, bolalar va o'smirlar-sport mакtablарining ochilishi O'zbekistonda futbolni rivojlantirish uchun olib borilayotgan ishlarning dalilidir. 2007-yil 28-martda Xalqaro futbol federatsiyasi prezidenti Yozif Blater va Osiyo futbol konfederatsiyasi prezidenti Muhammad Bin Hammam O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ular O'zbekistonda futbolni rivojlantirish uchun olib borilayotgan ishlarning ya'ni yangi o'yingohlarni ko'zdan kechirdi va olib borilayotgan ishlarga yuksak baho berdi. Tashrif mobaynida Xalqaro futbol federatsiyasi prezidenti Yozif Blater va Osiyo futbol konfederatsiyasi prezidenti Muhammad Bin Hammam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bilan uchrashdilar hamda futbolni rivojlantirish uchun kelgusi ishlarni rejalashtirib oldilar. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov xalqlar o'rtaсидаги do'stlikni mustahkamlash va xalqaro sportga qо'shgan buyuk hissasi uchun Xalqaro futbol federatsiyasi prezidenti Yozif Blaterga "Do'stlik" ordeni, Osiyo futbol konfederatsiyasi prezidenti Muhammad Bin Hammamga "Shuhrat" medali topshirdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Futbol so'zi qanday so'zlardan tashkil topgan?
2. Nechanchi yildan boshlab o'smirlar uchun UEFA championati o'tkazila boshlandi?

1. Nechinchil yili O'zbekiston yoshlar jamoasi O'rta Osiyo hududida
birinchi o'tinni olishgan?

2. Nechinchil yili O'zbekiston – Germaniya ishchilar terma jamoasi
o'rtesida match o'tkazildi?

II BOB. FUTBOL O'YINI TEXNIKASI

Qu'yilgan maqsadga erishmoq uchun o'yinda xilma-xil
turda qo'shib turib qo'llaniladigan maxsus uslublar to'plami
Futbol texnikasini tashkil etadi.

Texnik uslublar – bu futbol o'yinini vujudga keltirish vo-
qani demak. Yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihat-
dan futbolchining ana shu xilma-xil vositalarni qanchalik to'liq
bilsiga, raqib jamoa o'yinchilari qarshilik ko'rsatayotgan,
bo'pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitda o'yin
faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bi-
lin, samarali qo'llanishga bog'liq. Futbol texnikasini yaxshi
hilish futbolchining har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi
va garmontik kamol topishidagi ajralmas qismdir.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi mobayni-
du futbol texnikasida muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Bu evol-
yutsiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
hochching chakka qismi va orqasi bilan zarba berish, to'pni
bilish bilan to'xtatish singari noratsional uslub va usullar-
ning qo'llanishi ancha kamayib ketdi; oyoq yuzi bilan zarba
berishdan, to'pni son va ko'krakda to'xtatishdan, to'pni qo'l
bilish ta'lash (darvozabon texnikasi)dan foydalanish koef-
ficienti o'hdi, aldash harakatlari (fintlar) ko'paydi.

Hozirgi futboldagi texnik uslublar o'yin harakatlari tezli-
gi va amqligini oshirish uchun kuchdan yetarlicha tejab foy-
dalanish imkonini beradigan, biomexanika nuqtayi nazaridan
mog'bul harakat tizimi bilan xarakterlanadi. Tez va ishonch-
li, odda va samarali bo'lsin! Futbol texnikasini qo'llashga
qu'yiladigan hozirgi kundagi talab ana shundan iborat.

Futbol texnikasining tasnifi texnik uslublarni umumiy (yoki o'xhash) o'ziga xos belgilariga qarab guruhlarga bo'linadi.

O'yin faoliyati xarakteriga qarab futbol texnikasida ikkita yirik bo'lim ajratiladi: maydon o'yinchisi texnikasi va darvozabon texnikasi. Har qaysi bo'lim esa quyidagi: harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi bo'limchalariga bo'linadi. Kichik bo'limlar turli usullarda ijro etiladigan aniq texnik uslublardan: harakatlanish texnikasi uslublari va usullardan iborat. Bulardan maydon o'yinchilari va darvozabon foydalanadi. Ammo ayrim uslub va usullar o'zining muayyan turlariga ega. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiy bo'lib, detallaridagina farq bo'ladi. Har xil usul va turlarni ijro etish shartlari futbol texnikasini yanada turli-tuman qiladi.


O'rganilayotgan materialni tizimlashtirish, uslub, usul, turlarni yaxshi tushunishga, ularni to'g'ri tahlil qilishga, ta'lif va olingan bilimlarni takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradigan Futbol texnikasining xarakteristikasi maydon o'yinchisi va darvozabon uchun umumiy kichik bo'lim bo'lgan harakatlanish texnikasidan boshlanadi.

Futbolda harakatlanish texnikasi

Harakatlanish texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: yugurish, sakrash, to'xtash, burilish (1-chizma).

O'yin vaqtida harakatlanish texnikasi uslublaridan xilma-xil tarzda qo'shib foydalaniladi. Yugurishning xilma-xil uslublarini – sakrash, to'xtash, burilish bilan birga qo'shib olib borish futbolchi harakatlanishiga xos xususiyat hisoblanadi.

Harakatlanish texnikasining uslublari maydon o'yinchilari va darvozaboning to'pni boshqarish san'ati bilan chambarchas bog'liq. Harakatlanish texnikasi uslublarini keragicha hamda kompleks tarzda qo'llash ko'p taktik vazifalarni (to'p olish uchun ochilish va raqibini chalg'itish, pozitsiya tanlash, o'yinchini to'sib olish va h. k) samarali hal qilish imkonini beradi.



Yugurish futboldagi asosiy harakatlanish vositasidir. To'pni boshqarayotgan futbolchilar yugurish yordamida maydonda turlicha joylashib oladilar. Bundan tashqari yugurish to'lib qism sifatida to'pni boshqarish texnikasiga ham hizadi.

Futbolda yugurishning quyidagi uslublari qo'llaniladi: shabliy yugurish, tisarilib yugurish, chalishtirma qadam tashlab yugurish, juftlama qadam tashlab yugurish.

Oddiy yugurishdan asosan to'g'riga borayotgan o'yinchilar bo'sh joyga chiqish, raqibni quvish va hokazolarda foydalanadi. Harakat tizimi ham tuzilishi ham yengil atletika yugurishidan farq qilmagani uchun uni oddiy yugurish deyildi. Qadam uzunligi, chastotasi va ritmidagina farqi bor, xolos.

Yugurish qadaming uzunligi sprinterlarda 2-2,2 m ga teng bo'lsa, katta yoshli futbolchilarda o'rtacha 1,3-1,5 m ga teng. Qadamlar chastotasi sprinterlarda sekundiga 4-4,5 qadamga teng. Futbolchilarda chastota sal ortiqroq, sekundiga 5,1-5,5 qadam bo'ladi. Bu esa, havoda uchish fazasi qisqaroq bo'lgani sababli tez to'xtashga yoki tez burilib oshishga yordam beradi.

Tisarilib yugurishdan asosan to'pni olib qo'yishda va to'sib olishda qatnashayotgan himoyadagi o'yinchilar foydalanadilar. Yugurishning bu turi hamsiklik (qo'shaloq qadamli) bo'ladi. Qisqa-qisqa, lekin tez-tez qadam tashlash, havoda uchish fazasining qariyb yo'qligi unga xos xususiyatdir. Buning sababi siltanish oyog'i orqaga uzatilganda sonning yozilishi cheklangan ekanidadir.

O'yin sharoiti ko'pincha maksimal tezlikda tisarilib yugurishni talab qilib qoladi. Bunda tezlik qadam chastotasini oshirish hisobiga ortadigan bo'lib, bu ko'proq oyoqning orqaga faol harakat qilishiga bog'liq.

Tisarilib yugurayotganda o'yinchi ba'zan muvozanatni yo'qotib yiqilib tushadi. Tayanch oyoq vertikal turgan paytda gavdaning og'irlilik markazi o'qi tayanch yuzasining tepasida turishi o'yinchining holati turg'un bo'lishi shartlaridan biridir.

Chalishtirma qadam tashlab yugurishdan harakat yo'nalishini o'zgartirish uchun turgan joydan o'ngga yoki chapga siltanib yugurish paytida burilib olgandan keyin foydalanildi. U harakatlanishning o'ziga xos vositasi bo'lib, asosan boshqa yugurish turlari bilan birga qo'shib qo'llaniladi.

Chalishtirma qadam tashlab yugurish yon tomonga bajariladigan yugurish qadamlari bilan xarakterlanadi. Qadam tash-

Jadid siktining birida sultanuvchi oyoq tayanch oyoqning oldiga
chotib hujriib o'tkaziladi. Yugurish paytida havoda uchish fazasi
yana qopqa.

Juttlama qadam tashlab yugurishdan taktik jihatdan kerak-
li bo'libdi o'tishda (masalan, o'yinchi oldini to'sib olishda) foy-
dalantildi. U dastlab harakatlanish fazasi sifatida foydalanila-
di. Keyinroq o'yindagi vaziyatga qarab, harakatlanish texnikasi-
ning turli uslublari sifatida ijro etiladi.

Juttlama qadam tashlab yugurish oyoqlarni sal bukib ba-
niladi. Birinchi qadamni harakat yo'nalishiga yaqin oyoq-
dan bo'liblab, yon tomonga tashlanadi. Ikkinci qadamda oyoq-
dar juttlonadi. Depsinish va siltanish harakatlarida zo'r berish
yup'i tomonga emas, balki yon tomonga yo'naltiriladi.

Sakrash. To'xtash va burilish uslublarining ba'zilarini ijro
bo'libda sakrashdan foydalilanadi. Sakrash zarba berishning ay-
tilmalarini, to'pni oyoqda, ko'krakda, bosh bilan to'xtatib qol-
ishi va ba'zi holdagi fintlar texnikasining tarkibiy qismlaridan
biriga kiradi. O'yinda oldinga, yon tomonlarga, yuqoriga ham-
da shubarga yaqin turadigan yo'nalishlarda sakraladi. O'yindagi
vaziyat bo'p vaqtarda maksimal baland yoki maksimal uzun
uslubi bo'lib talab qilmaydi. Bunda sakrashning samaradorli-
gi futilol o'ynayotgan odamning koordinatsion qobiliyati bi-
lom bolqilaniadi va futholchi o'zining turli dastlabki holatlardan
bo'lib, vaqt va kuch xarakteristikalarini optimal holatida bo'lgan
harakatlari qilishi kerak bo'ladi.

Barcha xil sakrashlarda depsinish, havoda uchish va yerga
tushish fazalari bo'ladi.

Sakrashning ikki xil uslubi mavjud: bir oyoqda depsinib
sakrash va ildd oyoqda depsinib sakrash.

Bir oyoqda depsinib sakrash oldinga, yon tomonlarga, yu-
qoriga bo'jortildi. Bunday sakrashda faol depsinib, ikkinchi
oyoqni silsilib, gavda og'irlik markazining o'qi sakrash tomon-
iga o'ttib iladi. Sakrashning trayektoriyasi va kuchi o'yindagi
vaziyatiga bog'liq. Bir oyoqda yoki ikki oyoqda yerga tushila-
di. Qiziq maofali, qattiq amortizatsiya keyingi harakatlarga
berorligi va samaraliroq o'tish imkonini beradi. Og'irlik markazi

o'qining proyeksiyasi tayanch yuzasining chegarasida yoki undan tashqarida bo'lishi ham shunga yordam beradi.

Sakrab to'pga bosh urayotganda ko'pincha maksimal baland ko'tarilish kerak bo'ladi. Bunda yugurib kelibdepsinadigan oyoqni taqqa to'xtaydigan qilib (tayanchga nisbatan burchak hosil qilib) qo'yish yordam beradi. Sal cho'qqaygandan keyin yuqoriga yoki yuqorilab oldinga tomon faol depsinish kerak bo'ladi, bunda qo'llarni ko'krak baravar silkitib ko'tarish depsinishning samarasini oshiradi.

Ikki oyoqda depsinib sakrash – bunday usul bilan oldinga, oldinlab yon tomonga va oraliq yo'nalishlarida sakraladi.

Turgan joydan sakraganda o'yinchi depsinish oldidan tezda salgina cho'nqayadi. Oyoqlarini faol to'g'rilash bilan birga gavda og'irlilik markazining o'qi sakrash tomoniga o'tkaziladi va qo'llar silkitiladi. Yugurib kelib sakrayotganda so'nggi qadamda bir oyoqni taqqa to'xtaydigan qilib qo'yiladi. Cho'nqayish paytida ikkinchi oyoq birinchisi yoniga tezlik bilan juftlanadi. Depsinish havoda uchish va yerga tushish fazalari turgan joydan sakragandagi kabi bo'ladi.

To'xtash – harakatlanish texnikasida to'xtashga harakat yo'nalishini o'zgartirishning samarali vositasi deb qaraladi. To'satdan to'xtab qolganda, raqiblarning qayerda, qanday joylashganiga qarab turib to'p bilan ham, to'psiz ham o'sha ketayotgan tomoniga qarshi tomonga otilib ketiladi, o'ngga yoki chapga ochib qolinadi.

To'xtashda ikki xil uslub vositasi qo'llaniladi: sakrab to'xtash va tashlanib to'xtash.

Sakrab to'xtash uchun sal yuqoriga qisqaroq sakrab, siltangan oyoqda yerga tushiladi – bunda turg'unlik bo'lishi uchun shu oyoq sal egiladi. Ammo ko'pincha yerga ikki oyoq lab tushiladi.

Tashlanib to'xtash so'nggi yugurish qadami hisobiga hajariladi. Bunda siltangan oyoqni oldinga uzatib, tovonga tiralnadi-da, keyin oyoq rostmana yerga qo'yiladi. Tashlanib to'xtash oyoqlarni anchagina bukib, ikki oyoqqa tayanib qolish bilan xarakterlanadi.

Burilish bilan to'xtashlardan keyin, odatda, turli yo'nalishlarda harakat davom ettiriladi. Shuning uchun to'xtashdagi so'nggi holati harakatning start holati bo'lishi kerak.

Burilish – burilish yordamida futbolchilar tezlikni minimal hoziraytirib, yugurish yo'nalishini o'zgartiradilar. Odatda, turpox joyda burilgandan keyin start harakatlari boshlanadi. Burilish, shuningdek, zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni qidirish va fintlarning ayrim usullarini bajarish texnikasi turilishiha ham kirdi.

Burilishning quyidagi uslublaridan foydalilanadi: hatlab burilish, sakrab burilish, tayanch oyoqda burilish. O'yin shartiga qarab yon tomonlarga va orqaga burilish mumkin. Burilish turgan joyda ham, harakat paytida ham bajarilavera-

Hatlab o'tib burilganda qisqa-qisqa 2-3 qadam tashlash kerakli yo'nalishga qarab olinadi.

Harakat yo'nalishini to'satdan va tez o'zgartirishda sakrab burilish samaraliroqdir. Bu ish burilish tomonga faol depsiyot qilishadi. Silkinch oyoqning kafti ham shu tomonga aylanishadi. Salorash unchalik baland bo'lmasa ham to'la-to'kis bajariladi.

Tayanch oyoqda burilishning ikki turi bor. Birinchisi bo'rnich yo'nalishidan uzoqdagi oyoqqa tayanib burilinadi. Dundo futbolchi gavda og'irlik markazi o'qining proyeksiyalari tayanch sath chegarasidan chiqarib, tayanch oyoq uchida burilish tomonga aylanadi. Ikkinchisida harakat yo'nalishiga yaroq oyoqqa tayanib burilinadi, gavda og'irlik markazining uqi burilish tomonga ko'chadi. O'tkaziladigan oyoqni ham shu yo'nalishda tayanch oyoqning old tomoniga chalishtirib qo'yildi. Burilish sal bukilgan tayanch oyoq uchida bajariladi.

Maydon o'yinchisining texnikasi

Maydon o'yinchisining texnikasi ikkita kichik bo'limdan iborat. Birularidan biri harakatlanish texnikasi bo'lsa, ikkinchisi to'pni bo'hojarish texnikasidir.

Maydon o'yinchilari harakatlanish texnikasining yuqorida tahlil qilingan xilma-xil uslublari, usul va turlarining barchasidan foydalanadilar.

To'pni boshqarish texnikasiga quyidagi uslublar guruhi kiradi: zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish, aldash harakatlari (fintlar), to'pni olib qo'yish. Bundan tashqari, qo'lida bajariladigan spetsifik usul - yon chiziqning nariyog'idan to'pni tashlab berish ham to'pni boshqarish texnikasiga kiradi.

O'yin vaqtida qaysi usul qancha miqdorda ijro etilishi futbolchilarning o'yindagi funksiyalariga bog'liq. Usullarning ijro etish sifati esa maydon o'yinchilarining hammasida yuksak darajada bo'lishi kerak.


To'pga zarba berish

To'pga zarba berish futbol o'ynashning asosiy vositasi hisoblanadi. To'pga oyoq va bosh bilan turli usullarda zarba beriladi. Zarba berishning ta'snifi berilgan (2-chizma).

Zarba berishning barcha usullari muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, bu to'pning keraklicha trayektoriya bo'y lab harakatlanishi va optimal (ko'pincha esa maksimal) tezligi bilan xarakterlanadi. To'pning uchish tezligi zarba beruvchi bo'g'in (oyoq yoki bosh) bilan to'pning o'zaro to'qnashgan paytdagi boshlang'ich tezligiga, shuningdek, ular massasining bir-biriga nisbatiga bog'liq. O'zaro ta'sir etuvchi bo'g' inlarning massasi nisbatan muhim bo'lgani sababli to'pning uchish tezligini oshirish uchun, zarba beruvchi bo'g'in tezligini oshirish kerak bo'ladi. To'pga oyoq bilan zarba berish oyoq kaftining ichki tomoni bilan, oyoq yuzining ichki, o'rta va tashqi qismlari bilan, oyoq uchi bilan, tovon bilan bajariladi. ZARBALAR harakatsiz turgan to'pga, shuningdek turli yo'nalishlarda dumalab va uchib kelayotgan to'pga turgan joydan, harakat vaqtida, sakrab turib, burilib, yiqila turib beriladi.


Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepish asosan qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishda, shuningdek mo'ljalga yaqin masofadan tepilayotganda qo'llaniladi. (1-rasm).

ZARBA BERISH TEXNIKASI



Turli trayektoriya va turli yo'nalish bo'ylab yumalab va uchib
ketayotgan to'pga turgan joyda, harakat vaqtida, sakrab turib,
boshdan oshirib

J-chizma. Zarba berish texnikasi tasnifi



**1-rasm. Oyoq kaftining
ichki tomoni bilan
zarba berish**

Shunday zarba berish texnikasi ning ba'zi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Yugurish boshlanadigan joy, to'p va mo'ljal (nishon) taxminan bir chiziqda bo'ladi. Zarba beruvchi oyoqni orqaga tortish so'nggi yugurish qadamidagi ortki depsinish hisobiga bajariladi.

Tepish harakati sonni oldinga bukish bilan bir vaqtida zarba beruvchi oyoqni tashqari tomon burish dan (supinatsiyadan) boshlanadi.

Zarba berish paytida taranglangan oyoqning uchi tashqari tomon burilgan, uning kafti esa to'p uchadigan yo'naliishga nisbatan aniq to'g'ri burchak hosil qilgan bo'lishi kerak. Oyoq uchi sal ko'tarilgan bo'ladi. Zarba berish oyoq kafti ichki sathining o'rtasi bilan ijro etiladi. Oyoqning zarba berish vaqtidagi holati surib borish vaqtida ham saqlanib qoladi.

Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepilganda to'pga oyoqning kattaroq sathi tekkani uchun bunday tepish anchaganan aniq bo'ladi. Biroq zarba beruvchi oyoqning orqaga tortilishi maksimal darajaga yetmagani sababli, bu usulda berilgan zarboning kuchi boshqa usullardagiga nisbatan kamroq bo'ladi. Bu esa tosson bo'g'imining chekka holatdagi baquvvat paylari yozilayotganda son suyagi boshini bo'g'in chuqurchasiga siqib, sonning zarba berish harakati uchun zarur bo'lgan supinatsiyasini yo'q qilib qo'yishi bilan bog'liq.

Oyoq yuzining ichki qismi bilan zarba berish "o'rtacha" va "uzun" uzatishlarda, darvozaning uzunasiga "o'qdol" berishlar va hamma masofalardan nishonga tepish paytlarida qo'llaniladi (2-rasm).

Mazkur zarboni bajarishda to'p va nishonga nisbatan 45° hosil qilib yugurib kelinadi. Yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xususiy chetlanishlar 30° dan 60° gacha bo'lishi mumkin. Bunda zarba beruvchi oyog'ining orqaga tortilishi maksimal darajaga yaqin

bo'ladi. Tepish sal bukilgan oyoqning qo'shiq kafiting tash-
qisini yerga qo'ylladi. Gav-
da tayanch oyoq tomonga sal
moxchiladi. Tepish harakati
oldinga yuzining ichki qismi bilan boshlanib,
moxchilayotgan lekin yozib yu-
shish bilen tugaydi. Oyoq
ichki pastga cho'zilgan, oyoq
tarang bo'ladi. Zarba paytida
tizza bo'g'imini bir-
turuvchi quruvchi shartli o'q frontal tekislikda og'ibroq turadi.
Ain shart, shuningdek zarbani to'pning o'rta qismiga be-
rash qo'shilishi to'p past trayektoriya bo'ylab uchadi. Oyoq yuzi-
ning o'rta qismi bilan tepishni bajarish ko'p jihatdan oyoq ich-
ki qismi bilan tepishga o'xshaydi, lekin uni bajarish detallari bir
marta qiladi.

Yugorib kelish chizig'i, to'p va nishon taxminan bir chiziq-
da bo'ladi. Oyoqni orqaga tortish ham, zarba berish harakati
ham qat'yan sagittal tekislikda (oldinga-orqaga yo'naliishida)
bajariladi. Tayanch oyoqning tovoni to'pning yon tomoni
o'qyladi – bunda oyoq bilan to'p baravarlashadi. Tepish
harakati davomida to'p tayanch oyoq kafti tovonidan yumalab
uchib bo'lariлади. To'p bilan tizza bo'g'imini birlashtirib turuv-
chi shartli o'q zarba paytida qat'yan vertikal bo'ladi. Bu holat
moxchilayotgan vaqtida saqlanib qoladi.

To'p bilan oyoqning to'qnashish sathi kattagina ekani zar-
ba berishni anchagina aniq bajarish imkonini beradi. Yugurib
kelish, oyoqni orqaga tortish va tepish bir tekislikda bajarilga-
nidan ham harakat sistemasi biomexanika jihatidan kerakligicha
oldiladi hemda boshqa usullardagiga nisbatan kattaroq kuch
moxchiladi. Biror oyoq yuzining o'rta qismi bilan tepilganda
oyeq ochi malzimal darajada pastga tortilgan bo'lishini yodda
turish kerak. Duning natijasida oyoq kafti yerga tegib ketib, oy-

oq og'rishi va lat yeishi mumkin. Bu esa ehtiyyot tormozlanish oqibatida ko'pincha harakat amplitudasi o'zgarishiga, zarba kuchi kamayishiga, uning samaradorligi pasayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Oyoq yuzining tashqi qismi bilan tepish burama zarba berish paytida eng ko'p qo'llaniladi. Oyoq yuzining o'rta va tashqi qismlari bilan tepishdagi harakatlarning strukturasi o'xshash bo'lib, farqi bunda tepish harakati vaqtida boldir bilan oyoq kafti qismi ichkari tomonga qarab buriladi (3-rasm).



**3-rasm. Oyoq yuzining tashqi qismi bilan
tepish, burama zarba berish**

Kutilmaganda, tayyorgarlik ko'rmay turib, nishonga tepib qolish zarur **Oyoq uchi bilan zarba** bo'lib qolganda bajariladi (4-rasm). Bundan tashqari bu tepish raqibdagi to'pni tashlanib yoki shpagat qilib tepib yuborishda ancha samaralidir.



4-rasm. Oyoq uchi bilan zarba

Zarba vaqtida yugurib kelish ham, to'p va nishon ham bir chiziqdida bo'ladi. Yugurib kelganda o'nggi qadamdagagi depsinish, tepish uchun oyoqni tortish ham hisoblanadi. Tepish harakati tizza sal bukilgan tarang oyoqda bajariladi. Tepish paytida oyoq uchi sal ko'tarilgan bo'ladi.

Oyoq uchining zarba beruvchi sathi juda kam bo'lgani uchun bu usulda, ayniqsa, to'p yumala bosh kelayotgan bo'lsa, tepish undalik aniq chiqmaydi.

Harakatsiz to'pni tepish. Boshlang'ich, jarima va erkin to'p tepish, burchakdan to'p tepishda, shuningdek darvozadan to'p tepishda o'yinchi harakatsiz yotgan to'pni tepadi. Zarba berishning barcha usullaridagi ijro texnikasining yuqorida zikr ettilgan struktura xususiyatlari harakatsiz yotgan to'pni tepishga ham to'lig'icha taalluqli bo'lib, faqat taktik vazifalar qandayligiga qarab tayyorlov fazasida yugurib kelishning uzoq-qisqaligi va tezligi har xil bo'ladi (5-rasm).



5-rasm. Harakatsiz to'piga zarba berish

Dumalab kelayotgan to'pg'ina zarba berish. Dumalab kelayotgan to'pni tepishda ham zara berish asosiy usullari va turlarining hammasi qo'llaniladi.

Bunday zarba berishdagi texnik harakatlar yerda harakatsiz yotgan to'pni tepishdagi harakatlardan farq qilmaydi. Asosiy vazifa o'z harakati tezligini top harakatining yo'nalishi va tezligi bilan muvofiqlashtirib olishdan iborat. To'pning quydagi asosiy harakat yo'nalishlari bor: o'yinchidan nari ketish, o'yinchi ro'parasidan, yon (ong va chap) tomonidan, shuningdek shu yo'nalishlar oralig'ida kelish.

Tayanch oyoqni yerga qo'yish, ya'ni kichik fazani qanday bajarishning xususiyatlari ana shu yo'nalishlarga qarab belgilanadi. O'yinchidan nariga dumalab ketayotgan to'pni tepishda tayanch oyoq to'pdan nariroq otkazilib uning yon tomoniga



6-rasm. Dumalab kelayotgan to'pga zarba berish

qo'yiladi. Ro'paradan dumalab kelayotgan to'pni tepishda tayanch oyoq to'pga yetib bormaydi. Agar to'p yon (o'ng yoki chap) tomondan dumalab kelayotgan bo'lsa, uni to'pga yaqinroq oyoq bilan tegpan ma'qul (6-rasm).


Hamma hollarda ham tayanch oyoqni to'pdan qancha oraliqda qo'yish to'pnинг harakat tezligiga bog'liq bo'lib, buni zarba berish harakati vaqtida to'p tayanch oyoq bilan tenglashib qoladigan qilib mo'ljallash kerak. Ana shu holat zarba berish uchun eng qulay hisoblanadi.

Bosh bilan zarba berish

Bu texnik uslub yo'lidagi muhim vosita hisoblanadi. To'pga bosh qo'yish o'yin jarayonida yakunlovchi zarba berishda ham, sheriklarga to'p oshirishda ham qo'llaniladi.

Peshona bilan zarba berish va shuning variantlari bu lubdagagi eng ko'p foydalilaniladigan usullardir. Shuning uchun o'yindagi vaziyatga qarab peshona bilan zarba berishning ikki xil varianti qo'llaniladi: sakramay zarba berish va sakrab zarba berish.

Sakramay peshona bilan zarba berishdagi (7-rasm) dastlabki holat kichikroq (50-70 sm) odimlab tik turishdir. Boshni orqaga tortishda o'yinchi gavdasini orqaga engashti radi, orqadagi oyog'ini bukib, gavda og'irligini shu oyodqa o'tkazadi. Qo'lllar tirsakdan sal bukilgan bo'ladi.



7-rasm. Sakramay peshona bilan zarba berish

Zarba berish harakati orqada turgan oyoqni to'g'rilash va qabul qilishdan boshlanib, boshning olg'a tomon keskin abdi bilan tugallanadi. Gavdaning og'irligi oldindagi oyoq o'zgarishi.

Qolroq peshona bilan zarba berish (8-rasm) bir oyoqda qolroq peshona bilan depsinib, yuqoriga qarab bajariladi.



8-rasm. Sakrab peshona bilan zarba berish

To'pnli to'xtatish


To'pnli to'xtatish to'pni qabul qilish va egallash vositali bo'lib xizmat qildi. To'xtatishdan maqsad keyingi kerakli omidga oshirish uchun dumalab va uchib kelayotishga to'sligini so'ndirishdan iborat. "To'pni to'xtatish" nomi haqida "to'pni moslash", "to'pni qabul qilish" deb yuriqilishi ma'noda tushunish kerak bo'ladi. Shuning uchun to'xtatish usullarini ko'rib chiqayotganda futbolchi buenday to'xtatib olmay, balki uni keyingi harakatlariga qarab uchun moslab (o'tkazib) olishini nazarda tutamiz.

To'pnli oyoq bilan, gavda va bosh bilan to'xtatiladi. To'pnli oyoq bilan to'xtatishning taqinli berilgan (3-chizma).

To'pnli oyoq bilan to'xtatish – eng ko'p qo'llaniladigan to'xtatish. U turli usullarda bajariladi. Oyoq kaftining ichki qismidan, tag charmi, oyoq yuzi, o'rta qismi, son, oyoq yuqorida qol, oyoq lafti tashqi tomoni, ko'krak, qorin, peshona bilan to'xtatish. Harakatning asosiy fazalari hamma usullar bo'lib qolayotgan.

Oyoq laftining Ichki tomoni bilan to'p to'xtatish yumaqda qolayotgan to'plarni qabul qilishda qo'llaniladi.

To'xtatuvchi yuza bilan amortizatsiyalash yo'li anchagina katta bo'lgani sababli bu to'xtatish usulining ishonchlilik darajasi katta bo'ladi (9-rasm).



3-chizma. To'pni to'xtashish usullari tasnifi

Dumalab kelayotgan to'pni
dastlabki holat to'p to-qash turish. Gavda og'irligi sal tayanch oyoqda. To'xtatuvchi
og'ri tomon (to'p qarshisiga) uza-
qan tashqariiga 90° buriladi.
Bo'tarilgan bo'ladi.

To'p bilan oyoq kafti to'qnashgan payt-
da to'xtatuvchi oyoq tayanch oyoq dara-
qinda qadar orqaga oltndi. To'xtatuvchi
ichki yuzasining o'rtasiga to'g'ri keladi.


Yanib, ya'ni tizza baravar uchib kelayotgan to'pni
harakatlardan dumalab kelayotgan to'plarni
harakatlardan unchalik farq qilmaydi. Biroq past
to'pni to'pni to'xtatadigan oyoq tayyorlov fazasida
balandligiga qadar bukiladi.

Uchib kelayotgan to'plar sakrab to'xtatiladi. Bir
depsinib, yuqoriga sakraladi. To'xtatuvchi
tizza bo'g'implari qattiq bukiladi. Oyoq kafti
hurladi. To'p to'xtatilgandan keyin bir oyoq-
hurladi.

Tugcharm bilan to'p to'xtatish dumalab kelayotgan
turhayotgan to'plarni to'xtatishda qo'llaniladi.

Dumalab kelayotgan to'pni
doctlabdi holat – to'p to-qash turish, gavdaning og'irligi ta-
yanch oyoqda. To'p yaqinlashib qolganda
qolaychi orqal tizzadan bukilib to'p to-
qash qilib. Kaftining uchi $30-40^{\circ}$ yoziq
(bo'lar qilg'an) bo'ladi. Tovon yer yu-
llanadi. 10 sm yuqoriqoda turadi.

To'p bilan tugcharm to'qnashgan paytda
og'ri orqaga sindiruvchi harakat qilina-
di. Farqa bu shahzhetayotgan to'pni tagcharm



**9-rasm. Oyoq kaftining ichki tomoni bi-
lan to'p to'xtatish**



**10-rasm.
Tagcharm bilan to'p to'xtatish**

bilan to'xtatish uchun uning yerga tushadigan joyini aniq mo'ljal qila bilishi kerak. To'xtatuvchi oyoq tizzadan bukilib, to'p tushadigan joy tepasiga keltiriladi, oyoqning uchi sal ko'tarilgan, ammo oyoqning o'zi biroz bo'shattirilgan bo'lishi kerak. To'pni u yerga tekkan paytda to'xtatish mumkin. Bunda oyoq kafti to'pni yerga qisib qoladi (lekin bosib yurolmaydi).

Oyoq yuzi bilan to'p to'xtatish keyingi yillarda keng tarqalgan bo'lib, harakat tizimini aniq idora qilishni talab etadi. To'xtatuvchi yuza, ya'ni oyoqning yuzi anchagina qattiq va o'lchami kichik bo'lgani sababli harakat tuzilishida salgina adashish yoki to'pning trayektoriyasi va tezligini noaniq mo'ljallash to'xtatishda jiddiy xatoga olib keladi.

Oyoq yuzasi bilan ko'pincha o'yinchining oldiga kelib tu-shayotgan to'p to'xtatiladi. Pastlab kelayotgan, ya'ni trayektoriyasi past to'pni to'xtatishda tos-son va tizza bo'g'imlari taxminan 90° bukilgan to'xtatuvchi oyoq oldingga uzatiladi. Uning uchi buzik (pastga tortilgan). To'p bilan oyoq yuzi to'qnashgan paytda (to'p juda tez kelayotganda esa sal oldinroq) orqaga amortizatsiyalovchi harakat qilinadi. To'xtatuvchi sath oyoq yuzining o'rta qismiga to'g'ri keladi.

Baland trayektoriyali, tushib kelayotgan to'pni to'xtatishda to'xtatuvchi oyoqning kafti yerga parallel turadi. To'p oyoq yuzining pastki qismiga (barmoqlarga yaqin joyga) tushiriladi. Pastlatib orqaga tomon so'ndiruvchi harakat qilinadi.

Son bilan to'p to'xtatish hozirgi futbolda ko'p qo'llaniladi. Buning sababi shundaki, tushib kelishdag'i trayektoriyasi har



11-rasm. Son bilan
to'p to'xtatish

xil to'plarni son bilan to'xtatish mumkin. Bundan tashqari, to'xtatuvchi sath bilan amortizatsiyalash yo'li anchagina katta bo'lgani uchun bu juda ishonchli hisoblanadi (11-rasm).

Oyoq yuzining ichki qismi bilan to'p o'tkazish. Bu usul bilan ko'pincha yon tomonga yoki orqaga to'p o'tkaziladi. Dastlabki holat – tushib

kelayotgan to'p tomonga yarim burilib turish. To'pga yaqinroq turgan to'xtatuvchi oyoq tizzadan sal bukilgan bo'lib, yon tomonga, to'p qarshisiga uzatiladi. To'p yaqinlasha boshlaganda oyoq uning ketadigan harakat qilaveradi. To'p yerdan sapchish paytida unga yetib olib, oyoq kafti bilan bosib tushish kerak.

Ko'krak bilan to'pni to'xtatish.

Bunda ham to'pni to'xtatish amortizatsiya va so'ndiruvchi harakatga asoslangan bo'ladi. Harakat tuzilishining uch fazali ekani ko'krak bilan to'p to'xtatishga xos xususiyatdir (12-rasm).

Tayyorlov fazasida to'pni to'xtatish uchun qulay holatda mana bunday turib olinadi: futbolchi to'p tomonga qarab oladi; oyoqlar kerilgan yoki kichikroq qadam (50-70sm) kengligida ochilgan holda turiladi; ko'krak sal oldinga olingan, qo'llar tirsagi sal bukilgan, past tushirilgan. Ishchi fazada so'ndiruvchi harakat bilan xarakterlanadi. To'p yaqinlashib kelganda gavda orqaga tortilib, yelka bilan ikki qo'l oldinga chiqariladi. Yakunlovchi fazada og'irlilik markazi o'qi to'p bilan harakat qilish mo'ljallangan tomonga o'tkaziladi. Ko'krak balandligi uchib kelayotgan hamda turli trayektoriyada pastga tushib kelayotgan to'plarnigina ko'krak bilan to'xtatsa bo'ladi. Turli trayektoriyada uchib kelayotgan to'plarni to'xtatishda harakat mexanizmi asosan bir xil bo'lib, ayrim detallaridagina farq bor.

Ko'krak balandligida kelayotgan to'pni to'xtatishda o'yinchini oyoqlarini kichikroq qadam kengligida ochib, to'ppa-to'g'ri tik turadi, gavdaning og'irligi oldindan turgan oyoqqa tushadi.

So'ndiruvchi harakat qilganda gavda og'irligi orqadagi oyoqqa o'tkaziladi.

Pastga tushayotgan to'pni to'xtatishda gavda orqaga tortiladi. Og'ish burchagi to'pning uchish trayektoriyasiga bog'liq (ko'krak tushib kelayotgan to'pga nisbatan to'g'ri burchak hosil qilish kerak).



12-rasm. Ko'krak bilan to'pni to'xtatish

Ko'krak bilan to'p to'xtatishdagi amortizatsiyasini juda aniq mo'ljallay bilish hamda so'ndiruvchi harakatni o'z vaqtida bajarish lozim.

To'pni olib yurish

To'p olib yurish yordamida o'yinchi har xil joyga ko'chib yurishi mumkin. Bunda to'p doim o'yinchi nazoratida bo'ladi. To'p olib yurishda yugurib (ba'zan yurib), to'pga turli xil zarba beriladi. Zarba berish ketma-ket va turli maromda, oyoq bilan yoki bosh bilan ijro etiladi.

To'pni olib yurish tasnifi 4-chizmada berilgan. To'p olib yurishning ba'zi usullari mustaqil ahamiyatga ega bo'lmay, o'yinda o'z holicha kamdan-kam qo'llaniladi. Ammo ularni to'p olib yurishning boshqa xillari bilan birga qo'shib olib borilishi o'rinni bo'ladi. Masalan, son yoki bosh bilan (huqqabozlikdagi singari) to'p olib yurish jihatdan noo'rin. Lekin o'yinda ko'pincha shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, unda to'pni oldin bir necha marta boshda urib, keyin sonda ozroq o'ynatib, pirovardida oyoq bilan kerakli usulda olib yurishga o'tiladi.


Oyoq bilan to'p olib yurish. To'p olib yurishning bu asosiy uslubi yugurish (goho yurish) hamda to'pga oyoq bilan turli usullarda zarba berib borishning birga qo'shilganidir. Yugurish va to'pga oyoq bilan zarba berish texnikasining tahlili alohida alohida yuqorida berilgan. Shuning uchun to'p olib yurishning eng muhim detallari va xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

To'p olib ketayotganda taktik vazifalardan kelib chiqib to'pga har xil kuch bilan zarba beriladi. Kattaroq masofani bosib o'tish kerak bo'lsa, to'pni o'zidan 10-12 m uzoqlashtirib yuguriladi. Bunda raqib qarshilik ko'rsatsa, to'pni olib qo'yish mumkin. Shuninig uchun to'pni uzlusiz nazorat qilib borish va 1-2 m dan ortiq uzoqlashtirib yubormaslik kerak. Shuning bilan birga to'pga tez-tez zarba beraverish ham to'p olib yurish tezligini kamaytirib yuborishini unutmaslik kerak.

Ko'rilgan ikkala holda ham zarba berish uchun maxsus silkinch harakatlar qilishning zarurati yo'q. Orqada oyoqda

depotish zarba berish uchun tayyorlov fazasi bo'ladi. Tayanch yoyq to'ping yonginasiga qo'yiladi. Silkinch oyoq to'p tomon haqida qilib zarba beradi.

OLIB BORISH



To'g'ri chiziq bo'ylab, yoymalar bo'ylab harakat tezligi va yo'nalishni o'zgartirib

Ichizma, To'pni olib yurish usullari tasnifi


To'p olib yurishning o'yindan eng ko'p qo'llaniladigan bii nechta turi bor. Ular bir-biridan zarba berish usuli bilangina farq qiladi (13-rasm).



13-rasm. Oyoq bilan to'pni olib yurish

Oyoq yuzini o'rta qismi bilan va oyoq uchi bilan to'p olib ketilayotganda asosan to'g'ri chiziqli harakat qilinadi. Oyoq yuzining ichki qismi bilan olib yurish yoy bo'ylab harakatlanish imkonini beradi. Oyoq kaftini ichki tomoni bilan to'p olib yurish harakat yo'nalishini keskin o'zgartirishga imkon beradi. Oyoq yuzining tashqi qismi bilan to'p olish yurishni universal usul deb hisoblasa bo'ladi. Bu usul to'g'ri chiziq harakat qilish, yoy bo'ylab harakatlanish va yo'nalishni o'zgartirish imkonini beradi.

Sakrab borayotgan to'pni olib yurishda oyoq yuzini o'rta qismi bilan yoki son bilan zarba berib boriladi. Bu ikkala usulda to'pni yerga tushirmay olib yurish mumkin.



14-rasm. Bosh bilan to'pni olib yurish

Bosh bilan to'pni olib yurish
Bu uslubni qo'llaganda o'yinchu turli yo'nalishlarda harakatlar qiladi va ketma-ket bosh qo'yish yordamida to'pni yerga tushirmay olib yuradi. Asosan peshona bilan zarba beriladi. To'pni oldinga tomon uring ketidan yetib borib yana bosh urishga ulguradigan darajada kuch va trayektoriya bilan yo'naltiriladi.

Futbolda aldash harakat texnikalari

Futbold tehnikasining raqib bilan bevosita yakkama-yakka bajarishda bajartladigan uslublar guruhi aldash harakatlari bo'lib� oldi. Fintlar raqib qarshiligini yengish va o'yinni dan o'ttirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida ishlataladi.


Fintlardan foydalanish hujumda ham, himoyada ham ko'p masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Futbold texnikasi aldash harakatlarining quyidagi asosiy uslublari ko'zga tashlanadi: "qocha turib" aldash, "zarba berib" aldash, "to'pni to'xtatib" aldash. Bu fintlar va ularning turlarini buning silma-xil usullari bor fintlar tasnifi 5-chizmada berilgan.

Oyoqni to'p ustidan o'tkazib "qochish". Bu fint ko'pincha qo'shishdan hujum qilganda qo'llaniladi. To'p o'zida bo'lgan o'inchili tayyorlov harakatlari yon tomonga (masalan, chapga) qo'shishni olani ko'rsatadi. Gavdasini chap tomonga buraq qiling oyog'ini chalishtrib to'p ustidan o'tkazadi-da, chap tomonga tashlanadi. Orqadan hujum qilayotgan raqib to'pni bermaydi. Toshlangan o'yinchi ergashib, u ham chapga tashlangan. Ana shu paytda to'p o'zida bo'lgan o'yinchi tezlik bilan o'ngga aylanib, to'pni oyoq yuzini tashqi qismi bilan olg'a peshabirildi-da, keyin o'yindagi vaziyatga qarab, harakat da'mon ettiladi.

To'pni "topib" fint qilish. Ana shu fintni bajarishning ba'zi vaziyatlarint ko'rib chiqamiz. Yakkama-yakka tortishuvda o'pni chayotgan raqib ro'paradan yoki oldindan sal yon tomonga belayotgan bo'lsa, unga yaqinlashayotib, zarba beruvchi o'ngga erqiga tortiladi. Bunday holat to'p nishonga tepilishi yoki usatib yuborilishidan dalolat beradi. Buni ko'rgan raqib to'pni tortib olishga yoki to'p uchib o'tishi kerak bo'lgan zonani o'sishiga haradat qiladi. Buning uchun u harakatni sekinlashtirishiga ya to'xtatib qo'yadigan tashlanish, shpagat, sirpanish harakatlarni bajaradi. Bundan tashqari, ana shunday holatlar da pakkama-yakka tortishuv harakatlariga o'tish uchun bir qa-

dar vaqt kerak bo'ladi. O'yindagi vaziyat, sheriklar-u raqiblarning turishi, qarshilik ko'rsatayotgan raqibning holati qandayligiga qarab, asl niyatini amalga oshirish bosqichini tegishli usulida sekingina tepilib, raqibdan oldinga, o'ngga, chapga yoki orqaga qochib ketiladi.



Bu diyu, to'p uzatilgan bo'lib, sheriklardan biri to'pning bosqichida (qulayroq) vaziyatda turgan bo'lsa, asl niyatini oshirish bosqichida to'p ochiq turgan sherikka o'tkazilib qoladi.

To'pidi oyoqda "to'xtatib" fint qilish. To'pni oyoqda quradigan aldash harakati to'p olib yurganda va uni quradigan birlashib byergandan keyin turli usullarda bajaradi.

To'p olib ketayotganda raqib uni yon tomondan va yondan quradigan kelib olib qo'yishga harakat qilganda to'pni hozir bilan hosib va bosmasdan "to'xtatish" fintini ishlati-

Bu muhi holda to'p olib kelayotgandagi yugurish qadaq qurbatilagisida o'yinchiligi tayanch oyog'ini to'la to'p orqasi qo'yib, uni raqibdan uzoqroq oyog'i tagcharmi bilan quradi. Go'yo to'p bilan birga to'xtatmoqchidek harakat qilinishi raqib bunga javoban harakatni sekinlashtiradi, ana portida to'pni olg'a tomon sekingina tepiladi-da, yana olib qoladi.



Rasm. To'pni oyoqda "to'xtatib" fint qilish.

Bu muhi holda esa tayyorlov bosqichida to'pni to'xtatib qilishi o'shash harakat qilinadi (15-rasm). O'yinchiligi sekinlatib, oyoq kaftini to'p ustiga qo'yadi. Asl niyati oshirish bosqichi oldingi yo'nalishda tezlatib ke-

Sherik to'pni uzatgandan keyin "to'xtatib" aldash harakatini bajarishda bir oyoqqa tayanch holatga o'tib, to'xtatuvchi oyog' to'p kelayotgan tomonga uzatiladi. Raqib to'pni qabul qilib olayotgan o'yinchiga hujum qiladi. Ana shu paytda o'yinchini to'pni to'xtatish o'rniha o'tkazib yuboradi-yu, 80° ga aylanib, yana egallab oladi.

To'pni olib qo'yish


Asosan raqib to'pni olib ketayotganda yoki qabul qilib ola yotganda undan to'pni olib qo'yishga harakat qilinadi. To'pni olib qo'yishning samarali chiqishi futbolchining vaziyatni baho lash qobiliyatiga, ya'ni raqibgacha va to'pgacha bo'lgan masola ni, ularning harakatlanish tezligini, o'yinchilar qanday turganligini va h.k. ni aniq mo'ljallay bilish qobiliyatiga bog'liq. Raqibga yaqinlasha borayotib yoki ungacha bo'lgan oraliq masola ni saqlab turib, raqib to'pni sal o'zidan uzoqlashtirganda unga hujum qilish kerak. Ana shu paytda hujum qilgan o'yinchini otilib borib, to'pni tepib, to'xtatib yoki raqibni yelka bilan tutib, to'pni tortib oladi.

To'p olib qo'yish ikki xil bo'ladi: to'la olib qo'yish va chala olib qo'yish. To'lasida olib qo'yuvchining o'zi yoki uning sheri to'pni egallab oladi. Chalasida esa to'p ma'lum masofaga topshir yuboriladi yoki yon chiziqdandan chiqarilish yuboriladi. Bundan to'pni raqib egallab olsa ham uni hujum qilish harakatiga xala qit beradi va himoyani oqilona qayta tuzib olish uchun vaqtida yutiladi. Raqibning hujum sur'ati va shubhasini o'zgartirishiga majbur bo'ladi.

Murakkab o'yin vaziyatlarida to'pni olib qo'yish maqsadini tashlanib olib qo'yish, sirpanib olib qo'yish degan murakkab usullar qo'llaniladi. To'pni olib qo'yishning tasnifi 6-chizmada ko'rsatilgan.

To'pni tashlanib olib qo'yish raqibdan o'zib 1,5-2m masofadagi to'pni olib qo'yish imkonini beradi. Raqib o'ng yoki chap tomondan o'tib ketmoqchi bo'lganida shu usul qo'llaniladi. To'p tomonga tez harakat qilib unga tashlanadi. Tashlanish

OLIB QOYISH



Bo'sh surʼing oldidan, yonidan, orqasidan hujum qilganda

6-chitma. To'plin olib qo'yish usullarining tasnifi.

Bo'sh surʼing bo'lgan masofa qanchaligiga bog'liq. Yetish qilib bo'lgan to'plarni yarim shpagat yoki shpagat qilib ol-

ib qo'yiladi. Tashlanib to'pni olib qo'yishda to'pni tepish yoki to'xtatishdan foydalaniladi. Birinchisida raqib oyog'idan to'p ko'proq oyoq uchi bilan tepib yuboriladi. To'xtatishga harakat qilganda esa oyoq kafti bilan to'p yo'li to'siladi va uning harakati yo'nalishida olib ketilishiga imkon berilmaydi.



16-rasm. Sirpanib
to'pni olib qo'yish

Sirpanib to'pni olib qo'yish

o'yinchidan 2m dan ham narida bo'lgan to'pni egallab olish imkonini beradi. Bundan to'p ko'proq orqadan yoki yon tomonidan kelib olib qo'yiladi. Hujum qiluvchi o'yinchi raqibga yaqinlashib qolganda yiqila turib oyoqlarini oldinga uzatib yuboradi. O'yinchi o't ustida sirpanib borib, to'p yo'lini to'sib qo'yadi yoki uni tepib yuboradi (16-rasm).

Raqibni yelka bilan turtib to'pni olib qo'yish o'yin qoidalariga muvofiq bajarilishi kerak. To'pni boshqarayotgan o'yinchi masofada faqat yelka bilan raqibning yelkasiga turtishga ruxsat etiladi. Faqat to'pni olib qo'yish maqsadida turtish mumkin bo'lib, bu hech qachon qo'pol va xavfli xarakterda bo'lmasligi lozim. Bu uslublardan muvaffaqiyatlroq foydalanish uchun yelkada turtishni raqib bir oyoqqa (uzoqroqdagi oyog'iga) tayanib turga nida bajarish kerak.




17-rasm. Raqibni yelka bilan turtib to'pni olib qo'yish

To'pni tashlash – maydon o'yinchilari qo'lda bajaradigan yagona usul. To'p tashlash harakatining tuzilishi ko'p jihatdan futbol qoidalarining talabiga qarab belgilanadi va unchalik mu-

To'pni hisoblanmaydi. Biroq to'pni uzoqroq (25-30 m) masofaga yetkazib tashlash uchun maxsus ko'nikma hosil qilinadigan buftishi va qorin, yelka kamari hamda qo'l dagi mushak guruhi bo'lgan muayyan darajada kuch berilishi kerak. To'pni tashlashda uni keng yozilgan barmoqlari yon tomonlardan (o'yinchiga qo'sgan tomoniga yaqinroq) qamrab turadigan qilib, bosh barmoqlari qariyb bir-biriga tegadigan darajada qo'lga olinadi.

To'pni tashlash qo'lni yuqorida orqaga tortish tayyorlov hisobchi hisoblanadi. Dastlabki holat - oyoqlarni (yelka bengligida) kerib turish yoki bir qidam tashlagan holatda turish. To'pni tutgan qo'llar tirsakdan sal buktladi va yuqori ko'tarilib, bo'shdan orqaga o'tkaziladi. Gavdu orqaga egiladi, oyoqlar tizzasi bildilib, gavdaning og'irligi (qadam tushlab turgan holatda) orqadagi oyoqqa tushadi.



18-rasm. To'pni tashlash texnikasi

Darvozaboning o'yin texnikasi

Darvozaboning o'yin texnikasi maydon o'yinchisining o'yin texnikasidan tubdan farq qiladi. Bu darvozabonga qoidaga binoan jarima maydoni ichida qo'l bilan to'p o'ynashga ruxsat etilgani bilan bog'liqdir.


Quyidagi uslublar guruhi darvozaboning texnikasiga kiradi: to'pni ilib olish, qaytarish, o'tkazib yuborish va tashlash. O'yinda sheriklar va raqib jamoasi o'yinchilarning qayerda turganiga, shuningdek to'p harakatining yo'nalishi; trayektoriyasi va tezligiga qarab darvozabon harakatining xilma-xil uslublari, usul va turlari qo'llaniladi. Ularning tasnifi 7-chizmada berilgan.

O'yin jarayonida darvozabon maydon o'yinchisi ixtiyorida-
gi kerakli texnik uslublardan foydalanaveradi.

Texnik uslublarning muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan darvozaboning harakatiga qanchalik tayyor turganligi bilan belgilanadi. Darvozaboning to'g'ri dastlabki holatda bo'lishi

DARVOZABON TEXNIKASI

TO'PNI BOSHQARISH TEXNIKASI



Turli trayektoriya va turli yo'nalish bo'ylab sakrab va uchib ketayotgan to'pga turgan joydan, harakat vaqtida, sakrab turib

7-chizma. Darvozabon texnikasi.

uning harakatga tayyor ekanligi omillaridandir. Bunday dastlabki holat oyoqlarni yelka kengligida kerib, sal bukib turish bilan xarakterlanadi. Yarim buzik qo'llar ko'krak balandligida oldinga uzatig'liq. Kaftlar olg'a tomon ichkariga qaragan. Barmoqlar sal bo'shashtirilgan. Dastlabki holatning to'g'ri bo'lishi darvozabonga og'irlik markazi o'qini tezlik bilan tayanch satildan tashqari chiqarib olib, lozim bo'lgan harakatlarni oddiy, juftlama yoki chalishtirma qadam tashlab, sakrab va yiqilib bajarish imkonini beradi.

To'pni ilib olish

To'pni ilib olish – darvozabon o'yin texnikasining asosiy vositasi. Bu ko'pincha ikki qo'llab amalga oshiriladi.

To'pning yo'palishi, trayektoriyasi va tezligi qandayligiga qarab, uni pastdan, yuqoridan yoki yondan ilib ushlab olinadi. Darvozabondan anchagina naridan uchib borayotgan to'plar yiqila turib olinadi.

To'pni pastdan ilib olish darvozabon tomon yumalab ketayotgan, yuqoridan tushib kelayotgan va past (ko'krak balandligida) uchib kelayotgan to'plarni egallab olishda qo'llaniladi.

Yumalab kelayotgan to'pni ilib olishning tayyorlov bosqichida darvozabon oldinga engashib, qo'llar pastga tushiriladi (19-rasm). Bunda kaftlar to'pga qaragan, sal yoziq, yarim buzik barmoqlar yerga tegay deb turadi. Qo'llar haddan tashqari turang tutmasligi kerak. Oyoqlar juftlangan, hech bukilmagan yoki sal bukilgan bo'ladi.



19-rasm. To'pni ilib olish texnikasi.

Ishchi bosqich shundan iboratki, to'p qo'lga tegishi paytida barmoqlar uni ostidan tutib oladi, qo'llar tirsakdan bukilib,

to'pni qorin tomon torta boshlaydi. Pastga tushirilgan qo'llar vaznining amortizatsiyasi ta'siri va bukilishi hisobiga to'pning tezligi so'ndiriladi. Yakunlovchi bosqichda darvozabon qaddini rostlaydi.

Hozirgi zamon futbolida yumalab kelayotgan to'pni ikki qo'llab pastdan ilib olishning boshqa variantlari ham qo'llaniladi. Bu variantning xususiyati shundaki, unda oldinga engashish o'rниga taxminan 50-80 tashqariga burib turib bir oyoqda cho'nqayiladi. Tizzasi anchagina bukilib, uchiga tayanib turilgan ikkinchi oyoq ham tashqariga buriladi. Pastga tushirilgan qo'llarning kafti to'pga to'g'rilangan bo'ladi. To'pni bevosita ilib olish yuqorida tasvirlangan variantlardagi singari bo'ladi. Yakunlovchi bosqichda oyoqlarni burish va to'g'rilash hisobiga darvozabon qaddini rostlab, keyingi harakatlar uchun kerakli dastlabki holatni oladi. To'siqning muhofaza qilish satxi anchagina bo'lgani uchun to'p ilib olishning bu varianti dinamik ishonchliroqdir.

Past (qorin balandligi darajasida) uchib kelayotgan va darvozaboning old tomonida yuqoridan tushib kelayotgan to'plarni ilib olishda tayyorlov bosqichida salgina bukilgan qo'llar kaftlari oldinga qaratib, to'p qarshisiga uzatiladi. Barmoqlar biroz yoziq va yarim bukik bo'ladi. Ayni vaqtida gavda ozroq oldinga engashadi, oyoqlar esa sal bukiladi. Oyoqlarning qay darajada bukilishi to'pning uchib kelish trayektoriyasiga bog'liq. To'p qo'lg'a tegish paytida darvozabon uning ostidan barmoqlari bilan tutib olidi-da, qorni yoki ko'kragi tomon torta boshlaydi. To'p anchagina tez kelayotgan bo'lsa, oyoqlarni to'g'irlash va gavdani oldinga engashtirish hisobiga orqa tomon qo'shimcha so'ndiruvchi harakat qilinadi.

O'yin jarayonida darvozaboning yon tomoniga yumalab va past uchib kelayotgan, shuningdek, uning old tomonida ancha nariga tushayotgan to'plarni ilishga ham to'g'ri keladi. Bunday hollarda oldin to'pning harakat yo'nalishi tomonga qarab jiladi.

Bu ish yugurish qadami, juftlama qadam yoki chalishtirma qadam bilan, shuningdek, ko'proq bir oyoqda depsinib yuqo-


riga, oldinlab yuqoriga yoki yon
tomonga yuqorilab sakrash bilan
oldinga oghiriladi. Shundan keyin-
gi harakatlar sistemasining tahlili
yuqorida berilgan.

To'pni yuqoridan ilib olish
o'rtacha trayektoriyada (ko'krak
ya bo'y baravar) uchib kelayot-
gan, shuningdek, baland uchib ke-
layotgan to'plarni egallab olish uchun qo'llaniladi (20-rasm).


Baland to'plarni, ya'ni baland trayektioriyada uchib kela-
yotgan to'plarni qo'lga kiritish uchun sakrab ikki qo'llab yuqo-
ridan ilib olish qo'llaniladi. To'pning uchish yo'naliishiga qarab
bir yoki ikki oyoqda depsinib yuqoriga, yuqorilab oldinga yoki
yuqorillah yonga sakraladi. Harakatlanayotgan paytda asosan
bir oyoqda, joyda turganda esa ikki oyoqda depsinib sakrala-
di. Depsinish paytida qo'llar silkinch harakat qilib, to'p o'ng to-
mon yuqoriga uzatiladi. To'pni ilib olgandan keyin oyoqlar bir
uz egib yerga tushiladi.

To'pni yondan ilib olish darvozabonning yon tomoniga
o'rtacha trayektoriyada uchib kelayotgan to'plarni qo'lga kiri-
tish uchun qo'llaniladi. Tayyorlov bosqichida qo'llar oldinlatib
yonga, to'p uchib kelayotgan tomonga uzatiladi. Panjalar de-
yarli parallel, barmoqlar sal yoziq va yarim buzik. Gavdaning
og'irligi to'p ilinadigan tomondagi oyoqqa o'tkaziladi. Gavda
ham shu tomonga sal buriladi. Ish-
chi va yakunlovchi bosqichlar ba-
jirilish tuzilishi jihatidan to'pni
yuqoridan ikki qo'llab ilib olishda-
giga o'xshaydi.

To'pni yiqila turib ilib olish
darvozabondan chetga qo'qqis-
dan, aniq, goho esa juda qat-
tiq yo'naltirilgan to'plarni qo'lga
kiritishning samarali vositasidir.



20-rasm. To'pni yuqori-
dan ilib olish texnikasi




21-rasm. To'pni yondan
ilib olish texnikasi

To'p uzatilganda (darvoza bo'ylab "g'izillatib" berilganda) ushlab qolish va raqib oyog'idagi to'pni olib qo'yishda qo'llaniladi.

Yiqila turib to'p ilishning ikki varianti bor: uchish bosqichsiz ilish va uchish bosqichida bo'limganda ilish.

Birinchi variantda odatda darvozaboning yon tomoniga undan 2-2,5m narida yumalab yoki past uchib kelayotgan to'plarni ilib olish uchun qo'llaniladi (22-rasm). Tayyorlov bosqichida to'p harakati tomonga katta qadam tashlanadi. To'pga yaqin turgan oyoq qattiq bukiladi. Og'irlilik markazining o'qi tayanch sathidan chiqarilib, pastroq tushiriladi. Qo'llar to'p tomonga keskin uzatiladi, bu gavdaning harakatlanishiga ham, yiqilishiga ham yordam beradi. Yerga tushish bunday tartibda bo'ladi: oldin oyoqning boldir qismi, keyin tos-son va gavdaning yon qismlari yerga tegadi. Parallel uzatilgan qo'llar to'p yo'lini to'sib chiqadi. Panjalarning turishi, shuningdek, bevosita to'p ilib olish yiqilmay ikki qo'llab yuqorida ilishda qanday bo'lsa shunday. Darvozabon g'ujanak bo'layotganida qo'llarni bukib, to'pni ko'krigiga tortadi. Ayni vaqtda oyoqlarni ham bukadi.



22-rasm. To'pni yiqila turib ilib olish texnikasi.

Darvozabondan ancha narida dumalab va uchib kelayotgan to'plarni ilib olish uchun uchish bosqichli yiqilish qo'llaniladi. Dastlabki bosqichda darvozabon uchib kelayotgan tomonga tezda bitta yoki ikkita juftlama yoki chalishtirma qadam tashlaydi. Bunday paytda qanday harakatlanish usulini tanlash va undan foydalanish darvozaboning hosil qilgan shaxsiy ko'nikmalariga bog'liq. Depsinishga tayyorlanish gavdani oldinga engashtirib, og'irlilik markazi o'qini tayanch sathidan chetga chiqarishdan boshlanadi. To'p kelayotgan tomonga yaqin

qaytariladi. Qo'llar to'p tomonga keskin uzatiladi. Ular-ning horakati va ikkinchi oyoqning silkib bukilishi depsinish kuchini oshishiga yordam beradi. Depsinish burchagining qanday bo'lidi to'pning uchish balandligiga bog'liq. Baland kelayotgan to'plarni ilib olishda yuqorilab yon tomonga, o'rtacha balandlikda kelayotganlarini ilishda esa yon tomonga depsinib chiqiladi. Dumalab kelayotgan va past uchib kelayotgan to'plarni ilib olishda gavda ko'proq engashadi, depsinuvchi oyoqning bukiliadi ko'proq, darvozaboning uchish trayektoriyasi past, yer bilan parallel bo'ladi. To'p darvozaboning uchish bosqichida ilib olinadi. To'p qo'lga kiritilgandan keyin g'ujanak bo'linadi (oyoqning tos-son bo'g'imi bukiladi), bu old-ort o'qi atrofida olg'a tomon aylanishiga olib keladi. Tortish kuchi ta'sirida quyidagi tartibda yerga tushiladi: oldin bilak, keyin yelka, gavda va tosning yon qismlari, oyoqlar yerga tegadi.

To'pni qaytarib yuborish. To'pni ilib olish mumkin bo'limgan hollarda (raqibning xalaqit berishi, juda qattiq tepilganligi, to'pga yetish qiyinligi va h.k. sababli) to'p qaytarib yuboriladi. Darvozaboning darvozaga ketayotgan to'p yo'lini to'sishdagi, to'g'ridan g'izillatib uzatilgan va yuqoridan uzatib tushirilgan to'plarni olib qolishdagi harakatlari to'pning qaytarib yuborilishiga kiradi. Bunda darvozabon to'pni egallab olmaydi.


To'p ikki qo'llab ham, bir qo'llab ham qaytarib yuboriladi. Birinchi uslub ishonchliroq, chunki bunda to'sib qoluvchi sath kattaroq bo'ladi. Biroq ikkinchi uslub darvozabondan ancha narida o'tayotgan to'plarni qaytarib yuborish imkonini beradi.

To'pni bir qo'llab yoki ikki qo'llab qaytarishda dastlabki va tayyorlov bosqichlaridagi harakatlar ko'p jihatdan to'pni yuqoridan va yondon ilib olishdagi harakatlarga o'xshaydi. To'pning harakat yo'nalishi va trayektoriyasiga moslab, darvozabon taranglashgan, barmoqlari sal yoziq bitta qo'lini yoki ikkala qo'lini tezlik bilan to'p qarshisiga uzatadi. To'p ko'pinchi qo'llar bilan qaytariladi. Gohida to'p bilakka tegib qaytadi. To'pni qaytarib yuborganda darvozadan yon tomonga yo'naltirish tavsiya etiladi.

Darvozabondan ancha naridagi to'plarni yiqila turib bir yoki ikki qo'llab qaytarib yuborish kerak. Bunda qaytarib yuborish qiyinroq bo'lgan to'plarga bir qo'lda yetib olish mumkinligini nazarda tutish kerak.

To'p harakatining yo'nalishi, trayektoriyasi va tezligi qandayligiga qarab, yiqila turib to'p ilishdagi singari dastlab, to'p tomoniga siljilinib keskindepsiniladi. Tarang uzatilgan bir yoki ikkala qo'l to'p qarshisiga chiqqib, bir yoki ikkala kaft bilan yoxud bir yoki ikkala qo'lni musht qilib to'p qaytarib yuboriladi. Yakunlovchi bosqichda to'pni yiqila turib ilishdagi harakatlariga o'xshab g'ujanak bo'lib yerga tushiladi.

To'g'ridan g'izillatib uzatilgan va yuqoridañ uzatib tushurilgan to'plarni to'sib qolayotganda darvozabon raqib o'yinchilari bilan kurashda to'pni anchagina nariga qaytarib yuborishi kerak. Buning uchun to'pni u bir yoki ikkala qo'lni musht qilib urib yuboradi.



23-rasm. To'pni qaytarib yuborish

Musht bilan to'p qaytarishda zarba berishning ikki variandi bor: yelkadan boshlab urish va bosh ortidan boshlab urish. Yelkadan boshlab urishning tayyorlov bosqichida darvozabon tirsagi bukilgan zarba beruvchi qo'lini yelkasi tomon tortadi. Gavda ham shu tomonga buriladi. Zarba berish harakati gavdani dastlabki holat tomonga burishdan boshlanib, qo'lni keskin to'g'irlash bilan tugaydi. Qo'l to'la to'g'irlanib olguniga qadar to'p mushtga tegadi. Zarba barmoqlarning birinchi suyagi-ga to'g'ri keladi.

Bosh ortidan boshlab urish uchun sal bukilgan qo'l yuqori ko'tarilib, bosh orqaga tortiladi. Gavda ham orqaga egiladi.

Gavida bilan qo'lning keskin to'g'irlanishi hisobiga zarba beriladi. To'pga u darvozabondan sal oldinda paytida bevosita zarba berish kerak. Zarba barmoqlarning o'rta suyagi bilan beriladi.

To'pni ikkala qo'lni mushtlab qaytarib yuborish ishonch-tiroq bo'ladigan vaziyatlar ham (masalan, to'p ho'l va og'ir bo'lsa) uchrab turadi. Zarba berishdan oldindi dastlabki holat - tijoradlar bukilgan, musht tugilgan qo'llar ko'krak oldida (bunda har ikkala musht tugilgan qo'l barmoqlari juftlanib, bir-biriga tegib turishi kerak). Tarang tortilgan ikkala qo'l baravariga to'g'irlab, mushtlar bilan to'pga zarba beriladi.

To'pni joyida turib, qadam tashlab, turli harakatlanishlardan keyin va ayniqsa sakrab turib bitta yoki qo'lni musht qilib urib qaytarib yuborish mumkin. Sakrab to'p qaytarish darvozabonga baland to'plar uchun raqib bilan muvaffaqiyatlidir kurashish imkonini beradi. Bunda bir yoki ikkala oyoqdadepsinib, yuqorilatib olg'a tomon sakraladi. Uchish bosqichida tayyorgarlik harakatlari qilinadi. Zarba berish harakati ko'tarilishning eng yuqori nuqtasiga yetganda (yoki shundan sal oldinroq) boshlanadi. Yerga oyoqlarni sal bukib tushiladi.

To'pni qo'ldan sirg'anib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha hollarda to'pga mushtning o'rta qismi bilan zarba berilishi kerak.


To'pni tashlab berish. Hozirgi futbolda darvozabonlar to'pni ko'pincha tashlab beradilar, chunki bunda to'pni tephagandan ko'ra aniqroq yo'naltirib berish mumkin. Tashlash masofasiga kelganda esa, tegishlicha jismoniy tayyorgarligi va a'lo darajada ratsional texnikasi bo'lgan darvozabon to'pni anchagina (35-40m) masofaga tashlab bera oladi.

Bu texnik uslub odatda asosan bir qo'llab, ahyon-ahyonda ikki qo'llab bajariladi.

To'pni bir qo'llab tashlab berish yuqoridan, yondan va pastdan bajariladi (24-rasm).

To'pni yuqoridan tashlab berish - eng ko'p tarqalgan usul. Bu usulda sheriklarga turli trayektoriyada, anchagina masofaga va yetarlicha aniq to'p tashlab berishi mumkin.

To'p tashlashdan oldingi dastlabki holat – bir qadam tashlab tik turish. To'p shundoqqina kaft ustida bo'lib, yoziq va yarim bukilgan barmoqlar uni tutib turadi. Tayyorlov bosqichida qo'l tortiladi. To'p tutgan qo'l tirsagi bukilib, yon tarafдан orqa га tortilib, bosh balandligida (yoki yana sal balandroq) yuqori ko'tariladi. Gavda shu qo'l tortilgan tomonga burilib, sal oldinga engashadi. Tana og'irligi orqadagi sal bukilib turgan oyoqqa o'tkaziladi. Oldindagi oyoqning uchi yerda bo'ladi. Asosiy bosqichdagi tashlash harakati oyoqlarni to'g'irlab, gavdani burishdan boshlanadi.



24-rasm. To'pni bir qo'llab tashlab berish texnikasi



25-rasm. To'pni yuqoridan tashlab berish

Shundan keyin qo'l faol yozilib, uloqtirish tomonga harakatlanadi-da, bu harakat panjaning keskin yo'naltiruvchi harakati bilan tugaydi. Tananing og'irligi orqadagi oyoqqa o'tkaziladi.

To'pni yondan tashlashda u anchagini uzoqqa yetib borса ham uning aniqligi unchalik bo'lmaydi.


Tayyorlov bosqichida bir qadam tashlab turgan dastlabki holatda qo'l tortiladi. To'p tutgan qo'l yonlatib orqaga (yelkadan sal pastroq) uzatiladi. Gavda shu tomonga buriladi. Tana og'irligi

oyadagi sal bukilgan oyoqda. To'p tashlash oyoqning uchida ko'tarilib, keskin bo'g'iňlariš va gavdaning burilishi hisobiga bajariladi. Bu uzuvchi harakatlar to'pning to'g'ri tutilib, yon tomondan olg'a bukin harakat qilishi bilan tugaydi. To'p frontal tekislikka yaqinlashib qolganda panjadan "uziladi". Tashlashning bundan oldin bo'lishi yoki kech qolishi to'pning o'chish yo'nalishida anchagina xatolar bo'lishiga olib keladi.

To'pnı pastdan tashlash uni past trayektoriyali qilib (o'san yerda dumalatib) tashlashda ishlatiladi. Dastlabki holatda bir qadam tashlagan holda oyoqlar anchagina bukilib turadi. Panjası to'pning tagidan tutib turgan qo'l quyi tushiriladi. Keyin darvozabon qo'lini orqaga tortib, tanasi og'irligini olindagi oyog'iga o'tkazadi. To'p tutgan qo'l yerga parallel tarzda olg'a tomon keskin harakat qiladi. Gavda ozgina engashadi. Shu tarzda eng oxirgi holatda to'p qo'ldan tushib, mo'ljal tomon ottilib ketadi.



26-rasm. To'pni yondan tashlash texnikasi



27-rasm. To'pni pastdan tashlash texnikasi

To'pni ikki qo'llab tashlash ko'pincha yuqoridan, bosh ortidan boshlab bajariladi. Bundagi harakatlar ko'p jihatdan yon chiziq nariyog'idan to'p tashlashdagi harakatlarga o'xshash, shuni qayd yetish lozimki, qoidaning to'p tashlash paytida ikki oyoqqa tayanib turish haqidagi talabi darvozaboning to'p tashlashiga aloqador emas.

To'pni joyida turib, qadam qo'yib tashlayversa bo'ladi. Yurib yoki yugurib borib to'p tashlab berish qoidada qat'iy chegaralangan bo'ladi.

O'yin taktikasi

Taktika deganda o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan individual va jamoa harakatlarini tashkil qilishni, ya'ni jamoa futbolchilarning muayyan rejaga binoan aynan shu, aniq vaqt bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishiga imkon beradigan birgalikkagi harakatlarni tushinish kerak. Taktikadagi asosiy vazifa hujum va himoya harakatlarning maqsadiga erishtira oladigan eng qulay vosita, usul va shakllarini belgilashdan iboratdir. Qanday taktikani tanlash har bir alohida holda jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o'yinchilarning o'zaro kurashuvchi guruhlariga, maydonning ahvoliga, iqlim sharoiti va hokazolarga bog'liq. O'yin taktikasining tasnifi 6-chizmada berilgan.


Futbol matchi ko'p martalab hujumdan himoyaga va himoyadan hujumga o'tishdan iborat bo'lgani uchun ham tabiyiki, har qaysi jamoaning hujum va himoya harakatlari uyushgan bo'lishi kerak.

Taktika uchrashuv vaqtida butun o'yin faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Aniq raqibga qarshi to'g'ri tanlangan kurash taktikasi muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, noto'g'ri tanlangan yoki uchrashuv paytida asqotmagan taktika esa odatda mag'lubiyatga olib keladi.

Raqiblarni neytrallash vazifalarini to'g'ri hal qila bilish va atakadagi o'z imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalana olish umuman jamoaning ham, uning alohida o'yinchilarining ham taktik yutuqlarini ko'rsatadi. Hujum va himoyada hamma futbolchilarning harakatlari yaxshi uyuştirilgan hamda, albatta, faol bo'lgandagina jamoa muvaffaqiyatga erishadi.

Murabbiy o'yining taktik rejasini qanday qilib tuzgan bo'lmasin, bu reja alohida futbolchilarning harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ana shuning uchun ham individual tak-

106 Kamolotga erishmay turib, jamoaning o'yini chiroyli va risuladagidek qiladigan aniq taktik harakatlar qilinishi xayolga ham keltirib bo'lmaydi.



8-chizma. O'yin taktikasining tasnifi

Futbol o'yinida taktika bilan texnika bir biriga chirmashib ketgan bo'ladi. To'pni kimga va qanday uzatishni, raqibni

dog'da qoldirish uchun aylanib o'tishni ishlatish kerakmi yoki to'jni sherikka oshirgan ma'qulmi, darvozaga qaysi paytda zarba berishni hal qilayotgan o'yinchi taktik tafakkurdan foydalanadi, ahd qilgan harakatini amalga oshirayotganda esa u texnik mahoratini namoyish etadi. Demak, texnika o'yinchining taktik rejalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Texnik tayyorgarlik a'llo darajada bo'lsagina xilma-xil taktik harakatlarni bajarish mumkin.

Kuchi teng jamoalar uchrashuvdagagi g'alabaga ko'pincha mag'lub bo'lganlarda iroda kamlik qilgani yoki jismoniy va texnik tayyorgarlik bo'sh bo'lgani sabab qilib ko'rsatiladi. Biroq futbol o'yinidagi g'alaba ko'pincha taktik rejalar kurashi bilan belgilanadi. Taktik ikki jamoaning jismoniy, texnik va ma'naviy-irodaviy tayyorgarlikdagi darajalari teng bo'lganda, ulardan birining g'alaba qilishini ta'minlab beradigan muhim omildir. Yirik musobaqalardagi ko'plab misollar shundan dalolat bera-di.

Ustalik bilan ishlatilgan taktikagini muvaffaqiyat keltiradi. Ba'zan jamoalar har qanday raqibga qarshi o'ynaganda ham bir xil taktika ishlata beradilar. Taktik jihatdan shunday qashshoqlik, bir xillik mahoratning o'sa borishiga to'sqinlik qiladi. Har xil jamoa, ayniqsa yuqori razryadli jamoa xilma-xil taktik rejada o'ynab bilishi kerak, bo'limasa u, ayrim yutuqlari bo'lishiga qaramay, musobaqalarda katta g'alabaga erisha olmaydi. O'quvmashq jarayonida taktik tayyorgarlikka jiddiy e'tibor berilmaydi.

Har bir o'yin va umuman jamoa harakatlarining xilma-xil variantlarini mukammal egallagan bo'lishi kerak. Hujum harakatlari bilan himoya harakatlarining doimiy kurashi natijasida o'yin taktikasi uzlusiz takomillashib boradi. Xuddi ana shu kurash futbol taktikasi taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

O'yinchilarning vazifalari

Raqibga qarshi kurashayotgan jamoa harakatlardagi uyushqoqlikka futbolchilar o'rtasidagi vazifalarni aniq taqsim-

ish bilan erishiladi. Hozirgi vaqtida o'yinchilarning vazifalariga (o'yindagi ixtisosiga) ko'ra bo'lismi ular tayyorgarligidagi universallikka asoslanga bo'ladi. Bu hamma ishni barcha birdek bajara oladi, degan so'z emas, albatta.

Ammo har bir futbolchi o'yining hamma texnik usullarini qollagan bo'lishi, hujumda ham, himoyada ham bilib harakat qilishi kerak. O'yindagi ayrim vazifalarni esa o'yinchi ayniqsa, yaxshi ijro etadigan bo'lishi lozim. Futbolchilar vazifalariga ko'ra darvozabonlarga, qanot himoyachilarga, markaziy himoyachilarga, o'rta qator himoyachilari, qanot hujumchilari va markaziy hujumchilarga bo'linadi. Har qaysi ixtisos o'yinchilariga bo'lgan talablar va ularning asosiy vazifalarini ko'rib chiqamiz.

Darvozabon

Hozirgi vaqtida darvozabonning o'yini turli-tuman va mu-rakkabdir. Darvozabonning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi, uning psixikasi mustahkamligiga yuksak talab qo'yilayotganligi ham ana shundan.

Odatda, darvozabon – baland bo'yli (175 sm va undan ham baland), a'lo darajada jismoniy tayyorgarlik ko'rgan, reaksiya juda tez, start tezligi juda yuqori o'yinchi bo'ladi. U dovyurak va jura'tli, sakrovchan, epchil va hozirjavob bo'lishi, harakatlarni yaxshi muvofiqlashtira oladigan, yaxshi mo'ljal oladigan va rejalay oladigan, to'jni ehtimol bo'lgan uchish yo'nalishi tezligi va trayektoriyasini darhol aniqlay oladigan bo'lishi, himoya qatorlarini idora qilishi, ya'ni unga izchillik va uyushqoqlik kiritishi kerak.

Darvozabon joyida turganda ham, harakat va sakrab o'ynaganida ham texnik uslublarning hammasini a'lo darajada bilishi zarur. Darvozabonning mahorat darjasini ana shu uslublarning nechog'lik to'g'ri, aniq va ishonchli bajarilishiga bog'liq. Darvoza oldidagi o'yin bilan, darvozadan chiqib harakat qilishi muvaffaqiyatlari qo'shib olib borish hamda o'z darvozasini himoya qilish va hujum uyushtirishda sheriklari bilan bahamjihat mohirona harakat qilish ham darvozabonning yuksak mahoratini ko'rsatadi.

Harakatlanish texnikasini o'rgatish metodikasi

Harakatlanish texnikasiga o'rgatishni dastlabki mashg'ulotlardan boshlash kerak bo'ladi. Harakatlanish texnikasini takomillashtirish butun sport faoliyati davomida amalga os-hiriladi. Harakatlanish texnikasini o'rgatish jarayoni quyidagi harakat sifatlarini, ya'ni tezkorlik, epchillik, sakrash, tezlanish va chidamlilikni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir. Harakatlanish texnikasini o'rganayotganda ko'pgina umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari ko'proq yengil atletika, sport va harakatli o'yinlardan foydalanish mumkin. Quyidagi berilayotgan bir guruh maxsus mashqlar harakatlanish texnikasiga oid alohida uslub va usullar hamda ularning birikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan.

Start tezligini burilish va to'xtashni o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar:

1. Oddiy yugurishda start tezligi va to'xtash;
2. Chalishtirma qadamlashda start tezligi va to'xtash;
3. Qolgan oyoqni juftlab yurishdagi start tezligi va to'xtash;
4. Turli uslublarda doiraviy yugurishdagi start tezligi va to'xtash;
5. Burilgandan so'ng to'g'ri va doiraviy turli uslubda yugurishda start tezligi;
6. Turli start holatlarida yuqori va pastki yarim cho'qqayib, yotgan holatda start tezligi.

Quyidagi guruh mashqlarini bajarish tezkorlik sifatini tarbiyalashi bilan birga qo'shib olib boriladi.

Sakrashni o'rgatish uchun namunaviy mashqlar

Sakrashning quyidagi turlari bajariladi:

1. Bir oyoqlab oldinga va orqaga siljib, o'ng va chapga sakrash;
2. Bir oyoqlab o'ng va chapga siljib, oldinga va orqaga sakrash;
3. Oldinga va orqaga siljib, galma-galdan o'ng va chap oyoqlab sakrash;

5. O'ng va chapga siljib, oyoqlarni almashtirib to'g'riga va
o'rgatish sakrash;
 6. O'ng oyoq bilan o'ngga sakrab, yerga chap oyoq bilan
tashish va teskarisi;
 7. Ilki oyoqlab turli yo'naliishlarda sakrash.
- Mashqlarni bajarish vaqtida sakrash uzunligi va balandligi-
shuningdek uni bajarish tezligiga e'tibor beriladi.

To'pga zarba berishni o'rgatish metodikasi

To'pga zarba berishni o'rgatish uchun to'pning tezligi va
aniqligini iloji boricha aniq bilishga, uning yo'naliishi va tezli-
gi ixtiyoriy o'zgartira olish ko'nikmasiga ega bo'lishga erish-
moq kerak. Zarur aniqlikka erishish uchun shug'ullanuvchilar
mashg'ulot jarayonida ularga to'pni muayyan nishonga tegish-
ga o'rgatadigan mashqlar beriladi.

Aniqlikni tarbiyalashda mashg'ulot jarayonida ko'pincha
futbol darvozasidan nishon o'rnila foydalaniladi. Nishon
o'midagi darvozani kichraytirish uchun tasma bilan turli hajm-
dagi kvadratlarga bo'linadi. Shuningdek, maxsus devordan
foydalaniladi, unga bo'yoq bilan futbol darvozasi chizil-
di va kvadratlarga bo'linadi, har bir kvadrat raqam bilan bel-
gilanadi. Bunga qo'shimcha maydonda har xil o'lchamli turli
xalqalardan foydalanish mumkin.

Aniqlikni tarbiyalashda nishonlar orasini o'zgartirib turish
lozim. Musobaqalar vaqtida to'pni mo'ljalga aniq tepish uchun
mashg'ulot chog'ida to'pga zarba berishni musobaqa sharoi-
tiga yaqinlashtirib o'rgatish kerak. To'pga zarba berayotgan-
da himoyachilar va darvozabon to'sqinlik qiladilar. To'pga zar-
ba berish to'pni turli nishonlarga aniq yo'naltirish vazifasi bi-
lan cheklanmaydi. Shug'ullanuvchi to'pni kerakli tezlik bilan
sheriklariga uzatishni ham bilishi kerak.

To'pga zarba berishni o'rgatish uchun namunaviy mashqlar

1. Turgan va dumalab kelayotgan to'pga muayyan usul bi-
lan: oyoq yuzi, oyoq uchi bilan zarba berish va boshqalar.

2. Turli tezlikda kelayotgan to'pga chap va o'ng oyoq bilan zarba berish.
3. Ikki kishi aytilgan usul bilan to'pni to'xtatib va to'xtatnay bir-biriga uzatish.
4. Yerdan sapchigan to'pga chap va o'ng oyoq bilan istalgan usulda zarba berish.
5. To'pni havoda yerga tushirmasdan zarba berish.
6. Darvozaga yoki qo'yilgan nishonga turli usul bilan, turli masofadan, turli burchak bilan, turli tezlikdan zarba berish.
7. 11 metrdan, jarima maydonidan va burchakdan darvoza ga zarba berish.
8. Jarima maydonidan tashqaridan har xil joydan to'pni to'siqlarga tekkizmasdan zarba berish.
9. Sakramay va sakrab bosh bilan urish.
10. Sakramay va sakrab turib to'pni darvozaga bosh bilan urish.
11. Bosh va oyoq bilan voleybol o'ynash.
12. Osib qo'yilgan to'pga oyoq va bosh bilan zarba berish.
13. To'pni yerga tushirmasdan oyoqda va boshda o'ynash.
14. O'yin mashqlari 3x2, 4x2 va boshqalar har xil usulda.

To'pni to'xtatishni o'rgatish metodikasi

To'pni to'xtatishdan asosiy talab – uslubni qisqa vaqt ichida bajarish va to'pni har bir aniq vaziyatda eng foydali o'ringa olib kelishdir. Bunda shug'ullanuvchi har qanday tezlikda uchib kelayotgan to'pni to'xtatishga o'rghanish lozim. Yerdan dumalab kelayotgan, havoda uchib kelayotgan va yuqoridan tushib kelayotgan to'pni oyoq, gavda va bosh bilan to'xtatish mumkin.

To'pni to'xtatib qolish to'pga zarba berishni o'rgatishda qo'shib o'rgatilib boriladi.

To'pni to'xtatib qolishni o'rgatishga oid mashqlar:

1. Tashlab berilgan to'pni turli usullarda to'xtatish.
2. Sherigi yoki murabbiy tepib yuborgan yoki qo'li bilan tashlagan to'pni turli usullar bilan to'xtatib qolish.

To'pni tashlashni o'rgatish metodikasi

Shug'ullanuvchi to'pni ikki qo'llab uzoqqa aniq tashlashni bilishi kerak. To'pni tashlashga o'rgatishda shug'ullanuvchi sherigi bilan mashg'ulot olib borgani ma'qul. Bu mashqda aniq tashlash takomillashadi, chunki sherigi to'pni qo'liga yoki oyoqiga, boshiga, ko'kragiga turli tezlikda tashlab berishni tashqiladi. Natijada to'pni tashlab berish mashg'uloti, to'pga zarba berish oyoqda va boshda hamda to'pni to'xtatish mashg'uloti bilan qu'shib olib boriladi.

Aldab o'tish harakatlari o'rgatish metodikasi

Aldamchi harakatlar shunday bajarilishi kerakki, u haqiqatga yaqin bo'lsin va raqib ham shunga ishonsin. Gavda harakatlari boshqara bilish va mo'ljalini yashirishni bilishi lo'sim. Aldamchi harakatlarni bajarish shug'ullanuvchi individual harakatlariga bog'liqdir. Aldamchi harakatlarni o'rganishda harakatli va sport o'yinlarining ahamiyati kattadir.

To'pni olib qo'yish

To'pni olib qo'yish musobaqa va mashg'ulotlar jarayonida mashq qilinadi. To'pni olib qo'yishga oid mashqlar kam uchraysdi. To'pni olib qo'yish uchun uni olish lahzasini aniq belgilash muhim. Shug'ullanuvchilar to'pni gavda bilan turtish, oyoq bilan tepish orqali to'p yaqinlashib kelganda unga oyoq qo'yib qolish bilan to'pni olib qo'yishni mashq qiladilar.

Darvozaboning texnik usullarini o'rgatish metodikasi

Mashg'ulotda darvozabon sifatida ishtirok etadigan shug'ullanuvchi yuqorida sanab o'tilgan uslublardan tashqari faqat ular uchun ruxsat etiladigan uslublarni ham bajaradilar: yu'ni to'pni qo'l bilan ushslash, to'pni qo'l bilan tashlash, to'pni qo'l bilan olib yurish.

Darvozabonning texnik uslublarini o'rgatish uchun namunaviy mashqlar

1. Dumarlab, to'g'ridan, yondan va yuqoridan uchib kelayolgan to'pni ilib olish.
2. Sherigi yonga tashlab bergan to'pni yiqilib ilib olish.
3. Har xil dastlabki holatlarda turib, "o'tirib, yotib va boshqalar" sherigi tashlab bergan to'pni ilib olish yoki qaytarish.
4. Burchak va jarima to'plarini ilib olish yoki bir qo'lda va ikki qo'lda o'tkazib yuborish.
5. Tepadan tushayotgan to'pni sakrab ilib olish.
7. 11 metrlik jarima to'pni qaytarish.
8. 2-3 marta oldinga yoki orqaga o'mbaloq oshib, 1,5-2 metr narida yotgan to'pga tashlanish.

Taktik-tayyorgarlik

Taktikada ta'lim va takomillashish jarayoni mashg'ulotning juda muhim hamda murakkab bo'limidir. Taktik tayyorgarlik shartli ravishda umumiy va maxsus tayyorgarlikka bo'linadi.

Shug'ullanuvchining umumiy taktik tayyorgarligi. Bunga sport o'yinlarining umumnazariy taktik asoslarini bilish, ulardan turli sharoitlarda amaliy foydalana olish, taktik fikrlashni tarbiyalash kiradi.

Maxsus taktik tayyorgarlik bevosita futbol materiallari asosiga quriladi va taktik ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni chuqurlashtirib takomillashtirishga qaratiladi. Shug'ullanuvchilarning texnik tayyorgarligi nazariy va amaliy mashg'ulotlar yordamida amalga oshiriladi. Taktikaga doir nazariy bilimlar hajmini kengaytirish uchun adabiyot manbaridan foydalanish, videomateriallarni ko'rish, musobaqa va o'quv-mashq mashg'ulotlarini kuzatish, o'yin qoidasini o'rganish kerak.

Taktik tayyorgarlik jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Shug'ullanuvchilarda taktik fikrlashni, maydonda olib qilishni, turli o'yin vaziyatlarini hal qilishda ijodiy hajabbuskorlikni rivojlantirish;

2. Sherik bilan hujum chizig'ida ham, himoya chizig'ida ham shes'an harakat qilish. Shug'ullanuvchilarda qo'yilgan vazifalarini hal qilishda texnik usullar va taktik harakatlardan alohida, alohida, samarali foydalana bilishni shakllantirish;

3. Shug'ullanuvchilarda maydondagi o'yin vaziyatiga qarab ham jamoa harakatidan ikkinchisiga moyil va tez o'ta bilish qobiliyatini rivojlantirish.

Shug'ullanuvchilarning taktik ko'nikmalarini takomillabtirishda o'zlashtirilgan va o'rganilgan mashqlarni ko'p marta takrorlash taktik ta'lif va mashg'ulotning asosiy uslubini hisoblanadi.

Taktik tayyorgarlik yakka, guruh va jamoa harakatlarini qillanishni ko'zda tutadi.

Musobaqa jarayonida shug'ullanuvchilar quyidagi ikki o'yin vazifani hal qiladilar: to'pni o'zga jamoa darvozasiga juda ko'p marta olib borish va o'z darvozasiga hech yaqinlashtirmaslig'i. Buning uchun shug'ullanuvchi sheriklari yordamida o'yin qoidalarini buzmasdan, har qanday imkoniyatdan foydalanih bo'lsa ham ikki vazifani: himoya qilish va hujum qilish vazifasini bajaradilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Futbol texnikasi nechta yirik bo'limga bo'linadi?
2. Yugurish, sakrash, to'xtash, burilish qaysi texnikaga qaraydi?
3. Fubolda yugurishning nechta usulublari bor?
4. Oyoq yuzining ichki qismi bilan zarba berish qaysi paytlarda qillanadi?

III BOB. SPORT O'YINLARIDA TRENIROVKA VA O'RGATISHNING ASOSLARI. O'QUV-TRENIROVKA JARAYONINING TUZILISHLARI

Sport o'yinlari jismoniy tarbiya vositalaridan biri bo'lib, bu o'quv-trenirovka jarayonida shug'ullanuvchilarning har tomonlama rivojlanish vazifasini hal etadi. Jismoniy tarbiya bo'yicha maktab dasturi quyidagi aniq maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan:

- o'quvchilar sog'ligini mustahkamlash, chiniqtirish, gormonik ravishda jismoniy rivojlantirish, yuqori darajada ish qobiliyatini qo'llab-quvvatlash va yutuqqa erishish, gigiyenaga oid ko'nikma va malakalarni odatlantirmoq (o'rgatmoq);
- maktab o'quvchilarida yuqori axloq-odob va iroda xususiyatini tarbiyalash;
- hayotiy zarur harakat, malaka va bilimlarni shakllantirish ularni turlicha sharoitda tatbiq qilish;
- o'quvchilarda asosiy harakat qobiliyatini baholash, makon va vaqtiga harakat parametrlarini rivojlantirish, jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishni shakllantirish, ud-daburonlikni tashkil qilish, shaxsiy jismoniy takomillashtirish, ehtiyojini tarbiyalash.

Jismoniy tarbiya fakultetlarida o'quv-mashg'ulot jarayonlarida kasbiy pedagogik tayyorgarlik vazifalari hal etiladi; nazarriy va metodik bilimni, zamonaviy o'yin texnikasi va taktikasining asosiy yo'llarini egallash, sport o'yinlaridan birining mahoratini oshirish.

Ushbu vazifalarga erishishda ko'proq zamonaviy metodik uslublardan keng foydalangan holda darsni tashkil etish bilan amalga oshiriladi.

O'quv-trenirovka jarayonining mazmuniga quyidagilar kiritiladi va ko'proq ahamiyat beriladi: jismoniy, texnik, taktik, ruhiy tashkiliy metodik va odil hakamlik tayyorgarligi. Ushbu jarayonlar o'zaro uzviy bog'liqdir.

Murakkab harakat malakalarini o'rgatish jarayonida organizm bilan bog'liq bo'lgan harakat nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy vazifani birga qo'shib olib boriladi va bilimlarni harakat, malaka vazifasini birga qo'shib olib boriladi. Harakat, malaka va bilimlarni o'rgata borib, o'qituvchi o'quvchilarni tarbiyalashni barcha kompleksi vazifalarini ko'rish maydonida ushlab turadi. Shuning o'ziga xos xususiyati nafaqat tarbiyani umumiy vazifalarni metodikasini hal etishda o'zining izini qoldirish, balki jismoniy tarbiya uchun ko'proq o'ziga xos, ayrim bir qator tarbiyaviy vazifalarni oldinga suradi.

- jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ulish odatini tarbiyalash;
- murakkab mashqlarni bajarishda jismoniy og'irlikni yengib o'tishni bilish, yuqori rivojlangan irodaviy sifatlarni tarbiyalash;
- kiyim-bosh, o'zining tanasini parvarish qilish, dam olib va mehnat rejimiga rioya qilishga odatlanish va gigiyenik malakalarini tarbiyalash;
- harakatlantiruvchi harakatni egallashda manfaatlarini umumiyligi asosida quriladigan, o'quvchilar o'rtasidagi to'g'ri munosabatini tarbiyalash.

Sog'lomlashtirish vazifasini hal etishda jismoniy tarbiyani barcha kompleks vositalari asosida amalga oshiriladi. Mashqlarini to'g'ri tanlash va taqsimlash salomatlik holatini jismoniy rivojlanirish, tayyorlarligini baholash, shug'ullanuvchilarining yudhiga xos xususiyati har doim o'qituvchilarining diqqat-tiborida bo'lishi shart.

O'rgatishni tabaqalashtirish, shuningdek tibbiy ko'rsatichlarga mosligi asosida o'quvchilar uchta guruhga bo'linadi. Asosiy tayyorlov va maxsus jismoniy rivojlanishni va tayyorlarligi bo'yicha orqada qolayotgan, o'quvchilarga maqsadli yo'naltirilgan uychi mashqlar maxsus vazifa qilib beriladi. O'quv normativlarni bajarish talablariga ayrimlari istisno tarida ruxsat etiladi.

Ta'lrim berish prinsiplari

Ta'lrim jarayoni va uni takomillashtirish ko'p qirrali bo'lib, irodaviy va jismoniy rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. U kishi faoliyatni qonuniyatlar bilan mos ravishda qurilgan. Bu qonunlarga asoslanganligi didaktik prinsiplardan o'z aksini topadi.

Ko'rgazmali prinsiplar

Ko'rgazmali prinsiplari har xil ko'rgazmali qurollar va (shemalar, plakatlar va h.k) mashqni aniq ko'rsatishda foy-dalanish bilan o'rganiladigan material haqida aniq tasavvur shakllanishi zaruriyatidan kelib chiqadi. Barcha yosh guruhlarida va o'quv-trenirovka jarayonining hamma bosqichlari da ko'rgazmali prinsipini amalga oshirish zarurdir. Analizator ushbu shug'ullanuvchilar uchun faqatgina harakatga keltiruvchi deb hisobga olish kerak. Ba'zi bolalarda idrok qilish ko'rish analizatorlariga tayanch bo'lib o'ziga xos xususiyatini bilish o'qituvchiga bu prinsipini yakka tartibda amalga oshirishda yordam beradi.

Prinsipning muntazamligi va izchilligi

Prinsipning muntazamligi va izchilligi ta'lim tuzilishi ni aniqlanishini mo'ljallaydi. Mashg'ulotda muntazamligi mashg'ulotni va o'quv materiallarni aniq rejalashtirishga erishadi. Yangi material o'zlashtirishda oldin o'zlashtirilgan bilimlarga tayanish lozim. Bu harakat malakasini mustah-kamlaydi va kengaytirishga imkon beradi. Dastlab asosiy usullarni o'rganishda, ya'ni busiz o'yin bo'lish mumkin emas (basketbolda to'pni ilib olish va uzatish, voleybolda to'pni uzatish va to'r ustidan oshirish, futbolda to'pni to'xtatish va zarba berish va h.k.) keyinroq ko'proq murakkab kombinatsiya harakatiga, ikkita yoki bir nechta o'yin oddiy yoki sodda-lashtirganlarini o'rganadilar, keyinchalik ko'proq murakkab sharoitda muntazam ravishda mashq qilsalar, ular asta-sekin harakat qilishni yo'qotib boradi.

Prinsipning asta-sekinligi

Prinsipning asta-sekinligiga murakkab o'yin usullarini egalishga imkon beradigan, axloqiy-irodaviy sifatini rivojlantirishda texnik va taktik arsenalini kengayishida mashq texnikasini murakkablashtirishda yuqlamani tezlik bilan va hajmni asta-sekin oshirishni o'z ichiga oladi. Yuqlamani jadallashtirish va hajmnning ortishida o'qituvchi shug'ullanuvchilarining yoshini o'ziga xos xususiyatini diqqat-e'tiborga olish kerak, bajarilayotgan jismoniy yuqlamani barcha baravarligini to'g'ri baholash va qo'shlomlashtirish samarasini hisobga olish kerak. Aniq mantiqid, buning uchun amaliy tajriba va ilmiy ma'lumotlar asosida chiqilgan o'quv dasturda va norma talablari beriladi.

Prinsipni individuallashtirish

Jismoniy tarbiya jarayonida individuallashtirishning prinsipi ularning qobiliyatlarini eng yaxshi rivojlantirish maqsadida shug'ullanuvchilarining individual o'ziga xos xususiyatini hisobga olish ko'zlanadi. Individual ta'lim o'quvchilarining turli dorajadagi jismoniy tayyoragarligi, ularning yosh xususiyatlarning o'ziga xosligi, jismoniy yuqlamani o'tkazish qobiliyati bilan bog'liq holda kelib chiqadi. O'qituvchi individual reja va tavsiyonomalarini tuzatishga o'ziga xos xususiyatini xarakteriga, mijoziga, nerv tizimining xususiyatlariga tayanmog'i lozim.

Ayniqsa, qiz bolalarga ta'lim berishda individual ishslash alohida talab qiladi. Ularning psixologik xususiyatlari o'g'il bolalarga nisbatan alohida metodni, boshqalari esa jismoniy yuqlamani talab etadi.

Onglilik va faollik prinsipi

Bu prinsipga o'quv-trenirovka jarayonida onglilik va faollik munosabatida bo'lish ko'zlanadi hamda undagi u yoki bu vazifani hal yetishni chuqurroq tushunib yetishni qaysidir metod va vog'italar bilan hal etiladi.

O'qituvchi bolalarda darsga nisbatan qiziqishini pasaytirmayotgan holda o'quv-trenirovka jarayonini ham, tarbiyaviy vazifani hal etishni yechishni topadi.

O'qituvchi o'quvchilar oldiga nafaqat yaqin vaqt ichida maqsad qo'yish, balki istiqbolning yuksaklik va takomillashtirishni xuddi har birini individual ravishda, xuddi shunday sport jamoasida yaxlit bo'lishini nazarda qoldirmaslik kerak.

Texnik-taktik o'yin usullarining asl mohiyatini chuqur anglab yetmasdan yuqori sifatlarga umid bog'lash juda murakka bdir. Shug'ullanuvchilar o'zlarining faoliyat natijalarini angalamoqlari darkor hamda trenirovka yuklamalarni bajarishda bo'layotgan fiziologik va psixologik jarayonlarda o'zlarining ish qobiliyatlarini nazorat qilib borishni bilishlari kerak.

O'quv-trenirovka jarayoniga qiziqishi va ongli ravishda munosabatda bo'lishining natijasi va o'yin usullarini o'rganishiga va takomillashtirishiga faol intilishi va tanlab olingan o'yinda o'zini-o'zi takomillashtirishga intiladi. O'quvchi tomonidan faollikka yo'naltirish kerak va uni nazorat qilib turish kerak. Shug'ullanuvchilarining muyaffaqiyatlarini o'z vaqtida va aniq baholash ularni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini va faoliyatini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan ta'larning barcha prinsiplari o'zaro uzviy bog'langan holda qo'llaniladi. O'qituvchi har birini alohida holatda qachon va qanday holatda u yoki bu ta'limga prinsipini qo'llashni mustaqil hal qilishi kerak.

O'rgatish usullari

O'rgatish metodi deganda bilim, malaka va mahorat, harakat, axloqiy va irodaviy sifatlarning rivojlanishiga ega bo'lgan usul deb tushuniladi. O'qituvchi u yoki bu harakatni tushuntiradi va ko'rsatadi, o'quvchilar esa ularni o'zlashtirib oladilar. Usulni tanlash o'quvchilarining tayyorgarligiga, materialning mazmuniga, pedagogik vazifalarining qo'yilishiga ko'ra aniqlanadi.

Sport o'yinlari bo'yicha o'quv-trenirovka jarayonida o'rgatish metodlarining asosiy uchta guruhi mavjud: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy. Birinchi ikkita guruhlar dastlabki shartni tashkil etadi, ya'ni amaliy harakat mashqni to'g'ridan-to'g'ri foydalanib amalga oshiriladi. Barcha metodlar o'zaro bog'lanadi va kompleks ravishda qo'llaniladi.

Og'zaki usul

Og'zaki usulga quyidagilar kirdi: suhbat, tushuntirish, sajx javob, tahlil, vazifa, ko'rsatma berish, farmoyish berish.

Suhbat usuli shug'ullanuvchilarning texnika-taktika usulini, trenirovka uslublari haqida, o'yin faoliyatini tashkil etishda bilmalarni to'ldirish uchun qo'llaniladi.

Suhbat obrazi jo'shqin tushunarli ravishda ravon bo'lishi kerak.

Tushuntirish orqali nafaqat harakatning xarakterini va shaklini ochib berish, balki uni to'g'ri bajarishga ta'sir etuvchi sabablar ochib beriladi. Tushuntirish mashqni bajarish oshun u dastlabki shartni tashkil etadi. Bu esa aniq harakat qilishni asosiy mohiyati va mazmunini aytib beradi. Tushuntirishda asosiy diqqat-e'tiborni ayrim detallarga yoki qismlariga to'xtolib o'tmasdan, balki eng muhim harakatga qaratiladi. Quruhda o'yin usul va yo'llarini o'rganib olishda, guruh bo'lib komandali harakatni o'rgatishda, bo'lajak o'yinga ko'rsatma hujayrida tushuntirish usulidan foydalaniлади.

Suhbat savol va javob, fikr almashish, qo'yilgan xatolarni muhokama qilish va bartaraf etish ko'rinishida o'tkaziladi. Suhbatni guruh va individual shaklda ham o'tkazish mumkin.

Tahlil qilish sport amaliyotida birorta vazifani bajarilandan keyin (texnik va taktik qayta ishlashda) o'yin tamom hujayridan keyin yoki bo'lajak o'yinni tahlil qilishda keng foydalaniлади. Tahlil qilish bir tomonlama bo'lishi mumkin, qachonki buni o'qituvchi o'zi o'tkazsa yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin, bunda shug'ullanuvchilarning o'zлари ham qatnashadilar.

Vazifa bu o'yin mashqni bajarish oldida yoki darsdan oldin qo'yiladigan vazifa shakli hisoblanadi. Vazifa bitta yoki guruh bo'lib taktik harakatni berishi mumkin.

Ko'rsatma texnik va taktik bo'yicha mashqlarni bajarish vazifasining qisqacha shaklidir. Ushbu o'quv o'yinlarini o'tkazishda yoki o'zaro harakat qilishda taktikani o'rganishda ulardan foydalaniлади. Ko'rsatma o'yin mashqlarida yoki o'yinni to'xtatmasdan o'zaro harakat qilish jarayonida berish mumkin.

Farmoyish bu shug'ullanuvchilarga og'zaki ta'sir etish shaklidir. U qisqa va aniq fikr lo'nda ifodalash bilan farq qiladi. Ular ma'lum shaklga ega bo'lmasdan uni bajarishga tayyorgarlik ko'rish mashqni bajarish uchun beriladi.

Ko'rgazmali usul

Ko'rgazmali usul quyidagilardir: mashqni ko'rsatish, ko'rgazmali qurolni namoyish etish (shema, jadval, kino-halqa, kinogramma va h.k), o'quv o'yinlarini yoki rasmiy mu-sobaqalarni ko'rish.

Ko'rsatishni har doim o'rganiladigan mashq to'g'risida to'liq tushuncha berilishi kerak va og'zaki so'z bilan foydalanib birga qo'shib olib boriladi. U o'qituvchi yoki birorta o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. Muhimi ko'rsatishdan oldin o'quvchilarining diqqat-e'tiborini bir joyga to'plab, kuzatish uchun (ko'rsatish uchun joyni o'quvchilarini saflash va h.k) sharoit yaratishdir. Ko'rsatishni namuna bo'ladigan va aniq bajarilishi aniq xarakterga ega bo'lishi bu o'rganilayotgan o'yin harakatini namunali ko'rsatishni yaratishga imkon beradi.

Ko'rgazmali qurollarni namoyish etish yordamchi usul bo'lib u faqatgina shunda samarali bo'lishi mumkin, qachonki boshqa usullar birga qo'shilib olib borilganda hisoblanadi. U guruh va komandali taktik harakatini o'rganishda yaxshi samara berishi mumkin. Sport o'yinlariga o'rtasida tez-tez takroriy yoki sekin ko'rsatishi va namoyish etish amaliyotida qo'llaniladi. Bu esa bolalarni ko'proq harakat elementlariga jiddiy ravishda qayerda ko'proq xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan muammolarga diqqat-e'tiborni qaratishga imkon beradi.

Amaliy usul

Ushbu usul shug'ullanuvchilarining harakat faoliyati faoligida tashkil topadi.

Mashq qilish uslubi harakatini ko'p marta takrorlashni nazarida tutgan holda u o'yin texnikasi elementlarini yoki o'yin yo'llarini egallashga yordam beradi. Takrorlashni to'liq yo-

id qismlar bo'yicha amalga oshirish mumkin. Barcha qismlariga bo'lib o'rganish harakatni ayrim qismlarini egallashni keyin-chalik uni bir butun qilib birlashtirishni nazarda tutadi. Bu ajratish faqatgina shunda zarurki, qachonki qayerda o'rgatishda uncha katta bo'limgan samara berish mumkin.

Bo'lim o'yin mashqi shaklidagi xarakterga ega bo'lishi kerak, ya'ni ayrim haraktni tamom qilingan shaklida. Voleybolda hujumkor zarba berishni o'rganish uchun bu ko'p sakrash va vakrab to'pni ilib olish, to'pni o'zi tashlash bilan hujumkor zarba berish. Bo'lim uslubiyatini faqatgina boshlang'ich bosqichda o'rgatish tavsiya qilinadi. Qachonki, harakat o'zlashtirilib olin-gandan keyin uni boshqa usullar yordami bilan mustahkamlanadi.

Yordamchi mashqni qo'llash yengillashgan sharoitda mashqni bajarish metodik yo'llari eng ko'p samara beradi. Ularni tanlash va murakkabligi o'qituvchi tomonidan aniq belgilanadi va o'qituvchining tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. O'yin harakatini mustahkamlash murakkablashgan sharoitda mashqni bajarish vaziyatida o'tadi.

O'yin usuli

O'yin uslubiyati texnika elementlarini egallagandan keyin qo'llaniladi. O'ynovchilar o'rtasidagi o'zaro harakatni o'rgatishda, texnik usullarni takomillashtirishda o'yinda muvaffaqiyatli ravishda 2×2 , 3×3 , 4×4 beshta xalqaga, bitta darvozaga va boshqa o'yin qo'llaniladi. O'yin uslubiyati musobaqalashish bilan muvaffaqiyatli birga ko'chib bajariladi. Bu esa qiziqishni orttiradi, yuqori emotsional kayfiyatni keltirib chiqaradi, o'yin yo'llini yoki o'yin mashqini bajarishda malakasini yaxshi mustahkamlashga yordam beradi. Uning asosiy mohiyati shundan iborat bo'ladiki, o'yin qoidalariga rioya qilgan holda, bitta o'yin harakatini yoki ularning kompleksini bajarishda musobaqalashadi.

Sport o'yinlarida o'yin yo'llarini takomillashtirishda chejiga yo'q, ular musobaqalarda mustahkamlanadi va takomillashtiriladi.

Musobaqalashish usuli

Musobaqalashish usuli o'rgatish va takomillashtirish turli jarayonida katta o'rinni egallaydi. Bolalar dastlabki bosqichi da alohida o'yin mashqlarini va taktik topshiriqlarini bajarishni so'ngra soddalashtirilgan qoida bo'yicha va nihoyat oxirida ruy miy uchrashuvlarda musobaqalashadilar. Bu usul zarur bo'lган o'yinni almashtirib egallahsga imkon beradi. O'yin vaziyatini to'g'ri baholashga va undan yanada ko'proq samarali texnik usullarni qo'llashga bog'liq bo'ladi.

Musobaqalashish usuli organizmni funksional sistemasi ni yuqori darajada takomillashtirishga erishishga, texnik ma horatini takomillashtirishga, yuqori sport natijalariga erishishda yordam beradi.

O'rgatishda katta yutuqlarga erishishi mumkin, qachonki yoshiga, tayyorgarligiga murakkab harakatni o'rganib olishda har xil usullarni birga qo'shib bajarilgandagina muvaffaqiyatlari qozonish mumkin.

O'yin usullarini o'rganib olishning tuzilishi

Sport o'yinlarida o'yin usullarini o'rganib olish o'zaro biri bilan bog'liq to'rtta bosqichga bo'linadi: o'yin usuli texniki bilan bajarishni umumiyan tanishtirish; maxsus yaratilgan sharoitda soddalashtirilgan qoida bo'yicha uni o'rganib olish murakkablashgan sharoitda o'rganib olish; o'yin usulini takomillashtirish.

O'yin usullari bilan umumiyan tanishtirish

Bu bosqichda o'yin harakati texnikasi haqida to'g'ri, aniqlik tushuncha hosil qilish kerak. Buning uchun bir necha marta ko'rsatishdan foydalaniladi; dastlab tezlik bilan, xuddi o'yin sharoitidagidek, keyinchalik sekinroq bu paytda ko'proq harakatni muhim detaliga diqqatini qaratiladi: O'yinda ushbu usulni ahamiyati haqida ma'lumot beriladi, texnikasi tushuntiriladi. O'quvchilar shundan so'ng o'yin usullarini mustaqil bajaradilar. Shunga erishish zarurki, xato bo'lishiga, shunda harakat malakalarini shakllanishi ko'proq muvaffaqiyatlari o'tadi.

Maxsus tashkil etilgan soddalashtirilgan usullarni o'rganish

Bunda harakat tuzilishini to'g'ri egallash vazifasi qo'yiladi. Bu uchun soddalashtirilgan sharoitda bajariladi (basketbolda o'stuvchi tomonidan to'pni tashlagandan keyin to'pni uzatish uchun olib olish, voleybolda to'pni uzatish holati uchun o'qituvchiga qulay bo'lgan to'pni ustidan oshirgandan keyin uzatishni bajarish va boshqa). Eng ko'p murakkab o'yin usullari bo'lib o'rgatiladi (qismlarga bo'lib). Masalan, voleybolda hujumni zarba berishni dastlab sakrash bilan o'rgatiladi, so'ngra shundan eng yuqori nuqtasida o'quvchi tomonidan oshirilgan to'pni ilib olishni sakrash bilan birga qo'shib bajariladi. Faqat shundan keyingina mashq to'liq bajariladi. Shunday qilib har o'yinda oddiylikdan murakkablik prinsipi asosida rioya qilish holda, o'yin usullarini ketma-ket o'rganish usuli ishlab chiqiladi. Mashg'ulotni ko'proq qulay dastlabki holatdan, masofa ni qo'qartirish, uzatish kuchini, siljish tezligini va boshqa oshish yo'lli bilan bajarish shartini soddalashtiradi.

Mashqlarni bajarishda xatosini aniqlash va to'g'rilaish uchun Dastlab texnikasini bajarishda asosiy (qo'pol) xatolarini keyin esa ikkinchi darajalilari (mayda) to'g'rilanadi. Xatoni to'g'rilaish uchun takroriy ko'rsatuv, tushuntirish usuli texnikasini bilish sekin-asta bajarish qo'llaniladi va h.k.

Murakkablashgan sharoitda usulni o'rgatish

O'qituvchi ushbu bosqichda, o'yin vaziyati to'satdan o'qituvchiga usulni bajarilishi uchun aniq holatida usuldan beng loydalanishga erishadi. Buning uchun o'yin mashqlaridan o'quv o'yinida usulni bajarishga ma'lum ko'rsatmalardan loydalaniladi. O'yinda usulni takomillashtirishga ijodiy tashabbuskorlik qarorni tezda qabul qilish uchun sharoit yaratiladi.

O'rgatish va trenirovkaning asosiy vositalari

O'rgatish va trenirovkaning asosiy vositalari mashqlari hisoblanib u asosiy va yordamchilarga bo'linadi. Yordamchi

mashqlar sport o'yinlariga o'rgatishda barchasi umumiy rivojlantiruvchi va maxsus bo'ladi, shuningdek boshqa sport turlari da foydalilaniladigan mashqlardir. Asosiysi – bu o'yin texniki si va taktikasi bo'yicha beriladigan mashq. Ular alohida xuddi o'yin usulida yoki turli-tuman o'yinga yaqin bo'lgan sharoitda q'shilishlar bilan bajariladi.

Umumiyl rivojlantiruvchi mashqlar

Umumiyl rivojlantiruvchi mashq o'yin texnikasini muvaffaqiyatlige egallash uchun zarur bo'lgan, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi, har tomonlama jismoniy tayyorgarlik vazifasini hal etadi. Umumiyl rivojlantiruvchiga harakat malakalarini takomillashtirishga yordam beradigan barcha gimnastika, yengil atletika, akrobatika mashqlarini kiritish mumkin.

Aloida mushak guruhlarini rivojlantirish, ayniqsa belgilari bo'yicha ular tanlab yoki ajratib ta'sir etishi mumkin: qo'l va yelka mushaklari uchun, tana va bo'yin mushaklari uchun old va tos mushaklari uchun.

Tayyorgarlik mashqlari

Tayyorgarlik mashqlari o'yinda zarur bo'lgan, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'yin usullarini bajarish uchun dastlabki holatni qabul qilish va tezda tezlikni olishni bilish, qo'l barmoqlarini egiluvchanligi va kuchi, harakat reaksiyasi tezligi va yo'nalishini sakrovchilikni aniqlash. Tayyorgarlik mashqlari buyumsiz va buyum bilan bo'lishi mumkin (to'ldirma to'plar, gantellar, arg'amchilar va boshqalar), shuningdek bo'yiga to'siqlar bilan o'ynaladigan har turli estafetalar, maxsus tanlab olingen harakatli o'yinlarni kiritish mumkin.

Yordamchi mashqlar

Yordamchi harakat – bu texnik usullarni egallab olishga yordam beruvchi harakatdir. Bu mashq o'zida bajaradigan usulning tuzilishi bo'yicha bajarish xarakteriga ko'ra va tashqi

bo'lgilari bo'yicha o'xshash harakatni o'zida ushlaydi. Yordamli mashqlarga quyidagilar kiradi: usulni taqlid qilish, to'psiz yin usulini bajarish, sheri gi yordami bilan usulni bajarish (sherigini muhfaza qilishda).

Asosiy mashqlar

Asosiy mashqlar texnikani egallash bo'yicha bu shaxsiy yin usulini to'liq yoki bo'lib-bo'lib uslubi bilan o'rganishdir. Bu mashqlarni bajarishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish zarur: to'psiz harakat qilishdan to'p bilan harakat qilishcha turgan joyda mashq qilmoqdan to siljish bilan bajariladi. Mashqqacha, bitta usulni bajarishdan o'yinga, musobaqaga yoqluroq bo'lgan har xil sharoitda uni birga qo'shib bajarishda. Texnikaviy o'rgatishda muhimi yaxshi ko'rsatish va namunaviy tushuntirish zarur. O'qituvchining mashqni bajarishda texnikasini to'g'ri namunali ko'rsatib, o'zi tez-tez ko'rsatsa boydali bo'ladi. Texnik usullar individual, guruhli va komandanli taktik harakatlarni bajarish bo'yicha mashqlar yordamida ham ko'stni tuzatadi va takomillashtiradi.

O'rgatish va trenirovka mazmuni

O'rgatish va trenirovka – bu jismoniy sifatning rivojlanishi, haradat malakalarini takomillashtirish va o'zlashtirishning bir butun jarayonidir.

O'rgatish – bu jarayon sport taktikasi asosini va texnik usullarning tuzilishini boshlang'ich bosqichini egallashiga yo'naltirilgan. Bular barcha boshqa vazifalarni bir vaqtida hal yetishdan oldin bo'ladi. Texnika va taktika masalalarini takomillashtirishini hal etadigan jarayon, shuningdek organizm funkciyasini, harakat sifatini rivojlantirish trenirovka deb ataladi.

Sport trenirovkasining asosiy vazifasi trenirovka jarayoni ni qildligi va trenirovka yuklamasini asta-sekin (maksimum-pachan) oshirish yo'li bilan yuqori sport natijalariga erishishga yo'naltirilgandir.

O'quv-trenirovka jarayoni, shuningdek tarbiya vazifasi ni hal etishga undaydi: xulq normasini shakllanishni, o'zini tutishni, irodani va jo'shqinlikni, xarakteri chiziqlarini, estetik did va tushunchalar. Sport trenirovkasini mazmuniga quyidagilar kiradi: jismoniy, texnika, taktika, psixologiya va nuzariy tayyorgarlik, ushbu yo'nalişlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, sport to'rini o'ziga xos xususiyatiga bog'liq holda u yolda bu hajmda yo'naltiriladi. Sport o'yinlarida, qayerda sport texnikasini shakllanishi birinchi darajali talab hisoblanadi. Ushbu jarayonga ko'proq hajmdagi vaqt ajratiladi. Ikkinchi o'ringa taklit va psixologik tayyorgarlik qo'yiladi.

Jismoniy tayyorgarlik

Jismoniy tayyorgarlik – bu pedagogik jarayon bo'lib, organizmning umumiy ish qobiliyatini oshirishga, harakat sifatini rivojlantirishga, salomatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan. U zarur bo'lган amaliy malakalarni beradi. Yetarli darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lmasdan turib, sport o'yinlarida murakkab texnik usullarni muvaffaqiyatli egallah mumkin emas.

Jismoniy tayyorgarlik shartli ravishda umumiy va maxsusga bo'linadi.

Umumiyl jismoniy tayyorgarlik

Umumiyl jismoniy tayyorgarlik – bu sportchini tayyorlashni boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U yuqori sport mahoratiga erishishda, u yoki bu boshqa o'yn harakati komponentlarida ixtisoslashtirish uchun dastlabki sharoitni yaratishda va har tomonlama jismoniy rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Umumiyl jismoniy tayyorgarlik masalasini hal etish uchun sport o'yinlarini tanlab olingan to'rini o'ziga xos xususiyatlari va yoshi, jinsini hisobga olish bilan keng doiradagi vositalar qo'llaniladi. Bu eng avvalo, "Alpomish va Barchinoy" testi, me'yorlarini yengil atletika, gimnastika, akrobatika, og'ir atletika, suzish mashqlarining barchasidir. Aniqlanishicha, murak-

ab o'yin masalalarini shakllantirish shug'ullanayotganlarda ko'proq muvaffaqiyatli o'tadi, ular ko'proq kengroq harakat qribalarini egallaydi. Shuning uchun mashqni umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun shunday hisob-kitob bilan tanlash keladi, chunki ular nafaqat organizmga har tomonlama ta'sir qisi, balki ushbu sport o'yinlari uchun zarur bo'lgan, ayniqsa shunday sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa jismoniy mashqlarni mos ravishda tanlashga, hajmini, o'tkazish metodikasini, trenirovka sikllarini barcha yillar davomida bilan holda rejalashtirishni ta'minlaydi. Bu yerda birinchi darajali shamiyati mashqlarni ketma-ket qo'llanishiga va uslubiga yo'naltirilganligiga ega bo'ladi. Shuning uchun ular ushbu mashq'ulotda hal etadigan vazifani aniqlanib, mashqni taqsimlabni va ketma-ketligini aniq ishlab chiqilishi kerak. Unda shunday mashqlarni tanlab olish mumkinki, ular bitta sifatni rivojlantiradi va boshqasini rivojlantirishga yordam beradi, undi shunday bitta harakat malakasini egallahda boshqasini muvaffaqiyatli egallahsha ta'sir etadi, bu esa garmonik tomonidan jismoniy rivojlanish vazifasini hal etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Prinsipning muntazamligi va izchiligi nimani mo'ljallaydi?
2. Prinsipni individuallashtirish nima?
3. Onglilik va faoliyk prinsipi?
4. Onglilik va faoliyk prinsipi qaysi usulga kiradi?
5. Ko'rgazmali usulga nimalar kiradi?

IV BOB. MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIK

Maxsus jismoniy tayyorgarlik – jismoniy sifat va bilimni rivojlantirish jarayoni bo'lib, aniq texnik usullarni tezda egallashga yo'naltirilgan hisoblanadi. O'yin sharoitida zarur bo'lgan uni vositalari yordamida ma'lum sifatlarini rivojlantiradi: tezda nijishni bilish, statik holatdan harakatga tezda o'tishni bi-

lish, siljishdan keyin tezda to'xtashni bilish sakrovchanlikni, bo'g'indagi harakatchanlikni, uyni sharoitida epchillikni, alohida mushak guruhlarini kuchini rivojlantiradi. Ushbu maksadda bo'yicha asosiy o'yin harakati tuzilishi bilan o'xshash bo'lgan maxsus tayyorgarlik mashqlaridan foydalaniladi.

Darsning birinchi qismiga tezlik, epchillik, sakrovchanlikni rivojlantirish uchun mashqlarni kiritish tavsiya qilinadi. Ikkinchisiga-kuch va boshqa sifatlarni (o'yin usullarni o'rganish bilan bir qatorda) rivojlantirish uchun mashqlar beriladi.

Jismoniy sifat trenirovkani kompleks uslubiyati bo'yicha o'tkazilganda ko'proq muvaffaqiyatli rivojlanadi, ya'ni qachonki bir vaqtning o'zida bitta sifatni emas, balki bir necha sifatlarni rivojlantirishni nazarda tutiladigan, turli-tuman vositalar foydalaniladi (masalan, tezlik, kuch va chidamlilik, sakrovchanlik va chidamlilik va boshqalar.)

Kuch boshqa sifatlarni namoyon etish uchun asos hisoblanadi. Uni darajasini rivojlantirishdan tezlikni, chidamlilikni, epchillilikni namoyon etishga bog'liq bo'ladi. U esa barcha sport o'yinlari turlaridagi barcha o'yin usullarini bajarish uchun zarurdir.

Mushak kuchi mushak to'qimasini morfologik tuzilmalarini va fiziologik ko'ndalangji katta-kichikligiga bog'liq bo'ladi. Maxsus mashqlar muntazam ravishda qo'llanilishi natijasida mushak tolalari qalinlasha boradi, kapillyar qon tomirchalar ishi yaxshilanadi, mushaklar eniga ortib boradi.

Mushak faoliyatini rejimidan kelib chiqib, yoki bog'liq holda mashq dinamik va statik holatga bo'linadi. Dinamik mashqlarda tana va uning qismi bo'shliqda shunday siljiydiki, bu xuddi yugurish yoki sakrash mashqlari qanday bajarilsa shunday o'tadi. Statik mashqlarda, ushlab turishni va cho'zilishni ma'lum holatdan (xuddi tayanib, osilib turganday) tana holati va xilma-xil harakatlar qo'llaniladi. Bolalar bilan ishlashda ko'proq dinamik harakatlanishga e'tibor beriladi.

Kuchni rivojlantirish uchun beriladigan mashqni 8-10 yoshdan boshlab tavsiya qilish mumkin. Bu yoshda kuch-

ni rivojlantirishga shaxsiy og'irligini foydalanish bilan (cho'qqayib o'tirish, qo'lni bukish va yozish) yoki raqibni qarshilik ko'rsatishi bilan bajariladigan (juft-juft bo'lib qarshilik ko'rsatish va boshqalar) mashqlari tavsiya qilinadi, shuningdek cho'zilishga oid mashqlar tavsiya qilinadi. Mushak kuchini o'sishi uning rivojlantirish uslubiyatlariga bog'liq bo'ladi: cho'zilish yoki tortish miqdoriga, takrorlash soniga, shuning uchun mashqni bajarishni uzoq davom etmasligi kerak va huddan tashqari zo'riqishni keltirib chiqarmasligi kerak.

Mashq og'irligining chegarasi yukligi uchun to'ldirma tun, gantel, gimnastik tayoqcha va boshqa og'irliklar qo'llaniladi. Og'ir yoki vazmin qilish bilan mashqni dastlabki bosqichida sekin yoki past me'yorda bajariladi. Me'yor asta-sekin o'shib borishi mumkin. Kuchni rivojlantirishga oid mashqlar bo'shashtirish mashqlari bilan almashtirib olib boriladi.

Qiz bolalar bilan mashg'ulot o'tkazishda nihoyatda ehtiyyotkorlikka rioya qilish zarur. Ular uchun mashqni bajarish tezligi va taqsimlashni, bolalarga beriladigan mashqlarga nisbatan hamroq bo'ladi. Og'ir bo'limgan asbob-anjomlar, gimnastik tayoqcha, o'zining tanasi og'irligidagi og'irlik mashqdan og'ir bo'llishi mumkin emas.

Sport o'yinlarining barchasi uchun sakrovchanlikni rivojlantirish juda muhimdir, u esa bajariladigan harakating umumiy koordinatsiyasidan va qo'l-oyoqlarning pastligi mushaklarini, uni qisqarish tezligini rivojlantirishga bog'liq bo'ladi. Uni rivojlantiish uchun gimnastika skameykasi ustidan uzunlikka, balandlikka sakrashda foydalaniladi, boshqa to'siqlardan og'irlikni ko'paytirish bilan sakrash. Sakrovchanlikni yaxshi o'sishida mushakni oldinidan ishslash rejimini mo'ljalga olib, qo'shish bilan 1-1.5 balandlikdan sakrash mashqini sakrovchanlik o'sishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Tezlik deb ushbu sharoitda vaqt bo'lagi uchun minimal harakatni bajarishini kishi qobiliyati deyiladi. U o'ziga xos uchta omilga ega bironta tashqaridan ta'sir qiluvchi tezda javob harakati, yakkama-yakka harakatni tezligi va harakat

chastotasini vaqt birligidir. Bu barcha omillar kompleks (aralash) namoyon bo'ladi.

O'yin faoliyatida harakat qilayotgan buyumga (to'p va b.) raqib harakatini o'zgarishini, o'yin usulini bajarilishini va siljishiga, o'yin harakatida aniq qarorni qabul qilishida tezlik namoyon bo'ladi. Tezlikning namoyon bo'lishi shakllari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q. Startdan olinadigan tezlikni yaxshi egallash mumkin, biroq sekin tahlil qilish va qaror qabul qilish yoki yaxshi va o'yin usulini tez bajarish, lekin raqibini siljish ta'siriga sekin javob berishi mumkin.

Tezlikni rivojlantirishni asosiy vositasi tezlik xarakteridagi mashq hisoblanib, u boshqa harakatlar bilan kompleks bajariladi. Ular tez, to'satdan beriladigan signal bo'yicha (iloji boricha ko'rish) bajariladi. Bu shu narsa bilan bog'liqki, ya'ni o'yinda ko'rishga ta'sir qiluvchi ustun keladi. Mashq turli-tuman bo'lishi mumkin, har xil mushak guruhlarini o'z ichiga qamrab olishi shart, shug'ullanuvchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Agarda uni rivojlanishi ustida muntazam ravishda ishlanilsa, vaqt o'tishi bilan tezlik sifatini yo'qotish mumkin. Uni kichik maktab yoshidan boshlab rivojlantirish boshlanadi. Buning uchun o'yin usullari startdan tezlik bilan chiqishini to'siqlar, to'plar bilan estafetalar elementlari bilan bajariladigan maxsus harakatli o'yinlar tanlab olinadi. Mashq tez me'yorda maksimal bajariladi.

Bolalarda harakat tezligini bajarish bo'yicha eng yaxshi natija 7 yoshdan to 15 yoshgacha erishish mumkin. Tezlikni rivojlantirish uchun mashqni charchagan vaqtda berish mumkin emas. Chunki bunda harakat koordinatsiyasi tezda buziladi va tezkor harakatni bajarishga bo'lgan qobiliyat yo'qoladi.

Tezlikni rivojlantirish uchun beriladigan mashq har bir tre nirovka mashg'ulotini boshida muntazam ravishda beriladi.

Chidamlilik – bu kishi qobiliyati harakatini aniqligini va tezligini pasaytirmsandan, uzoq vaqt davomida charchashni yengib o'tishiga aytildi. U katta tezlikda nerv sistemasini qo'zg'

ishga, organizm faoliyatini energiya bilan ta'minlashga o'yin malakalarini egallash darajasining bardoshligiga bog'liq bo'ladi.

Sport o'yinlarida chidamlilikni rivojlantirish jarayoni o'yin harakatida atsiklichnostligi, ushu sifatni rivojlanishi informatsiya (ma'lumot) tariqasida nazorat qilish qiyin kechaldi. Umumiylidagi chidamlilikni umumiylidagi rivojlanishiga xarakteridagi uzoq davom etadigan bir tekisda yugurish, shuningdek uzoq davom etadigan bir me'yorda ishlashni ortib borishi (changi, suzish, velosport va boshqalar) gan sport turlari bilan shug'ullanishni tarbiyalaydi. Maxsus chidamlilik o'yin usullarini texnikasini, qisqartirilgan maydonda o'quv mashq o'yinini o'tkazish, o'yinni o'tkazishga vaqtini oshirish, topshirikqlar orqasidagi tanaffusda dam olish vaqtini qisqartirishni uzoq vaqt davomida bajarishda erishiladi va h.k.

Koordinatsion chidamlilik ikki yoki ko'proq o'yinchilar bilan o'yinni o'zaro harakati tuzilishi bo'yicha murakkab bo'lgan muntazam ravishda mashqlar yordamida shug'ullanishi bilan rivojlantiriladi.

Bolalar bilan ishlashda shuni esda saqlash kerakki, ulariga xos bo'lgan qobiliyatini oshirib yuborishadi, shuning uchun mashqni tanlashda va yuklamani taksimlashda ehtiyyotlik bilan ish tutish lozim, bunda tibbiy-pedagogik nazoratdan keng toydalanish kerak. Charchash orasida o'yin vazifasini bajarish shug'ullanuvchilarning emotsiyonal kuchi yoqimsiz natijalarga olib kelishi mumkin.

Epchilllik – bu qobiliyat o'zgaruvchan vaziyatdagi sharoitda murakkab koordinatsion harakatni ayrim harakatni tezroq amalga oshirilishiga aytildi. Epchilllikni rivojlanish darajasi aniq, tejamkorlik va harakatni maqsadga muvofiqligi bilan aniqlanadi. Epchilllik qayerda koordinatsiya harakatiga yuqori talablar qo'yiladigan, barcha o'yin usullarida birinchi darajali ahamiyatiga ega bo'ladi. Uning rivojlanishi haqida shunday hukm chiqarish mumkinki, o'yin vaziyatini o'zgarishiga qarab uni bajarishni aniq darajasi bo'yicha, o'quvchilar qanday qilib tezda murakkab o'yin usulini egallashi mumkin. Epchilllikni rivojlanishini asosiy vazifasi ya'ni ko'pqirrali harakat

malakalarini egallagan bo'lishi mumkin. Epchillik jismoniy sifatlar majmuasi hisoblanadi va o'ziga nafaqat retseptorlari ishlash, balki ko'rish sistemasi ishini kiritadi. Epchillik sifati kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik bilan organik ravishda bog'liqidir.

Epchillikni rivojlantirishda quyidagi uslubiy tavsiyalarga tayanishi zarur:

- mashg'ulotni turli-tuman qilish, ularga muntazam ravishda yangi jismoniy mashqlarni, uni har xil shaklda qo'shib bajarish;
- Mashg'ulotda bir vaqtida sodir bo'ladigan, sharoitni va zuriib qo'llashni almashtirib borish;
- Harakat aniqligini yomonlashishni bиринчи belgilari bo'yicha organizmga beriladigan yuklamani boshqarish;
- qon tomirini, urishni tiklashni ko'rsatkichlari bo'yicha Alovida vazifalarni takrorlashni o'rtasidagi dam olishni yetarlilagini aniqlash;
- epchillikni rivojlantirishni bolalikdan boshlash kerak, chunki 7-10 da bu sifatni rivojlanishi jadal o'tadi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari murakkab jismoniy mashqlar texnikasini yengil ushlab oladilar, harakatlantiruvchi harakatik koordinatsiyasi bo'yicha murakkabini tezda va aniq o'zlashtirib oladilar.

Bolalarda epchillikni rivojlantirish bo'yicha har turli jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar, bir harakatdan boshqa harakatga tezda o'tishni talab qiladigan va o'ynovchilar bilan o'zaro ta'sir kuchi, turli-tuman o'zgaruvchan vaziyatda o'yin texnikasi va taktikasi mashqlaridan foydalaniladi. Epchillikni rivojlantirish uchun har xil malakalarini rivojlantirish, koordinatsion va makon (joy) vazifasini hal etishni talab qiladigan, gimnastika va akrobatika mashqlari alohida ahamiyatga egadir. Ushbu sifatni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashq, darsning asosiy qismini boshida unga ko'p bo'limgan hajmda beriladi. Ular o'ziga yangilik elementlarini kiritishi shart, chunki mashq o'zlashtirib olingen va tez-tez takrorlanishi epchillikni rivojlantirishga yordam berishni to'xtadi.

Balog'atga yetish davrida sekinlashadi va shuningdek epchillik sifatini rivojlanish ko'rsatkichi yomonlashadi.

Egiluvchanlik yoki harakatchanlik – bu qobiliyat katte amplituda bilan harakatlanishga aytildi. U bo'g'im va mushakning elastikligi, bo'g'imirlar tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Harakatchanlik mushak haroratini oshib borishida ortatti, ya'ni ularni ishida, emotsional qo'zg'alishida bo'ladi. Egiluvchanlikni aniqlashni me'yori maksimal amplitudaga xizmat qiladi, u bilan harakatni bajarish mumkin. Egiluvchanlik hakllari faol va sustligi bilan farqlanadi. Faollik – bu mushak suruhini qisqarishi hisobiga tanani alohida qo'shilishi ushbu qo'shilish orqali o'tishini harakatni katta quloch yoyishga erishishi qobiliyatidir. Sust – bu snaryad va o'ziga tomon tortib, raqib tomonidan yaratilgan, qo'shimcha kuchlanishni qo'shish hisobiga tanani ma'lum qo'shilishlarida katta quloch yoyishga erishish qobiliyatidir.

Bo'g'inda harakatchanlikni yetarli bo'lmasligi, shikastlanishni sababi, malakan'i sekin egallahni sababi bo'lib xizmat qiladi. Egiluvchanlikni tarbiyalashda bo'g'inqlarga muntazam ravishda ta'sir qilishda faol va sust uslublardan foydalaniladi. Bo'g'in harakatchanligi uchun beriladigan mashq barcha yoshdagi kishilar uchun mumkin bo'lgan, biroq ayniqsa egiluvchanlikni yuqori me'yorda rivojlanishi 7-10 yoshli bolalarda kuzatiladi. Faol egiluvchanlik qizlarda 11-13 yoshda, o'g'il bolalarda 13-15 yoshda maksimal o'lchashga yetadi.

Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarga amal qilinadi:

- kuniga 2-3 marta muntazam ravishda shug'ullanish;
- organizm yaxshilab qizdirilganidan keyin mashqni bajarish;
- 5-6 sekund davomida statik holatda ushlab turish, mashqni 8-10 marta uncha katta bo'limgan seriyada takrorlash;
- pay va bo'g'imirlari ishlash vaqtida chiqishda og'riq paydo bo'lganda mashq to'xtatiladi. Kattik charchaganda egiluvchanlik mashqlarini qo'llash tavsiya qilinmaydi.

- mashq harakat amplitudasini asta-sekin oshirib borish bilan bajariladi;
- o'rganilayotgan o'yinni texnikasi bo'yicha mashqda diqqatni bo'g'inni harakatchanlikni oshirishni keyinchalilbo'shashtirishga qaratilishi kerak (basketbolda to'pni savatga tashlashda, voleybolda to'pni yuqoridan uzatishni bajarishda va b.q.).

Jismoniy sifatni tarbiyalashda organizimga umumiylar biror joyiga ta'sir qiluvchi o'zaro aloqadorligida erishiladi. Egiluvchanlikni rivojlanishi alohida guruh mushaklarini oshirish yoki paylarning haddan tashqari cho'zilishi hisobiga qaddi - qomatini buzilishliga olib kelmasligi kerak. Bolalar bilan shug'ullanishda shuni eslab qolish kerakki, bolalar organizimiga katta jismoniy va psixologik yuklama ta'sir qiladi. Agarda o'sib kelayotgan – organizmi anatoma fiziologik tomonidan o'ziga hosligini hisobiga olinmasa, unda yuqori sport nati-jalariga erishishga mo'ljallash juda qiyin bo'ladi. Ilmiy xodimlar va amaliyotchilar yosh sportchilarning trenirovkasiga quyidagi tavsiya nomani ishlab chiqishga harakat qiladilar:

1. Bo'lajak sportchi muvaffaqiyatlarga erishdi deganda fundamenti yoki asosiy bo'lib hisoblanib, har tomonlama jismoniy tayyorgarchilikni majburiy sharti hisoblanadi.
2. Kattalar bilan ishlashdan ko'ra trenirovka jarayonida o'rgatishni solishtirma og'irligi katta bo'lishi shart.
3. Optimal yuklamani (ushbu yosh, jins uchun va tayyorgarlik darajasi) yuklamasi oshirishda qat'ian ketma-ketlikka rioya qilish zarur.
4. Qisqa vaqt ichida yuqori sport ko'rsatgichlariga erishish uchun tayyorgarlikni jadallashtirish yoki tezlashtirishga yo'l qo'ymaslik kerak.
5. Jismoniy va psixologik zo'riqishni kamaytirish uchun bolalar musobaqalarda qarshi kurashishda sharoit yoki sharti yengillashtiriladi. Sport o'yinlarida har xil yoshdagilar uchun musobaqani ma'lum vaqtgacha davom etishni o'rnatiladi, ular o'zaro uchrashuvi uchun faqat ma'lum yoshdagilar o'zaro

uchrashadilar, bolalar uchun yengil to'plardan (basketbolda), to'rini balandligi pasaytirilgan holda (voleybolda) foydaliladi. Bularning barchasi o'smirlar bilan o'tkaziladigan musobaqalar yuklamasining me'yori haqidagi ko'rsatmada aytilan, shuningdek musobaqa nizomida ham yozilgan.

Texnik tayyorgarlik

Texnik tayyorgarlik – bu jarayon turli-tuman o'yin usullarida texnikani egallah maqsadida, ularni maxsus, musobaqa sharoitida mustahkamlashga yo'naltirilgan. Bu yerda shug'ullanuvchilar o'yin usullarini va ularni har xil qo'shib bajarishni barcha uslublari bilan bajarishni egallaydilar, ularni aniq o'yin vaziyatida yoki holatida ijodiy qo'llashga o'rghanadilar. Texnik tayyorgarlikni yuqori darajasiga faqatgina uzoq vaqt davomida maqsadga yo'naltirib muntazam ravishda shug'ullanish natijasida erishish mumkin. Qachonki, yurakmushaklarini kuchi va urush hajmi oshganda, suyak, mushak apparati yuqori rivojlinishiga nisbatan yetib borganda, qo'l panjasи zarur bo'lgan chidamliligi, egiluvchanligini egallaydi markaziy va periferik ko'rish shakllana boshlanish davri 10-11 yoshdan boshlashni ta'shiya qiladi. Ya'ni ko'proq yoshni o'tkazib shug'ullanganda batalgan yoki xohlagan natijaga erisha olmaslik mumkin. Sport o'yinlari amaliyoti anchagina misollarni biladiki, qachonki sportchilar balog'at yoshida shug'ullanishni boshlaganlarida, yuqori natijalarga erishganlar. O'yin usulini bajarishning sifatini oshirish vazifasi har bir mashg'ulotda qo'yiladi. Faqatgina texnikasini takomillashtirishda taktik vazifalar muvaffaqiyatli hal etish uchun qulay sharoit yaratadi va o'yinda harakat samaradorligiga erishishda ko'proq barcha uchrashuv davomida ko'proq kuchni tejamkorlik bilan sarflanadi, texnikadan to'g'ri toydalanish o'inchiga shunday imkoniyatni beradiki, hattoki ayrim hollarda jismoniylar ma'lumotga ega bo'limganlar yuqori sport natijalariga erishadilar. Har tomonlama texnik tayyorgarlik texnik harakatni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat

qiladi. O'yinchilarning texnikasi yuqori bo'lsa, ular taktik vazifani muvaffaqiyatli hal yetishlari mumkin shunda to'liq komandanini taktik mahorati yuqori bo'ladi.

Taktik tayyorgarlik

Taktik tayyorgarlik – bu o'yinni boshqarish usullari tuzilishini shakllantirish jarayonidir. Sportchi texnika egallash jarayonida o'yinni boshqarish uchun vositasiga ega bo'ladi, taktik tayyorgarlik jarayonida esa – o'yin vaziyatida doimo o'zgarib turuvchi barcha texnik vositalarini egallashni bilish. Taktik tayyorgarlik yakkama-yakka guruhli va komanda bo'lib harakat qilishni, o'yin vaziyatini tahlil qilishni va to'g'ri qabul qilishni bilish hamda texnik harakatni tanlash uchun tezda qaror qabul qilish, sheriklari bilan o'zaro harakat qilish shaklini ko'ra bilishni nazarda tutadi.

Yakkama – yakka harakat qilish ostida o'yinda usullarni qo'llashni maqsadga muvofiq, siljish usullarini nima uchun o'rganish zarur, o'yinni boshqarish uchun joyni tanlashni bilish, o'yin vaziyatida yuzaga kelgan harakat usulini ko'proq maqsadga muvofiq tanlash tushuniladi.

Yakkama-yakka taktik harakatni o'rganishda ikki tomonlama o'quv o'yinlarida va aralash o'yin mashqlarida yoki sherringining sust va faol qarshi harakatida o'yin usullarini bajarish mashqlaridan foydalilaniladi.

Guruqlik taktikada ikki va ko'proq sportchilarni o'yin epizodida qatnashishi nazarda tutiladi. Guruqlik taktik harakat hujumda yoki himoyada bo'lishi mumkin. Har bir alohida ayrim bir holda taktik vazifa hal etiladi. Birinchi holatda – yakuniy harakatni bajarish uchun ko'proq qulay sharoit yaratiladi, ikkinchisida – raqib o'yinchilarini (to'pni uzatish, zarba berish, oshirish va b.q.). Yakuniy harakatni bajarishni qiyinlashtirish maqsadi bilan qarshi ta'sir ko'rsatish. Parallel yoki qarshi siljish mashqlarida (qarshi uzatish, maydon uzunligi bo'yicha siljish bilan uzatish va h.). Ikki o'yinchilarni o'zaro harakatini o'rganishni o'rnatish bilan boshlanadi. So'ngra uch va un-

ko'proq o'yinchilar o'zaro harakat qilishga o'tadi. O'yin hqlarida, o'quv o'yinlarida, musobaqalarda o'zaro harakat takomillashtiriladi.

Komandali harakatlanish barcha komanda a'zolarini himoyada qanday bo'lsa, xuddi shunday hujumda o'yinni hqarishda o'zaro harakat qilish usullarini tanlashni tajallaydi. Ushbu tanlash raqib komandasini, o'yinni taktil umumiy rejasiga, uni texnik va psixologik tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. Taktik ko'rsatmani hal yetishning muvaffaqiyati, bajaruvchilarni texnik tayyorgarligiga, ularni ijodiy va taktik niyatini tashkiliy ravishda bajarishga bog'liqdir.

Komandali harakatga o'rghanish o'yinchilarning asosiy funktsiyasini aniqlash va komandalarni to'ldirish momentidan boshlamadi. O'yinni taktik shaklini tanlab yoki o'zaro harakat qilishni taktik tizimini, shug'ullanuvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqlib, hujumda va himoyada har bir o'yinchi vazifasi aniqlandi. Faqatgina shundan keyin asosiy o'zaro harakat qilishini, taktik variantlar va kombinatsiyalarini egallahshni, mustaqil ravishda taktikani hal yetishni qabul qilishni o'rghanishni boshlaydi. So'ngra ikki tomonlama o'quv o'yinida komandali taktik o'zaro harakatini mustahkamlaydi. Shuni esda saqlash kerakki, ya'ni texnikasi qanday bo'lsa, xudi shunday komandan o'yinni taktikasini himoyada o'zaro harakatini amalga oshirish bilan boshlamadi. Shunday ekan, o'rgatishni himoyada o'zaro harakatlanish bilan boshlash kerak, so'ngra hujumda o'zaro harakatlanish taktikasiga o'tiladi, biroq to'liq bir qator mashqlar borki ular hujum taktikasida qanday bo'lsa, huddi shunday himoya taktikasini takomillashtirishga yo'naltiriladi, bu mashqlar esa o'yin sharoitiga maksimal yaqinlashgan bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kuchni rivojlantirish uchun beriladigan mashqni necha yoshdan boshlab tavsiya qilish mumkin?
2. Bolalarda harakat tezligini bajarish bo'yicha eng yaxshi natijaga necha yoshdan necha yoshgacha erishish mumkin?
3. Epchillik – bu qanday qobiliyat?

4. Egiluvchanlik yoki harakatchanlik – bu qanday qobiliyat?
5. Faol egiluvchanlik qizlarda va bolalarda necha yoshda maksimal o'lchashga yetadi?

V BOB. PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK

Psixologik tayyorgarlik – bu pedagogik jarayon bo'lib sportchini axloqiy-irodaviy sifatini yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan jismoniy sifatini rivojlanishi va irodaviy xususiyati xarakterini tarbiyalash o'zaro bog'liqidir. Iroda, hудди mushakday faqatgina obyektiv va subyektiv qiyinchiliklarni yengib o'tish natijasida harakat faoliyatini namoyon qilish jarayonida rivojlanadi. Bu qiyinchiliklar murakkab texnik o'yin usul-larini zaruriyatdan egallash charchashni yengib o'tish, o'zini tutabilish, emotsiyonal holatini boshqarish, murakkab sport yakka kurashi qiyin sharoitida yuqori ish qobiliyatini saqlashdan iboratdir. Shunday qilib jismoniy yuklama iroda chiziqlarini o'zicha xosligini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Irodaviy sifatning o'ziga xosligi shundaki, ular faoliyat ko'rinishida namoyon qilib, ularni rivojlanishdan kelib chiqadi. Shu yerda sharoitni yaratish zarurki, bunda xarakterini kuchli tomonlari rivojlanadi va mustahkamlanadi, u yerda dadillik bir qarorga kelishlik, jasurlik o'zini tuta bilishlik namoyon qilish zarur.

Shuni yodda tutish kerakki, bolalarga ta'sir ko'rsatish ostida emotsiyonal qo'zg'alishni tez-tez o'zlarini yomon nazorat qiladi, ayrim vaqtida o'ylamasdan hal etish ko'pincha bu o'yin tayyorgarligini va texnikasini yetarli bo'lmasligi natijasida bo'ladi. O'z-o'zini nazorat qilish va tezda fikrlash, tajriba oshirilgan yuklamani bajarish jarayonida orttirilgan bilim bilan o'tadi. Psixologik tayyorgarlik jarayoni umumiy tayyorgarlikka (asoslovchi tarbiya, muntazam ravishda shug'ullanishga undashga, harakat malakalarini takomillashtirishga, qiyinchiliklarni yengib o'tishga) va musobaqalarga tayyorlash, qachonki bir necha musobaqlarda yoki ushbu musobaqada qar-

ishi kurashishga eng yuqori psixologik tayyorgarlikni yaratish bo'yicha ish o'tkaziladi.

Axloqiy va irodaviy sifatni tarbiyalash bu mafkuraga qat'iy ishonch, jamoatchilik, vatanparvarlik va irodaviy sifatni shakhtirishning bir butun jarayonidir: jasorat, jur'atchilik, tirishqoqlik, o'zini puxta bilish.

Bolalar bilan ishslashda qiyinchiliklarni yengib o'tishda ongli munosabatda bo'lish asosida ularni muntazam trenirovka mashg'ulotlarga qatnashtirish juda muhim. Aniq misollariga asoslangan har kunlik tushuntirish ishlari esa, yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Bola uchun irodani rivojlantirishni eng yaxshi vositasi, qiyinchiliklarni yengib o'tish bo'yicha, charchashga qarshi kurashish mashqi xizmat qiladi, shuningdek o'quv o'ynlari va musobakqlar xarakterni qat'iyligi, jur'atlilik, tirishqoqlik va turishida zaruriyat tug'ilganda namoyon qiladi.

Bolalardagi jasorat va jur'atlilik tez-tez emotsiyonal momentlarni asoslaydi va logik dalil-isbot kuchini namoyon qilmaydi, balki bolani sezgi tezligini qamrab oluvchi kuchidir. Hattoki ayrim vaqtida o'zin usullarini u o'zin trenirovkada, musobaqada, bajarishga qo'rqedi, o'yinni emotsiyonal holatida ta'sir qilishi ostida ko'prok muvaffaqiyatli bajaradi. Shuning uchun o'qituvchi yosh sportchilarni tayyorlashda, o'zin harakatini tahlil qilishda ma'lum momentni va sezgirlik namoyon qilishi kerak, o'yinda qatnashishda ishonch ko'rsata bilish kerak.

Psixologik tayyorgarlikning ahamiyati quyidagi uslublar bilan amalga oshiriladi:

- qiyinchiliklarni yengib o'tish bo'yicha mashq uslubi;
- zarur bo'lgan psixologik holatda sportchilarni to'g'rilash maqsadida mashq to'g'rilash uslubi;
- ideomotor mashqini, kelgusi harakat faoliyatini aniqlashtirish va fikran o'ziga qabul qilish, qayta ishlab chiqishga imkon beradigan usul;
- bo'lajak faoliyatga tayyorlash yosh sozlash va mashq yordamida zo'riqishni pasaytirish bilan imkon beradigan, trenirovkani psixoboshqarish uslubi;

- bolalar bilan ishlashda irodaviy sifatni tarbiyalash bo'yicha asosiy tavsiyalar:

A) irodaviy zo'r berishni namoyon qilish bo'yicha vazifa ni tushunarli, aniq qo'yish shart, shug'ullanuvchilarni yosh imkoniyatlariga har doim mos kelishi kerak.

B) topshirilgan vazifalarini o'z vatida aniq bajarishga erishish;

V) mashg'ulotda jismoniy yuklaman bajarishga faol munosabatni shakllantirish, musobaqada berilgan ko'rsatmani o'z vaqtida bajarishga erishish;

G) dam olish va mehnat rejimiga rioya qilishga jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligidagi o'zini kamchiliklarini bartara qilish ustida ishlashga shug'ullanuvchilarni majbur etish;

D) o'yinda mo'ljallangan ko'rsatmani tayyorlashda, belgilangan rejalarни amalga oshirishda shug'ullanuvchilarda o'zlarining kuchlarida ishonch hosil qilishni yaratish yoki shakllantirish.

Bolalar bilan, albatta, o'tkazilgan o'yin natijalarini muhokama qilish kerak. Uni dam olishida yoki ertasi kuni barcha ruhiy kechinmalarga ishonib, bolalar o'zlarini xatti-harakatlarini baholay olish, kamchiliklarni tan olish imkon bo'lganda o'tkazish tavsiya etiladi. Muhokamada, albatta, barcha sportchilar qatnashishlari zarur. Muhokama vaqtida yo'q bo'lganlar nomiga umuman kamchiliklar aytish tavsiya etilmaydi. Muhokama vaqtida o'qituvchi juda ehtiyojkorlik bilan har bir holatni, o'yinchisi shaxsiga tegmasdan tahlil etsa, kelgusida ushbu o'yinchilarning irodasi, psixologik holati mustahkamlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Psixologik tayyorgarlik – bu ...?
2. Axloqiy va irodaviy sifatni tarbiyalash bu ...?
3. Psixologik tayyorgarlikning ahamiyati qanday uslublar bilan amalga oshiriladi?
4. Jasorat, jur'atchilik, tirishqoqlik, o'zini puxta bilish – bu...?
5. Bolalar bilan ishlashda irodaviy sifatni tarbiyalashdagi usullar?

VI BOB. NAZARIY TAYYORGARLIK

Nazariy tayyorgarlik – bu o'yin texnika va tahlikasi-mligi, gigiyena, fiziologiya, o'z-o'zini nazorat qilish trenirovka mashg'ulotlarining tuzilishi qonuniyatlari asosidagi bilimni egallash jarayonidir. Bu bilimlar ijodiy fikrlash asosi bo'lib, ular sportchiga sport o'yinlarida tanlagan yo'lidan o'zini yaxshiytomonlarini ochishga yordam beradi. Nazariy tayyorgarlik sportchiga o'zi tomonidan rejalashtirilgan trenirovka jarayonida qatnashishga ishonch beradi, o'zini tayyorgarligini va muobaqalarda chiqishi natijalarini murabbiy bilan birga malakali tahlil qilish, bunday tayyorgarlik uchun ma'ruza, suhbat, kinolavhalarni o'rganish, o'tkazilgan o'yinni ko'rish, texnika va taktika bo'yicha nazariy mashg'ulotni muhokama va tahlil etish.


VII BOB. FUTBOL MAYDONINING O'LCHAMI VA O'YIN QOIDASI

Futbol asosan ochiq havoda chim yotqizilgan maydonda yoki usti yopiq sun'iy chim yotqizilgan manejlarda o'ynaladi.

Maydon o'lchami eniga 45 m - 90 m gacha, uzunasiga 90 m - 120 m gacha bo'ladi. Darvozaning o'lchami eniga 7m 32sm, balandligi 2,44 sm. Maydonda quyidagi chiziqlar chiziladi: maydon chegara chiziqlari: maydon o'rtasida markaziy chiziq va markazdan 9 metr radiusli aylana chiziladi. Jarima maydoni darvoza ustunidan uzunligi 16,50 sm, eniga 16,50 sm bo'ladi va ikki nuqta birlashtiriladi. Darvozabon maydonchasi uzunligi 5,50 sm, eniga 5,50 sm, bunda ham ikki nuqta birlashtiriladi. Jarima maydonida darvoza chizig'idan 11 metr masofada 11 metrlik jarima to'pi bajariladigan belgi bo'ladi. Shu belgidan 9 metrlik radiusli yarim oy shaklidagi chiziq jarima maydoniga chiziladi. Maydonning to'rtta burchagida 1 metrli yarim aylan-

na chiziladi, bu aylana burchak to'pini tepish uchun belgilana di. Har bir burchakda balandligi 1,5 metr bo'lgan bayroqchalar o'rnatiladi. Bayroqcha rangi har xil bo'lishi mumkin. Maydon ko'rinishi rasmida ko'rsatilgan.

O'yinda har bir jamoada 11 tadan o'yinchi: 1ta darvozabon va 10 ta maydondagi o'yinchi o'ynaydi. O'yin maydon markazidan to'pni oldinga uzatish bilan boshlanadi. Agar biron bir jamaa o'z darvozasidan to'p o'tkazib yuborsa, o'yin yana maydon markazidan boshlanadi. O'yin vaqtida hakamning ruxsati bilan 3 yoki 5 ta o'yinchini almashtirish mumkin, maydondan chiqib ketgan o'yinchi qaytib maydonga tushmaydi. O'yin 45 daqiqadan 2 taym davom etadi; taymlar orasida 15 daqiqa tanafus beriladi. O'yinda 5 ta hakam: 1 ta hakam o'rtada, 2 ta hakam yon chiziqda, 1 ta yordamchi hakam, 1 ta nazoratchi hakam ishtirok etadi.



Erkin to'p. To'p raqib jamoasidan tashqariga chiqib ketganda darvozabon maydonchasidan to'pni tepib o'yinga kiritiladi hamda o'yin vaqtda raqib jamoasi o'yinchilariga taqiqlangan harakatlarni qo'llansa, ya'ni raqibni ushlab qolish, tutsa, itarsa, chalsa, beixtiyor to'p jarima maydonidan tashqarida qo'lliga tegsa, himoyachi atayin uzatgan to'pni darvozabon ushlossen, erkin to'p belgilanadi.

Jarima to'pi. Maydonda va jarima maydoni oldida to'p bilan o'ynayotgan o'yinchiga nisbatan atayin taqiqlangan harakatlar qo'llansa, jarima to'pi belgilanadi.

Burchak to'pi va yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish. To'p darvozabon yoki himoyachiga tegib maydondan chiqib ketsa, burchakdan to'pni tepib o'yinga kiritiladi. Burchak to'pi teppganda to'p darvozaga kirsa, gol hisoblanadi.

Yon chiziqdan to'pni tashlab o'yinga kiritish maydon o'yinchilari qo'lda o'ynaydigan yagona usul bo'lib, to'p raqib jamaa o'yinchisi oyog'idan maydonni tark etganda qo'llaniladi. To'pni tashlash vaqtida maydon ichiga kirish, oyoqni ko'tarish yoki sakrash man etiladi. Shunday holat ro'y bersa, to'p raqib jumoaga beriladi. To'pni tashlagandan so'ng to'pni tashlagan o'yinchi to'pni sherigi yoki raqibdan qaytgandan so'ng o'ynashi mumkin.

11 metrlik jarima to'pi (penalty). Himoyachilar va darvozabon tomonidan jarima maydoni ichida hujumchiga qarshi qo'pollik ishlatsa, himoyachining qo'lliga to'p tegsa, 11 metrlik jarima to'pi belgilanadi. 11 metrlik jarima to'pi bajarilayotgan vaqtda to'p 11 metrlik nuqtaga qo'yiladi, jarima maydoni ichida faqat darvozabon va 11 metrlik jarima to'pni tepuvchi o'yinchi bo'ladi, qolgan hamma o'yinchilar jarima maydonidan tashqarida bo'ladi.

Taqiqlangan o'yin qoidalarini qo'llagan, qo'pol va sportga xos bo'lмаган harakat qilib intizomni buzган о'yinchiga hakam tomonidan sariq kartochka ko'rsatiladi. O'yin vaqtida shunday harakatlarni takror bajarsa, hakam sariq kartochka ketidan qizil kartochka ko'rsatib о'yinchini maydondan chiqar-

Agar yuboradi. Maydondan chiqarilgan o'yinchi qaytib maydoni tushmaydi. Jamoa o'yinni 1 kishi kam bo'lib davom ettiradi. Agar ikkala jamoa o'yinchilarini bir vaqtida xatolikka yo'l qo'sha yoki o'yin qandaydir sababga ko'ra to'xtatilgan bo'lsa, bahsli to'p tashlash belgilanadi.

Xalqaro yig'in qarori

Agar darvoza to'sini qiyshaysa yoki sinsa, toki to'sin tuzatilmaguncha yoki almashtirilmaguncha o'yin to'xtatiladi. Agar tuzatishning imkonini bo'lmasa, match tugallanadi. To'sinning o'rniga arqon ishlatalish mumkin emas. Agar to'sinni tuzatishning iloji bo'lsa, o'yin to'xtatilganda to'p qayerda bo'lsa o'sha joydan "bahsli to'p" bilan o'yin davom ettiriladi.

To'sin va ustunlar yog'ochdan, metalldan yoki ruxsat berilgan standartga mos materialdan tayyorlanadi. Ularning ko'ndalang kesishgan joyi kvadrat to'g'ri burchak aylana yoki ellips shaklida bo'lishi mumkin: ular o'yinchilarga xavf tug'dirmasligi kerak.

Jamoaning maydonga chiqqan vaqtidan boshlab ularning tanaffusga chiqqunlarigacha, tanaffusdan so'ng ularning maydonga qaytib chiqishlaridan to match tugagunga qadar o'yin maydonida va uning jihozlarida hech qanday reklamaga ruxsat berilmaydi.

Darvoza, setka, bayroqlarda har qanday reklama ko'rinishlaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Bu narsalarga chetdan hech qanday jihozlar mahkamlanib qo'yishi mumkin emas, masalan (kameralar, mikrafonlar).

Texnik zona doirasidagi yerda va yon chiziqdagi 1m masofada o'yin maydonining tashqarisida hech qanday reklama bo'lmasligi kerak.

Darvoza chizig'i va darvoza setkasi o'rtasida ham reklamaga ruxsat berilmaydi.

O'yin maydoni tashqarisida burchak yoyidan 9,15 m masofada darvoza chizig'iga to'g'ri burchak ostida belgi qo'yilishi mumkin, burchak to'pi bajarilganda shu masofaga rioya qilishni ta'minlash uchun.

Futbol to'pining o'lchamlari va sifatlari

To'p:

- Charmdan yoki shunga o'xshash materialdan aylana shaklda tayyorlangan bo'ladi.
- Aylanasinining uzunligi 70 sm dan oshmagan va 68 sm dan kam bo'limgan holatda bo'ladi.
- Musobaqa boshlanish vaqtida 450 grammidan oshmagan va 410 grammadan kam bo'limgan bo'lishi kerak.
- Havo bosimi 0,6 – 1,1 atmosfera (600-1100 gramm kv m) bo'lishi kerak.

Yaroqsiz to'pni almashtirish.

Agar to'p o'yin vaqtida yaroqsiz holga kelsa:

- O'yin to'xtatiladi.
- To'p yaroqsiz holga kelgan joydan "bahsli to'p" o'yini bilan o'yin yangilanadi.

Agar to'p o'yinda bo'limgan vaqtda yorilsa yoki yirtilsa – boshlang'ich zarbada, darvozadan zarbada, burchak, jarima, erldn zarbalarda, 11m nuqtadagi zarbada yoki tashlashda.

- O'yin qoidasiga mos ravishda yangilanadi.

To'p o'yin vaqtida faqatgina hakam ko'rsatmasi bilan almashtirilishi mumkin.

Xalqaro yig'in qarori.

Rasmiy musobaqlarda qoidalarda ko'rsatilgan texnik talablarga javob beradigan to'plargagina ruxsat beriladi.

FIFA tomonidan o'tkaziladigan musobaqa matchlarida, quyidagi 3 markirovkadan birortasiga ega bo'lgan to'plargagina loydalanishga ruxsat beriladi.

Rasmiy logotip "FIFA APPROVED" (FIFA ma'qullaydi)

Rasmiy logotip "FIFA INSPECTED" (FIFA nazorat qilgan) yoki "INTERNATIONAL MATCH - BALL STANDARD" (To'p xalqaro standartga mos).

To'pning bunday markirovkasi uning rasmiy tekshiruvdan o'tganini ko'rsatadi va tekshiruv natijasiga ko'ra to'p muhim texnik talablarga mos ekanligini bildiradi.

Milliy federatsiyalar musobaqa vaqtida faqatgina shu uch markirovkaga ega har qanday to'plardan foydalanishni talab qilishi mumkin.

Boshqa har qanday matchlardan to'p qoida talablariga mos kelishi kerak.

FIFA musobaqalarida va milliy federatsiyalar tashkil qilgan musobaqalarda to'plarga hech qanday savdo-sotiqqa oid reklamaga ruxsat berilmaydi, quyidagi holatni hisobga olmagan da, ya'ni musobaqa nishoni, musobaqa tashkilotchisi va tasiqlangan tayyorlovchining savdo markasi. Bunday muhrlarning soni va o'lchami, mustaqil reglamenti bilan cheklanishi mumkin.

O'yinchilar soni.

O'yinchilar.

Match har qaysisida darvozabonlarni qo'shgan holda o'yinchilarning soni 11tadan-oshmagan ikki jamoa ishtirokida o'tkaziladi.

Agar jamoalarda o'yinchilar soni 7ta kam bo'lsa, match boshlanmasligi mumkin.

Rasmiy musobaqalar.

FIFA yoki milliy federatsiyalar tomonidan tashkil qilinadigan har qanday rasmiy musobaqalarda 3tagacha o'yinchilarni almashtirishga ruxsat beriladi. Musobaqa nizomida buyurtmaga kiritiladigan zaxiradagi o'yinchilar soni 3 dan 7 gacha o'zaro kelishilgan bo'lishi kerak, bundan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Boshqa matchlarda.

Boshqa matchlarda zaxira almashtirilishi mumkin, shu shart bilanki,

*Jamoalar almashinadigan o'yinchilarning maksimal sonini o'zin oldidan kelishib oladilar.

*Hakam bu haqda match boshlanishidan oldin xabardor qilinishi kerak.

Agar hakam xabardor qilinmagan bo'lsa yoki (kelishuv) match boshlangunga qadar bir bitimga kelinmagan bo'lsa, 3tagacha zaxira almashtirishga ruxsat beriladi.

Hamma matchlarda.

Har qanday match boshlanishidan oldin hakamga zaxirada o'yinchilar familiyasi taqdim etilishi kerak. Shu usulda familiyasi ko'rsatilmagan o'yinchilar matchda qatnasha olmaydilar.

Almashtirish tartibi.

Asosiy o'yinchilarni zaxiradagi bilan almashtirish uchun quyidagi shartlarni bajarish zarur.

* Har qanday mo'ljallangan almashtirish haqida hakam xabardor qilingan bo'lishi kerak.

* Zaxiradagi o'yinchi faqatgina asosiy o'yinchi maydondan chiqqandan so'ng hakam hushtagidan keyin maydonga chiqadi.

* Zaxiradagi o'yinchi o'yin to'xtatilganda faqat o'rta chiqdan o'yin maydoniga kiradi.

* Zaxiradagi o'yinchi maydonga chiqqandan so'ng almashtirish tugallangan hisoblanadi.

* Shu vaqt dan boshlab zaxiradagi o'yinchi asosiy tarkib o'yinchisi hisoblanadi, almashtirilgan o'yinchi esa asosiy o'yinchi hisoblanmaydi.

* Almashtirilgan o'yinchi matchda boshqa ishtirot eta olmaydi.

* Hamma zaxiradagi o'yinchilar o'yinga qatnashish yoki qatnashmasliklaridan qat'iy nazar hakam vakolatlariga bo'ysunadilar.

Darvozaboning almashtirilishi.

Boshqa har qanday o'yinchilar darvozabon bilan joylarini almashishlari mumkin shu shart bilanki:

* Hakam bu haqda almashinishdan oldin xabardor qilingan bo'lishi kerak.

* Almashinish match to'xtaganda amalga oshiriladi.

Qoida buzilishi va jazo.

Agar zaxiradagi o'yinchi hakam ruxsatsiz maydonga chiqsa:

* O'yin to'xtatiladi.

* Zaxiradagi o'yinchi sariq kartochka ko'rsatilish bilan ogoh-tintirish oladi va uning maydondan chiqishi so'raladi.

*O'yin to'xtatilganda to'p qayerda bo'lsa o'sha joydan "bahsli to'p" yordamida o'yin yangilanadi.

Agar o'yinchisi hakam ruxsatsiz darvozabon bilan joy al mashsa:

* o'yin davom etadi.

* to'p keyingi marta o'yindan chiqqanda qoidani buzgan o'yinchilar sariq kartochka ko'rsatishi bilan ogohlantirish oladilar.

Boshqa har qanday shu qoidaning buzilishida:

* Shunga muvofiq o'yinchilar sariq kartochka ko'rsatish bilan ogohlantirish oladilar.

O'yinni qaytadan boshlash.

Agar o'yin hakam tomonidan ogohlantirish berish uchun to'xtatilsa:

* O'yin raqib jamoa o'yinchisi tomonidan o'yin to'xtatilganda to'p qayerda bo'lsa, shu joydan erkin zarba bilan o'yin yangilanadi.

Asosiy tarkibdagi va zaxiradagi chiqarib yuborilgan o'yinchilar.

Boshlang'ich zarbadan oldin chiqarib yuborilgan o'yinchisi, faqatgina ro'yxatdagi zaxira o'yinchilardan birortasi bilan almashtilishi mumkin.

*Match protokolida boshlang'ich zarbadan oldin yoki o'yin boshlangandan so'ng chiqarib yuborilgan zaxiradagi o'yinchini almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Xalqaro yig'in qarori.

O'yin davomida jamoaning rasmiy kishisi o'yinchilarga tak-tik ko'rsatmalar berishga huquqi bor, lekin bundan so'ng u tezda joyiga qaytishga majbur. Hamma rasmiy kishilar texnik zona doirasida bo'lislari majburdir:

Ular o'zlarini odobli-tarbiyali xushmuomalali va javobgar xis qilishi (to'tishlari) kerak.

O'yinchilar EPIKIROVKASI.

Xavfsizlik.

O'yinchisi o'z hayotiga yoki boshqa o'yinchisi hayotiga xavf soluvchi biror narsa taqmasligi yoki kiymasligi kerak.

Ekipirovka.

O'yinchilar majburiy ekipirovka elementlari hisoblanadi.

➤ Ko'ylak yoki futbolka.

➤ Kalta ishton – agar kalta ishton tagidan ichki kiyim kiyadigan bo'lsa, ichki kiyim rangi kalta ishton rangidan bo'lishi kerak.

➤ Getralar.

➤ Oyoq qalqoni.

➤ Oyoq kiyim.

Shitlar

➤ To'liq getra bilan yopiladi.

➤ To'g'ri keladigan (mos keladigan) materialdan (rezina, plastik yoki shunga o'xshash) tayyorlanadi.

➤ Yetarli darajada himoya bilan ta'minlaydi.

Darvozabonlar.

➤ Darvozabonlar kiyimining rangi boshqa o'yinchilar, hakam va hakam yordamchilari kiyimi rangidan farq qilishi kerak.

Qoida buzilishi va jazo.

Shu qoidaning har qanday buzilishida:

➤ O'yinni to'xtatishning hojati yo'q.

➤ Hakam o'yinchining o'z ekipirovkasini tartibga keltirishi uchun maydondan chiqishini so'raydi (maslahat beradi).

➤ O'yinchi to'p o'yindan chiqqan vaqtida maydonni tashlab chiqadi (chiqib ketadi), agar shu paytgacha u o'z ekipirovkasini tartibga keltirmagan bo'lsa.

➤ Hakam talabi bilan o'z ekipirovkasini tartibga keltirish uchun maydonni tashlab chiqqan har qanday o'yinchi hakam ruxsatisiz yana maydonga qaytishi mumkin emas.

➤ O'yinchining yana maydonga chiqishiga ruxsat berishdan oldin hakam uning ekipirovkasini tekshiradi.

➤ O'yinchi yana maydonga chiqishi mumkin, qachonki: to'p o'yindan chiqsa. Shu qoidani buzganligi sababli maydon dan chiqishi so'ralgan o'yinchi (yoki yana qaytayotgan) hakam ruxsatisiz maydonga chiqsa, sariq kartochka ko'rsatish bilan ogohlantirish oladi.

O'yinni qaytadan boshlash.

Agar hakam ogohlantirish berish uchun o'yinni to'xtatsa

- O'yin qarshi jamoa o'yinchisi tomonidan hakam o'yinni to'xtatgan vaqtda to'p qayerda bo'lsa, shu joydan erkin to'jtepish bilan o'yin qaytadan boshlanadi.

Hakam.

Hakam vakolati.

Har qanday match hamma vakolatga ega bo'lgan hakam tomonidan nazorat qilinadi va o'yin qoidasiga riosa qilinishini ta'minlaydi.

Hakamning huquq va majburiyatlari.

Hakam:

- O'yin qoidasiga riosa qilinishini ta'minlaydi.
- Matchning borishini o'z yordamchilari bilan nazorat qiladi.
- Foydalilaniladigan har qanday to'pni 2 qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi.
- O'yinchilar kiyimi 4 qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi.
- O'yin xronometrajini va matchni yozib boradi.
- U o'z ixtiyoriga ko'ra o'yinni to'xtatishi vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday qoida buzilishida o'yinni umuman to'xtatib qo'yishi mumkin.
- To'xtatishi, vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday chetdan bo'lgan aralashuvga matchni umuman to'xtatib qo'yish mumkin.
- Matchni to'xtatadi, agar uning fikricha o'yinchi jiddiy jarohat olgan bo'lsa, o'yinchining maydondan olib chiqilishini ta'minlaydi.
- Agar uning fikricha o'yinchi unchalik ahamiyatga ega bo'lman jarohat olgan bo'lsa, to'p o'yindan chiqmaguncha o'yinni davom ettirishga ruxsat berishi mumkin.
- O'yinchidan qon oqayotgan bo'lsa, uning maydondan chiqishini ta'minlaydi. Hakam qon oqishining to'xtaganiga ishonch hosil qilib, signal berganidan so'ng o'yinchi maydonga qaytishi mumkin.

➤ Qachonki, o'yinchi birdaniga bir nechta qoida buzilishi yo'q, bo'lgan qoida buzilishi jazolaydi.

➤ Ogohlantirish yoki chiqarib yuborish bilan jazolanadi qoida buzilishlariga yo'l qo'ygan o'yinchilarga nisbatan intizom choralarini qabul qiladi. U bunday choralarни tez qabul qilishi tashqari ga majbur emas, lekin to'p o'yindan chiqqan zahotiyog qabul qilishi kerak.

➤ O'zlarini tarbiyali, madaniyatli tutmagan jamoa ra'miy jishilasi larga nisbatan chora qabul qiladi va o'z ixtiyoriga ko'ra maydonidan (texnik zonadan) chiqarib yuborishi mumkin.

➤ Hakam o'zi ko'rmay qolgan holatlar bo'yicha o'z yordamchilari tavsiyasiga asoslanib harakat qiladi.

➤ Begona shaxslar maydonda bo'lmasliklarini ta'minlaydi.

➤ Match vaqtinchalik to'xtatilgandan keyin uni yangilaydi.

➤ Match davomida o'yinchilarga yoki jamoaning rasmliy shaxslariga nisbatan qo'llanilgan intizom choralari va har xil matchdan oldin, match davomida yoki matchdan so'ng yuz berigan holatlar bo'yicha tegishli tashkilotga bildirishnomasi beradi.

Hakam qarori.

O'yincha bog'liq voqealar bo'yicha hakam qarori qat'iy hisoblanadi. Hakam o'z qarorini faqat shunday holatlarda u'zgartirishi mumkin, agar u qarorini xato ekanligini yoki yordamchilari tavsiyasi bilan tushunib yetsa, lekin shu shart bilan u hensiali o'yinni yangilamagan bo'lsa

Xas alqaro yig'in qarori.

Hakam (yoki sharoitga qarab yordamchi yoki zaxiradagi fuqorolik javobgarligiga tortilmaydi):

➤ Har qanday o'yinchi rasmiy shaxs yoki tomoshabin tomonidan olingan jarohat (uchun).

➤ Har qanday mulkka yetkazilgan zarar uchun.

➤ Matchni tashkil qilish, o'tkazish va boshqarishda zarur bo'lgan yoki o'yin qoidasi talablariga mos qabul qilingan qarorlar oqibatida yuz bergen har qanday klub, kompaniya, uyushma yoki tashkilotga yetkazilgan har qanday zarar uchun.

Bularga kirishi mumkin:

- Maydon holatiga ko'ra yoki ob-havo sharoitiga ko'ra matchni o'tqazishga ijozat bersa bo'ladimi, yo'qmi.
- Biron bir sababga ko'ra matchni to'xtatish to'g'risidagi qaror.
- Match davomida foydalilaniladigan uskuna yoki jihozlar holati to'g'risida qaror, darvoza ustuni, to'sini, burchak bayroqlari va to'pni qo'shgan holda.
- Tomoshabinlar aralashuvi sababli yoki tomoshabinlari uchun ajratilgan zonada yuz bergan muammolar uchun matchni to'xtatish yoki to'xtatmaslik to'g'risidagi qaror.
- Jarohat olgan o'yinchisi tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun maydondan chiqishiga ruxsat berish uchun o'yinni to'xtatish yoki to'xtatmaslik to'g'risida qaror.
- Jarohat olgan o'yinchidan unga tibbiy yordam ko'rsatish uchun maydondan chiqishini so'rash yoki talab qilish to'g'risidagi qaror.
- O'yinchiga ayrim kiyim yoki ekipirovka predmetlarini taqib yurishga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik to'g'risidagi qaror.
- Har qanday shaxslarga (jamoaning yoki o'yingoh rasmiy kishilar, xavfsizlik xizmati vakillari, suratchi yoki boshqa ommaviy axborot vakillarini qo'shgan holda) to'g'ridan-to'g'ri maydon yaqinida bo'lishlariga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik (uning majburiyatları doirasida bo'lsa) to'g'risida qaror.
- O'yin qoidasiga mos keluvchi yoki FIFA regamenti yoki qoida shartlariga ko'ra uning vazifasiga kiruvchi boshqa har qanday qaror.

Zaxiradagi hakam tayinlanadigan musobaqa yoki turnirlarda, uning roli va majburiyati, Xalqaro yig'in tomonidan tasdiqlangan ko'rsatmaga mos kelishi kerak.

Hakam yordamchilari.

Majburiyati.

Ikkita hakam yordamchisi tayinlanadi va ularning vazifasiiga (hakam qaroriga bog'liq) signal berish kiradi:

- Qachonki to'p maydon chizig'idan tashqariga to'liq chiqsa.
- Qaysi jamoa burchak to'pi, darvozadan zarba yoki to'p koshlash huquqiga ega.
 - Qachon o'yinchi o'yindan tashqari holatda bo'lganligi in hun jazolanadi.
 - Qachonki o'yinchi almashtirish to'g'risida iltimos bo'lsa.
 - Hakam ko'rish maydonidan tashqarisida yuz bergan inhomisiz xulq yoki boshqa har qanday holatlar bo'yicha.
 - Qachonki qoida buzilishi sodir etilganda bosh hakamidan ko'ra shu joyga hakam yordamchilari yaqin bo'lgan holatorda (qisman jarima maydonida yuz bergan qoida buzilishlari ham kiradi).
 - Shunday hollarda, ya'ni qachonki 11m jarima to'pi bajarilayotganda daryozabon to'pga zarba berilishidan oldin joyidan oldinga siljsa, to'p esa chiziqni kesib o'tsa.

Yordam.

Yordamchilar hakamga matchni o'yin qoidasiga mos o'tkazilishiga yordam beradilar. Yordamchilar 9,15m masofasiga rioya qilishga yordam berish uchun maydon doirasiga kirish mumkin.

Hakam o'z yordamchisini asoslanmagan aralashuv yoki qo'pol muomala holatlarida vazifasidan ozod qiladi va tegishli tashkilotga bildirishnomaga beradi.

Match davomiyligi.

O'yin vaqtি.

O'yin 45 minutdan 2 taym davom etadi (agar hakam va ikki jamoa vakillari boshqa variantni kelishmagan bo'lsa) har qanday o'yin vaqtini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuvga (masalan, yorug'likning yetishmasligi sababli har qaysi taymning 40 minutgacha qisqartirilishi) o'yin boshlangunga qadar erishilgan bo'lishi kerak va bu holat musobaqa talablariga javob berishi kerak.

Taymlar oralig'idagi tanaffus.

O'yinchilar 2 taym oralig'ida tanaffus olishlariga haqlari bor. Taym oralig'idagi tanaffus 15 minutdan oshmasligi kerak. Musobaqa tartibida taymlar oralig'idagi tanaffus vaqtি

ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Taymlar orasidagi tanaffusning da vomiyligi faqat hakamning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin
Qo'shib berilgan vaqt.

Quyidagi holatlarga ketgan vaqt ikki taymning har qaysisi ga qo'shib beriladi.

- O'yinchilarni almash tirishga.
- O'yinchining jarohati jiddiyligini aniqlashga.
- Jarohatlangan o'yinchilarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun ularni maydon tashqarisiga olib chiqishga.
- Qasddan o'yin vaqtini cho'zish.
- Boshqa har qanday holatlarda.
- Qo'shib berilgan vaqtning davomiyligini faqat hakam aniqlaydi.

11-metrlik to'p.

Har qaysi ikki taymning asosiy vaqtning oxirgi daqiqa sida yoki qo'shib berilgan vaqtning oxirgi daqiqa sida belgilangan 11 metrlik jarima to'pi uchun alohida vaqt ajratiladi.

Oxirigacha o'ynalmagan match.

Agar musobaqa nizomida boshqacha holatlar bo'lmasa, oxirigacha o'ynalmagan match qayta o'ynaladi.

O'yin boshlanishi va yangilanishi.

Dastlabki shartlar.

Match boshlanishidan oldin qur'a tashlash o'tkaziladi va jamoalardan biri darvozani tanlash huquqini oladi.

Qarshi jamoa matchda boshlang'ich zarbani bajaradi.

Qur'a tashlash tufayli darvozani tanlagan jamoa, ikkinchi taymda boshlang'ich zarbani bajaradi.

Matchning ikkinchi taymida jamoalar darvoza almashadilar.

Boshlang'ich zarba.

Boshlang'ich zarba bu o'yinni boshlash yoki o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan usuldir.

1. Match boshida.

2. Uriqan goldan so'ng.

3. Ikkinci taym boshida.

Boshlang'ich zarbani bajarish holatlari.

1. Hamma o'yinchilar o'z maydonida bo'lislari kerak.

2. Boshlang'ich zarbani bajarish huquqini qo'lga krita olmagan jamoa o'yinchilari to'p o'yinga kiritilmaguncha to'pdan 0.15 m masofa uzoqlikda turishlari kerak.

3. To'p harakatsiz holatda maydon markazida turadi.

4. Hakam signal beradi.

5. To'pga zarba berilib to'p oldinga harakatlangandan so'ng to'p o'yinda hisoblanadi.

6. Boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha ikkinchi marta tegishga haqqi yo'q.

Jamoalardan biri gol o'rgandan so'ng boshlang'ich zarba boshqa jamoa o'yinchisi tomonidan bajariladi.

Qoida buzilishi va jazo.

Agar boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa bir o'yinchi tegmasidan oldin ikkinchi marta tegsa:

1. Qoida buzilgan joydan raqib jamoa o'yinchisiga erkin to'p tepish huquqi beriladi.

Har qanday boshlang'ich zarba bajarish tartibi buzilganda:

* boshlang'ich zarba qaytariladi.

Bahsli to'p.

"Bahsli to'p" – bu to'p o'yinda bo'lgan vaqtida o'yin qoidasida ko'zda tutilmagan holat bo'yicha vaqtinchalik to'xtatilgandan so'ng o'yinni yangilash usulidir.

Bahsli to'pni bajarish holati.

Hakam o'yinni to'xtatganda to'p qayerda bo'lsa, o'sha joydan to'pni tashlab beradi. To'p yerga tegishi bilan o'yin davom ettiriladi.

Qoida buzilishi va jazo.

Bahsli to'p qayta o'ynaladi:

➤ Agar o'yinchi to'p yerga tegmasidan oldin tegsa.

➤ Agar to'p yerga tekkandan so'ng maydon tashqarisiga chiqib ketsa va bunda hech qaysi o'yinchi to'pga tegmagan bo'lsa.

Muhim holatlar.

Himoyalanuvchi jamoa foydasiga uning darvoza maydoni chegarasida erkin yoki jarima to'pi belgilansa, darvoza maydonining har qanday nuqtasidan bajariladi.

Hujum qiluvchi jamoa foydasiga belgilangan raqib jamoa darvoza maydoni chegarasidagi erkin to'p darvoza maydoni chizig'idan qoida buzilgan joyga yaqin nuqtada bajariladi.

Darvoza maydoni ichida vaqtinchalik to'xtatishdan so'ng o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan "bahsli to'p", darvoza chizig'iga parallel holatda darvoza maydoni chizig'ida o'yin to'xtatilgan vaqtda to'p qayerda bo'lgan bo'lsa, shu joy yaqindagi nuqtadan o'ynaladi.

To'p o'yinda va o'yindan tashqarida.

To'p o'yindan tashqarida.

To'p o'yindan chiqqan hisoblanadi, agar:

➤ To'p yerdan yoki havo orqali darvoza chizig'idan yoki yon chiziqdan to'liq kesib o'tsa.

➤ O'yin hakam tomonidan to'xtatilsa.

To'p o'yinda.

Qolgan hamma vaqtlarda to'p o'yinda hisoblanadi, quyidagi holatlarni ham hisobga olgan holda:

➤ To'p darvoza ustuniga, to'siniga yoki burchakdagi bayroqqa tegib maydonga qaytsa.

➤ To'p maydonda to'rgan hakamga yoki hakam yordamchisiga tegib qaytsa.

Natijani aniqlash.

Gol.

Agar to'p ikki ustun oralig'i va to'sin ostida darvoza chizig'idan to'liq o'tsa va bunda gol o'rgan jamoa o'yin qoidasini buzmagan bo'lsa, darvozaga to'p urilgan hisoblanadi.

G'olib jamoa.

O'yin davomida eng ko'p to'p o'rgan jamoa g'olib hisoblanadi.

Agar ikkala jamoada to'plar nisbati teng bo'lsa yoki bitta ham to'p urilmagan bo'lsa, bunday o'yin natijasi durang bo'ladi.

Musobaqa reglamenti.

Musobaqa tartibida agar match durang natija bilan tugasa, qo'shimcha vaqt tayinlash yoki xalqaro yig'in tomonidan tasdiqlangan match g'olibini aniqlash tartibi to'g'risidagi vaziyat ko'zda tutilishi mumkin.

O'yindan tashqari holat.

O'yinchining o'yindan tashqari holatda bo'lishi o'zidan o'zi qobili buzilishi bo'lib hisoblanmaydi.

O'yinchi o'yindan tashqari holatda bo'ladi, agar:

➢ To'p va oxirgi raqib o'yinchisidan ko'ra raqib darvoza chizig'iiga yaqin bo'lsa.

O'yinchi o'yindan tashqari holatda bo'lmaydi, agar:

➢ U maydonning o'ziga tegishli qismida bo'lsa.
➢ U raqib jamoaning oxirgi o'yinchisi bilan bir chiziqda bo'lsa, yoki:

➢ U raqib jamoaning oxirgi 2 o'yinchisi bilan bir chiziqda bo'lsa.

Qoida buzilishi va jazo.

O'yindan tashqari holatda to'rgan o'yinchi faqat shunday hollarda jazolanishi mumkin, agar to'pga tegish vaqtida yoki bitor jamoadoshi to'pga zarba berayotgan vaqtda, u hakamning fikricha o'zin faoliyatiga aktiv ishtirok etayotgan bo'lsa, aniqrog'i:

➢ o'yinga aralashsa;
➢ raqibining o'ynashiga xalaqit bersa;
➢ o'zining joylashgan vaziyatiga ko'ra ustunlikka ega bo'lsa.

Qoida buzilmaydi.

O'yindan tashqari holat hisoblanmaydi, agar o'yinchi to'g'ridan to'g'ri to'pni qabul qilsa:

➢ Darvoza maydoni chizig'idan zarbadan;
➢ Yon chiziqdandan to'p o'yinga kiritilganda;
➢ Burchak to'pi tepilganda.

Qoida buzilishi va jazo.

Har qanday o'yindan tashqari holat qoidasi buzilganda hakam erkin to'p tayinlaydi va bu qoida buzilgan joydan raqib jamoa o'yinchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoida buzilishi va intizomsiz o'yinchilar xulqi.

Qoida buzilishi, ta'qiqlangan usullarning qo'llanishi, tartib-siz o'yinchilar xulqi quyidagicha jazolanadi:

Jarima to'pi.

O'yinchi quyidagi 6 holatdan birortasini amalga oshirsa va bunda hakam o'yinchining harakatini ehtiyotsizlik yoki o'ta jismoniy zo'ravonlik deb baholasa jarima to'pni tepish huquqi raqib jamoaga beriladi:

- Raqibga oyoq bilan zarba berish yoki zarba berishga harakat qilish.
- Chalib yuborish yoki chalib yuborishga harakat qilish.
- Raqib ustiga sakrash.
- Raqibga hujum qilish.
- Raqibga qo'l bilan zarba berish yoki zarba berishga o'rinish, harakat qilish.
- Raqibni itarish.

Jarima to'pni tepish huquqi raqib jamoaga ham berilishi mumkin, agar o'yinchi quyidagi 4 ta qoida buzilishiga yo'l qo'sya:

- Raqibdan to'pni olib qo'yishda, to'pga yetib unga tegmasidan oldin raqibga tegsa.
- Raqibni ushlab qolish.
- Raqibga to'p urishi.
- Qasddan qo'l bilan o'ynash (o'z jarima maydonida to'rgan darvozabondan tashqari).
- Jarima to'pi qoida buzilgan joydan bajariladi.

11 metrlik jarima to'pi.

11 metrlik jarima to'pi yuqorida ko'rsatilgan 10 ta qoida buzilishining har qaysisida tayinlanadi. Agar bu holatlar o'yinchi tomonidan o'z darvozasi jarima maydonida sodir etilsa.

Bunda to'pning qayerda bo'lishi hisobga olinmaydi, shu shart bilanki, to'p o'yinda bo'lishi kerak.

Erkin to'p.

Erkin to'p tepish huquqi raqib jamoaga beriladi, agar darvozabon o'z jarima maydonida turib quyidagi 5 ta qoidadan birortasini buzsa:

- To'pni tashlashdan oldin, qo'lida 6 sekunddan ortiq to'pni ushlab tursa.

- To'pni tashlagandan so'ng, boshqa o'yinchi tegmasidan yana to'pni qo'l bilan ushlasa.
- O'z jamoadoshi tomonidan ataylab oshirilgan to'pga qo'll bilan tegsa.
- O'z jamoadoshi tomonidan yon chiziqdan tashlangan to'pni qabul qilishda to'g'ridan to'g'ri qo'li bilan tegsa.

Shunday holatlarda erkin to'p tayinlanadi, agar o'yinchi hakam fikricha:

- Xavfli o'ynasa.
- Raqibning harakat qilishiga yo'l qo'ymasa.
- Darvozaboning to'pni tashlashiga xalaqit qilsa.

Qoidada ko'rsatib o'tilmagan boshqa har qanday qoida buzilishiда, o'yin to'xtalib o'yinchiga ogohlantirish beriladi yoki maydondan chiqarib yuboriladi.

Erkin to'p qayerda qoida buzilgan bo'lsa, o'sha joydan bajariladi.

Intizomni buzuvchilarga qo'llaniladigan holatlar:

Ogohlantirish bilan jazolanadigan qoida buzishlar.

O'yinchi sariq kartochka olish bilan ogohlantirish oladi, agar quyidagi yetti qoidaning birontasini buzsa:

1. Sportchiga xos bo'limgan xatti-harakatlar.
2. Hakam qaroriga namoyishkorona norozilik bildirish (so'z bilan yoki ishora bilan).
3. O'yin qoidasini muntazam buzish.
4. O'yinni yangidan boshlashni cho'zish.
5. O'yinni burchakdan, jarima yoki erkin to'p bilan yanidan boshlashda talab qilingan masofaga rioya qilmasa.
6. Maydonga hakam ruxsatsiz chiqish yoki qaytish.
7. O'zboshimchalik bilan hakam ruxsatsiz maydondan ketish.

O'yindan chetlatish bilan jazolanadigan qoida buzishlar.

O'yinchi qizil kartochka ko'rsatish bilan o'yindan chetlatiladi. Agar quyidagi yetti qoidaning birontasini buzsa:

1. O'yin qoidasining jiddiy buzilishi.

2. Zo'ravonlik, qo'pol xatti-harakatlar.
3. Raqibga yoki boshqa shaxsga tupirish.
4. Ataylab qo'l bilan o'ynab, raqibning gol urishiga xalqil qilish yoki aniq gol urishi imkoniyatidan mahrum qilish. (bu o'jarima maydonida to'rgan darvozabonga tegishli emas).
5. Erkin to'p jarima yoki 11 metrlik zarba bilan jazolana digan qoida buzish bilan darvozaga harakat qilayotgan raqibni aniq gol urish imkoniyatidan mahrum qilish.
6. Ranjitadigan haqoratlari so'zlar yoki odob-axloqqa to'g'ri kelmaydigan ishoralar qilsa.

7. Bir match davomida 2ta ogohlantirish olsa.

Maydondan chiqarilib yuborilgan o'yinchi maydon chegarasiga yaqin joylar va texnik zonalardan ham chiqib ketishi kerak. Qizil yoki sariq kartochka faqat o'yinchiga, zaxiradagi o'yinchiga yoki almashtirilgan o'yinchiga ko'rsatilishi mumkin.

Xalqaro yig'in qarori.

O'yinchining raqibga, sheri giga, hakamga, hakam yordamchisiga yoki boshqa har qanday shaxsga nisbatan o'yin maydonida yoki maydon tashqarisida ogohlantirishga yoki chiqarib yuborilishiga olib keladigan qoida buzishi, yo'l qo'ygan xatti-harakatlari munosib jazolanadi.

Agar darvozabon qo'lining har qanday qismi to'pga tegsa u to'pni nazorat qilayotgan hisoblanadi. Darvozabon to'pni nazorat qilishi deganda ataylab to'pni egallab olishi tushuniladi. Agar darvozabon to'pni egallahda qo'lidan chiqarib yuborsa, maydondagi o'yinchilar to'p bilan o'ynashlari mumkin.

12 qoidaga ko'ra o'yinchi to'pni o'z darvozaboniga kallasisi, ko'kragi yoki tizzasi bilan berishi mumkin. Lekin o'yinchi hakam fikricha ataylab ustalik bilan xiyla ishlatib qoidani aylanib o'tmoqchi bo'lsa (to'p o'yinda bo'lgan vaqtida) bu sportga xos bo'l magan harakat hisoblanadi va o'yinchi sariq kartochka ko'rsatish bilan ogohlantirish oladi va raqib jamoa qoida buzilgan joydan erkin to'p tepish huquqini qo'lga kiritadi.

O'yinchi erkin yoki jarima zARBASINI bajarayotganda ataylab ustalik bilan xiyla ishlatib qoidani aylanib o'tmoqchi bo'lsa,

sportiga xos bo'limgan harakati uchun bunda ular sariq karbochka ko'rsatish bilan ogohlantirish oladi. Zarba qaytariladi.

To'pni orqadan olib qo'yishda raqibning xavfsizligiga tahlid solinishi, jiddiy qoida buzilishi sifatida jazolanishi kerak.

Maydonda hakamni aldash uchun ishlatalgan har qanday mug'ombirlik, ayyorlik sportchiga xos bo'limgan xatti-harakat olatida jazolanadi.

Jarima va erkin zARBalar.

Zarba xillari.

ZARBalar jarima yoki erkin zarbaga bo'linadi.

Jarima zarbasida bo'lganidek xuddi shunday erkin zarbada ham to'p zarba bajarilayotganda harakatsiz holatda bo'lishi kerak, zarbani bajarayotgan o'yinchisi esa to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha ikkinchi marta to'pga tegishga haqqi yo'q.

Jarima zarbasi.

- Agar to'p jarima zarbasidan so'ng to'g'ridan to'g'ri, qarama qarshi jamoa darvozasiga tushsa, gol hisoblanadi.

- Agar to'p jarima zarbasidan so'ng to'g'ridan-to'g'ri o'z darvozasiga tushsa qarama-qarshi jamoa burchak to'pini tepishni qo'lga kiritadilar.

Erkin zarba. (SIGNAL) Hakam qo'lini boshi tepasiga ko'targan holda erkin zarba haqida signal beradi. U qo'lini shu holatda zarba bajarilib to'p biron bir o'yinchiga tegmaguncha yoki o'yindan chiqmaguncha ushlab turadi.

To'pning darvozagaga tushishi.

To'p faqat shu holatda hisoblanishi mumkin, agar zarbadan so'ng va darvozagaga tushishdan oldin boshqa o'yinchiga tegsa:

- *Agar erkin zarbadan to'p to'g'ri qarama-qarshi jamoa darvozasiga tushsa, darvozadan zarba tayinlanadi.

- *Agar erkin zarbadan to'p to'g'ridan - to'g'ri o'z darvozasiga tushsa, qarshi jamoa burchak zarbasini bajarish huquqini oladi.

Jarima va erkin zarba bajarilish joyi.

Jarima yoki erkin zarba jarima maydoni doirasida:

Himoyalanuvchi jamoa tomonidan bajariladigan jarima yoki erkin zarba.

*Raqib jamoanining hamma o'yinchilari to'pdan kamida 9,15m (10 yard) masofada joylashadi.

*To'p o'yinga kirmaguncha raqib jamoanining hamma o'yinchilari jarima maydoni tashqarisida turadi.

*Qachonki to'p jarima maydonidan tashqariga chiqsa, to'p o'yinda hisoblanadi.

*Darvoza maydoni doirasida bajarilishi kerak bo'lgan jarima yoki erkin zarba uning har qaysi nuqtasida bajarilishi mumkin.

Hujumdag'i jamoa tomonidan bajariladigan erkin zarba:

*Raqib jamoanining hamma o'yinchilari to'pdan kamida 9,15m (10 yard) masofada joylashadi.

*To'p o'yinda hisoblanadi qachonki, to'pga zarba berilib, u harakatda bo'lsa.

*Darvoza maydonida bajarish uchun tayinlangan erkin zarba, darvoza chizig'iga parallel bo'lgan darvoza maydoni chizig'ida qoida buzilgan joy yaqinida amalga oshiriladi.

Jarima maydoni tashqarisida bajariladigan jarima yoki erkin zarba:

*Raqib jamoanining hamma o'yinchilari to'p o'yinga kirmaguncha to'pdan 9,15 m masofa uzoqlikda joylashadi.

*To'p o'yinda hisoblanadi qachonki, to'pga zarba berilib u harakatda bo'lsa.

*Jarima yoki erkin zarba qayerda qoida buzilgan bo'lsa, o'sha joydan bajariladi.

Qoida buzilishi va jazo.

Agar jarima yoki erkin zarba bajarilayotganda raqiblardan biri to'pga ruxsat berilgan masofadan ko'ra yaqinroqda bo'lsa:

*Zarba qaytariladi.

Himoyalanayotgan jamoanining o'z jarima maydonida bajarayotgan jarima yoki erkin zarbasidan so'ng to'p to'g'ridan to'g'ri o'yinga kirmasa:

*Zarba qaytariladi.

Maydon o'yinchisi tomonidan (darvozabon emas) bajariladigan jarima yoki erkin zarba.

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng zarbani bajargan o'yinga to'pga boshqa biror o'yinchi tegmasdan oldin ikkinchi marotabha to'pga tegsa (qo'li b\n emas):

*Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini qo'lga kiritadi.

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasidan oldin ataylab to'pni qo'li bilan o'ynasa:

*Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zARBASINI bajarish huquqini qo'lga kiritadi.

*Agar qoida buzilishi zARBANI bajargan o'yinchi jamoasi jarima maydoni doirasida yuz bersa, 11 m zarba tAYINLANADI.

Darvozabon tomonidan bajariladigan jarima yoki erkin zarba:

*Agar to'p o'yinga kirganidan so'ng darvozabon to'pga boshqa biror o'yinchi tegmasidan oldin (qo'li bilan emas) qaytadan to'pga tegsa.

*Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini qo'lga kiritadi.

Agar to'p o'yinga kirganidan so'ng darvozabon to'pga biror o'yinchi tegmasidan oldin ataylab to'pni qo'li bilan o'ynasa:

*Qarshi jamoa jarima zARBASINI bajarish huquqini oladi, agar qoida buzilishi shu darvozabon jarima maydoni tASHQARI-SIDA yuz bergen bo'lsa, zarba qoida buzilgan joydan bajariladi.

*Qarshi jamoa jarima zARBASINI bajarish huquqini oladi, agar qoida buzilishi shu darvozabon jarima maydoni ichida yuz bersa, zarba qoida buzilgan joydan bajariladi.

11 metrlik zarba.

To'p o'yinda bo'lgan vaqtda o'yinchilar o'z jarima maydoni doirasida jarima to'pi tAYINLANADIGAN 10 ta qoidaning birortasini buzsa shu jamoa darvozasiga 11 metrlik jarima zARBASI tAYINLANADI, 11 metrlik jarima zARBASIDAN KIRITILGAN gol hisoblanaadi. Har qaysi tAYMNING tugashida, asosiy yoki qo'shimcha vaqt bo'lishidan qat'iy nazar 11metrlik zarba uchun vaqt qo'shib beriladi.

To'p va o'yinchilarning joylashishi.

To'p:

*11 metrlik nuqtaga joylashtiriladi.

Zarbani bajaruvchi o'yinchi kerakli tarzda aniqlanadi.

Himoyalanuvchi jamoa darvozaboni:

*To'pga zarba berilmaguncha darvoza chizig'ida ikki ustun oralig'ida zARBANI bajarayotgan o'yinchiga yuzma-yuz to'rgan holatda qoladi.

Zarbani bajarayotgan o'yinchidan boshqa o'yinchilar turi shadi:

*Maydon doirasida.

*Jarima maydonidan tashqarida.

*11 metrlik nuqta orqasida.

*11 metrlik nuqtadan kamida 9,15 m uzoqlikda.

Hakam:

*O'yinchilar shu qoidada asosan joylarini egallamaguncha, 11m zARBANI bajarish uchun signal bermaydi.

*11 m zarba bajarilgani haqida qaror qabul qiladi.

Zarbani bajarish tartibi:

*11 m zARBANI bajaruvchi o'yinchi to'pni zarba bilan to'g'riga yo'naltiradi.

*To'p biror bir o'yinchiga tegmaguncha to'pga ikkinchi marta tegmaydi.

*To'pga zarba berilib u oldinga harakat qilsa, to'p o'yinda hisoblanadi.

Qoida buzilishi va jazo.

Agar hakam 11 m zARBANI bajarish uchun signal bersa va to'p o'yinda kirgunga qadar quyidagi holatlardan biri yuz bersa:

Zarbani bajaruvchi o'yinchi o'yin qoidasini buzsa:

*Hakam zARBANI bajarish uchun imkon beradi.

*Agar to'p darvozaga kirsa, zarba qaytariladi.

*Agar to'p darvozaga kirmasa, zarba qaytarilmaydi.

Darvozabon o'yin qoidasini buzsa:

*Hakam zARBANI bajarish uchun imkon beradi.

*Agar to'p darvozaga kirsa, gol hisoblanadi.

*Agar to'p darvozaga kirmasa, zarba qaytariladi.

Zarbanı bajaruvchi o'yinchining jamoadoshi jarima maydonchasiga kirsa, yoki 11 metrlik nuqtadan oldinga o'tsa yoki nuqtaning 9,15 metrlik doirasida bo'lsa.

- *Hakam zarbanı bajarish uchun imkon beradi.
- *Agar to'p darvozaga kirsa, zarba qaytariladi.
- *Agar to'p darvozaga kirmasa, zarba qaytarilmaydi.
- *Agar to'p darvozabonga, darvoza to'siniga yoki darvoz ustuнига tegib sapchib ketsa va to'pga shu o'yinchi tegsa, hakam o'yinni to'xtatadi va erkin zarba bilan yangidan boshlash huquqini qarshi jamoaga beradi.

Darvozaboning jamoadoshi jarima maydoniga kirsa yoki 11 metrlik nuqtadan oldinga o'tsa yoki nuqtaning 9,15 m doirasida bo'lsa:

- *Hakam zarbanı bajarish uchun imkon beradi.
- *Agar to'p darvozaga kirsa, gol hisoblanadi.
- *Agar to'p darvozaga kirmasa, zarba qaytariladi.

Himoyalanuvchi va hujumga o'tuvchi jamoa o'yinchilari o'yin qoidasini buzsa:

- *Zarba qaytariladi.
- Agar 11metrlik zarba bajarilgandan so'ng:
Zarbanı bajargan o'yinchi to'p biror o'yinchiga tegmasidan oldin ikkinchi marotaba to'pga tegsa (qo'li bilan emas):
- *Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini oladi.

Zarbanı bajruvchi o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasidan oldin qo'li bilan ataylab o'ynasa:

- *Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zARBASINI bajarish huquqini oladi.

To'p oldinga harakatlanayotganda unga begona buyum tegsa:

- *Zarba qaytariladi.
- To'p darvozabon, ustun yoki darvoza to'sinidan sapchib maydonga qaytsa, undan so'ng begona buyum yoki biror shaxs tegsa:
- *Hakam o'yinni to'xtatadi. To'pga begona buyum yoki biror shaxs tekkan joydan, "bahsli to'p" bilan o'yin yangilanadi.

To'pni tashlash.

To'pni tashlash o'yinni yangidan boshlash usuli hisoblanadi.

To'g'ridan to'g'ri to'pni tashlashdan so'ng urilgan gol hisoblanmaydi.

To'pni tashlash tayinlanadi:

- Qachonki to'p to'liq yon chiziqni yerdan yoki havodan kesib o'tsa.

- To'p yon chiziqni kesib o'tgan joyda.

- To'pga oxirgi tekkan o'yinchining raqib jamoasiga.

To'pni tashlash holati.

To'pni tashlash vaqtida o'yinchi:

- Maydonga yuzi bilan qaragan holda.

- Tovonning bir qismi yon chiziqda bo'ladi yoki yon chiziqning tashqarisida bo'ladi.

- To'pni tashlashni ikki qo'llab amalga oshiradi.

- To'pni bosh orqasidan harakatga keltirib tashlaydi.

To'p tashlashni bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasidan oldin yana tegishi mumkin emas. To'p maydonga tushishi bilanoq o'yinda hisoblanadi.

Qoida buzilishi / Ruxsat berish.

To'pning o'yinchi tomonidan tashlanishi:

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng to'p tashlashni amalga oshirgan o'yinchi to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasidan oldin (qo'l bilan emas) yana to'pga tegsa:

- Qarshi jamoaga qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqi beriladi.

- Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng to'p tashlashni amalga oshirgan o'yinchi, to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasidan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa.

- Qarshi jamoaga qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish huquqi beriladi.

- Agar qoida buzilishi to'p tashlashni bajargan o'yinchi jarima maydonida yuz bersa, 11 metrlik zarba tayinlanadi.

To'pni darvozabon tomonidan tashlanishi.

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng darvozabon to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasidan avval yana to'pga tegsa (qo'l bilan emas):

- Qarshi jamoaga qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqi beriladi.

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng darvozabon to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasdan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa:

- Qarshi jamoaga jarima zARBASINI bajarish huquqi beriladi, agar qoida buzilishi darvozabonning jarima maydonidan tashqarisida yuz bersa, bunda zarba qoida buzilgan joyda amalga oshiriladi.

- Qarshi jamoaga erkin zarba bajarish huquqi beriladi, agar qoida buzilishi darvozabonning jarima maydoni doirasida yuz bersa, bunda zarba qoida buzilgan joyda amalga oshiriladi.

Agar raqib halol bo'lмаган usul bilan to'p tashlashni amalga oshirayotgan o'yinchi diqqatini chalg'itsa yoki xalaqit bersa:

- Bunday o'yinchi sportga xos bo'lмаган xATTI-HARAKATI uchun sariq kartochka ko'rsatish bilan ogohlantirish oladi.

Shu qoidaning boshqa har qanday buzilishida:

- Qarshi jamoa o'yinchisi to'p tashlashni amalga oshiradi.

Darvozadan zarba.

Darvozadan zarba o'yinni yangilash usuli hisoblanadi.

Darvozadan zarba tufayli to'g'ridan to'g'ri raqib darvozasiغا to'p kirsa gol hisoblanadi.

Darvozadan zarba tayinlanadi qachonki:

- To'p oxirgi marta hujum qilayotgan jamoa o'yinchisiga tegib darvoza chizig'ini yerdan yoki havodan kesib o'tsa, lekin agar bunda 10 – qoidadan kelib chiqib gol urilmagan bo'lsa.

Darvozadan zarbani bajarish tartibi.

- Zarba himoyalanuvchi jamoa o'yinchisi tomonidan darvoza maydon doirasining har qanday nuqtasida amalga oshiriladi.

- Raqiblar to'p o'yinga kirmaguncha jarima maydoni doirasining tashqarisida turishadi (qoladi).

- Zarbani bajargan o'yinchi to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin, ikkinchi marta to'p bilan o'ynashi mumkin emas.

- To'p to'g'ridan to'g'ri jarima maydoni doirasidan tashqariга chiqsa, to'p o'yinda hisoblanadi.

Qoida buzilishi va jazo.

Agar darvozadan zarba bajarilgandan so'ng to'p jarima maydoni doirasini tark etmasa (tashqariga chiqmasa):

- Zarba qaytariladi.

Darvozadan zarba maydon o'yinchisi tomonidan bajarilsa (darvozabon tomonidan emas).

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchu to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin ikkinchi marta to'pg'a tegsa (qo'l bilan emas):

- Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini oladi.

Agar to'p o'yinga kirganidan so'ng zarbani bajargan o'yinchu to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa:

- Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish huquqini oladi.

Agar qoida buzilishi zarbani bajargan o'yinchining jarima maydoni doirasida yuz bersa, 11 metrlik zarba tayinlanadi.

Darvozadan zarba darvozabon tomonidan bajarilsa.

- Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng darvozabon to'p biror bir o'yinchiga tegmasidan oldin ikkinchi marta tegsa (qo'l bilan emas):

- Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini oladi.

- Agar to'p o'yinga kirganidan so'ng darvozabon to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa.

• Agar qoida buzilishi darvozaboning jarima maydoni doirasida tashqarisida yuz bersa qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish huquqini oladi.

• Agar qoida buzilishi darvozaboning jarima maydoni doirasida yuz bersa, qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini oladi.

Shu qoidaning boshqa har qanday buzilishida: zarba qaytariladi.

Burchak to'pi.

Burchak zarbasi o'yinni yangidan boshlash usulidir.

Burchak zarbasi tufayli to'g'ridan to'g'ri urilgan gol hisoblanadi, lekin faqat shu holatdaki, agar to'p raqib jamoa darvozasiiga urilgan bo'lsa.

Burchak to'pi tayinlanadi qachonki:

➤ To'p oxirgi marta, himoyalananayotgan jamoa o'yinchisiga tegib darvoza chizig'inи yerdan yoki havodan kesib o'tsa, lekin agar bunda 10 qoidaga mos ravishda gol urilmagan bo'lsa.

➤ Burchak to'pini bajarish tartibi.

➤ To'p burchak bayrog'i yaqinidagi belgilangan qism (sekotor) ichiga o'rnatiladi.

➤ Raqiblar to'pdan 9,15 m masofa uzoqlikda joylashadi. (to'p o'yinga kirmaguncha).

➤ To'pga zarbani hujumdagi jamoa o'yinchisi amalga oshiradi.

➤ Qachonki to'pga zarba berilib va u harakatda bo'lsa, to'p o'yinda hisoblanadi.

➤ Zarbani bajargan o'yinchi to'p boshqa o'yinchiga tegmaganucha ikkinchi marta to'pni o'ynashi mumkin emas.

Qoida buzilishi va jazo.

Burchak zarbasi maydon o'yinchisi tomonidan bajarilsa (darvozabon tomonidan emas).

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegishidan oldin ikkinchi marta to'pga tegsa (qo'li bilan emas):

➤ Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba berish huquqini oladi.

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegishidan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa.

➤ Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish huquqini oladi.

➤ Agar qoida buzilishi zarbani bajargan o'yinchining jarima maydoni doirasida yuz bersa, 11 metrlik zarba tayinlanadi.

Darvozabon tomonidan bajariladigan burchak to'pi.

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng darvozabon to'p boshqa o'yinchiga tegmasidan avval ikkinchi marta (qo'li bilan emas) tegsa:

➤ Qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini oladi.

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng darvozabon to'p boshqa o'yinchiga tegmasdan avval ataylab qo'l bilan o'ynasa

➤ Agar qoida buzilishi darvozabonning jarima maydoni doirasining tashqarisida yuz bersa, qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish huquqini oladi.

➤ Agar qoida buzilishi darvozabonning o'zining jarima maydonida yuz bersa, qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini oladi.

Shu qoidaning boshqa har qanday buzilishida:

➤ Zarba qaytariladi.

Match g'olibini aniqlash tartibi.

11 m nuqtadan zARBalarni bajarish va oltin gol – bu mu-sobaqa nizomiga ko'ra match durang natija bilan tugaganda g'olibni aniqlash uchun qo'llaniladigan usuldir.

Oltin gol.

Tartib.

➤ Asosiy o'yin vaqtı tugagandan so'ng tAYINlangan qo'shimcha vaqt davomida birinchi to'p o'rgan jamoa g'olib deb e'lon qilinadi.

➤ Agar to'p urilmasa, unda match g'olib 11 metrlik nuqtadan bajariladigan zARBalar yordamida aniqlanadi.

11 metrlik nuqtadan zARBalar.

➤ Hakam zARBalar uriladigan darvozani tanlaydi.

➤ Hakam birinchi zARBani bajaruvchi jamoani aniqlay-digan qur'a tashlashni o'tkazadi.

➤ Hakam amalga oshirilgan zARBalarni ro'yxatga oladi (qayd etadi).

➤ Kelishilgan quyidagi shartlarga rioya qilish sharti bilan har ikkala jamoa 5 tadan zarba bajarishadi.

➤ ZARBalar jamoalar tomonidan navbat bilan bajariladi.

➤ Agar ikki jamoa 5 tadan zarba bajarishdan oldin ulardan biri ko'proq gol ursa, ikkinchi jamoa esa 5 ta zARBani ham bajarib bunday natijaga erisha olmaydigan bo'lsa, zARBalarni bajarish to'xtatiladi.

➤ Agar 5 tadan zarba bajargandan so'ng ikki jamoa ham bir xil gollar soniga ega bo'lsa yoki bitta ham gol urmasa, jamoalardan biri bir xil zARBalar miqdorini bajarib, ikkinchisiga qaratganda 1 gol ko'p urmaguncha xuddi shu tartibda zARBalar ni bajarish davom ettiriladi.

➤ 11 m nuqtadagi zARBalarda jarohat olgan va keyingi o'z vazifalarini bajara olmaydigan darvozabon, protokolga kiritilgan zaxiradagi o'yinchi bilan almashtirishi mumkin, lekin shu hART bilanki, uning jamoasi musobaqa qoidasida ruxsat berilgan eng ko'p miqdordagi zaxira almashtirishdan foydalanmasligi kerak.

➤ Yuqorida keltirilgan holatdan boshqa 11 m nuqtadagi zARBalarni qo'shimcha vaqt qo'shgan holda match oxirida maydonda bo'lGAN o'yinchilargina bajarishi mumkin.

➤ Hamma zARBalar har xil o'yinchilar tomonidan bajariladi va ikkinchi marta zARBani bajarish huquqini o'yinchi olishi mumkin, faqat shu huquqga ega bo'lGAN hamma o'yinchilar o'z zARBalarni bajarib bo'lGANidan so'ng.

➤ ZARBani bajarish huquqiga ega bo'lGAN o'yinchi 11 m nuqtadan zARBani bajarishning har qanday paytida o'z joyini darvozabon bilan almashtirishi mumkin.

➤ 11 m nuqtadan zARBalarni bajarish vaqtida maydonda faqatgina zARBa bajarish huquqi bo'lGAN o'yinchilar va match hakamlari bo'lishi mumkin.

➤ ZARBani bajarayotgan o'yinchi va ikki darvozabondan tashqari hamma o'yinchilar markazdagi doira ichida qolishlari kerak.

➤ ZARBani bajarayotgan o'yinchi jamoasi darvozaboni, jarima maydoni doirasi tashqarisida darvoza chizig'i va jarima maydonini chegaralovchi chiziqlar kesishgan joyda qolishi kerak.

➤ Qachonki jamoa o'z raqibiga nisbatan ko'proq o'yinchi bilan matchni tugallasa, u raqib bilan tenglashish uchun o'z o'yinchilari sonini qisqartirishi va qisqartirilgan o'yinchilar familiyasi va raqamini hakamga bildirishi kerak. Bunday mas'uliyat jamoa kapitaniga yuklatiladi.

TEXNIK ZONA.

Texnik zona xalqaro yig'inning 3 qoidasida (2 qaror) ko'rsatilganidek stadionlarda o'tkaziladigan matchlarda texnik shaxslar va zaxiradagi o'yinchilar joylashadigan qismni bildiradi. Texnik zonalar har xil stadionlarda o'lchami yoki joylashishi bilan farq qilishi mumkin.

Quyidagi qaydlar, fikrlar umumiy qo'llanma sifatida keltiriladi.

➤ Texnik zona maydonining har ikkala tomonida zaxiradagi o'yinchilar uchun ajratilgan o'rindiqdan boshlab yon chiziqga 1 m masofa qolganda tugaydi.

➤ Ushbu zona chegarasini bildirish uchun markirovkadan foydalanish tavsiya etiladi.

➤ Texnik zonada bo'lishiga ruxsat berilgan shaxslar, musobaqa qoidasiga ko'ra match boshlanishidan oldin aniqlanadi.

➤ Faqat bir kishiga bir-vaqtida o'yinchilarga taktik ko'rsatmalar berishga ruxsat etiladi va bundan so'ng u darrov joyiga qaytishi kerak.

➤ Muhim holatlarni hisobga olmaganda jamoaning murabbiyi va rasmiy kishilari texnik zona doirasida qolishlari kerak.

Masalan: murabbiy uqalovchi (massajist) yoki murabbiy vrach hakam ruxsati bilan maydonga, jarohat olgan o'yinchining ahvolini baholashga chiqishi mumkin.

➤ Texnik zona bo'lgan murabbiy va boshqa rasmiy kishilar o'zlarini madaniyatli va yetarli darajada javobgar to'tishlari kerak.

Hakam.

Zaxiradagi hakam musobaqa qoidasiga ko'ra hakamlik vazifasini bajarishga tayinlanishi mumkin shu holatdaki, agar matchning 3 hakamidan birontasi o'z vazifasini davom ettira olmaydigan holatda bo'lsa.

➤ Match boshlanishidan oldin uning tashkil etilishiga javobgar idora aniq harakatlar tartibini e'lon qiladi, ya'ni agar hakam o'z vazifasini davom ettiradigan holatda bo'lmasa: bu vazifani zaxiradagi hakam o'ziga qabul qiladimi yoki hakamning birinchi yordamchisi.

➤ Zaxiradagi hakam agar hakam talab qilsa, har qanday ma'muriy vazifalarni muddatdan oldin, match vaqtida va matchdan keyin bajarishga yordamlashadi.

➤ U match davomida o'yinchilarni almashtirish holatiga yordam beradi.

➤ U zaxiradagi o'yinchilarning o'yin maydoniga chiqishidan oldin ekipirovkasini tekshirishga haqqi bor. Agar ular ekipirovkasi o'yin qoidasiga mos kelmasa, bu haqida hakamga ma'lum qiladi.

➤ Zaxiradagi hakam hamma vaqt hakamga yordam beradi. U signal berish kerak shu haqdakim, qachonki o'yinchini tanishda adashilganligi uchun boshqa o'yinchi ogohlantirish olsa yoki o'yinchi ikkinchi ogohlantirishni olib maydondan chiqib ketmasa yoki hakam va uning yordamchilariga ko'rinish mayotgan zo'ravonlik holatlariga, lekin shunda ham o'yinga bog'liq har qanday holatlarga qaror qabul qilish huquqi hakamda qoladi.

➤ Matchdan so'ng zaxiradagi hakam, hakam va hakam yordamchilari ko'rmagan, maydondan tashqarida yuz bergen har qanday nojo'ya harakatlar va shunga o'xshash holatlar bo'yicha tegishli tashkilotga axborot berishi kerak.

➤ Zaxiradagi hakam har qanday tuzilayotgan axborot haqidagi hakam va hakam yordamchilariga xabar qilishga majbur.

U texnik zonada to'rgan har qanday shaxsning nojo'ya harakatlari haqidagi hakamga ma'lumot berish huquqiga ega.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Maydon o'lchami qanchaga teng?
2. O'yinda necha odam ishtirok etadi?
3. Burchak to'pi va yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish?
4. Xalqaro yig'in qarori – bu...?
5. Futbol to'pi aylanasining uzunligi?


VIII BOB. KICHIK FUTBOL

Mini futbol sport zalida yoki ochiq joyda uzunligi 25-44 metrli va eni 15-25 metrli maydonda o'ynash mumkin. Maydonning chegarasi sifatida belgilangan chiziqlarning eni 5 sm bo'lili bu chiziq ichi o'yin maydoni sathiga kiradi. Mini futbol o'yinida qo'l to'pi darvozasidan foydalaniladi, darvozaning ustunlu oralig'i 3 metr va balandligi 2 metr bo'lishi tavsiya qilinadi.

Darvozaning ikkala ustunida radiusi 6 metr dan iborat ya rim aylana chizilishi lozim va ustunlar ro'parasida (darvoza chizig'iga parallel qilib) to'g'i chiziq bilan birlashtiriladi. Aylananining davomi darvoza to'rgan chiziq bilan birlashtiriladi. Hosil bo'lgan chizma oralig'i darvozabonning jarima maydoni deb ataladi. Darvoza ustunlarining teng o'rtasidagi nuqtaning ro'parasiga 6 metrli jarima chizig'i belgilanadi va uzunligi 0,5 metrli jarima chizig'i chiziladi. Maydonning teng o'rtasidan bo'lib, to'g'ri chiziq o'tkaziladi va uning o'rtasiga 3 metr radiusga ega bo'lgan markaziy aylana chiziladi.

Maydonning zaxiradagi o'yinchilari o'tiradigan tomoniga o'rta chiziq oldida ularni "almashtirish hududi" (6 metrli chiziq) belgilab qo'yiladi. O'yinchi almashtirish faqat o'sha hudud orqali amalga oshiriladi. Maydonning o'yinchilarni almashtirish o'yin davomida o'yin to'xtatilmay amalga oshiriladi. Darvozabonni almashtirish esa faqat o'yin to'xtatilgandagina amalga oshiriladi. Standart holatlarda jarima to'pini terishda raqib jamoa o'yinchisi to'pdan 3 metr masofada turishi shart. Yon chiziqdan to'p o'yinga oyoq bilan kiritiladi. O'yinning davom yetishi uchun jami 50 daqiqa vaqt, 25 daqiqalik ikkita taym, oralig'ida 10 daqiqa tanaffus bilan o'tkaziladi.

O'yinni ikki nafar hakam (bosh va yon chiziqdagi hakam) boshqaradi. 6 nafardan o'yinchi va 1 darvozabondan iborat ikki jamoa bir-biriga qarshi o'ynaydi. O'yinda ishtirok yetish uchun bir jamoadan 12 nafargacha o'yinchiga buyurtma berish mumkin. O'ynaladigan to'p yumaloq, tyeridan tikilgan, og'irligi 396-453 gr, aylanasi 68-71 sm ni tashkil qilishi lozim (28-rasm).



Nazariy mashg'ulotlarni olib borish usuli va uni tashkil etish

Nazariy mashg'ulotlarni olib borish yosh sportchilarning sport mahoratining tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Mashg'ulot o'tish tayyorgarligini shartli ravishda o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qismga ajratish mumkin:

- nazariy tayyorgarlik, ya'ni taktik bo'yicha maxsus bilimlarni o'zlashtirish

- amaliy tayyorgarlik, ya'ni alohida guruh va jamoaviy harakatlarni o'zlashtirish shuningdek, o'yinchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Amaliyotdan ma'lumki, kim nazariy jihatdan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, taktik ko'nikmalarni egallashda muvafiqiyatga erishadi. Nazariy bilimlar murakkab o'zin vaziyatlarда to'g'ri mo'ljal ola bilishga, ehtimollik qarorlarni baholash va ularni tahlil yetishga, ularda eng samaradorligini tanlab olishga yordam beradi.

Taktikada nazariy tayyorgarlik o'zin qoidalarini bilish va taktikaning alohida vositalarini egallashni ko'zda tutadi. Futbolchi o'yining asosiy tizimlari va ularning variant-

larini jamoadagi muayyan ampula o'yinchilarining vazifasini uchrashuvning har xil bosqichlaridagi harakatlarning o'zaro munosabatini obyektiv shart-sharoitlarning o'yin jarayoniga ta'siri hamda tashqi omillardan jamoa manfaatlari yo'lida foy dalanishni bilish zarur. Har bir harakatda bularning barchasini inobatga olish kerak. Taktik mahorat o'sib borgan sayin bilim larning o'yin jarayonning ko'rsatadigan ta'siri ham ortadi. Futbol taktikasi nazariyasini o'rganish o'yinning asosiy qoidalarini tushuntirishdan boshlanib, ular o'yin mashqlarini boshqarish davomida hamda mashg'ulot o'yinlari vaqtida amaliy jihatdan o'zlashtiriladi. Murabbiy jamoa ichidagi vazifalarning taqsimlanishi alohida o'yinchilar oldilaridagi muammolar haqida yosh shug'ullanuvchilarga to'liq tushunarli ma'lumot berishi, muayyan hududda o'ynaydigan aniq bir o'yinchining harakatlari yordamida ixtisoslashtirilgan tarzda ayrim o'yinchilarning asosiy vazifalarini ta'riflab berishi lozim.

O'rgatishning keyingi pog'anasi o'yinning alohida bosqichlarini batafsил tahlil qilib chiqadilar. Yaxshisi bunday tahlilda o'tkazilgan uchrashuvlarda o'yinchilar yo'l qo'ygan kamchiliklarni tanqid qilib o'tgan ma'qul. O'yin bosqichlari tahlilidan so'ng turli murakkablikdagi taktik vazifalarning nazariy yechimini o'rganishga o'tish mumkin. Harakat ko'nikmalarini o'rgatish jarayonida taktik faoliyatlarni amalga joriy yetish uchun shug'ullanuvchilarga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish hamda o'rganilgan harakatning mustahkamlash usullari haqida tushuncha beriladi.

Taktikani o'rgatish va uni takomillashtirishning asosiy usullari:

1. Mashq qilish usuli (O'rganilayotgan va yangi mashqlarni ko'p karra takrorlash). Shug'ullanuvchilarda harakatlanishning dinamik qoliplari streotiplari shakllanishida yordam beradi.
2. Namoyish etish va ko'rsatish usuli.
3. So'zlashish usuli.
4. Yaxlit qismlarga bo'lingan usul (yaxlit taktik harakatlarga o'tishdan avval ulardan har birining asosiy qismlari

• zlashtiriladi. Odatda, taktik harakatlarni mustahkamlash va shakllantirish uchun yaxlit usulga murojaat etiladi).

5. Taktikaga oid kinomateriallar tahlili raqib jamoa o'yinini baholashda juda katta ahamiyatga ega. O'yinlarni video tas-maga tushirishning afzalligi shundaki, u raqiblar o'yinini ko'p marotalab ko'rib o'rganishga imkon yaratadi. Bundan tashqari o'z taktik harakatlarini tahlil yetishga eng samarali yo'llaridan birdir.

6. O'z harakatlari va raqib harakatlarini tahlil yetish.

Odatda, murabbiylar kuzatuvni mustaqil ravishda olib borishni afzal biladilar. Shundan keyin o'yinchilarga faoliyat ko'rsatish variantlarining tayyor qoliqlarini beradilar: bu yosh futbolchilarni tashabbuskorlik va mustaqillikdan maxrum etadi. Demak, ularning o'yin tafakko'rini rivojlantirishga yo'l qo'ymaydi. Yosh futbolchilarning o'yin musobaqalarini ko'rishga jalg yetish juda muhim. Ularni shunchaki o'yin tomosha qilishga emas, balki jamoa qo'llayotgan taktik variantlarga, hujum va himoyada o'yinni tashkil yetish yo'llariga, taktik vazifalarni hal yetishda o'yinchilar qo'llaydigan vositalarga e'tibor qaratishni o'rgatish zarur. Yosh futbolchi taktik vazifalar ustida qanchalik ko'p o'ylab, ularning yechimini topsa, har xil sharoitlarda turli raqiblar bilan o'yinlardagi o'z taktikasi hamda shaxsiy tajribasini qanchalik chuqr tahlil etsa, o'zini o'yin vazifalarini to'g'ri tushunish va baholashga, o'yin payti oldiga qo'yiladigan xilma xil vazifalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal yetishga shuncha yaxshi tayyorlaydi.

Taktik harakatlarni o'yin texnikasi bilan bir vaqtida o'rganish maqsadga muvofiqligi yuqori bo'limlarda e'tirof etilgandi. Chunki dastlabki mashg'ulotlarda yosh futbolchilarda mustaqillik, mo'ljal olish tezkorligi hamda ijodiy faollikni tarbiyalash juda muhim. Shunday mashqlarni tanlash kerakki, ularni bajarish chog'ida shug'ullanuvchilar vaziyatni anglab, muayyan qarorlar qabul qilishi, o'z faoliyatini baholab, umumlashtira olishi lozim.

Taktikani o'zlashtirishning dastlabki bosqichida murakkab reaksiyalar tezkorligi mo'ljal olish va ziyraklik, futbolchilarda

ko'proq jismoniy va texnik tayyorgarlik jarayonida rivojlantirilishi
boradi. Buning uchun mashqlarga qo'shimcha sharoitlar kiritiladi:

- ovozli va ko'rish mumkin bo'lgan signallardan foydalaniлади (o'yinchilar to'p bilan yoki to'psiz bajaradigan u yoki bu harakatlarni tez o'zlashtira olishlari uchun).
- to'plarning miqdori, fishkalar, yordamchi jihozlar bilan bog'liq mashqlarning mo'ljal yoki chegaralari soni ko'paytiriladi.
- harakatlarni murakkablashtirish, qiyinlashtirishiga o'rnatiladi, ularda shug'ullanuvchilarning joy almashtirish tezligining harakat yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.
- shartli sheriklarining faol yoki passiv qarshiligidan foydalaniladi, bunda qo'shimcha sharoitlar yoki murakkablashtirishlar texnik usullar asosida yotuvchi jismoniy sifatlarning rivojlantirishga yoki harakat ko'nikmalarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga ahamiyat berish muhim.

Texnikaga oid u yoki bu mashqni bajarishda avval shug'ullanuvchilarning imkoniyatiga mos shunday taktik topshiriqtanlab berish kerakki, usullarning o'zlashtirilishini murakkablashtirmas, balki uning to'g'ri anglanishiga o'zgaruvchan sharoitlarda oqilona qo'llanilishiga ko'maklashsin. Masalan, yosh futbolchi bir vaqtning o'zida harakat boshlash uchun qulay paytanlab, ham zarba yo'nalishini aniqlashi yoki sheriklarining joylashuvi va siljishiga qarab to'pni olib yurishi lozim bo'lgan sharoitlarda mashq bajarishi mumkin. Keyin alohida harakatlarni o'zlashtirish raqibsiz o'tkazilgan mashqlarda passiv raqiblar bilan va nihoyat o'yin mashqlarida faol raqib bilan davom ettiriladi. Bu bosqichda muhim vazifani bajaradi. Uning faoliyatini murabbiy yo'naltirib turadi. O'rganilgan ko'nikma o'yin sharoitida ko'p marotaba takrorlash yo'li bilan mustahkamlanadi. Bunday yosh futbolchiga muayyan topshiriqlar beriladi. O'quv-mashg'ulot va o'rtoqlik o'yinlarida himoyadan hujumga va hujumdan himoyaga o'tishda to'pni o'yinga kiritish vaqtida joy tanlashga alohida e'tibor qaratish zarur. O'yinchilarning raqibdan uzilib keta olishiga, jamoa o'yinchilarining ochiq joyga

chiqishiga shuningdek, o'z o'yinchilarni yo'qotgan zahoti raqib o'yinchisini o'z vaqtida to'g'ri bekitishga erishish kerak.

Futbolda guruhli taktik harakatlarning asosini 2, 3 va undan ko'proq o'yinchilarning muayyan usullardagi o'zaro munosabatlari tashkil etadi. Ikti va uch undan ortiq o'yinchilarning munosabatlarini yanada takomillashtirish o'yin mashqlari va o'quv o'yinlari jarayonida davom ettiriladi. O'yin mashqlari dastlab, hujumchilar miqdori jihatdan usutnligida, keyin hujumchilar va himoyachilar sonini tenglashtirib va nihoyat hujumchilar midori kamaytirib o'tkaziladi. O'yin mashqlari hamda o'quv o'yinlariga futbochilarini o'rganilgan usullarni qulay vaziyatlarda qo'llashga majbur qiluvchi sharoitlarni kiritish maqsadga muvofiq. O'yin mashqlarini bajarish va o'quv o'yinlarini bajarish chog'ida murabbiy shug'ullanuvchilarning harakatlarini to'g'ri davom ettirishi uchun eng qulay variantlarni tanlash malakasi yuzaga kelgan vaziyatni mustaqil babolay olishga muayyan sharoitda mo'ljal olish tezligiga alohida ahamiyat berishi zarur.

Yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligi

Futbolchilarning o'yin faoliyati sharoitlarida yaxshi mo'ljal olish va taktik jihatdan to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati ko'p jihatdan texnik usullarni maqsadga muvofiq ravishda qo'llash, ya'ni ularning texnik qurollanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun yosh futbolchi texnik usullarni muntazam takomillashtira borib juda ko'p miqdordagi harakat ko'nikmalarini egallab olgandagina, yaxshi taktik tayyorgarlikka erishishi mumkin. O'yinchining texnik mahorati yo' sheriklari bilan hamkorlikda, yoki individual ravishda istalgan taktik g'oyaning amalga oshirilishini ta'minlashi kerak. Har bir futbolchining taktik jihatdan yuqori individual tayyorgarligi butun jamoa taktikasining samarali bo'lishini belgilab beradi.

Yosh futbolchilar bilan o'tkaziladigan har bir o'quv mashg'uloti bosqichi muayyan yo'nalishga va tegishli o'quv materiallariga ega bo'lishi kerak.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifa o'yinda fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalash va futbol o'yini jarayoniga qiziqish uyg'otishdan iborat. Mashg'ulotlarda murakkab reaksiya tezligi, mo'ljal olish, idrok, mustaqillik jamoada ish ko'ra bilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar bajariladi. O'yinda fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalash uchun o'yin faoliyati xarakteriga ko'ra futbolga ya qin bo'lgan harakatli o'yinlardan keng foydalaniladi. Harakatli o'yinlar raqib "ta'qib"idan qutulish va bo'sh joyga chiqish, o'z vaqtida to'p oshirish, hujum yoki himoya vaqtida tezlik bilan qulay vaziyatni egallash ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Taktik tayyorgarlikda harakatli o'yinlardan foydalanish to'pni egallab olishning murakkab texnikasi yo'qligi bilan ham belgilanganadir. Bu shug'ullanuvchilarning diqqat-e'tibori o'yin jarayoni ni tushunib olishga qaratiladi, juda ko'p vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarib olish imkonini yuzaga keladi. O'yinlarda hujum va himoyadagi individual hamda eng oddiy guruhli harakatlar tarbiyalanadi. O'yinchining "ochilishi" va "yopilishi" kabi taktilik harakatlarni, eng yaxshisi, sport o'yinlarga oid harakatli o'yinlarda o'rgangan ma'qul.

Murabbiy o'yin mohiyatini to'g'ri tushunish hissini tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, qabul qilingan har bir noto'g'ri qarorni e'tibordan chetda qoldirmasligi, bajarilgan harakatga baho berishi kerak. Shuning uchun mazkur bosqichdagi har bir mashg'ulot mazmunining asosiy yo'nalishi – o'yinni olib borish tajribasini egallash va uni to'ldirib borishdan iborat.

Boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichi taktik tafakkurni (o'yinchining taktik jihatdan fikr yuritish qobiliyatini) rivojlantirishni hamda asosiy individual va guruhli taktik harakatlarni o'rganishni nazarda tutadi. Mashg'ulotlarda quyidagilar:

- nazariy bilimlar, taktik ko'nikma va malakalar zaxirasini kengaytirish;
- o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni doimo o'zgaruvchan o'yin sharoitidagi ijodiy imkoniyati e'tiborga olinishi kerak.

Mashg'ulotlarda sport o'yinlari taktikasining umumiy asosini o'rganishga, futbol o'yini taktikasini, o'yinchilarning individual va guruhli harakatlarini qarab chiqishga katta o'rinn beriladi. Shu maqsadda futbolchining mustaqil ish olib borishida mavjud barcha formalardan, taktik tayyorgarlikning nazariy asosini yaratishga yordam beruvchi formalardan (adabiy manbalar, kinomateriallar, shaxsiy kuzatishlar) foydalaniadi. O'yin qoidalarni o'rganish hamda individual va guruhli harakatlarni tushkil yetishda ularni hisobga olish lozim. Tanishish asnosida qoidalarni rasm, shema, maketda aks ettirilgan o'yin vaziyati va hokazolar bilan to'ldirib tushuntirish, ularni qo'llashga oid amaliy misollar keltirish foydalidir.

Asosiy taktik harakatlarni o'rganish jarayonida taktil tafakkur shakllantirilar ekan, asosiy e'tibor qabul qilinigan taktik rejani amalga oshirish uchun o'yin olib borishning shug'ullanuvchilar qabul qilgan muayyan vositalari va usullarini maqsadga qanchalik muvofiqligini tahlil qilishga qaratiladi.

Hujum va himoyaning doimo o'zgaruvchan sharoitlari da konkret individual va guruhli harakatlarga alohida e'tibor berib bajariladigan mashqlar ham o'rganiladi.

Ayrim o'yin vaziyatlarini ijodiy hal yetish qobiliyatini o'yinchilarning eng muhim malakasi hisoblanadi. Bu malakani rivojlantirish boshlang'ich sport ixtisoslashuvining asosiy vazifalaridan biridir.

Jiddiy mashq qilish bosqichidagi taktik tayyorgarlik o'zlashtirib olingan individual va guruhli harakatlarga alohida e'tibor bergan holda olib boriladi. U futbolchilarning kombinatsion o'yin olib borish qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Jamoada taktik harakatlarni takomillashtirishga katta e'tibor beriladi. Har bir o'yinchi jamoada qanday o'rinn egallashi-ga qarab o'z taktik harakatlarini takomillashtiradi. Mashqlarga ham hujumchi, ham himoyachi harakatlari kiritiladi. O'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini, vujudga kelgan o'yin sharoitida to'g'ri yo'l topa bilish, o'yin vaziyatini xarakterlovchi ko'p sonli mo-

mentlardan eng muhimini ajratib olish ko'nikmalarini tarbiyalashda juda muhimdir.

Yosh futbolchilarda o'yin taktikalarini tarbiyalashda o'yin qoidalarni o'zlashtirish

Yosh futbolchilarning taktik harakatlarni tarbiyalashda futbol o'yin qoidalarni yoddan bilish muhimdir. O'yin qoidalarni o'zlashtirgan yosh futbolchi o'yin vaziyatlarida o'z jamoadoshlarni hujumda, himoyadagi harakatlari noaniqliklar yuzaga kelishga yo'l qo'ymaydi. Futbol o'yinlarida futbolchilarning o'yin qoidalarni bilmasligi, hakamlar bilan tortishuvularini, vaziyatlarda oddiy qoidalarni buzilishini, hattoki yirik musobaqalarda ham kuzatilishi sir emas.

O'yinchilar o'yin maydoni, maydonchalar, darvoza va to'pning o'lchamlari hakamlarning majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi shart.

Tekshirishlardan shuni aniqladikki, yosh futbolchilarni o'yindan tashqari holatda, jarima va erkin to'plarni o'yinga kiritishda, hattoki yon chiziqdan to'pni tashlashda xatolarga yo'l qo'yishadi. Yosh darvozabonlar ham qoidani bilmasliklari tufayli jamoalarning mag'lubiyatga uchrashlariga olib kelishadi.

Yosh futbolchilar o'yinlarda o'yindan tashqari holatni yuzaga keltirishda ko'pgina xatoliklarga yo'l qo'yishadi. Bunday xatoliklarga yo'l qo'maslik uchun o'yindan tashqari holatni yuzaga keltirish yoki bo'lmasa ofsayd holatiga tushib qolmaslikda, yosh futbolchilarning o'yin vaziyatini to'g'ri baholay olishtalarigina samarali harakatlanishni ta'minlaydi. O'yindan tashqari holatni vujudga keltirish, raqib hujumini to'xtatishda yoki aksincha o'yindan tashqari holatni noaniq qo'llanilishi hujumchining ko'p hollarda darvozabon bilan birga-bir vaziyatga chiqarib, gol bo'lishiga olib keladi.

Biz o'yindan tashqari holatlarni o'yinlarni yuzaga keltirish va ushbu holatga tushib qolmaslikda maydonda samarali harakatlanishda, rasmlarda vaziyatlarni ko'rsatib berganmiz. Bu vaziyatlarda maydonda o'yindan tashqari holatlarning borligi yoki yo'qligi nazariy tarzda ham tushuntirilib berilgan.

Rasmlardagi shartli belgilar

O - hujum uyuştirayotgan jamoa


■ - himoyalanayotgan jamoa

← - to'pning yo'nalishi

↔ - o'yinchilarning harakatlanishi


1-vaziyat. O'yindan tashqari holat

O'yindan tashqari holat kuzatildi. A o'yinchi to'p bilan hujum uyuştirish vaziyatida, V o'yinchiga to'pni uzatdi. V o'yinchi bu vaziyatda Y va X raqib o'yinchilariga qaraganda, raqib darvozasiga yaqin turibdi.



2-vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q


O'yindan tashqari holat kuzatilmaydi. A o'yinchi hujum uyuştirishda, Z raqib o'ynchisi orqasida to'rgan V jamoandoshiga to'pni uzatdi. Bu holatda V1 joydan V2 joyga to'p uzatilgan tomonga qarab harakatlangan. To'p uzatilgan vaqtida Y raqib o'yinchi o'z darvozasiga yaqin o'yinchi bo'lган.



3-vaziyat. O'yindan tashqari holat


O'yindan tashqari holat. A o'yinchi raqib darvozasiga zarba berdi. Darvozabon D to'pni qaytadi, to'p yo'nalishi V o'yinchiga keldi, V o'yinchi qaytgan to'pni darvozaga yo'llab gol kiritdi.

Bu vaziyatda hakam golni inobatga olmadı, chunki A o'yinchi zarba berganda V o'yinchi raqib darvozasiga Z va Y raqib o'yinchilariga qaraganda yaqin turibdi.



4-vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q.


O'yindan tashqari holat yo'q. V o'yinchi to'pni uzatayotganda, A o'yinchi maydon chizig'ining o'z tomonida bo'lган. A o'yinchi Z va Y raqib o'yinchilariga qaraganda raqib darvozasiga yaqin bo'lishiga qaramay, bu holatda o'yindan tashqari holat deb qaralmaydi.



5-vaziyat. O'yindan tashqari holat.

O'yindan tashqari holat. A o'yinchi raqib darvozasiga kuchli zarba berdi, zarba darvozaning ustuniga tegib V o'yinchiga kelib


tushdi va to'pni darvozaga kiritdi. Hakam ushbu vaziyatda golni hisobga olmadı. A o'yinchi raqib darvozasigi zarba berganda V o'yinchi Y raqib o'yinchisiga qaraganda, raqib darvozasiga yaqin joylashgan.



6-vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q.

Burchak to'pi bajarilayotgan vaziyatda A o'yinchi to'pni o'z jamoadoshi V o'yinchiga yetkazdi. V o'yinchi raqib darvozasiga


yuqin bo'l shiga qaramay
to'pni darvozaga kiritdi.
Bu vaziyatda kiritilgan
gol hisobga olindi. Bur-
chak to'pingning birinchi
sur'ebasi, o'yindan tashqari
holat belgilanmaydi.



7-vaziyat. O'yindan tashqari holat.

O'yinchisi A darvozaga zarba berdi. Himoyachi Y zarba yo'liga to'sqinlik qilib qayta tashiga o'rindi. To'p Y himoyachiga tegib V o'yinchiga qilib tushdi. V o'yinchisi darvozaga zarba berdi.

Bu holatda gol hisobga olinmaydi, chunki A o'yinchisi tomonidan darvozaga zarba berilganda V o'yinchisi raqib darvozasiga yaqin holatda turibdi.



8-vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q

Bu vaziyatda o'yindan tashqari holat yo'q. A o'yinchisi to'pni uzatilayotganda V o'yinchisi Y himoyachi bilan bir chiziqda turibdi. To'p uzatilayotganda ikki o'yinchisi raqib darvozasiga birgalikda yaqin holatda.




Futbol o'yinida taktik tizimlarning qo'llanilishi

Taktik tizim – bu har bir o'yinchining alohida xususiyatlari asosida futbol maydonida to'g'ri joylashtirilgan holda ja-

moa bo'lib o'ynash harakatlarini tashkil yetishdir. Taktik tizimi futbol o'yini taraqqiyotida bir necha bor o'zgarib kelgan. Taktik tizimning bиринчи ко'rиншлари jamoalarda 2-5-3 tizimida qо'llanilgan. Ushbu tizimni tarix manbalarida italyancha tizim yoki bo'lmasa avstriya jamoalarning tizimi deb yuritilgan. Futbol o'yin qoidalarning takomillasha borishi taktik tizimlarga o'tasirini o'tkaza boshlagan. Futbol o'yiniga o'yindan tashqari halat qoidasini kiritilishi, jamolarda 3-5-2 (dubl ve) taktik tizimi ni yuzaga kelishga sabab bo'ldi. Dubl ve taktik tizimida qо'llash futbol jamolarning maydonda muvaffiqiyatli harakatlanishga olib keldi. Dunyo futbol sporti bo'yicha yetakchi hisoblangan Braziliya terma jamoasi ham futboldagi 4-2-4 taktik tizimida harakatlanishi bilan futbolga yangi taktik uslubni olib kelgan va jahon championati musobaqalarida g'oliblikka erishishgan.


O'tkazilayotgan jahon championatlarida terma jamoalar ning tayyorgarliklari va futbol o'yining yangi o'yin uslublarni ko'rsatishadi. Dunyoning yetakchi terma jamoalar o'z o'yinlari bilan mutaxassislar e'tiborida bo'ldi. Har bir o'yinga aniq rejaga asosan tayyorlangan, vaziyat taqozosiga qarab, o'z taktik tizimni, uslubini o'zgartirishga qodir bo'lgan jamoagina yuksak natijalarini qayd etdi.



1-4-4-2 taktik tizimi

1-4-4-2 taktik tizimi zamонавиј futbol o'yinida jamoalar tomonidan eng ko'п qо'llaniladigan taktik usuldir. Ushbu taktik tizim jamoaning hujumkor taktikada harakatlanishinidan darak beradi. Ushbu taktik tizimda ikkita hujumchi bir birlari bilan tandem hosil qilib hujumni yanada samarali ijro etilishi-


ni ta'minlaydi. 1-4-4-2 taktik tizimini Yevropaning M.Yunayted, Arsenal, Bavariya, Yuventus kabi klublari deyarli har o'yinda qu'llashadi.



1-4-5-1 taktik tizimi

1-4-5-1 taktik tizim ham futbol jamoalarining raqib ustidan g'alaqa qozonishida ishlataladigan samarali usuldir. 1-4-5-1 taktik tizimida Chelsi jamoasi ko'pgina uchrashuvlarida muvaffaqiyatli o'yin ko'rsatib kelmoqda. Aynan shu taktik tizim orqali Chelsi klubi so'ngi vaqtarda xalqaro musobaqalarda ij'olib bo'lib, dunyoning yetakchi klublar ro'xatidan o'rinn olgan. 2012-yildagi Yevropa championlar ligasi musobaqasining bosh sovrini Chelsi klubiga nasib etdi. Mutaxassislar e'roficha Chelsi klubi yarim himoyachilari F. Lempard, F. Maluda va markaziy hujumchi D. Drogba ushbu taktik tizimni samarali, mazmunli ijro etilishni ko'rsatishgan.

Toshkentning "Bunyodkor" futbol jamoasi ham aynan 1-4-5-1 taktik tizimda harakatlanadi. Taktik tizim orqali Osiyorning yetakchi klublarini mag'lubiyatga uchrata olgan.



1-4-3-3 taktik tizimi

1-4-3-3 taktik tizimi hujumkor o'yin taktikasini namoyish etadi. Bu taktik tizimda Barselona jamoasi samarali harakatlanib so'nggi yillarda barcha raqib jamoalarni mag'lubiyatiga uchrata olmoqda. Mutaxassislar e'toficha maydon markazi da yarim himoyachilar Xavi, Inesta, Pedrolar har bir hujumi tashkil yetishda hujumchilar Messi, Vilya, Fabregaslar bilan birgalikda qisqa to'p uzatishlarda har qanday raqib himoya chizig'idan o'ta olishlarni ko'rsatishmoqda. Ushbu taktik tizimda harakatlanish orqali Barselona jamoasi 2006-2012-yillar oraliq'ida deyarli barcha musobaqlarda sovirlarga ega bo'lishdi.

DARS KONSPEKTINI TUZISH

Darsning mavzusi: Futbolning umum texnik asosi, futbol texnikasi haqida tushuncha.

Darsning maqsadi: Sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlantirish, talabalarining harakat, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning vazifasi: Futbolning umum texnik asosi, futbolning jismoniy tarbiyaning bir vositasi sifatidagi vazifasi, futbol texnikasi haqida tushunchalar berish va o'rgatish.

Dars olib borilayotgan joy: Andijon davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti, Suzish havzasi

Dars davomiyligi: 1 soat 20 minut

Foydalilanilgan o'quv jihozlari: maydon, futbol kiyimi.

Dars qismi va vaqt davomiyligi	FAOLIYAT MAZMUNI: Ma'ruza	
	Dars mazmuni	Metodik ko'rsatma
Darsning tayyorlov qismi (20 min)	1.1. Salomlashish. 1.2. Talabalar haqida axborot olish. Saf mashqlarini bajarish: Yurish,	1.1. Eshitadi, yozib oladi.

	<p>Sportcha yurish, yengil yugurish, yurish, nafas rostlovchi mashqlar.</p> <p>Umumiylar rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish.</p> <p>tayyorlov va yo'llanma beruvchi mashqlar.</p> <p>Maxsus futbol mashqlar.</p> <p>a) yurish va yugurish mashqlari. b) maydonda sirpanish mashqlari. s) maydon bo'ylab sakrash.</p> <p>1.3. Mavzuning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish hamda o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.</p>	
Darsning usosiy qismi (35-45 min)	<p>2.1. Futbolning umum texnik asosi</p> <p>A) Gavda holati. B) Oyoqlar harakati. S) Nafas. D) Qo'llar harakati. E) Harakatlarning umumiylar uyg'unlashuvi.</p> <p>2.2. Futbol texnikasi haqidagi tushuncha.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Futbol maydoniga maxsus kiyimlar bilan tushishni tushuntirish. 2. Eng yaxshi futbolchilarining o'yin texnikasini kuzatish. 3. Futbol o'ynash mobaynida qo'l va oyoq harakatiga e'tibor berish 4. Maydonda oyoqlarni tez harakatlantirish. 5. Maydonda qo'llarni tez harakatlantirish. 	<p>2. Eshitadi, tasavvur hosil qiladi o'rganish jarayonida shug'ullanuvchilar. Barcha suzish mashqlarini o'rganuvchilar avvaliga yakka-yakka bajaradilar; trener esa texnikaga taalluqli ko'rsatmalar berib turadi, texnika to'g'ri o'zlashtirilgan sari mashqlar guruh bo'lib bajariladigan bo'la boradi. Tezlanishini yugurisha asta sekin tezlikni oshira borish kerak, sekin suzuvchining harakati siqiq bo'lismiga yo'l qo'ymaslik zarur.</p>
Darsning yakuniy qismi (10 min)	<p>3.1. Qayta saflantirish, nafas oluvchi mashqlarni bajartirish, organizmni dastlabki holatiga</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p>

	qaytarish. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa, uyga vazifa, darsga yakun yassash uyushgan holda mashg'ulot joyidan ketish.	3.2. Topshiriqni yu oladi.
--	--	-------------------------------

Darsni tashkillashtirishda noan'anaviy o'qitish metodlaridan foydalanish

Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Noan'anaviy o'qitish, eng sodda qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni o'rgatadi.
3. Ko'p tarmoqli.
4. Sodda va oson.
5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqtdan yutadi.
7. Qiziqarli o'tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortadi.
12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi.
13. Xotirani kchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. O'quvchilarini o'z ustida ishlashga chorlaydi.

Dars jarayonida yangi bilimlarni berish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqaсида amalga oshirilishi lozim. Shundan so'ng bahs-munozara, kichik guruhlarda ishslash, loyihalash, tadqiqot va boshqa shu kabi interfaol metodlarni amalga oshirib, ta'lif oluvchilarning bilimlarini mustahkamlash kerak. Har qanday

holida ham nazariy dars jarayonida ma'ruza o'qiladigan vaqt
kamidan 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o'rghanishning
dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 20 daqiqadan keyin esa
o'rghanishni davom ettirish motivatsiyasi pasaya boshlaydi. Shu
bolek ta'lif oluvchilarining faolligi, qiziqishlarini saqlash va oshi-
rishi maqsadida interfaol metodlarni mavzuni takrorlash yoki
mustahkamlash bosqichlarida qo'llash maqsadga muvofiq.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar
birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiri-
idan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilish-
ning asosi bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan shun-
day qoida kelib chiqadi:

➤ O'quv vaziyatini tayyorlashda interfaol metodlar va
audio-vizual vositalarni samarali ishlatish lozim. Shunda birdan-
anliga ko'pgina sensorik kanallar jaib etiladi.

➤ O'quv materiali to'g'risida bahslashishga doim imkoniyat berish lozim. Davra suhbatlari, guruhiy bahs-munozaralar
tavsiya etiladi, chunki bu metodlar ta'lif oluvchilarini faoliy-
ka jaib qildi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lif oluvchilarining
ma'lumotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori daraja-
si 30%ni tashkil etar ekan. An'anaviy dars shaklini saqlab qol-
gan holda unga ta'lif oluvchilar faolligini oshiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish orqali ta'lif oluvchilarining
o'zlashtirish darajasini ko'tarishga olib keladi. Buning uchun
suzish dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, ta'lif beruvchi to-
monidan ta'lif oluvchilarining qiziqishining orttirilishi, ular-
ning faolligi doimo rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini
kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda turli
follashtiruvchi metodlarning qo'llanilishi va amaliy mashqlar-
ni mustaqil bajarishga yo'naltirilishi talab etiladi.

Bu metodlar "interfaol metodlar" deb ataladi. Interfaol metodlar ta'lif oluvchilarini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlash-
ga undovchi va ta'lif jarayonining markazida ta'lif oluvchi

bo'ladigan metodlar tushuniladi. Bunday metodlarni qo'llashda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni faol ishtirok yetishga chor laydi. Ta'lim oluvchilar butun jarayon davomida ishtirok etadi. Interfaol metodlarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, charxpalak, rolli o'yin ishbilarmonlik o'yini va shu kabi boshqa metodlar kiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida qaytar aloqaning ta'minlanishi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- mustaqil fikrlay oladigan ta'lim oluvchining shakllanshiga yordam berishi;
- faqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashning ham rivojlanishi.

Har qanday ta'limning maqsadi bilimni va uni amalda qo'llay olish ko'nikmalari va malakalarini hamda zaruriy shaxs sifatlarini shakllantirishdan iborat. O'quv faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun metod tanlashda eng asosiy omil bo'lib, o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Bugungi pedagogika an'anaviy yo'sindagisidan pedagogikadan milliy demokratik xarakterdagi, ya'ni muayyan texnologik jarayonda ijtimoiy munosabatlar, tuyg'u va ruhiy kechinmalar pedagogikasiga aylanib borayotganligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Pedagogik tadqiqotlarda bugungi kunda shaxs va uning taqdiriga munosabat masalasi turadi. Shunga ko'ra oqibatni sababga zid qo'ymaslik lozim. Ta'lim va tarbiyada oqibatga bo'lgan sabab o'zining to'g'ri va ijobiy yo'nalishini olsa, oqibat samarali bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalar oqimi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqaldi va hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o'zlashtirilmoqda. Ta'lizni texnologiyalashtirishning asosini ta'liz jarayoni va uning samaradorligini oshirish hamda ta'liz oluvchilarining berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etildi.

Ta'liz texnologiyasining predmeti ta'liz tizimining kontseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarini qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'liz modulini tanlashdan ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha bo'lgan tizimni loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalananda ta'liz metodlarini tanlash va samarali qo'llash alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. An'anaviy ta'liz metodlari bilan bir qatorda pedagogikada ilmiy asosini topgan interfaol ta'liz metodlarini qo'llash ehtiyoji tug'ildi. Chunki pedagogik texnologiyalar bilim oluvchilarini ta'lizning asosiy ishtirokchisi, bilim beruvchilar (o'qituvchilar) esa hamkorlik qiluvchi to'g'ri yo'nalish ko'rsatuvchi

Noan'anaviy ta'liz texnologiyasi.

Hamkorlikda o'rganish modeli – o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'liz olishini ko'zda tutadigan metodlardan iborat.

Fikrni sodda tilda bayon yetish. O'z fikrini sodda ifodalash – yaxshi o'qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'z fikrini murakkab tilda ifodalash – ziyolilik va professionalizm belgisi hisoblanmaydi. O'z fikrini sodda tilda ifodalash – tinglovchibop gapirish demakdir.

Sodda tilda gapirishga quyidagilar vositasida erishiladi:

- aytilgan fikrni ko'rgazmali qilib yetkazish;
- fikrni qisqa gaplar vositasida ifodalash;
- oddiy so'zlarni ishlatish;

➤ dars jarayonida ishlatilgan terminlar ma'nosini tushunishiga tizib o'tish.

Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash. Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash deganda, ma'ruza mazmunining ortiqcha vay ketmasdan, lo'nda, aniq va to'g'ri ifodalanishi tushuniladi:

- butunlay o'quv maqsadga qaratilgan;
- asosiy mazmunga qaratilgan;
- to'g'ri (bexato) ifodalardan iborat;
- muhim va kerakli izohlar bilan cheklangan.

Rag'batlantirish (stimullar). Rag'batlantirish deb ma'ruza tarkibidagi shunday qo'shimchalar tushuniladiki, ular ma'ruza mazmunini tinglovchilarga jonliroq qilib beradi va shu orqali ularning e'tibori va qiziqishini ta'minlaydi. Stimulyatsiya yaga quyidagilar yordamida erishiladi:

Ma'ruza mazmunlarini turli qiziqarli omillar, Ginnes rekordlari, shunga o'xshash misollar yordamida aniqlashtirish:

- taassurotli gapirish;
- aytilayotgan fikrlarni ko'rgazmali tarzda yetkazish (vizuallashtirish);
- qiyoslarda raqamlar va faktlarni ishlatish;
- tinglovchilarbop qiziqarli ifodalarni tanlash;
- shaxsiy fikrni bildirish;
- tinglovchilarning fikr-mulohazalaridan foydalanish.

Ma'ruzaning tuzilishi (strukturasi). Ma'ruza odatda uch qismidan: kirish, asosiy va yakuniy qismidan iborat bo'ladi.

Kirish qismi:

- qutlash;
- mavzu;
- maqsad;
- tashkiliy savollar;
- motivatsiya, qiziqishni uyg'otish.

Asosiy qism:

- asosiy fikr 1
- asosiy fikr 2
- asosiy fikr 3 va hokazo.

Yakuniy qism:

- natija va xulosa;
- umumlashtirish;
- umumiylashtirish;
- keyingi mavzuga nazar tashlash.

Ma'ruzachiga qo'yilgan talablar

Gavdani to'tish: tik, tinglovchilarga qaratilgan, erkin, ikki oyoqqa mahkam tayangan, boshi ko'tarilgan, ammo burun ko'tarilmagan holatda.

Qo'llar: bo'sh holatda, ikki yonda osilib to'rgan yoki kamardan yuqorida ikki qo'l bir-biriga ulangan; kamardan yuqoridagi harakatlar, tasavvurli (ifodali) xatti-harakatlar – gapirish tezligida emas, balki sokin, asta-sekin va xotirjam.

Yuz: tinglovchilarga qaratilgan, xotirjam.

Ko'z qarashlarfi: hadeb bir kishiga tikilmasdan, auditoriyadagi har bir kishiga 3-5 sekund davomida qarash.

Harakatlar: maqsadga muvofiq tarzda bir joydan boshqa joyga o'tish, "o'tirib-turishlar" emas, xotirjamlik bilan yordamchi vositalarni qo'lga olish va ishlatisch, xotirjam harakatlar, onda-sonda tinglovchilar tomoniga o'tish.

Ovoz: tanaffuslar bilan (ayniqsa, harakatlar paytida), sekin tezlikda va baland ovozda gapirish.

Namoyish yetish usulini qo'llashga doir ko'rsatmalar:

Ma'lum bir topshiriqni qanday bajarish kerakligini namoyish yetish san'atiga quyidagi bosqichlarni amalga oshirmasdan turib erishish ehtimoldan yiroq.

- *Namoyish yetish uchun o'z materiallaringizni tayyorlang.*

Siz uchun kerak bo'lgan barcha jihozlar, asbob-uskunalar va boshqa narsalar avvaldan tayyor holga keltirilishi lozim.

- *O'quvchilarni namoyish yetish jarayoni bilan tanishtiring.*

O'quvchilarga topshiriq nimadan iborat ekanini ayting va ularning qiziqishlarini e'tiborga olishga harakat qiling. Ularni mashg'ulot boshlashga va tinglashga tayyor ekanliklariga amin bo'lish maqsadida ularning onglariga kirib borishga harakat qiling. O'qituvchi uchun sodda bo'lgan narsa o'quvchi uchun o'ta murakkab bo'lishi mumkin.

- *O'quvchilarni sizning namoyishingizni oson ko'ra olishlari uchun ularni to'g'ri joylashtiring.*

Umuman olganda, o'quvchilar murabbiyning orqasidan kuzatishlari maqsadga muvofiq, bu o'z navbatida ular topshiriqni o'zlari bajarayotgan vaqtlarida qanday holatda bo'lislalarini kuzatishga sharoit yaratadi.

- *Topshiriqni bajarishni muvofiq tezlikda namoyish eting.*

O'quvchilarga topshiriq nimalardan iborat ekanini ko'rsatish maqsadida uni normal tezlikda o'rgatishga harakat qiling. Bu kabi namoyish yetish jarayoni bir daqiqadan oshmasligi lozim, agar topshiriq uzoqroq cho'ziladigan bo'lsa, uni to'xtatib va bosqichma-bosqich namoyish yetish kerak.

- *Topshiriqni sekinlik bilan takroran ko'rsating va har bir bosqichda nimalar sodir bo'lishi haqida aniq qilib ehtiyyotkorlik bilan tasvirlab bering. Tayanch nuqtalarga alohida e'tibor qarating.*

Sekin bajarish imkoni bo'lмаган topshiriqlar normal tezlikda, lekin alohida-alohida bajarilishi lozim. Bu bilan asosiy nuqtalarga e'tibor berib o'tish imkoni yaratiladi.

- *Har bir o'quvchini o'qituvchi bilan birqalikda topshiriqni bajarishga harakat qiling.*

Har bir o'quvchini topshiriqni bajarayotganda o'qituvchi yordami bilan o'zini "ish" jarayonidagidek his qilishlariga erishing. Har qanday savolga javob bering va har qanday xatoni o'sha zahotiyoyq to'g'irlang. O'quvchi egallashi qiyin bo'lgan har qanday nuqtalarni qaytadan ko'rsatib bering, bu jarayon qachonki o'quvchi uni to'g'ri bajarmaguncha davom etadi.

- *Har biro'quvchini topshiriqni amalda bajarishiga erishing.*

Har bir o'quvchini topshiriqni amalda normal tezlikda bajarla olgunlariga qadar davom ettirishlariga erishing. Shu bilan bir qatorda, amaliy faoliyat davomida o'quvchilarni to'g'ri usuldan foydalanayotganlariga amin bo'lisingiz muhimdir. Noto'g'ri uslubdan foydalanish oqibatida to'g'ri uslubdan foydalanish orqali o'rganish qiyinchiliklar bilan kechadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mini futbolni qanday maydonda o'ynash mumkin?
2. Taktikani o'rgatish va uni takomillashtirishning asosiy usullari nechtadan iborat?
3. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifa – bu?
4. Asosiy taktik harakatlarni o'rganish jarayonida nima o'rganiladi?
5. Toshkentning "Bunyodkor" futbol jamoasi qanday taktik tizimda harakatlanadi?

IX BOB. HARAKATLI O'YINLAR

Kim ko'p qo'ziqorin teradi

Tarbiyachi xonaga, sport zaliga yoki maydonchaga kubiklarni yoki boshqa mayda o'yinchoqlarni sochib tashlab qo'yadi. Tarbiyachining signalidan keyin ko'zi bog'langan ikkita o'yinchi savatchaga yoki hالتaga qo'ziqorinni tera boshlaydi. 2–3 minut davomida kim ko'p qo'ziqorin tersa, o'sha yutgan hisoblanadi.

Tomonlarni almashtirish

Ikkita komanda o'ynaydi. Har bir komandada 4–6 ta o'yinchi bo'ladi. Komandalar bir qatorli safda 20–30 m oraliqda yuzmaytuz turadilar. Har bir o'yinchida bittadan to'p bo'ladi.

Signal berilishi bilan hamma o'yin qatnashchilari raqib chizig'i tomon to'pni oyoq bilan tez surib boradilar, bunda ular qarama-qarshi tomondagи komanda o'yinchilari bilan urilib ketmasliklari kerak. Raqib chizig'ini to'p bilan bиринчи bo'lib hosib o'tgan komanda o'yinchisiga 1 ochko beriladi. O'yin bir necha marta o'tkaziladi. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda g'olib hisoblanadi.

O'yining boshqa turi. Komandalar har xil dastlabki holdatlarda (bir-biriga orqa tomoni bilan to'rgan holda, chalqanchasiga yotgan holda va hokazo) yugurish mumkin; to'pni olib yurish vaqtida oldinga o'mbaloq oshish, sakrash va boshqa harakatlarni bajarish mumkin.

To'pni tekkizish

O'yin zalda yoki maydonda o'tkaziladi. Maydonchaning katta-kichikligi yosh futbolchilarning tayyorgarlik darajasi va mashg'ulot shartiga bog'liq bo'ladi. O'yinda uchta o'quvel qatnashadi. Har bir o'yinchida bittadan to'p bo'ladi. Ulardan bittasi qochadi, ikkinchisi uni ta'qib qiladi. Ular qochayotgan o'yinchiga to'pni aniq tekkizishlari kerak.

Qochib ketayotgan o'yinchi to'p surish bilan raqiblaridan o'zib ketishga harakat qiladi. Agar o'yinchi to'pni tekkiza ololmasa unda u to'p orqasidan quvib yetib olib, yana qaytadan o'yinchiga uloqtiradi. To'pni aniq tekkizgan o'yinchi maydonda qoladi, qochib ketgan o'yinchining o'rnnini boshqa bola egallaydi. O'yin 5-8 minut davom etadi. Qochib ketayotgan o'yinchiga kim ko'p to'p tekkizsa, o'sha o'yinda g'olib chiqadi.

O'yinning boshqa turi. To'pni olib yurish va tepish oldindan aniqlanadi.

Ko'rsatilgan yo'nalishda

O'yinda har biri 5-8 kishidan iborat ikkita komanda qatnashadi. Maydonchaning kattaligi 25 x 15 m. O'yin 8-12 minut davom etadi. O'yinda ikki kishi hakam bo'ladi. Har bir komandada bittadan har xil rangdag'i to'p bo'ladi.

Signal berilishi bilan maydonchada erkin joylashgan ikkala komanda o'yinchilari to'pni o'z sheriklariga oshira boshlaydilar, oshirish vaqtida to'p raqibga tegmasligi va maydon tashqarisiga chiqmasligi kerak. Agar komanda to'pni yo'qotsa, unda u jarima ochko oladi. O'yin qoida buzilgan joydan yana davom ettiriladi. Kam jarima ochko to'plagan komanda o'yinda g'olib hisoblanadi.


O'yinning boshqa turi. O'yin boshlanishi oldidan o'yinchilarga necha marta to'p tekkizish kerakligi kelishib olinadi.

Harakatlanuvchi darvoza

O'yinda ikkita komanda qatnashadi. O'yin 10-12 minut davom etadi. Har bir komandada beshtadan o'yinchi bo'ladi. Fut-

bol maydoni 35×20 m ni tashkil yetishi kerak. O'yinchilarning vazifasi darvozaga to'p urishdir. Har bir komandadan bittadan o'yinchi yelkasiga uzun yog'och (2 m) qo'yib turib, darvoza hosil qiladi. Darvoza doim maydon bo'ylab siljib boradi, ya'ni to'pning nishonga tegishi ataylab murakkablashtiriladi.

O'qituvchi signali bo'yicha komandalarning biri to'pni olib yuradi va uni uzatadi, to'pni raqibiga bermaslikka va harakatlanuvchi darvozaga kiritishga harakat qiladi. To'pni darvozaga ikki tomonidan ham urish mumkin. Agar o'yinchi to'pni oldirib qo'ysa, komandalar o'rinni almashadilar, bittasi darvozani himoya qiladi, boshqasi esa hujum qiladi. Agar to'p darvozaga tushsa, unda to'p hujumchilarga qoladi. O'yin davomida darvoza vazifasini bajaruychilarni vaqtiga vaqtiga bilan almashtirib turish kerak. Darvozaga ko'p to'p kiritgan komanda g'olib chiqadi.



30-rasm

Maydon o'rtasidagi o'yin

O'yinda ikkita komanda qatnashadi, har bir komandada to'rttadan o'yinchi bo'ladi. Maydonchaning kattaligi 30×20 m. Qo'l to'pi darvozasining old chizig'ida bir-biriga yonma-yon to'r tortiladi. Signal berilishi bilan bitta komandadan ikkita bola o'yinni boshlaydi. Ular maydonchaning qarama-qarsi tomonidagi old chiziqdagi to'rgan raqibga to'p uzatadilar (bolalardan birortasi hakamlik qilib turadi). To'p raqib maydonining yarmisidan o'tkazilgandan keyingina darvozaga kiritilgan hisoblanadi. To'pni raqibga uzatish vaqtida raqib darvozasi oldida to'rgan, o'z maydonlarining yarmidan, maydon o'rtasidagi chiziqdagi jarima to'pni tepish belgilanadi. Agarda to'p to'g'ri kiritilsa, unda maydondagi o'yinchilar old chiziq orgasida to'rgan o'yinchilar bilan o'rinni almashadilar.

O'yin 10-15 minut davom etadi. Ko'p to'p kiritgan komanda g'olib chiqadi.

O'yining boshqa turi. Darvozaga to'pni qaysi usulda tepish oldindan kelishib olinadi.

Uch komanda


O'yinda bir vaqtning o'zida uchta komanda qatnashadi. Har bir komandada uchtadan o'yinchi bo'ladi. Maydonchaning kattaligi 30 x 15 m. Qo'l to'pi darvozasining old chiziqlarida o'yin oldidan chek tashlash bilan har bir komandaning vazifalari aniqlanadi. Biri bir tomondagi darvoza, ikkinchisi – boshqa tomondagi darvoza vazifasini bajaradi. Ikkinchi komanda – boshqa tomondagi darvozani himoya qiladi, uchinchisi – hujum vazifasini bajaradi. O'qituvchi signalidan keyin uchinchi komanda gohu, goh bu darvozaga hujum qilib, to'p kiritishga harakat qiladi. Himoya qiluvchi komanda esa faqatgina o'z darvozasi atrofida oldindan belgilangan joyda harakat qilish huquqiga ega. Hujum qiluvchi komanda 5 minutdan keyin birorta himoya vazifasini bajaruvchi komanda bilan joylarini almashadi. Agarda hujum qiluvchi komanda darvozalardan birortasiga to'p kirlitsa, unda boshqa darvoza hujum qilishni boshlaydi.

O'yin burchakdagi to'p tepishsiz, to'pni yon tomondagi chiziqdan otib kiritish bilan o'tkaziladi. Agar to'p maydondan tashqariga chiqsa, unda rezervdagি boshqa to'p o'yinga kiritildi. Ko'p to'p kiritgan komanda o'yinda yutgan hisoblanadi.

Yonma-yon tizilgan darvoza

Har bir komandada to'rttadan o'yinchi bo'lgan ikkita komanda o'ynaydi. Maydonchaning kattaligi 30-15 m. Maydoncha o'rtasidagi chiziqdan 10 m (chap va o'ng) masofada ikkita kichkina darvoza o'rnatiladi (qo'l to'pi darvozasi ham bo'lishi mumkin). Rahbar signali bo'yicha komandalardan biri o'rtadagi chiziqdan to'pni tepish bilan o'yinni boshlaydi va raqib darvozasiga hujum qiladi. Ular himoya qiladilar, to'pni olishga harakat qiladilar va o'z navbatida qarama-qarshi tomondagi darvozaga hujum boshlaydilar. O'yin darvozabonlarsiz o'tkaziladi. Biroq himoya qiluvchi komandaning oxirgi o'yinchisi, darvoza tomon yo'naltirilgan to'pni qo'l bilan ushlashi mumkin. Agar komanda


o'yin qoidasini buzsa, unda to'p raqibga beriladi. O'yin 10–20 minutgacha davom etadi. Ko'proq to'p kiritgan komanda yutgan bo'ladi.



31-rasm

Diagonal bo'ylab o'tkaziladigan o'yin

Bolalar 6–8 ta o'yinchisi bo'lgan ikkita komandaga bo'linadilar. Maydon kattaligi – 55 x 35 m bo'ladi. Bu qo'l to'pi darvozasining yon va old tomonidagi chiziqlardir. Maydonchning diagonal chizig'i ikki qismga bo'linadi. Ularning har birini biror komanda qatnashchilari qo'riqlaydilar. Qur'a tashlanib, qaysi komanda o'yinni boshlashi aniqlanadi. Signaldan so'ng bu komanda raqib maydonining yarmisiga hujum qilib, shu joydagi darvozadan birortasiga to'p urishga harakat qiladi. Raqiblar o'z maydonini himoya qilib, to'pni to'xtatishga va boshqa darvozaga xavf tug'dirishga harakat qila boshlaydi. O'yin darvozabonlarsiz o'ynaladi. Agar komanda o'yin qoidasini buzsa, unda to'p raqibga beriladi. Darvozaga to'p kiritilgandan keyin to'p hujumchilarda qoladi, ular diagonal chizig'ining xohlagan nuqtasidan o'yinni qaytadan boshlaydi. O'yin 15–20 minut davom etadi. Ko'p to'p kiritgan komanda yutgan hisoblanadi.



32-rasm

To'p uchun kurash

O'yinda ikkita komanda qatnashadi. Har bir komanda da 5–8 o'yinchisi bo'ladi. 40 x 20 m kattalikdagи maydoncha o'rtaidan chiziq bilan bo'linadi. Ikkala komanda ham oldingi chiziq orqasida saflanib turadilar. O'rtadagi chiziqqa bir necha to'p qo'yiladi. Ularning soni ikkala komandada o'yinchilar soniga nisbatan ikkita kam bo'ladi. Signal berilishi bilan komanda-

lar o'rta chiziqqa tomon shitob bilan intilib, bittadan to'p oladilar va o'z joylariga qaytadilar. Har bir olib kelingan to'p uchun komandaga bir ochko beriladi. Ko'p ochko to'plagan komanda yutgan hisoblanadi.

Oltita darvoza

O'yinda ikkita komanda o'ynaydi. Har birida beshtadan o'yinchi bo'ladi. Maydonning kattaligi 40 x 22 m. Bunda ixtiyoriy tartibda oltita darvoza bayroqchalar bilan (balandligi 1 m) belgilanadi, darvoza eni 1 m bo'ladi. Signal berilishi bilan komandalardan biri o'yinni boshlaydi. U xohlagan darvozasi ga to'p kiritishga harakat qiladi. Boshqa komanda esa himoya vazifasini bajaradi. Har bir kiritilgan to'p uchun komanda ga bir ochko beriladi. Himoya qiluvchi komanda o'yinchilar to'pni to'xtatib, darvozaning birortasiga to'p kiritishga harakat qiladi. O'yin qoidasi buzilsa, to'p boshqa tomonga beriladi. Agar to'p darvoza ichiga kirib, keyin shu komandaning birorta o'yinchisiga tekkan bo'lsa, to'p kiritilgan hisoblanadi. Bitta darvozaga ikki marta to'p kiritishga ruxsat berilmaydi. Agar to'p bayroqchaning yuqorisidan o'tib ketsa, unda to'p hisoblanmaydi, O'yin 10–15 minut davom etadi. Ko'p to'p kiritgan komanda yutgan bo'ladi.


To'p doirada

Har birida uchtadan o'yinchi bo'lgan ikkita komanda tuziladi. Maydoncha o'rtasida (25 x 15 m) 2-3 m diametrli doira chiziladi, uning o'rtasiga to'ldirma to'p qo'yib qo'yiladi. Signal berilishi bilan komandalardan biri o'yinni boshlaydi, raqib himoyachilarni aldab o'tib, to'ldirma to'pga futbol to'pi bilan tegishga harakat qiladi. Himoya qiluvchi komanda bunga qarshilik ko'rsatib, futbol to'pni olishga harakat qiladi, uni egallab olib, o'z navbatida hujumni boshlaydi. Doira chizig'i ichiga kirish taqiqlanadi. Agar to'p o'yindan chiqsa yoki doira ichida qolsa, qarama-qarshi tomondagi komandaga tashlanadi. To'ldirma to'pga aniq tegsa – 1 ochko beriladi. Nishonga tekkandan keyin ham hujum qiluvchi komanda to'pni egallashni davom ettiradi.

O'yin 10–12 minut davom etadi. Ko'p ochko to'plagan komanda yutgan hisoblanadi.

Mo'ljalga urish


Har birida uchtadan o'yinchilarning bo'lgan ikkita komanda o'ynaydi. Maydonchaning (35×15 m) old chizig'ida kenglig'i 3 m dan ikkita zona belgilanadi. Shu yerning bir-biridan bir xil masofada uchta kegли qo'yib qo'yiladi. Signal berilishi bilan komandalardan biri raqib zonasiga hujum qiladi. Uning vazifasi – keglini to'p bilan aniq urib yiqitishdir. Raqiblar himoya qilib, to'pni tortib oladi va qarama-qarshi zonaga hujum boshlaydi. Zonaga kirmasdan, faqat maydonchadan keglini urib yiqitish mumkin. Qoida buzilsa, to'p maydonchadan tashqariga chiqib ketsa, to'p nishonga aniq tekkandan keyin raqibga beriladi. O'yin 8–15 minut davom etadi. Nishonga eng ko'p to'p o'rjan komanda yutgan bo'ladi. Urib yiqitilgan keglilar yana joyiga qo'yib qo'yiladi.



33-rasm

Bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tish

O'yinda bir necha juft futbolchilar qatnashadilar. Maydonchada diametri 9 m li doira chiziladi va balandligi 0,5 m keladigan bir necha bayroqcha o'rnatiladi. Doira tashqarisida komandalardan birining ikkinchi o'yinchisi to'pni oyoqda bir-birlariga uzatib yuradilar. Bunda to'p aslo bayroqlarga tegmasligi, ularning o'rtasidan o'tishi kerak. Har bir muvaffaqiyatli o'rinish komandaga bir ochko keltiradi. Boshqa juft futbolchilar ham xuddi shunday harakat qiladi. To'pni olib yurish vaqtida doira chizig'ini bosish man etiladi. Har bir juft o'yinchilarning to'pni 6–8 marta uzatishi mumkin. Ko'p ochko to'plagan juft o'yinda g'olib hisoblanadi.



34-rasm

Hujumchilar (Italiya o'yinlari)

Ikkita hujumchi jarima maydonchasidan 10-12 qadam narida turadilar va signal berilishi bilan to'pni bir-birlariga uzatib, oldinga harakat qila boshlaydilar. Ularning vazifasi jarima maydonchasida to'rgan himoyachilarni aldab o'tish va darvozaga to'p kiritishdir. Hujumchilar to'pga ikki martadan o'tiq tegish huquqiga ega emas. Himoyachilar faqatgina jarima maydonchasida, darvozabonlar esa darvoza maydonchasida harakat qiladilar. Raqiblar vaqtiga bilan joylarini almashtrib turadilar.

O'yining boshqa turi. Huddi shuning o'zi, lekin yosh futbolchilar tayyorgarligini hisobga olgan holda to'pga tegish sonini 3-4 tagacha oshirish mumkin.

Aldovchi harakat

Maydonchaning yarmida beshta hujumchiga beshta himoyachi o'ynaydi. Darvozada esa darvozabon bo'ladi. Hujumchilar himoyachilarni aldab o'tib, to'pni darvozaga yo'naltiradilar va unga tushiradilar. Himoyachilarning vazifasi to'pni raqibidan olib va uni tepib, yuqoridan maydon orqasidagi chiziqqa tushirishdir. Bunday holatda ular 1 ochko oladi. Hujumchilar aldovchi harakatdan keyin darvozaga kiritilgan to'p uchun 5 ochko oladi. Har bir 5 minutdan keyin komandalar o'rinalarini almashadilar. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

O'yining boshqa turi. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligiga qarab himoyada kamroq (3-4 ta) himoyachi harakat qilishi mumkin.

Birga bir

Ikkita o'yinchicha mashq qiladi. Biri kengligi 3 m li, uzunligi 8-10 m bo'lgan yo'lakcha bo'ylab to'pni surib, raqibini aylanib o'tishga harakat qiladi va to'p bilan oldinga o'tadi. Ikkinchisi esa hujumchidan to'pni olishga harakat qiladi. Raqiblar vaqtiga bilan o'rinalarini almashtrib turadilar. Raqibni aldab

o'tish maqsadida qilingan har bir muvaffaqiyatlari harakat uchun o'yinchiga bir ochko beriladi. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda yutgan hisoblanadi.

Kollektiv bo'lib tanlab olish

Maydonda tomonlari 30 m dan iborat kvadrat chiziladi. Ikkita o'yinchicha ikkita raqibiga qarshi harakat qiladi. Darvozalar ikkita ustunchadan qurilgan bo'lib (eni 2 m), darvozabonlar o'z joylarini egallab turadilar. Komandalardan biri to'pni darvozadan tepib, o'yinni boshlaydi. Himoya qiluvchilar o'z vasiyliklari ostidagilarni to'sadi: to'p bilan harakat qilayotgan o'yinchicha raqibiga xalaqit berishga harakat qiladi yoki to'pni qaytaradi. Raqibga qarshi to'psiz harakat qilayotganda himoyachilar shunday joylashishi kerakki, raqib atrofidan aylanib o'tayotganda o'zlarini-muhofaza qilsinlar. Agar hujumchi to'pni oldirib qo'ysa, unda raqib o'zining darvozasidan to'pni tepib, o'yinni davom ettiradi. O'yin 8-12 minut davom etadi. O'yinda ko'proq to'p kiritgan komanda g'olib hisoblanadi.

To'pni qaytarib ber (Fransiya o'yinlari)

Shug'ullanuvchilar bir-birining qarshisida 10-15 m masofada turadilar. O'yinchilardan biri to'pni oyoq bilan tepib, yuqoridan raqibiga oshiradi, u esa o'z navbatida to'pni kalla bilan urib orqaga qaytaradi. To'pni 10 marta tepilgandan yoki urilgandan keyin raqiblar joylarini almashadilar.

Uchlik musobaqasi

Shug'ullanuvchilar uch kishidan bo'lib turadilar. Har bir komanda maydonda uchburchak ko'rinishida joylashadilar. Raqiblar orasidagi masofa 5-6 m bo'ladi. Signal berilishi bilan uchlikda qatnashuvchi o'yinchilar to'pni yerga tushirmaslik uchun bir-birlariga ma'lum tartibda uzata boshlaydilar. Qaysi komanda to'pni ko'proq temsila, o'sha komanda yutgan hisoblanadi.

O'yining boshqa turi. O'yinchilarning jismoniy tayyorgarligiga qarab to'pning yerga tegishiga ruxsat etiladi (ikki martadan oshmasliga kerak).

Havoda to'p uchun kurash

Ikki o'yinchi bir-birining qarshisida 12 m masofada turadilar. Ularning o'rtasida ikkita raqib turadi. Ikkala o'yinchi – navbat bilan to'pni bir-birlariga tashlab turadi, raqiblar esa kela yotgan to'pni bosh bilan urib, uni otgan o'yinchiga qaytaradi. Raqiblar vaqt vaqt bilan joylarini almashib turishlari kerak.

Hujumni oxiriga yetkazing

O'yinchilar teng ikki komandaga bo'linadi. Birinchi komanda o'yinchilari maydonchaning yon tomonida, ikkinchisi chizig'ida turadilar. O'qituvchi signali bo'yicha birinchi komanda o'yinchilaridan biri yon tomondan o'tgandan keyin to'pni yuqoridan darvoza tomon uzatadi. Boshqa o'yinchi jarima maydonchasining ichkarisidan yugurib kelib, oyoq bilan yoki bosh bilan urib, uni darvozaga shiddat bilan kiritishga harakat qiladi. Darvozabon esa faqat darvoza chizig'ida o'ynaydi. Raqiblar 6-8 marta o'rgandan keyin o'rinalarini almashadilar.

O'yinning boshqa turi. To'p yon tomondan to'rgan joydan darvoza tomon urib, uzatiladi.

Darvozabonlar bahslashuvi

Ikkita darvozabon musobaqlashadi. Darvozabonlarning biri to'p bilan 11 m li belgida turadi. Yana biri esa darvoza chizig'idan 5 m masofada chiziq tomon qarab turadi, signal berilishi bilan u oldinga uch marta o'mbaloq oshadi va tezda 180° burilib, darvozaboning to'rgan holatini qabul qiladi. Uning sherigi bu vaqtida darvozaga to'p uradi. Darvozaboning vazifasi – to'pni ilib olish yoki urib qaytarishdir. So'ngra o'yinchilar joylarini almashadilar. Har biri 10 martadan to'p uradi. To'pni kam o'tkazgan darvozabon o'yinda g'olib chiqadi.

To'p uzat (Avstraliya o'yinlari)

Jarima maydonchasida ikkita komanda musobaqlashadilar. Birinchisida 5-6 ta hujumchi, ikkinchisida 3-4 himoyachi bo'ladi. Hujumchilar iloji boricha to'pni ko'proq uzatishga harakat qiladi, ularning sheriklari himoyachilar bunga qarshi-

lik qiladi. To'pni aniq uzatgan hujumchilarga bir ochko beriladi. To'pni olib qolgan himoyachilar ikki ochko oladilar. Har 4 minutdan keyin ular o'rinni almashadilar. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda yutgan hisoblanadi.

O'yinning boshqa turi. Har bir qoidani buzishda aybdor komanda 3 jarima ochko bilan jazolanadi; agar to'p 3 m masofadan kamroq joydan uzatilsa, bu hisobga olinmaydi.

Futbolga oid quvlashmachoq

Maydonchada 20 x 30 m masofada 10–12 o'yinchilarni joylashtidilar, ulardan 2–3 tasi onaboshi bo'ladi. Ularning hammasidan bittadan futbol to'pi bo'ladi. Signal berilishi bilan o'yinchilar to'pni olib yura boshlaydilar va onaboshi bilan uchrashishdan o'zlarini olib qochadilar. Onaboshining vazifasi o'zining to'pini birorta o'yinchilarni tekip tekizishdir. Agar buni uddasidan chiqa olsa, o'yinchilar joylarini almashadilar. O'yin 8–10 minut davom etadi va tanaffusdan so'ng takrorlanadi.

O'yinning boshqa turi: o'yin ikkala komanda o'rtasida musobaqa shaklida o'tkaziladi.

Futbolga oid attraksion

O'yinchilarni to'p bilan darvozadan 35 m masofadagi chiziqdagi turadi. Signal berilishi bilan to'pni yuqoriga irg'itib, u boshida to'p bilan jonglyorlik qiladi. To'pni bosh bilan 10 marta o'rgandan keyin, yana 10 marta son yordamida to'pni urib jonglyorlik qilishga o'tadi. So'ngra oyoq yuzasi bilan jonglyorlik qila boshlaydi. O'yin yakunida esa u to'pni zarb bilan tekip, darvozaga yo'naltiradi. Jonglyorlik qilish vaqtida yerga tushgan har bir to'p uchun o'yinchiga 3 ta jarima ochko beriladi, darvozaga urish vaqtida yanglishgani yoki xatoga yo'l qo'ygani uchun – 5 jarima ochko, jonglyorlik qilish vaqtida to'pni har bir ortiqcha o'rgani uchun – 1 jarima ochko beriladi. Jarima ochkoniga kam olgan komanda o'yinda yutgan hisoblanadi.

O'yinning boshqa turi: shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda har bir jonglyorlik qilish turlarida to'pning yerga 2–3 martadan tushishiga ruxsat etiladi.

di; to'pni faqat yerga tushganda va to'xtagandan keyin darvoza ga yo'naltirish mumkin.

Ikki yoqda baravar (FRG o'yinlari)

Har bir komandada 5–6 o'yinchi bo'ladi, bir necha komanda musobaqalashadi. Ular umumiy start chizig'i orqasida birkishilik qatorda saflanib turadilar. Komanda kapitanlarida ilkitadan to'p bo'ladi. Signal berilishi bilan komanda kapitanlari qarama-qarshi tomonda 16 m masofada to'rgan ustuncha yoki bayroqcha tomon to'pni surib boradilar. To'pni ustuncha yoki bayroqcha yonida qoldirib, ikkinchi to'p bilan ustuncha yoki bayroqchani aylanib o'tadilar va start chizig'i – finish tomoniga to'pni surib borib, uni komandaning ikkinchi o'yinchilariga beradilar, so'ngra o'zlarining qatorlari oxiriga borib turadilar. Ikkinchi to'rgan bolalar esa oldinga qarab to'pni suradilar; ya'ni ustuncha yoki bayroqchani aylanib o'tib, ikkinchi to'pni olib, ikkalasini start chizig'i – finish tomon surib keladilar va hokazo. Estafetani birinchi bo'lib tugatgan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

To'pni aniq urish

Diametri 1–1,5 m keladigan sim chambarak tayyorlanadi. U 1,5 m balandlikda darvoza o'rtasiga simlar bilan tortib, bog'lab qo'yiladi. Jarima maydonchasining turli joylaridan 6–8 ta nuqta belgilanadi. Har bir musobaqa qatnashchisi galma-galdan to'pni belgilangan nuqtadan aniq nishonga tushirish uchun tepadi. Nuqtalarning joylashishiga qarab nishonga aniq tushgan to'p ma'lum miqdordagi ochko bilan baholanadi. Masalan, uzoq masofadan o'tkir burchakdan tepilgan to'pga – 10 ochko; jarima maydonchasi chizig'idan, darvoza qarshisidan tepilgan to'pga – 5 ochko, 11 metrli belgidan tepilgan to'pga 2 ochko beriladi va boshqalar. Ko'p ochko to'plagan o'yinchi g'olib chiqadi.

Komandali start

O'ynovchilar 5–8 kishidan bo'lib, ikki komandaga bo'linadi. O'yinni birinchi bo'lib boshlaydigan komanda o'yinchilari qo'l

to'pi maydonchasining old chizig'ida to'p bilan turadilar; ularning raqiblari esa 9 m li zonaga (doiraga) borib turadilar.

O'qituvchi signalidan keyin birinchi komanda o'yinchilari to'pni kuch bilan maydonga tepadi. Ikkinci komanda a'zolari esa to'p orqasidan yugurib borib, uni old chiziqqa qaytarishga harakat qiladilar. Komandaning to'pni old chiziqqa qaytarish vaqtini o'qituvchi sekundomer bilan belgilaydi. So'ngra komandalar o'rinni almashadilar, o'yin qaytadan boshlanadi. To'pni old chiziqqa hammadan avval qaytargan komanda yutgan hisoblanadi. O'yin 3-4 marta takrorlanadi.

O'yin shartiga ko'ra to'pni to'rgan joydan, shuningdek yugurib kelib ham tepish mumkin. Agar to'p tepilgan vaqtda qo'l to'pi maydonchasining yon tomonidagi chiziqni kesib o'tsa, komandaga 10 sekund jarima vaqtি beriladi. Bunda to'pni old chiziqqa faqat ixtiyoriy olib borish (qaytarish) mumkin.

To'pni ketma-ket urish

O'yinda bir vaqtida 4-8 kishi qatnashadi. Maxsus devorchanan 6-8 m nariga tekshirish (nazorat qilish) chizig'i chizildi. O'yinni boshlovchilar to'pni tekshirish chizig'iga qo'yadi va devor tomon shunday tepadiki, to'p devordan sapchib chiqib tekshirish chizig'idan o'tib ketishi kerak. So'ngra xuddi shu o'yinchi to'pning to'xtashini kutmasdan, uni yana tepadi. O'yinchi quyidagi qoidalarga rioya qilishi kerak:

- 1) to'p devordan sapchib chiqib, tekshirish chizig'i oldiga tushishi lozim;
- 2) o'yinchi to'xtayotgan to'pni tepishi kerak;
- 3) to'p devorcha yonidan o'tib ketsa, ya'ni o'yinchi xatoga yo'l qo'ysa, o'rnini ikkinchi o'yinchiga bo'shatib beradi va hokazo.

Devorga tekkan har bir to'p uchun o'yinchi bir ochko oladi. O'yin 20-30 ochko yig'ilguncha davom etadi. Birinchi bo'lib 30 ochko to'plagan o'yinchi g'olib chiqadi.

Xohlagan nuqtadan

O'yin kattaligi 20 x 20 m keladigan maydonchaning tekis qismida o'tkaziladi. Uning markazida eni 80-120 sm keladigan

darvoza o'rnataladi (darvoza o'rniga ustuncha, bayroqchadan foydalanish mumkin). O'yinda 10-12 o'yinchi qatnashadi. Ular tartib bilan sanaydilar va o'z raqamlarini esda saqlab qoladilar.

Birinchi o'yinchi xohlagan nuqtasidan to'pni darvoza tomon tepadi. Agar to'p darvozaga tushsa, ikkinchi o'yinchi borth to'pni o'sha joydan tepadi. Agar ikkinchi raqamli o'yinchi to'pni aniq nishonga tushirsa, uchinchi raqamli o'yinchi ham o'yinni shu joydan boshlashi kerak. Uchinchi raqamli o'yinchi tegman to'p nishonga tegmasa, u bitta jarima ochko oladi, to'rtinchisi raqamli o'yinchiga esa maydonchaning xohlagan nuqtasidan tepishga ruxsat beriladi. Uchta jarima ochko olgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi. O'yin maydonda 2-3 o'yinchi qolguncha davom etadi, ular g'oliblar deb hisoblanadi.

Aniq to'p tepish

O'yin futbol darvozasi chizilgan mashq qilish devorcha si yonida o'tkaziladi. Darvoza bir necha sektorlarga bo'linib, 3, 4, 5 raqamlari bilan belgilanadi. Darvozaning yaxshi himoya qilinmaydigan yuqori burchagi 5 raqami bilan belgilanadi. SHu burchakka tepilgan aniq to'p uchun 5 ochko beriladi. Darvozaning pastki burchagiga tushgan to'pga 4 ochko beriladi va hokazo.

Devorchanidan 11 m nariga to'p qo'yilgan bo'ladi. O'ynovchilar to'pni galma-galdan tepib, darvozaning yaxshi himoya qilinmaydigan joyiga tushirishga va ko'p ochko yig'ishga harakat qiladilar.

Oyoq yo'zining xohlagan qismidan yoki faqatgina shu darsda takomillashtirilgan usulda tepishga ruxsat beriladi. O'yin 30 ochko to'planguncha davom etadi. Kelishib olingen ochkolar sonini birinchi bo'lib to'plagan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

Himoyani mustahkamlash

Kattaligi 12×12 m li maydoncha o'rtasida diametri 1-1,5 m keladigan aylana chiziladi (ASFALT qilingan maydonchada aylanani bo'r bilan chizish, to'proqli yerda - gimnastika chambargidan foydalanish mumkin). Aylananing markaziga

kegli qo'yiladi. O'yinda bir vaqtida 10–12 o'quvchi qatnashadi. O'yinda onaboshi saylanadi, u aylana oldida turadi. Qolgan o'yinchilar esa maydoncha bo'ylab bir tekisda joylashtiriladi.

O'quvchi signalidan keyin bolalar to'pni bir-biriga uzata boshlaydilar, qulay vaqtni tanlab, to'p bilan keglini aniq urib, ag'anatishga harakat qiladilar. Onaboshi esa to'pning yo'lini to'sib, keglini siqib qoladi. Keglini urib yiqitgan o'yinchili onaboshi bilan joy almashadi.

O'yinchilar to'pni uzatish va tepishda chiziqdandan chiqishi mumkin emas. Onaboshi keglini himoya qiladi, unga aylananing Ichiga kirish man etiladi. O'yin vaqt o'qituvchi bilan oldindan kelihib olinadi va vaqt sekundomer bilan nazorat qilinadi. Keglini ko'proq himoya qilgan o'yinchili yutgan hisoblanadi.

Burchakdan to'p tepish

O'yin qo'l to'pi maydonchasining yarmisida o'tkaziladi. O'yinda ikkita komanda qatnashadi, har bir komandada 4–8 tadan o'yinchili va bitta xolis o'yinchili bo'ladi. Komandalar burchakdan to'p tepish uchun bittadan o'yinchili ajratadilar: biri chap tomondagi burchakdan, ikkinchisi o'ng tomondagi burchakdan to'p tepib uzatadi. Xolis o'yinchili darvoza oldida turadi, qolgan bolalar-ning hammasi 9 m li zonaning xohlagan joyida turadi. O'qituvchi signalidan keyin burchakdan to'p tepish uchun ajratilgan o'yinchilar to'pni galma-gal tepishadi. Qolgan hamma bolalar esa darvozaga to'p kiritishga harakat qiladilar. Agar to'p birinchi o'rinishda hisobga olinsa yoki bir necha o'rinishda yerga tushirmsandan darvozaga kiritilsa, ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda g'olib chiqadi. Burchakdan 5 marta to'p tepilgandan keyin bu vazifani bajarish boshqa o'yinchilarga heriladi.

Devordan oshirib ur

O'yinda har birida 4–6 kishidan iborat ikkita komanda qatnashadi. Bitta komanda hujumchilar bo'lib, jarima maydonchasi chizig'ida qator bo'lib saflanib turadi, boshqa komanda esa

darvozada turadi va darvoza chizig'ida jonli devorcha bo'lib qiladi. To'p 11 metrli belgida turadi.

O'qituvchining signalidan keyin hujumchilar komanda dasidan bir o'yinchi to'pni devorchadan o'tkazib, darvoza ga urishga harakat qiladi. Agar to'p darvozaga kirmasa, ilo kala komanda to'pni egallash uchun harakat qiladi. Himoya qilayotgan o'yinchilarga darvoza maydonida to'pni qo'l bilan o'ynashga ruxsat beriladi, maydondan tashqarida bu huquqni yo'qotadilar. Hujumchilar hujumni yakunlashga va darvozaga to'p kiritishga harakat qiladilar, himoyachilar esa to'pni darvoza maydonchasiga olib kirib, uni qo'lga oladilar.

Har bir o'yinchi 11 m li belgidan to'pni faqat bir marta tepishi mumkin. Agar to'p yon tomondagi chiziqdandan tashqari ga chiqsa, futbol qoidasiga muvofiq maydonga uni o'yinchilar galma-galdan kiritadi. Agar to'pni himoya qiluvchi komanda o'yinchilari oyog'i old chiziqdandan chiqsa, to'p burchakdan uriladi, agar hujumchilar komandasidan chiqsa, to'pni o'ynash to'xtatiladi va keyingi o'yinchi 11 m dan uradi. Shundan so'ng hujumchilar komandasining hamma o'yinchisi 11 m dan uradi. Urilgan to'plar soni hisoblanadi va komandalar o'rın almashtadilar.

O'yin oldindan kelishib olingen, ya'ni kiritilgan to'plar soniga qarab o'tkaziladi. Agar u qo'l to'pi maydonchasida tashkil qilingan bo'lsa, darvozaga to'p 7 m dan uriladi.

To'pni sur

O'yin qo'l to'pi maydonchasida o'tkaziladi. Ikkita komanda 5-8 kishidan bo'lib o'ynaydi. Ular maydon o'rtaida turadilar. O'yinni birinchi bo'lib boshlaydigan komandalarning har biri o'yinchisida bittadan to'p bo'ladi. Boshqa komandaning darvozaboni esa darvozadan joy egallaydi.

O'qituvchining signalidan keyin birinchi komanda o'yinchilari galma-galdan maydonning o'rtaсидаги chiziqdandan to'pni oldinga surib boradi va 7 m li belgidan to'pni darvoza tomon tepadi. To'pni yaxshi tepe oladigan o'yinchilarga darvozadan uzoqroq masofadan turib tepishga ruxsat beriladi. Ol-

Ungi o'yinchi to'pni darvozaga tephgandan so'ng keyingi o'yinchi to'pni sura boshlashi mumkin. Birinchi komandaning hamma o'yinchilari vazifani bajarib bo'lganlardan keyin urilgan to'plar soni hisoblab chiqiladi va shundan keyin komandalar joylarini almashadilar. O'yin 10 ta to'p o'tkazib yuborguncha o'tkaziladi.

Faqat bosh bilan

O'yin o'lchami 20x20 m keladigan maydonchada o'tkaziladi. O'yinda 8-10 ta o'yinchi qatnashadi, ulardan bittasi – quvlovchi qo'l to'pi darvozasida turadi, qolganlari esa butun maydon bo'ylab joylashadilar.

O'qituvchining signalidan keyin darvozabon to'pni maydonga tepadi. Maydonda to'rgan o'yinchilar to'pni bir-birlari ga tepib uzatib, darvozaga yaqinlashib keladilar va to'p boshda darvozaga kiritiladi. O'yin darvozabon uchta to'p o'tkazib yuborguncha yoki maydondagi o'yinchilardan birortasi to'pni boshi bilan emas, balki oyog'i bilan yoki maydondan tashqari ga chiqarib yuborguncha davom yetishi mumkin. Xatoga yo'l qo'yan o'yinchi darvozabon bilan joy almashadi. Maydonchanning xohlagan nuqtasidan to'pni bosh bilan darvozaga urishga ruxsat beriladi.

Dumalayotgan to'pni tepish

O'yin mashq qilinadigan maxsus devorcha oldida o'tkaziladi. O'yinda avvaldan tartib bo'yicha sanalgan 5-8 ta bola qatnashadi.

O'qituvchi signal berishi bilan birinchi raqamli o'yinchi 8-10 m dan to'pni devorchaga tepadi. To'p devorchadan sapchib uzoqqa borib, maydonchaning shunday joyiga tushsin ki, ikkinchi raqamli o'yinchi uni to'xtamasidan oldin tepib devorchaga tekkizsin. Endi uchinchi raqamli o'yinchi to'pni ola di va hokazo. Tepilgan to'pni devorcha yonidan o'tkazib yuborgan o'quvchiga 1 ta jarima ochko beriladi. 5 ta jarima ochko ol gan o'yinchi o'yindan chiqib ketadi. Jarima ochkoniga kam olgan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

To'p kapitanga

O'yin qo'l to'pi maydonchasida ikkita komanda o'rtasida o'tkaziladi. Ikkala komanda (har birida 6-8 ta o'yinchisi bo'ladi) o'zlarining kapitanlarini saylaydilar, ular o'z navbatida raqib komandasining 6 m li zonasida turadilar.

O'yin maydonchaning markazidan boshlanadi va futbol o'yini bo'yicha olib boriladi. Ikkala komanda o'yinchilari raqiblarini aldab o'tishga harakat qilib, to'pni o'zlarining kapitanlariga uzatadilar. Buning ud-dasidan chiqsa olgan o'yinchisi komandasiga bitta ochko keltiradi. Kapitanlarga 6 m li zonadan chiqishga, maydon o'yinchilariga esa zona-ga kirishga ruxsat berilmaydi. O'z kapitaniga ko'proq to'p uzatgan komanda yutgan hisoblanadi.



35-rasm

Futbol qisqichbaqlari

O'yinni sport zalida yoki maydonchada o'tkazish mumkin. Zalning ensiz tomonida qo'l to'pi darvozasi o'rnatiladi. O'yinchilar ikkita komandaga bo'linib (6-8 o'quvchi), o'zlarini tomonagi maydonchaning old chizig'ida qisqichbaqa holatida turadilar, ya'ni o'tirib, qo'llarini orqaga qilib yerga tayanib o'tiradilar. Darvozabonlar ham xuddi shu holatda darvozada o'tiradilar.

Signal berilishi bilan kapitanlar to'p tomon shitob bilan oлdinga qo'lida siljib, to'pni komandadosh o'rtoqlariga oyoqda uza-tishga harakat qiladilar. Qisqichbaqa holatidagi o'yinchilarning vazifasi raqibni aldab o'tib, to'pni darvozaga urishdir.

To'p bilan yoki to'psiz bo'lib siljish usulini o'zgartirish, to'pni ataylab qo'l bilan o'ynash, darvozabon darvozani himoya qilish vaqtida tosini poldan uzishi taqiqlanadi. Har bir buzilgan qoida uchun jarima to'pni tepish (urish) buyuriladi. Ko'proq to'p o'rgan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

To'p zonada


Ikkala futbol maydonchasining yarmida ikkita zona belgilanadi. Buning uchun jarima maydonchasining ko'ndalang chizig'i yon tomon chizig'ining kesishgan joyigacha uzaytiriladi, keyin undan 5 m orqaga qaytib, maydonchadan ko'ndalangiga yana bitta parallel chiziq o'tkaziladi. Natijada futbol maydonchasining ikkala tomonida eni 5 m li yo'lakcha hosil bo'ladi, bu zona bo'ladi.

O'yin qatnashchilari 6-10 kishidan iborat ikkita komanda bo'linadi. Ular futbol qoidasiga binoan o'ynab, raqiblari ni aldab o'tishga harakat qiladi va to'pni ularning zonasiga olib kiradi. Bu vazifani bajargan o'yinchilarning komandasiga bir ochko keltiradi. To'p zonaga olib kirilganda shu yerda to'xtasagina hisobga olinadi. To'p zona orqali dumalab chiqib ketsa, unda ochko berilmaydi. Agar to'p maydondan tashqariga chiqib ketsa, uni qo'l bilan otish kerak bo'ladi.

Harakatdagi darvoza

O'yin futbol maydonida yoki qo'l to'pi maydonida ikkita komanda o'rtaida o'tkaziladi. Har bir komandada 6-10 ta o'quvchi bo'ladi. Komandada ikkitadan onaboshi tayinlanadi, ular qo'llarini ushlashib raqibning jarima maydonchasida turadilar.

Bu harakatdagi darvoza bo'ladi. O'yin maydon markazidan boshlanadi. Komandalar futbol qoidasi bo'yicha o'ynaydilar, raqiblari ni aldashga harakat qiladilar. To'pni raqibning jarima maydonchasiga olib borib, uni shunday tepish kerakki, u ikkita onaboshi o'rtaidan uchib o'tsin. Agar onaboshi to'pning darvoza yonidan o'tayotganini ko'rsa, u qo'lini qo'yib yubormasdan, jari-



36-rasm

ma maydonchasi bo'ylab siljiydi va shunday holatni egallaydildi, to'p "harakatdag'i darvoza"ga tushadi. Maydon o'yinchilariga jarima maydonchasida imkon boricha to'p tepishiga ruxsat berilmaydi.

To'pni to'xtatib qolmoq

O'yin qo'l to'pi maydonchasida tashkil qilinadi. O'yinni olib borish uchun o'qituvchiga ikkita xronometr zarur bo'ladi.

O'qituvchining signalidan keyin komandalardan biri maydon markazidan o'yinni boshlaydi. Har bir komanda a'zolari futbol qoidasiga rioya qilgan holda raqibga to'pni oldirib qo'ymasdan, uni iloji boricha ko'proq tutib turishlari kerak. Agar o'yinni boshlagan komanda to'pni oldirib qo'ysa, hakam uning xronometrini to'xtatadi va boshqa komanda xronometrini ishga soladi. Qoidani buzgan vaqtida to'p yon va old chiziqdan o'yinga kiritilganda, shunjingdek o'yinga boshqa to'xtalishlarda ikkala xronometr ham to'xtatilmaydi. O'yin oxirida xronometrning ko'rsatishiga qarab qaysi komanda uzoq vaqt davomida to'pni egallab to'rgani aniqlanadi va g'olib e'lon qilinadi.

To'pni o'n marta uzatish

Komandalardan birortasi qo'l to'pi maydonchasi markazidan o'yinni boshlaydi. Komanda qatnashchilari futbol qoidasi bo'yicha o'ynaydilar. Ular to'pni bir-birlariga 10 marta shunday uzatishlari kerakki, raqib komanda qatnashchilari to'pni biror marta ham ushlab qololmasin. Mana shu vazifaning ud dasidan chiqa olgan komandaga bir ochko beriladi, endi o'yinni maydon markazidan boshqa komanda boshlaydi. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda g'olib hisoblanadi.

Bitta darvozag'a

50 x 50 m keladigan futbol maydonchasida yoki boshqa tekis joy markazida diametri 9 m doira chiziladi. Doira o'rtasiga yengil atletikaga oid to'siqlar qo'yiladi, bu darvoza bo'ladi. Bir-biridan 1,5-2 masofada o'rnatilgan ikkita ustuncha ham darvo-

za vazifasini bajarishi mumkin. Ikkita komanda (har birida 6–8 kishi bo'ladi) maydoncha bo'ylab ixtiyoriy joylashadilar.

O'yin rahbari to'pni markazdan tepib, o'yinga kiritadi. Ik-kala komanda o'yinchilari futbol qoidasiga rioxal qilgan holda bo'sh darvozaga to'p kiritishga harakat qiladilar. O'z o'yinchilari uzatgan to'p darvozaga kiritilsa, u hisobga olinadi. Darvozaga to'p kiritilgandan keyin to'p o'tkazib yuborgan komanda o'yinni markazdan boshlaydi. Oldin kelishib olingen biror komanda to'pni darvozaga kiritmaguncha o'yin davom etadi.

Chavandozlar

O'yin basketbol maydonchasida, qo'l to'pi darvozasi yordamida o'tkaziladi. O'ynovchilarning jismoniy rivojlanganini hisobga olgan holda, birinchi raqamlilar "toycha"ga va ikkinchi raqamlilar "chavandozlar"ga bo'linadi. Chavandozlar otga minadilar.

Qur'a tashlangach, o'yinni biror komanda boshlaydi. Komanda a'zolari futbol qoidalariiga rioxal qilgan holda va o'r ganilgan texnik usullarni qo'llab, raqib darvozasiga to'p kiritishga harakat qiladilar. 2–3 minutdan keyin o'yinchilar joylarini almashadilar. Har bir kiritilgan to'pdan keyin ham joy almashish mumkin. Raqib darvozasiga ko'p to'p kiritgan komanda yutgan hisoblanadi.

Ikkita to'p bilan futbol o'ynash

O'yin futbol maydonchasida o'tkaziladi. Har birida 6–10 o'yinchi bo'lgan ikkita komanda qatnashadi. Ikkala komanda ham o'z darvozalaridan to'pni tepib, o'yinga kiritadilar. Har bir to'p alohida rangda bo'ladi. O'yin futbol qoidalari bo'yicha ayrim o'zgarishlar bilan o'tkaziladi. Agar to'p darvoza chizig'ini kesib o'tsa, burchakdan va erkin to'p tepmasdan, balki to'p qo'l bilan maydonga tashlanadi. Shuningdek, o'yindan tashqari holat ham hisoblanmaydi. Har bir o'yinchi xohlagan to'p uchun kurashib, raqibining darvozasiga to'p kiritishga harakat qiladi. Darvozaga to'p kiritilgandan keyin darvozabon to'pni tepib,

o'yinga kiritadi. Darvozaga ko'p to'p kiritgan komanda g'olib chiqadi.

Ikki kishi hakam bo'ladi, har bir hakamga tegishli urilgan to'p alohida baholanadi.

Hamma o'ynaydi

O'yin futbol qoidasi bo'yicha qo'l to'pi maydonchasida o'tkaziladi. Ikkita komanda o'ynaydi (ular o'z navbatida ikki ta guruhchaga bo'linadi). Birinchi guruh bolalari maydonchada, ikkinchilari esa uning yon tomonidagi chiziqda bir tekisda joylashadilar.

Komandalarning birinchi guruh o'yinchilari o'yinni boshlab, ikkinchi guruh o'yinchilari bilan birgalikda harakat qiladilar; ya'ni ularga to'pni uzatib va qaytadan orqaga uzatilgan to'pni qabul qilib oladilar. Yon tomonidagi chiziq orqasida to'rgan o'yinchilarga maydonchaga kirish uchun ruxsat berilmaydi. Raqib darvozasiga ko'proq to'p kiritgan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

To'p tekkizish

O'yin qo'l to'pi yoki basketbol maydonchasida o'tkaziladi. O'ynovchilar ichidan 2-4 ta onaboshi saylanadi, qolganlari futbol to'pi bilan ixtiyoriy ravishda joylashadilar. Signal berilishi bilan o'yinchilar maydon bo'ylab siljib, to'pni olib yuradilar. Onaboshilar esa xohlagan o'yinchining to'pni egallab olishiga harakat qiladilar. Agar onaboshi to'pni tovoni bilan yerga bosib tursa yoki o'yinchi to'p bilan maydon tashqarisiga chiqib ketса, unda to'p o'yindan chiqqan hisoblanadi. O'yinchining to'pni onaboshi egallab olsa, u holda onaboshi ham o'yindan chiqadi. O'yin 1-2 minut davom etadi. Uni tamom qilish bilan onaboshi to'pni necha marta olganligi hisoblab chiqiladi, so'ngra yangi onaboshi saylanadi. O'yin qaytadan boshlanadi.

Bir lahzalik quvlashmachoq

O'yin qo'l to'pi yoki basketbol maydonchasida (yog'ingarchilikda esa sport zalida) tashkil qilinishi mumkin. O'ynov-

chilardan ikkita onaboshi tayinlanadi, ularning qo'llariga to'p beriladi, qolgan o'yinchilar maydonchada ixtiyoriy ravishda joylashadilar. O'qituvchi signal berishi bilan onaboshi to'pni olib yurib, uni to'psiz o'yinchilarga tekkizishga harakat qiladi. To'p tekkan o'yinchilar o'yindan chiqadi. O'yin bir minut davom etadi. Ko'p to'p tekkizgan o'yinchi g'olib chiqadi. So'ngra onaboshilar almashtiriladi va o'yin davom ettiriladi. O'yin 3-4 marta o'tkazilgandan keyin yakunlanadi. Boshqalarga nisbatan ko'proq to'p tekkizgan onaboshi, shuningdek biror marta ham o'ziga to'p tekkizmagan o'yinchilar aytib o'tiladi.

Doira bo'ylab olib yurish

O'ynovchilardan har biri 3-4 kishidan iborat bo'lgan bir necha komanda tuziladij (har bir komandaga bittadan to'p beriladi va o'yinchilar doira hosil qilib turadilar, ular orasidagi masofa 3-4 m bo'ladi).

O'qituvchining signalidan keyin qo'lida to'pi bo'lgan o'yinchi o'zining komandasini atrofidan ilon izi bo'lib aylanib o'tadi va to'pni oldinda to'rgan o'yinchiga beradi. Hamma o'yinchilar shunday vazifani bajarib bo'lganlaridan keyin o'yin tugaydi. To'pni olib yurish estafetasini xatosiz va boshqalarga nisbatan oldin tugatgan komanda yutgan hisoblanadi.

Uchlik

O'ynovchilar ixtiyoriy ravishda qo'l to'pi va basketbol maydonchasida joylashadilar. Ular o'rtasidan uchlik – uchta onaboshi belgilanadi. O'qituvchining singalidan keyin onaboshilar bir-birlariga to'pni uzatib, olib yuradilar va maydon bo'ylab turli yo'nalishda harakat qilayotgan xohlagan o'yinchiga to'pni tekkizishga harakat qiladilar. To'p tekkan o'quvchi, shuningdek, to'pga chap berib, maydonchadan tashqariga chiqib ketsa ham, o'yindan chiqadi. O'yin 2-3 minut davom etadi, so'ngra to'p tekkan o'quvchilar soni hisoblab chiqiladi va g'olib aniqlanadi. Yangi onaboshilar tayinlanishi va o'yin qaytadan boshlanishi mumkin.

Charm to'p ustasi

Bolalar voleybol to'pini devorga tepib, unga tegib qaytg'an to'pni galma-galdan oyoqlari bilan tepe boshlaydilar. Uch marta o'rinish ko'rganda kim ko'p to'p tepsa, o'sha o'yinchi yutgan hisoblanadi.

Havoda yakkama-yakka olishuv

O'yin qatnashchilari voleybol to'pni galma-galdan bosh bilan ura boshlaydi. Uch o'rinishda kim ko'p to'pni boshi bilan ursa, o'sha o'yinchi yutgan hisoblanadi.

Bayroqchalar yonginasidan

Komandalar galma-gal musobaqalashadilar. Birinchi komanda chiziqdan 8 m narida bir qatorli safda turadilar, ulardan 60–70 sm nariga bir necha bayroqcha o'rnatib qo'yiladi. Har bir o'yinchi oyog'i tagida bittadan to'p bo'ladi. Signal berilishi bilan o'yin qatnashchilari pastdan to'pni oyoq bilan tepib, bayroqcha tomon yo'naltiradi. Agar to'p bayroqchaga tegsa yoki uning tepasidan o'tsa, har bir xato uchun 1 jarima ochko beriladi. Agar to'p bayroqchalar o'rtasidan o'tsa, vazifa to'g'ri bajarilgan hisoblanadi. Kam jarima ochko olgan komanda o'yinda yutgan hisoblanadi.

Doim tayyor bo'lib tur

Bir vaqtning o'zida bir necha komanda musobaqalashadi. Ular umumiy start chizig'i orqasida bir kishilik qatorda turadilar. Har bir qator qarshisida 3 m masofada diametri 1 m li doira chiziladi. Birinchi doiradan 12 m nariga ikkinchi doira chiziladi. Komandalarga yaqin doiralarga voleybol to'pi qo'yiladi. Komanda o'yinchilari tartib bilan sanaydilar. O'yin rahbari esa baland ovoz bilan o'yinchilarni raqamini aytib chaqiradi (bir, ikki va hokazo). Komandalarning o'sha aytilgan raqamli o'yinchilari oldinga yugurib chiqib, to'pni olib, ikkinchi doiraga olib boradi va uni o'sha joyda qoldiradi, so'ngra tezda orqaga qaytib keladi. Finish chizig'idan birinchi

bo'lib o'tgan komanda bir ochko oladi. O'yin vaqtida xohlagan o'yinchini raqami bilan chaqirish mumkin. Har bir o'yinchi ikki marta yugurish imkoniyatiga ega. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda yutgan hisoblanadi.

Futbol slalomi

Maydonchaning birinchi yarmida start chizig'i belgilanadi. Start chizig'i oldiga bir-biridan 2,5 – 3 m masofaga 6 ta bayroqcha o'rnatiladi. Chaqirilgan o'yin qatnashchilari voleybol to'pini oladilar. Signal berilishi bilan o'yinchi to'p bilan bayroqchalarни ilon izi usulida aylanib o'tishga intiladi va shunday holda orqaga qaytib keladi. Start – finish chizig'ida o'yinchi to'pni to'xtatadi, ayni shu vaqtida hakam o'yinchining slalomi yo'lni qancha vaqt-da o'tganini qayd qiladi. Ozgina vaqt ko'rsatgan o'yinchi yutgan hisoblanadi.

Jonglyorlar

O'yinchilar galma-galdan voleybol yoki futbol to'pini bosh ustida irg'itib, bosh va gavdani orqaga engashtirib, belni egib orqa va bo'yin musqo'llarini tarang qiladilar. Ular gavdani oldinga keskin harakat qildirib, bosh bilan to'pni urib qaytaradilar. Shu paytgacha yarim bukilgan tizzalar to'pni bosh bilan urish vaqtida to'g'rilanadi. To'p yerga tushishi bilan o'yinchi mashqni tamom qilgan hisoblanadi. Har bir o'yinchiga uchtadan imkoniyat beriladi. Uchta imkoniyatdan ko'proq to'p o'rgan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

Ikkita to'p bilan

O'yinda o'yinchilar juft-juft bo'lib qatnashadilar. Ular 4 m kenglikdagi yo'lakning qarama-qarshi tomonida bir-birlaridan 5-7 m masofada joylashadilar. Yo'lak arqon yoki bayroqchalar bilan belgilanadi. Har bir juftlikning ikkala o'yinchisida bit-tadan to'p bo'ladi. Rahbarning signali bo'yicha ular bir vaqtning o'zida bir-biriga to'p yo'naltiradi, keyin esa dumalab kelayotgan to'pni yana orqaga tepib qaytaradi. Agar to'p bir-biriga

tegsa yoki ulardan biri yo'lakdan tashqariga chiqib ketsa, unda juftlik musobaqani tugatgan bo'ladi. Boshqalarga nisbatan ko'proq mashqni xatosiz bajargan komanda o'yinda g'olib chiqqan hisoblanadi.

O'yin qatnashchilarining jismoniy tayyorgarligiga qarab o'yin shartini soddalashtirish mumkin: yo'lak chegarasi ken-gaytiriladi va to'pni oldin to'xtatib, so'ngra uzatiladi.

Nishonga tekkiz

O'yin qatnashchilari galma-galdan 10-12 m masofadagi devorga yoki yog'och devorga tomon harakat qiladi. Har bir o'yinchchi 5 martadan yugurib kelib to'pni o'ng va chap oyoq bilan tepadi. Nishonga to'pni ko'proq aniq tushirgan o'yinchchi yutgan hisoblanadi.

Aldab o'tish

Umumiy start chizig'i orqasida bir necha komanda bir kishidan bo'lib saf tortib turadi. Har bir komanda oldiga start chizig'idan 6 m nariga bitta ustuncha o'rnatiladi, keyin esa har 2-3 metr dan keyin yana bittadan 5 ta ustuncha qo'yiladi. Rahbar signalidan keyin komandalarning birinchi to'rgan o'yinchilari to'pni oldinga surib, ustunchalarni aylanib o'tadi, keyin esa huddi shu usul bilan orqaga surib, finish – start chizig'iga olib kelib, ikkinchi o'yinchilarga uzatadi va hokazo. Estafetada eng yaxshi natija ko'rsatgan komanda g'olib hisoblanadi.

To'pni doiradan tepib chiqar

Maydonchada katta doira chiziladi. Doira o'rtasida onaboshi turadi. Har birida 6 kishisi bo'lgan ikkita komanda tuziladi. O'yinni birinchi bo'lib boshlaydigan komanda a'zolari doira atrofida turib, to'pni bir-birlariga oshiradilar, ya'ni to'pni onaboshiga berib qo'ymaslikka va uni doiradan tepib chiqarishga harakat qiladilar. Oldindan kelishib olingan vaqt dan keyin komandalar joylarini o'zgartiradilar.

Qaysi komanda onaboshisi doiradan to'pni ko'p marta urib chiqarsa, o'sha komanda o'yinda g'olib deb topiladi.

Epchil bolalar

3-4 kishidan iborat bo'lgan bir necha komanda galma-galdan musobaqalashadi. O'yinni boshlaydigan komanda bir kishidan bo'lib qatorda turadi. Oldinda, 5 m narida uzunasiga to'shak solib qo'yiladi. To'shakdan 3 m masofada rahbar turadi.

Rahbar o'ynovchilarga galma-galdan to'p otadi, bu paytda bola to'shakda ketma-ket o'mbaloq oshib, o'rnidan turib, yu-qoriga sakrab to'pni ilib olishi kerak. Agar o'yinchisi to'pni yaxshi ilib olsa, uning komandasiga bir ochko beriladi. Komandaning har bir o'yinchisi ko'rsatilgan mashqni uch marta bajargandan keyin o'yin tugaydi. Raqib komandalar ham shunday vazifani bajaradilar. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda yutgan hisoblanadi.

To'pni boshda nishonga ur

Bir necha komanda galma-galdan musobaqalashadi. O'yinni boshlovchilar bir kishidan bo'lib komandada turadilar. Oldinda 10 m masofada devorga yoki yog'och devorga diametri 1 m keladigan nishon belgilanadi. Nishonga tepish uchun 5 m masofada tepish chizig'i chiziladi. Kapitan tepish chizig'i nuqtasining yon tomonida 3 m masofada to'p ushlab turadi.

Rahbar signalidan keyin birinchi to'rgan o'yinchisi yugura boshlaydi, kapitan esa unga to'pni tashlaydi. O'yinchisi sakrab, to'pni bosh bilan urib, nishonga yo'naltiradi. U qaytgan to'pni ushlab olib, kapitan o'rniga borib turadi, kapitan esa yugurib borib safning oxiriga borib turadi. Shu vaqtida komandaning ikkinchi to'rgan o'yinchisi yugurib ketadi va hokazo. Har bir o'yiichi to'pni bosh bilan uch martadan o'rgandan keyin komanda musobaqani tugatadi. To'pni nishonga ko'proq tek-kizgan komanda o'yinda g'olib hisoblanadi.

Tepdingmi, o'tir

Musobaqalashuvchi komandalar umumiy start chizig'i orqasida bir kishilik qatorda turadilar. Kapitanlar komandalar oldidagi start chizig'idan 2 m narida qo'llarida to'p ushlab

turadi. Rahbar signalidan keyin ularning har biri o'z komandalarining birinchi to'rgan o'yinchilariga to'p tashlaydi, ular to'pni bosh bilan orqaga qaytaradi va tezda o'tirib oladi. Kapitanlar to'pni ilib olib, uni ikkinchi to'rgan o'yinchilarga uzatadilar va ular o'z navbatida yana kapitanlarga qaytaradilar va hokazo. Kapitanlarning biri oxirgi o'yinchidan to'pni qabul qilib olib, qo'lini yuqoriga ko'targandan keyin komandalar musobaqani tugatadilar. G'alaba qilgan komanda uchun bir ochko, ikkinchi o'ringa – 2 ochko, uchinchi o'ringa – 3 ochko beriladi. O'yin bir necha marta qaytariladi. Kam ochko to'plagan komanda o'yinda g'olib hisoblanadi.

To'siqlar osha kvadratga tep

Ustunchalar o'rtasida 1 m balandlikda arqon tortiladi. Arqonning bir tomoniga 6 m masofada yerga 2 x 2 m kvadrat chiziq chiziladi, boshqa tomonidan esa 8–10 m masofada tepish chizig'i o'tkaziladi. O'yin qatnashchilari yugurib kelib harakatsiz to'pni goh o'ng, goh chap oyoq bilan galma-galdan tepib, kvadratga tushirishga harakat qiladi. Arqon ustidan oshib o'tgan to'p kvadratga tushgan hisoblanadi. To'pni ko'proq aniq tushirgan o'yinchi g'olib bo'ladi.

Zarb bilan tepish

Maydonchada tepish (urish) chizig'i chiziladi, so'ngra 10 m kenglikda yo'lakcha belgilanadi. O'ynovchilar to'pni galma-galdan o'ng va chap oyoqda uch martadan tepib, iloji boricha uzoqroqqa tushirishga harakat qiladilar. To'p yo'lakcha chegarasiga tushsa ham hisobga olinadi. To'pni eng uzoqqa tushirgan o'yinchi o'yinda g'olib chiqadi.

Chambarak orasidan

Har bir komandada ikkitadan o'yinchi bo'ladi, ular galma-galdan musobaqalashadilar. Baland ustunga yoki daraxtga gimnastika chambaragi musobaqalashuvchilar boshidan sal balandroq ilib qo'yiladi. O'yinni birinchi boshlovchi komanda o'yinchilari chambarakning ikkala tomonida turadilar. Ulardan

biri qo'li bilan to'pni yuqoriga irg'itib, boshi bilan urib sheri-ga oshiradi, u o'z navbatida xuddi shunday urish bilan to'pni orqaga – sheri-giga qaytaradi va hokazo. Unisi ham, bunisi ham raqibiga (sheri-giga) to'pni shunday uzatishga harakat qiladiki, bunda to'p chambarakdan o'tsin. Kelishilgan vaqt ichida cham-barakdan ko'proq to'p oshirgan komanda a'zolari g'olib chiqadi. Agar to'p yerga tushib ketsa, uni yerdan olib o'yinni davom ettirish mumkin.

Doiradan doiraga

Bir vaqtning o'zida bir necha komanda musobaqalashadi. Ular umumiy start chizig'i orqasida bir kishilik qatorda turadi-lar. Ham bir komanda oldida start chizig'i yonida diametri 2 m li doira chiziladi. Keyin 8 m narida yana shunga o'xhash doira chiziladi. Bu yerga komandalarning birinchi to'rgan o'yinchilar joylashadilar. Rahbar signalidan keyin birinchi to'rgan o'yinchilar start chizig'i oldidagi doirada to'rgan ikkinchi o'yinchilarga to'pni pastdan tepib yo'naltiradi. Ikkinci to'rgan bolalar to'pni to'xtatib, xuddi shu usulda to'pni orqa-ga, birinchi to'rgan bolalarga qaytaradilar, o'zлari esa orqaga aylanib, yugurib qator oxiriga borib turadilar. Start chizig'i oldidagi doirani uchinchi o'yinchilar egallaydilar va hokazo.

Birinchi to'rgan o'yinchilar qator oxirida to'rgan o'yinchilardan to'pni olganlaridan keyin uni doirada qoldi-rib, tezda o'rinalarini ikkinchi o'yinchilar bilan almashadi-lar. Har bir komanda o'yinchilar birinchi o'yinchilar o'rnida bo'limgunlaricha o'yin davom etadi.

O'yin vaqtida har bir noaniq uzatilgan to'p uchun (to'p doi-ra yonidan o'tsa, to'p aniq to'xtatilmasa, to'p doira tashqarisiga chiqib ketsa), komandaga bitta jarima ochko beriladi. Kam jari-ma ochko olgan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

Jonglyorlar

Har bir komandada 3–4 o'yinchi bo'ladi. Signal berili-shi bilan ular o'yinni baravar boshlaydilar. Ular to'pni xohla-

gan usulda bir-birlariga oshirib, havoda ko'proq ushlab turishga harakat qiladilar. To'pni yerga tushirgan komanda o'yindan chiqadi. To'pni havoda eng ko'p ushlab to'rgan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

Futbol sprinti

O'yinchilar galma-galdan yuqori startdan 40 m masofaga futbol to'pni olib, yugurib o'tadilar. To'pni xohlagan usulda olib yurish mumkin. O'yin shartiga ko'ra o'ynovchilar marra chizig'i orqasida to'xtashlarini hisobga olmaganda, kamida 5 marta to'pga tegishlari mumkin. O'ynovchi to'pni marra chizig'i orqasida to'xtagandan keyin mashq tugagan hisoblanadi. Start chizig'ida to'rgan hakam startning to'g'rilibini va necha marta to'pga tekkanligini aniqlaydi. Marradagi hakam esa yugurish vaqtini hisobga oladi. Yaxshi natija ko'rsatgan o'yinchi yutgan hisoblanadi.

Qal'ani ishg'ol qilish

Har birida 6-8 o'yinchi bo'lган ikkita komanda musobaqalashadi. Diametri 10-12 m keladigan doira o'rtasida gimnastika tayoqchasidan qa'la quriladi. O'yinni boshlovchilar birinchi bo'lib doira atrofiga turadilar va futbol to'pni bir-biriga oyoq bilan tepib uzatadilar. Komanda raqibi esa ikkita onaboshi tayinlaydi. Onaboshini to'satdan g'aflatda qoldirib, hujumchilar kutilmaganda qal'aga hujum qiladi. Himoyachilar unga qo'llarini tekkizmasdan to'pni tepib qaytaradilar. Oldindan kelishib olingan ma'lum vaqt tugagandan keyin komandalar o'rinni almashadilar. Qal'ani ko'proq vaqt ishg'ol qilgan komanda o'yinda g'olib hisoblanadi.

Aniq mo'ljalga olish

O'yinchilar galma-galdan musobaqalashadilar. Ular 7 m masofadan yugurib kelib, harakatsiz to'pni tepib, ustunchaga tekkizishga harakat qiladilar. Har bir o'yinchiga 8 imkoniyat beriladi (4 martadan o'ng va chap oyoqda tepadilar). Ustunchaga ko'proq to'p tekkizgan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

Boshqa joyga o'tib olish

Bir vaqtning o'zida bir necha komanda musobaqalashadi. Ularning har biri ikkita qarama-qarshi qatorda, chiziqlar orqasida tizilib turadilar, oralaridagi masofa 30 m bo'ladi. Komandalar qatori o'rtasida "slalom chizig'i" quriladi (2 m oraliqqa 5 ta bayroqcha yoki ustuncha o'rnatiladi). Komandaning chiziq orqasida to'rgan birinchi o'yinchilarida bittadan futbol to'pi bo'ladi. Signal berilishi bilan ular to'pni oldinga surib, galma-galdan hamma bayroqchadan ilon izi bo'lib aylanib o'tadilar va o'z komandalari qarshisidagi qatorning birinchi o'yinchisiga to'pni pastdan uzatadilar, o'zлari esa o'sha qator oxiriga borib turadilar va hokazo. Hamma o'yinchilar qatorda o'z o'rinnlarini egallaganlaridan keyin raqiblar o'yinni tugatadilar. O'z joyiga qisqa vaqt ichida o'tib olishga ulgo'rgan komanda o'yinda g'olib hisoblanadi.

Aniq nishonga otish

Maydonning yon tomonidagi chiziqdan 10 m narida yoki xohlagan tekis maydonchada – bitta umumiy markazga ega bo'lgan diametri 1,5 m, 1,0 m va 0,5 m li uchta doira chiziladi. Har bir o'yinchiga 5 imkoniyat beriladi. Agar to'p kichik doiraga tegsa, 3 ochko, o'rtadagisiga tegsa 2 ochko, katta doiraga tegsa – 1 ochko beriladi. Ko'p ochko to'plagan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

Qo'lidan urib tushirish

O'yinda yosh darvozabonlar musobaqalashadi. Ular qo'llari bilan to'pni yuqoriga irg'itib, keyin uni oyoq bilan tepadilar, ya'ni tepish chizig'idan 30 m narida joylashgan 3 x 3 m kvadrat nishonga tushirishga harakat qiladilar. Har bir o'yinchi 6 mar-ta tepishi mumkin. Nishonga ko'proq tushirgan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

To'p uchun kurash

Bir vaqtning o'zida ikkita komanda musobaqalashadi. Har bir komandada to'rttadan o'yinchi bo'ladi. Birinchi koman-

da o'ynovchilari 12×12 m kvadratda joylashadilar. Ikkinci komanda esa ikkita onaboshi tayinlaydi. Signal berilishi bilan o'yinchilar bir-birlari bilan o'rIN almashib, to'pni o'zaro tepib, oshira boshlaydilar. Buning uchun har bir o'yinchining tay-yorgarligini hisobga olib, oldindan kelishib olingan miqdorda to'pga oyoq tekkizishga ruxsat etiladi. Onaboshilar esa to'pga oyoq tekkizishga harakat qiladilar. Har bir ushlangan to'p uchun ular o'z komandasiga 1 ochko keltiradilar. O'yin vaqt tamom bo'lgandan keyin komandalar joylarini almashadilar. To'p uzatishda kam xatoga yo'l qo'ygan komanda o'yinchilari g'olib hisoblanadi.

Tanlangan nishonga

Devorga yoki taxtaga 50–60 sm diametrli bir necha doira chiziladi. Har bir doiraga ma'lum sonlar yozib qo'yiladi. O'ynovchilar 10 – 11 m masofadan yugurib kelib to'pni galmagaldan o'zlari tanlangan nishonga (raqamga) tepadilar. Har bir o'yinchiga chap va o'ng oyoqda 3 metrdan turib to'p tepishga ruxsat beriladi. Tanlab olgan nishoniga ko'proq to'p tekkizgan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

Hujumchilar konkursi

Jarima maydonchasi chizig'idan 30 m narida start chizig'i belgilanadi. Signal berilishi bilan navbatda to'rgan o'yinchi 20 m masofaga to'g'ri yo'nalish bo'ylab to'pni olib boradi, keyin il-on izi bo'lib to'rtta ustunchani aylanib o'tadi (ustunchalardan biri jarima maydonchasidan 10 m masofada, boshqalari bir-biridan 2 m masofada joylashgan), yana 10 m dan to'pni olib borib, jarima maydonchasi chizig'idan darvoza tomon to'p tepadi. To'p darvoza chizig'ini kesib o'tgandan keyingina hakam sekund o'Ichovini to'xtatadi. Agar to'p darvoza yonginasidan o'tib ketsa, mashqning bajarilganligi hisoblanmaydi.

Har bir o'yin qatnashchisiga uchtadan imkoniyat beriladi, ulardan eng yaxshisi hisobga olinadi. Mashqni bajarishda kam vaqt sarflagan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

Doira bo'ylab uzatish

Bir necha komanda galma-galdan musobaqalashadilar. O'yinni boshlovchilar diametri 9–10 m doirada turadilar. Doira markazida kapitan turadi. Signal berilishi bilan u galma-galdan o'zining o'yinchilariga boshi bilan to'pni urib uzatadi, ular o'z navbatida to'pni bosh bilan urib unga qaytaradi. O'yin vaqtin tuggagandan so'ng o'yinni boshqa komanda boshlaydi. To'pni yerga kam tushirgan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

Futbolga oid voleybol

O'yin futbol maydonchasida o'tkaziladi. To'r 1 m balandlikka tortilishi kerak. Komanda a'zolari 4–5 o'yinchidan iborat bo'ladi. O'yin qoidasi voleybol qoidasi bilan bir xildir. To'p maydoncha old chizig'idan oyoq bilan uzata boshlanadi. To'pning yerga ikki marta tegishiga va uch marta raqiblar o'rtasida bir-biriga oshirishga ruxsat beriladi. To'pni faqat boshda urish va oyoq bilan tepish mumkin. Ochkolarni 15 ta gacha yetkazish mumkin.

Bir o'rinishda

Har bir komandada 5–6 o'yinchi bo'lib, galma-galdan musobaqalashadilar. O'yinni boshlovchilar devor qarshisida (yoki taxta qarshisida) undan 7 m masofada turadilar. Devorga 1 x 0,5 m darvoza chiziladi. Signal berilishi bilan birinchi to'rgan o'yinchi harakatsiz to'rgan to'pni oyoq bilan pastlatib urib, uni darvozaga yo'naltiradi va tezda yugurib, qatorning oxiriga borib turadi. Undan keyin to'rgan ikkinchi o'yinchi ajratilgan chiziqning ichiga kirmsandan dumalab kelayotgan to'pni tepib, yana darvozaga yo'naltiradi va hokazo. Har bir o'yinchi to'pni uch marta o'rgandan keyin o'yin tugaydi. Raqiblar ham huddi shunday harakat qiladilar. Mashqni bajarishga kam vaqt sarflagan komanda o'yinda g'olib chiqadi.

Tepish vaqtida ajratilgan chiziqni bosgan taqdirda 2 sekund, darvozaga noaniq tepganda – 4 sekund jarima beriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kim ko'p qo'ziqorin teradi – bu qanday harakat o'yini?
2. To'pni tekkizish – bu qanday harakat o'yini?
3. Maydon o'rtasidagi o'yin – bu qanday harakat o'yini?
4. Harakatlanuvchi darvoza – bu qanday harakat o'yini?
5. Uch komanda – bu qanday harakat o'yini?

X BOB. O'YIN QOIDALARI

O'yinchilarning kiyimi

O'yinchining kiyim-boshini futbolka yoki ko'ylagi, trusisi, getrasi va oyoq kiyimi (butsasi) tashkil etadi.

1. O'yinchich boshqa o'yinchilarga xavf tug'diradigan turli buymularni taqmasligi va kiymasligi lozim.

Oyoq kiyimi (butsasi yoki botinkasti) quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) ko'ndalang plastinkalari teri yoki rezinadan tayyorlanishi va ular yassi bo'lib, qalinligi 12,7 mm dan kam bo'lmasligi va taglikni butun eni bilan qoplashi va chetlari oysimon bo'lishi;

b) teri, rezina, alyumin, plastmassa yoki shunga o'xshash materialdan bir butun (tekis) bo'lмаган yechiladigan tishlar tayyorlanadi. Ular yumaloq va yaxlit, yassi cho'qqisimon, diametri 12,7 mm. bo'lishi kerak. Tishlar o'rnatiladigan asos tagcharm dan 6 mm. dan baland bo'lmasligi kerak. Agar tishlar konussimon bo'lsa, diametri 12,7 mm. dan oshmasligi zarur.

Agar tishlar uchun metall asos ishlatilgan bo'lsa, u tagcharmga o'yilgan bo'lishi kerak. Mustahkamlash uchun ishlatiladigan har qanday vint tishlar bilan bir butunni tashkil yetishi shart. Tagcharm ustiga teri yoki rezina bilan qoplangan taqdirda ham metall plastinkalar o'rnatishga ruxsat etilmaydi. Vintli tishlarning tagcharmdagi vint asosi mixlar yoki boshqa yo'l bilan mustahkamlanishi ta'qiqlanadi. Yuzasida naqsh, relyef yoki chiqib to'rgan burchaklari bo'lgan shiplardan foydalanish mumkin emas.

s) tagcharm bilan uyma tayyorlangan shiplar rezina, plastika va shunga o'xshash boshqa yumshoq materiallardan tayyorlaniladi. Agar ular tagcharmda 10 donadan kam bo'lmasa, ular-

ning eng kichik diametri 10 mm. bo'lishi mumkin. Tishlarni yana-da mustahkamroq o'rnatish uchun ishlatalidigan yumshoq materialdan tayyorlangan qo'shimcha plastinkalar tagcharm bilan yaxlit qilib yasaladi va u tagcharm yuzasidan 5 mm. dan baland bo'lmasligi kerak. Bunaqangi plastinalar boshqa o'yinchilarga xavf tug'dirmasligi zarur, boshqa har qanday hollarda shunga o'xhash tishlar ushbu qoidaning umumiy talablariga javob berishi kerak.

d) mazkur qoida talablariga javob beradigan va balandligi 19 mm. dan oshmaydigan ko'ndalang plastinka va tishlarni qo'llashga ham ruxsat etiladi. Agar ularni mustahkamlash uchun mix ishlatsa, u holda ular plastina va shiplardan tagcharmning yo'ziga chiqib qolmasligi kerak.

3. Darvozaboning kiyim-boshi rang jihatidan ikkala komanda o'yinchilari va hakamning kiyimidan farq qilishi kerak.

Hakam:

Har bir o'yinni o'tkazish uchun hakam tayinlanadi. U maydonga chiqqan paytdan boshlab o'yining qoidaga binoan borishini nazorat qiladi.

O'yin vaqtincha to'xtatilganda yoki to'p maydondan chiqib ketganda o'yinchilar o'zaro janjallahsganda, o'yinni to'xtatish va olib borish kabi huquqlar hakam zimmasiga yuklatiladi va bu o'yin mobaynida hakamning barcha asoslarga chiqargan qarori o'zgarmasdan qoladi va bu o'yining hisobiga ham tegishlidir.

Hakam:

a) o'yin qoidalarining aniq bajarilishini nazorat qiladi;
b) xulosasiga ko'ra jabrlanuvchi komandaga muvaffaqiyat (ustunlik) beruvchi hollarda (hujum uyuştirganda) o'yinni to'xtatmasligi lozim;

s) maydondagi barchaning xatti-harakati o'yin uchun ajratilgan vaqtini nazorat qilish, baxtsiz hodisa ro'y berib vaqt olinsa, bekor ketgan vaqt uchun qo'shimcha vaqt qo'shish va boshqa hollar-da nazorat qiladi;

d) zarurat tug'ilgan barcha (noqulay ob-havo sharoitida, to-moshabin xalaqit berganda va boshqa) hollarda, shuningdek barcha o'yin qoidasi buzilganda vaqtincha yoki umuman o'yinni to'xtatish huquqiga ega.

Hakam o'yinning to'xtatilganligi sababini bat afsil tushuntirishi va bu haqda musobaqani o'tkazuvchi tashkilotga musobaqa ni-zomida ko'rsatilgandek yozib ma'lum qilishi shart;

e) o'yinchilarni maydonga tushgan paytidan boshlab qilgan qo'polliklari yoki tartibsizliklari (yomon xulqi) uchun ogohlantirishi yoki umuman o'yinchini maydonga qo'ymaslikka haqli. Aybdor o'yinchining ismini, jazolash sababini o'yin protokolida qayd yetishi va bu haqda musobaqani o'tkazuvchi tashkilotga xabar qilishi kerak;

f) o'zining ruxsatsiz o'yinchi va yordamchi hakamlardan tashqari hech kimni maydonga kirishiga yo'l qo'ymasligi lozim;

j) qattiq shikastlangan o'yinchiga yordam ko'rsatish uchun o'yinni to'xtatishi, agar kerak bo'lsa jarohatlangan o'yinchiga tez yordam ko'rsatish uchun maydon tashqarisiga chiqarib darhol o'yinni davom ettirish lozim. O'yinchi yengil shikastlangan bo'lsa, to'p maydon tashqarisiga chiqqach, o'yinni to'xtatishi kerak.

Agar o'yinchining o'zi yon yoki darvoza chizig'iga bora olsa, unga maydon tashqarisida tibbiy yordam ko'rsatiladi;

k) hakam fikricha o'yinchi qo'pollik yoki qoidani ataylab bu-zaversa, shuningdek o'yin intizomini qo'pol buzsa yoki haqoratlovchi so'zlar bilan so'kinsa, uni maydondan chiqarib yuborishi kerak;

i) har bir o'yin to'xtatilgach, uni boshlashga signal (ishora) qilishi lozim;

l) to'pning qoida talablariga javob berish sifatlarini faqat uning o'zi aniqlaydi.

Ko'rsatma

1. Rasmiy o'yinlarda hakam ikkala komanda o'yinchilarining kiyimi rangidan farq qiluvchi rangdagi kiyimda yoki kurtkada bo'lishi kerak.

2. Stadion ma'muriyati o'yin o'tadigan maydonga o'yinchilar shikastlanganda tibbiy yordam ko'rsatish uchun meditsina navbatchiligini tashkil etish kerak.

Hakam o'yin boshlanishi oldidan meditsina xodimining mavjudligi va tayyorgarligini ko'zdan kechirishi lozim.

3. Hakam o'yinning to'xtatilishi sabablariga ko'ra qo'shiladigan vaqtini o'zi aniqlaydi. U qoidada ko'rsatilgan

to'xtatishlar uchun qo'shimcha vaqt belgilash huquqiga ega. Qo'shilgan vaqt to'g'risida Hakam komanda kapitanlariga xabar qiladi. O'yining taymlar bo'yicha vaqt faqat hakamning sekundomeri bilan aniqlanadi.

4. Barcha tartibsizliklar, tomoshabinlarning noto'g'ri xulqi yoki bir to'da tomoshabinning har qanday qo'pol muomalasi, rasmiy kishi, o'yinchi, protokolda qayd etilgan zapas o'yinchi yoki boshqa kishilar tomonidan maydonda yoki boshqa joyda o'yingacha yoki o'yindan so'ng sodir etilsa, hakam bu haqda raport yozib mu-sobaqa o'tkazuvchi mutassadi tashkilotga tegishli choralarni ko'rish uchun topshirishi kerak.

5. Yon hakamlar faqat hakamning yordamchilari hisoblana-di. Shuning uchun maydondagi hakam o'zi ko'rgan va vaziyatga o'zining yaqinligini hisobga olib yordamchi hakamning signal- larini e'tiborga olmasdan o'yin vaziyatlariga to'g'ri baho berishi kerak. Agar hakam yordamchi hakamni qulay vaziyatga yaqinli-gini va qoida buzilishini o'zidan ko'ra yaxshi ko'rgan, deb baholab uning signalini inobatga olishi va u darvozaning ishg'ol etilishi bilan bog'liq bo'lsa, darvozaga kiritilgan to'pni hisoblamasligi ham mumkin.

6. Agar o'yin qayta boshlanmagan bo'lsa, hakam o'zining birinchi qarorini o'zgartirishi mumkin.

7. Agar hakam o'yin qoidasi buzilgach, jabrlanuvchi komandan-dagi qulay (imtiyozli) vaziyatni beradigan payt o'yinni to'xtatmasa va komanda bu imkoniyatdan foydalana olmasa, hakam o'z qarorini o'zgartirmasligi kerak. Bu hakam qoidani buz-gan o'yinchini e'tiborsiz qoldirishi kerak degani emas.

8. Hakam o'yinda iloji boricha ozroq to'xtatishlar qilishi lo-zim. Buning uchun ataylab qoida buzilganda jazolash zarur. Teztez to'xtatishlar va shubhali o'yin qoidasi buzilish xotlaridagi to'xtatishlar o'yinga qiziqishni so'ndiradi, bu esa o'yinchilarga ham ta'sir qiladi.

9. Hakam qoidaning "d" punktiga asosan biror-bir komanda-ga mag'lubiyat berish yoki diskvalifikatsiya qilish masalasini hal etmasdan qoida qo'pol buzilganda yoki tartibsizliklar yuzaga kel-ganda o'yinni to'xtatish huquqiga ega. Bu holda hakam batafsil tarzda voqeа yuzasidan raport yozib tegishli tashkilotga jo'natishi

shart. Faqat shu tashkilotgina hodisa yuzasidan so'nggi qarorni chiqaradi.

10. Agar o'yinchi bir vaqtning o'zida ikki xarakterdagi qoidani buzsa, hakam uni qaysisi jiddiyroq bo'lsa, o'shanisi bo'yicha ja-zolashi kerak.

11. Hakam o'zi ko'ra olmagan daqiqalar yoki boshqa sabablar tufayli ko'ra olmay qolgan hodisalarda yordamchi hakamning axborotini e'tiborga olishi kerak.

12. O'yin to'xtatilmagunga qadar maydonga komanda treneri yoki boshqalarning chiqishiga ruxsat bermasligi kerak. Shuningdek, trenerlarni maydon chizig'i yaqinidan o'yinchilarga maslahat berishiga ham yo'l qo'ymasligi kerak.

Zarurat tug'ilganda kerakli qo'l harakati bilan vrach yoki boshqa rasmiy kishining maydonga kirishiga ruxsat beradi.

Yordamchi hakamlar

O'yin hakamiga yordam berish uchun ikkita yordamchi hakamlar tayinlanadi. Yordamchi hakamlar bayroq yordamida signal berib ko'rsatishadi (oxirgi xulosani bosh hakam chiqaradi):

- a) to'pni o'yindan chiqqanini;
- b) qaysi komanda burchak to'pi tepishini, darvoza maydoni chizig'idan to'p tepib o'yinga kiritishini yoki to'pni tashlab kiritishini;
- s) komandalarning o'yinchisini zapasdagi bilan almashtirilishini, shuningdek yordamchi hakamlar o'yin qoidasini nazorat, qilib, maydondagi hakamga yordam berishi kerak.

Agar yordamchi hakam noto'g'ri harakatlari bilan o'yinning yaxshi o'tishiga xalaqit bersa, bosh hakam uni almashtirishi mumkin. Almashtirish haqida musobaqani uyuştirgan tashkilotning futbol federatsiyasining hakamlar kollegiyasiga xabar qilishi va almashtirish sabablarini ko'rsatishi lozim.

Yordamchi hakamlarni stadion ma'muriyati maxsus talablariga javob beradigan bayroqchalar bilan ta'minlashi kerak.

Ko'rsatma

1. Yordamchi hakamlar o'yin qoidasi buzilganini bosh hakam sezmay qolganida e'tibor berishi va unga bu haqda murojaat qilishi lozim. Ammo oxirgi qarorni bosh hakam chiqaradi.

2. Shaharlararo o'tkaziladigan rasmiy uchrashuvlarda hakamlar brigadasi mazkur shaharlar hakamlar kollegiyasidan bo'lmasligi maslahat beriladi. Ichki (shahar, rayon va boshqa) mu-sobaqalarda ham yordamchi hakamlarni uchrashuvchi komanda-lar tashkilotlari a'zolaridan bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir.

3. Yordamchi hakamlardagi bayroqlarning rangi aniq ajralib turadigan bo'lishi kerak (masalan, sariq, qizil va hokazo).

4. Yordamchi hakam asossiz aralashgani yoki yetarli yordam bermaganligi uchun faqat hakamning rapportiga asosan intizom ji-hatidan jazolanishi mumkin.

O'yin uchun ajratilgan vaqt

O'yin ikki bo'limdan iborat bo'lib, har bo'limi 45 minutdan va ular orasida 10 minutli tanaffusdan tashqari 90 minut davom eta-di. Quyidagi shartlarga rioya qilinishi shart:

a) hakam baxtsiz voqeа tufayli, tashqaridan xalaqit berib yoki boshqa sabablarga ko'ra o'yin to'xtatilgan bo'lsa, yo'qotilgan vaqt-ni u qaysi bo'limda yo'qotilgan bo'lsa, o'sha bo'limiga qo'shishi va bu yo'qotilgan vaqtning qanchaligini uning o'zi belgilaydi;

b) birinchi bo'lim yoki umumiy vaqt tugagan bo'lishiga qaramasdan 11 metrli jarima to'pi tepish uchun vaqtini qo'shishi.

Ko'rsatma

1. Agar o'yin hakam tomonidan u qoidada ko'rsatilgan sabab-lar tufayli tugatilgan bo'lsa, u qaytadan o'ynalishi shart (faqat mu-sobaqa nizomi ushbu holda o'yin tugatilgandagi hisobni haqiqiy deb hisoblashni ko'zda tutmagan bo'lsa).

2. O'yinchilar bo'limlar orasida belgilangan tanaffusda dam olishga haqlidirlar.

3. Agar rasmiy musobaqaning shartiga ko'ra g'olibni aniqlash hamda g'olib aniqlanishi kerak bo'lib, ammo musobaqa nizomida g'olibni aniqlash haqida, boshqa usul haqida gapirilgan bo'lmasa, o'yin ajratilgan vaqtida durang bilan tugasa, qo'shimcha 30 minut vaqt beriladi. Komandalar har bo'limi 15 minutdan bo'lgan qo'shimcha vaqtida darvozalarni almashib, dam olmay o'yinni tuga-tadilar. Natija yana durang bo'lsa, g'olib 11 metrli belgidan tepila-digan zarbalardan so'ng aniqlanishi mumkin. 11 metrli zARBANI FI-FAning qo'llanmasiga ko'ra bajarish tavsiya etiladi.

O'yinning boshlanishi

a) o'yin boshlanishi oldidan qur'a tashlanadi. Qur'ada yutgan komanda maydonning o'ziga ma'qul tarafini yoki boshlang'ich zarbani berish huquqini qo'lga kiritadi.

Boshlang'ich zarbani berish uchun to'pni maydon markazi belgisiga qo'yib, hakamning signali bilan qimirlamay to'rgan to'p boshlovchi komanda o'yinchisi oyog'i bilan zarba berib o'yinga kiritadi. To'p raqib egallagan maydon qismi tomon yo'naltirilgan zarba bilan boshlanishi shart.

Boshlang'ich zarbani berish paytida barcha o'yinchilar maydonning o'zlariga tegishli yarmida bo'lishlari shart. O'yinni boshlovchi zarba berilayotgan paytda raqib o'yinchilarining to'pdan 9 metr dan yaqin turmasliklari va zarba berilmaguncha ularning to'pga yaqin kelmasliklari shart.

To'p o'z aylanasi uzunligicha masofani bosib o'tgach, o'yinga kiritilgan hisoblanadi.

Boshlang'ich zarbani bergan o'yinchi ikkinchi marta boshqa o'yinchilardan oldin to'pni tepishiga ruxsat etilmaydi;

b) to'p darvozaga kiritilgach, o'yin yana o'yin boshidagidek maydon markazidan darvozalaridan to'p o'tkazib yuborgan komanda a'zolari tomonidan o'yinga kiritiladi;

s) tanaffusdan so'ng komandalar darvozalarni almashishadi va o'yin boshida o'yinni boshlamagan komanda maydon markazidan boshlang'ich zarba berish orqali o'yinni davom ettiradi.

Jazolashtirish

Boshlang'ich zarba o'yinga noto'g'ri kiritilsa, zarba takrorlanadi. Boshlang'ich zarbani bergan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchilardan oldin ikkinchi bor tegsa, qoida buzilgan yerdan erkin to'pi belgilanadi. Agar bu qoida o'yinchi tomonidan raqib darvoza maydonida sodir etilsa, qoida buzilgan darvoza maydonini ixtiyoriy nuqtasidan erkin to'p tepish orqali o'yinga kiritiladi.

Boshlang'ich zarbadan so'ng to'p to'g'ridan-to'g'ri hech kimga tegmasdan darvozaga kiritilsa, hisobga olinmaydi.

d) har qanday sabablar tufayli o'yin vaqtincha ushbu qoidada ko'rsatilmagan sabab tufayli to'xtatilsa va to'p yon darvoza chiziqlarini shu damda kesib o'tmagan bo'lsa, uni hakam qo'liga olib

o'yinni o'yin to'xtatilgan paytda to'p qayerda bo'lgan bo'lsa, to'pni o'z oldiga tashlab o'yinni boshlaydi. To'pning darvoza maydonida bo'lgan vaqtib bundan mustasno. Bu holda to'p darvoza chizig'iga parallel bo'lgan va to'p o'yin to'xtatilganda joydan eng yaqin masofada darvoza chaydoni chizig'i ustiga tashlanadi.

To'p yerga tekkandan so'nggina o'yinga kiritilgan hisoblanadi, bungacha biror bir o'yinchining unga tegishiga ruxsat berilmaydi.

Agar tortishish to'pi tashlanayotganda u hali o'yinchilar tegmasdan maydondan chiqib ketsa yoki to'p yerga tushgangacha o'yinchi unga tegsa, hakam tortishish to'pini boshqatdan tashlaysidi..

Ko'rsatma

1. Agar tortishish to'pi tashlanayotganda o'yinchilar o'yin qoidasini buzsa, qoidani buzganligi uchun o'yinchi ogohlantiriladi yoki qoidani juda qo'pol buzganligi uchun maydondan chiqarib yuboriladi. O'yin esa tortishish to'pi tashlash bilan boshlanadi, chunki qoida to'p o'yinga kiritilmagan paytda buzilgan, shuning uchun jarima yoki erkin to'p belgilanmaydi.

2. O'yinda ishtirok etmayotgan o'yinchiga boshlovchi zARBANI berishga ruxsat etilmaydi.

To'p qachon o'yinga kiritilgan va kiritilmagan hisoblanadi?

To'p o'yindan chiqqan hisoblanadi, qachonki:

a) agar to'p darvoza chizig'ini yerdan yoki havodan to'liq kesisib o'tsa;

b) o'yin hakam tomonidan to'xtatilsa;

Qolgan barcha hollarda to'p o'yinga kiritilgan hisoblanadi va huddi shuningdek:

a) to'p burchakdagi bayroqlarga yoki darvoza ustunlari va to'siniga tegib yana maydonga tushsa;

b) to'p hakam yoki yordamchi hakamlar maydon chegarasida to'rganda tegib yana maydonga tushsa;

s) o'yinchilar qoida buzildi hisoblashib, hakam o'yinni to'xtatadi, deb o'ylab to'xtashsa.

Ko'rsatma

Har bir chiziq mazkur chiziq chegaralagan maydonning o'lchamiga kiradi. Shuning uchun yon va darvoza chiziqlari qaliligi ham maydon chegarasiga kiradi.

O'yin hisobi

To'p darvoza ustunlari va to'sini ichidan darvoza chizig'ini to'liq kesib o'tishi oldidan (darvozaga to'p kirishida) hujum qiluvchi komanda o'yinchilari uni otib yoki ataylab qo'li bilan urib kiritmasa, darvoza ishg'ol etilgan hisoblanadi. Jarima maydonida gi himoyalanuvchi komanda darvozaboni bundan mustasno. O'yin mobaynida ko'p gol kiritgan (o'rgan) komanda g'olib komanda hisoblanadi. Agar o'yin mobaynida komandalar kiritgan gollar natijasi bir xil (ko'rsatgichi bir xil) bo'lsa yoki umuman gol urisha olishmasa, o'yin durang bilan tugagan hisoblanadi.

Ko'rsatma-

1. Qoida o'yin g'olibini aniqlash yoki durang bilan tugaganligini aniqlashda yagona usulni ko'rsatadi. Boshqa natija bo'lishi ham mumkin emas.
2. To'p darvoza chizig'ini kesib o'tmasdan biror begona kishi (aytaylik tomoshabin) to'pni qaytarib yuborsa, to'p darvozaga kiritilgan hisoblanmaydi.

Agar bu voqeа 11 metrli jarima to'pini tepishdan boshqa hol-larda ro'y bersa, hakam o'yinni to'xtatib voqeа sodir etilgan joydan tortishish to'pi tashlash bilan davom ettiradi, voqeа darvoza maydonida sodir etilgan hollar bundan mustasno.

3. Agar tomoshabin maydonga tushib darvozaga kelayotgan to'pning yo'lini to'sishga o'rinsa va baribir to'p darvozaga kiritilsa, hakam to'pni hisoblashi kerak. Ammo tomoshabin to'pga tegsa yoki o'yinga xalaqit qilsa, hakam o'yinni to'xtatib, tomoshabin to'pga tekkan joydan tortishish to'pi tashlashi kerak. Voqeа darvoza maydonda sodir bo'lgan hollar bundan mustasno.

Agar hakam xato qilib to'p darvozaga kiritilgunga qadar hushtak chalib yuborsa va darhol o'z xatosini anglasa, gol hisoblanmaydi va xato qayerda sodir etilgan bo'lsa, o'sha yerdan tortishish to'pi tashlash bilan davom ettiriladi. Darvoza maydonida sodir etilgan hollar bundan mustasno.

O'yindan tashqari holat

1. O'yinchi raqib darvoza chizig'i yaqinida to'p tepiladigan da-qiqalarda to'pdan oldin turib qolsa, u "o'yindan tashqari holat"da deyiladi. Quyidagi hollar bundan mustasno:

- a) o'yinchi maydonning o'ziga tegishli yarmida bo'lganda;
- b) o'yinchi bilan raqib darvoza chizig'i o'rtasida raqibning ik-kitadan kam bo'lman o'yinchisi bo'lganda.

2. O'yinchi "o'yindan tashqari holatda" hisoblanadi va buning uchun u jazolanishi kerak, agarda shu damda to'pga tegsa yoki uning komandadoshlaridan biri to'p bilan bo'lsa va u hakamning fikricha:

- a) o'yinga yoki raqibiga xalaqit bersa;
- b) "o'yindan tashqari holat"da turishga o'rini buning bilan imtiyozli imkoniyatga ega bo'lish.

3. O'yinchi hakam tomonidan "o'yindan tashqari holat"da bo'lgan quyidagi hollarda jazolanmaydi:

- a) agar shunchaki "o'yindan tashqari holat"da to'rgan bo'lsa;
- b) agar o'z darvozaboni darvoza oldidan beriladigan to'pni teggach qabul qilsa, burchakdan tepilgan burchak to'pni, yon chiziqdan tashlangan to'pni (autdan) yoki talashish to'pidan tashlangan to'plarni qabul qilganda.

4. Agar o'yinchi "o'yindan tashqari holatda" qoidasini buzsa hakam erkin to'pi tepish bilan jazolashi kerak va qarshi komanda a'zolari qoida buzilgan joydan erkin to'p tepib o'yinga kiritilishi lozim. Qoida darvoza maydoni ichida buzilsa, u holda erkin to'p darvoza maydonining istalgan yeridan tepiladi.

Ko'rsatma

1. "O'yindan tashqari holat" o'yinchi to'pni qabul qilayotganda emas, balki unga to'pni uzatayotgan (o'z komandadoshi) zahotiyoq aniqlanadi.

"O'yindan tashqari holat"da bo'lman o'yinchi komandadoshi unga to'p oshirgan paytda oldinga intilsa, u "o'yindan tashqari holat"da hisoblanmaydi.

2. O'yinchi "o'yindan tashqari holat"da bo'lib, maydondan chiqib ketsa va hakamga o'yinda qatnashmayotganini ko'rsatsa, ushbu qoidani buzgan deb hisoblash shart emas. Biroq hakamning

fikricha, uning bu harakati taktik jihatdan yolg'on (aldamchi) harakat bo'lib, raqibini chalg'itib so'ngra yana o'yinga tushadigan bo'lsa, hakam o'yinchini "o'yindan tashqari holat"da deb hisoblashi kerak.

Qoidani buzish va o'yinchilarning intizomsizligi

O'yinchi ataylab quyidagi to'qqizta o'yin qoidasini buzzsa:

- a) oyog'i bilan raqibini temsila yoki tepishga o'rinsa;
- b) raqibni oyoqlari bilan yiqitishga o'rinsa yoki uning oldi yoki orqasida engashib uni yiqitishga harakat qilsa;
- c) raqibning ustiga sakrasa;
- d) raqibiga nisbatan qo'pol yoki xavfli hujum qilsa;
- e) yo'lini to'smayotgan raqibini orqasidan itarsa;
- f) raqibini qo'li bilan ursa yoki urishga harakat qilsa yoki unga tuflasa;
- g) o'yinchini to'xtatib qolsa;
- h) o'yinchini itarsa (qo'li, soni yok boshqa ruxsat etilmagan usulda);
- i) to'pni qo'li bilan o'ynasa, ya'ni to'xtatsa, olib yursa, uzatса yoki qo'li bilan ursa (bu darvozabon uchun o'z jarima maydonida ruxsat etiladi), jarima to'pi bilan jazolanishi kerak (agar uning harakatlari qattiqroq jazolashni taqozo etmasa), qoidani buzgan o'yinchi komandasi tomon belgilangan jarima to'pni qarshi komanda o'yinchilari qoida buzilgan joydan tepishadi, qachonki qoida raqib darvoza maydonida buzilsa, jarima to'pi darvoza maydonining istalgan nuqtasidan tepiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin qoidalari himoyalanuvchi komanda a'zolari tomonidan o'z jarima maydonlarida ongli ravishda (ataylab) sodir etsalar, hujum qiluvchi komanda 11 metrli jarima to'pi tepish huquqini qo'lga kiritadi.

O'yin payti to'p qayerda bo'lishidan qat'iy nazar qoida jarima maydoni ichida buzilsa, 11 metrli jarima to'pi belgilanadi.

O'yinchi quyidagi 5 ta qoidaning birortasini buzzsa:

- 1) hakamning fikricha xavfli o'yin qilsa (m: darvozabon qo'li bilan ushlaganda tepishga harakat qilsa);
- 2) to'p uzoqda bo'lib, ular unga intilmagan paytda raqibining yelkasiga yelkasi bilan itarsa;

3) to'p o'yinda bo'lmanan holda raqibini ongli ravishda to'sib qolsa, ya'ni to'p bilan uning o'rtasida bo'lganda yoki gavdsasi bilan uning harakatiga to'sqinlik qilsa;

4) darvozabonni quyidagi hollardan tashqari vaziyatlarda itarsa:

a) to'pni ushlagach;

b) raqibini to'sayotgan payt;

s) o'z darvoza maydoni tashqarisida payti;

5) darvozabon o'z jarima maydoni ichida o'ynayotgan payti:

a) to'pni qo'liga ushlab olgach, istalgan tarafga qarab to'rt qadamdan ko'p yursa, to'pni yerga urib yursa yoki to'pni havoga otib yana ilib olsa, uni o'yinga kiritmasdan yoki komandadoshi jarima maydoni tashqarisida to'p bilan o'ynasa yoki raqib jarima maydoni ichida yoki tashqarisida qo'li bilan to'pga tegsa;

6) ongli ravishda hakam xulosasiga ko'ra vaqtini cho'zish maqsadida va buning bilan o'z komandasiga imtiyoz bersa (yaratrsa);

erkin to'p bilan jazolanishi kerak va qarshi komanda o'yinchilari qoida buzilgan joydan uni tepishlari kerak, faqat qoida darvoza maydonida buzilgan hollar bundan mustasno.

O'yinchi quyidagi hollarda ogohlantiriladi, agar u:

j) o'z komandasiga o'zin boshlangach ruxsatsiz o'yinga kirma yoki o'zin vaqtida maydondan chiqib (jarohat olgandagi hol bundan mustasno) yana maydonga ruxsatsiz tushsa va bu haqda hakamni ogohlantirmsa.

Agar yuqoridagi holda o'yinchini jazolash uchun o'zin to'xtatilsa, o'yinchi ogohlantirilib, o'zin erkin to'p belgilash bilan davom ettiriladi. Faqat hakam o'yinni to'xtatganda qoida darvoza maydonida buzilgandagi hol bundan mustasno.

Agar erkin to'p o'z darvoza maydonida bo'lgan paytda belgilansa, u darvoza maydonining ixtiyoriy nuqtasidan tepiladi.

Agar erkin to'p raqib darvoza maydonida belgilansa, u holda to'p qoida buzilgan joyga yaqin bo'lgan darvoza maydoni chegarasiga o'rnatilib tepiladi.

Agar yuqorida ko'rsatilgan o'zin qoidasini buzgan o'yinchi jiddiyroq (qo'pol ravishda) qoidani buzishni sodir etsa, qoidani buzganligi uchun mazkur qoidaning tegishli qismida ko'rsatilganidek jazolanishi kerak;

- k) surunkali ravishda (sistematik) qoidani buzsa;
- l) so'z yoki o'z harakatlari bilan hakamning qaroriga o'z norozligini ifoda etsa;
- m) intizomsizlik qilaversa (o'zini tuta bilmasa).
- "k", "l", "m" qismlarida ko'rsatilgan o'yin qoidasini buzgan o'yinchilarga ogohlantirish beriladi va qarshi komanda o'yinchilari erkin to'p tepish huquqini qo'lga kiritadi. To'p qoida buzilgan joydan tepib o'yinga kiritiladi. Qoidaning "k" qismi qo'pol ravishda buzilganda jazolash birmuncha qattiqroq bo'lishi kerak. Agar qoida darvoza maydonida buzilgan bo'lsa, erkin to'p yoki jarima to'p qoida buzilgan joydan qoida talablarida keltirilgandek bajariishi kerak. Hakamning fikricha, quyidagi o'yin qoidasini buzgan o'yinchilar maydondan chetlantiriladilar:
- n) qo'pol (yomon) xulqda ayblansa yoki qoidani jiddiy ravishda buzsa;
- s) zapas o'yinchi o'yin to'xtatilgach, yon va o'rta chiziqlar kamitish so'zlarini ifoda etsa;
- p) ogohlantirilgandan so'ng ham qoidabuzarligini davom ettiraversa;

Agar o'yinchini maydondan chiqarib yuborish uchun o'yin to'xtatilgan bo'lsa, darvoza maydonidan tashqaridagi barcha hololarda qarshi komanda o'yinchilari qoida buzilgan joydan erkin to'p tepish huquqini qo'lga kiritadi.

Ko'rsatma

1. Agar darvozabon ongli ravishda to'p bilan kurashda raqibini ursa yoki to'pni ushlab to'rgan vaqtida itarsa, hakam qoida jarima maydoni buzilgani uchun 11 metrli jarima belgilashi kerak.
2. Agar o'yinchi ongli ravishda raqib o'yinchisiga o'ziga hujum qilayotganda orqasini o'girsa, bu o'yinchi xavfsiz usul bilan hujum qilishi mumkin.
3. Darvoza maydonida raqib o'yinchisi darvozabon to'pni ushlagmasa ham, bilib yoki bilmasdan urilganini hakam o'yinchining harakatini baholab, o'yinni to'xtatishi, agar o'yinchi ongli ravishda o'yin qoidasini buzgan bo'lsa, erkin to'p belgilashi kerak.
4. Agar o'yinchi boshi bilan to'pni urish uchun komanda-doshi yelkasiga suyanib (chiqib) o'ynasa, hakam o'yinni to'xtatish

va o'yinchiga sportchi xulqiga zid ishi uchun ogohlantirish berib, erkin to'p tepish huquqini qarshi komanda o'yinchilariga berishi kerak.

5. Maydonga qaytib o'yinga tushuvchi yoki o'yinga o'yin boshlangach kiruvchi o'yinchining burchi shundan iboratki, yon chiziqdan tashqaridan turib o'zini maydonga tushishiha hakamning ruxsatini ko'tishi va ruksat berilgandan keyingina maydonga tushishi kerak. O'yinchining maydonga tushishi haqida hakam qo'li bilan ishora qilishi lozim. Hakam o'yin to'xtashini kutmasligi ham mumkin (bu qoida buzilganda qo'llanilmaydi).

Faqat hakam o'yinchining qachon maydonga tushishi mumkinligini hal qiladi va bunga ruksat etadi.

6. qoidaning ma'nosi qoidani buzgan o'yinchiga ogohlantirish berish uchun o'yinni to'xtataverishni taqozo etavermaydi.

Hakam imtiyoz berjish prinsipiiga amal qilishi va aybdor foydasiga qaror chiqarmasligi kerak. Agar bu holda hakam imtiyoz berish prinsipiiga amal qilsa, aybdor o'yinchini o'yin to'xtagach ogohlantiradi.

7. Agar o'yinchi raqib o'yinchisiga o'ynashga ruksat etiladigan masofada turib to'pni gavdasi bilan to'ssa XII qoidaning 3-qismini buzmasdan to'sgan hisoblanadi, chunki bu o'yinchi to'pni taktil maqsadda undan ruksat etilgan masofada to'sgan hisoblanadi. Bu holda bu o'yinchiga hujum qilinishi mumkin, chunki to'p unda hisoblanadi.

8. Agar o'yinchi ongli ravishda qo'llarini yoyib va buning blilan raqibini harakatiga xalaqit bersa, qo'llarini siltab raqibni yo'nalishini o'zgartirishga majbur qila turib o'yinchiga tegmasa ham, bunday o'yinchiga sportchasiga bo'limgan xulqi uchun ogohlantirilib, uning komandasini tomon erkin to'p belgilanadi.

9. Agar o'yinchi ongli ravishda to'pni tepib o'yinga kiritayotgan raqib darvozaboniga xalaqit qila turib qoidaning 5-“a” qismi bo'yicha qoidani buzsa, hakam o'yinni to'xtatib, qoidani buzgan o'yinchi komandasini tomon erkin to'p belgilashi kerak.

10. Agar o'yinchi hakam erkin to'p yoki jarima to'pi belgilagach, uning yoniga yugurib kelib, qo'pol va haqoratlovchi so'zlar bilan hakamning qaroriga o'z noroziligini bildirsa, u maydonidan chetlashtirilishi kerak. Zarba o'yinchi maydonni tark etgandan so'ng tepiladi.

11. Har qanday o'yinchi maydon tashqarisidami yoki maydondami o'z komandadoshi yoki raqibiga, hakamga, yordamchi hakamlarga nisbatan qo'pollik va tartibsizlik qilsa yoki umuman boshqa biror kishiga nisbatan haqoratlovchi va nomaqbul so'zlarni izhor etsa, aybdor hisoblanib qoidani buzganligi uchun sodir etgan qoida buzishning xarakteriga qarab jazolanishi kerak.

12. Agar hakamning fikricha, darvozabon ongli ravishda, vaqtini cho'zish uchun to'pni ushlagach uning ustida uzoq vaqt yotaversa, uning bu harakati sportchasiga bo'lмаган xulq hisoblanib, buning uchun:

a) unga ogohlantirish berib, uning komandasini tomon erkin to'pi belgilanadi;

b) mazkur o'yin qoidasini takroran yana buzsa, u maydondan haydaladi.

13. Haqoratlar komanda vakiliga yoki boshqa kishiga norozilikni tuflash bilan izhor etilsa yoki shunga o'xshash itoatsizlik o'yinchi tomonidan sodir etilsa, bu harakat qo'pol xulq deb baholanib, aybdor o'yinchini qoidaning "n" qismida ko'rsatilganidek jazolanishi kerak.

14. Agar hakam qoidani buzgan o'yinchiga ogohlantirish berishiga qaror qilgach, to unga bu jazoni e'lon qilgunga qadar o'sha o'yinchi yana bir ogohlantirish beradigan darajada o'yin qoidasini buzsa, aybdor o'yinchi maydondan chiqarib yuborilishi kerak.

15. Agar o'yinchi o'yin paytida to'p o'yinda bo'lganda jarima maydonida "o'yindan tashqari holat"da to'rgan raqibini to'pni egallashga harakat qilmasa ham uni tepib (chalib) yiqitsa, 11 metrli jarima to'pi belgilanadi.

16. Yengil jarohat olgan yoki boshqa sababga ko'ra hakam ruxsati bilan maydonni chegaralovchi chiziqda to'rgan o'yinchi, raqib o'yinchisi uning oldidan yugurib o'tayotganda ongli ravishda oyog'i bilan chalsa yoki qo'li bilan tortsa, unga ogohlantirish beriladi va jarima to'pi tepish bilan davom ettiriladi. Agar qoida jarima maydoni chegarasida sodir etilgan bo'lsa, qoidaga ko'ra 11 metrli jarima to'pi tepish belgilanadi.

17. Agar himoyalananuvchi komanda o'yinchisi o'z jarima maydonida raqibini tepgani yoki qo'li bilan o'rgani uchun maydondan chetlantirilsa, to'p o'yinda bo'lgani uchun 11 metrli jarima to'pi belgilanadi.

18. Agar jarima maydonida talashish to'pi tashlayotgan payti himoyalanayotgan komanda o'yinchisi to'p yerga tekkunga qadar raqibini ursa, hakam unga ogohlantirish berib yoki maydon dan chetlatib, boshqatdan talashish to'pi tashlashi kerak. Mazkur o'yin qoidasi buzilganda 11 metrli jarima to'pi hali to'p o'yinga kiritilmaganligini hisobga olib belgilanmasligi kerak.

19. Agar himoyalanuvchi komanda o'yinchisi jarima maydoni tashqarisida turib ongli ravishda to'p mazkur jarima maydoni chegarasida payti qo'li bilan o'ynasa, qoida jarima maydonida buzilgan hisoblanib, 11 metrli jarima to'pi belgilanadi.

20. Agar bir komanda o'yinchilari tartibsizlik va qo'pol to'qnashuvlar sodir etaversa, qoida buzishda ayblab, hakam ularni ogohlantiradi yoki maydondan chetlashtiradi. Bunday hollarda o'yin to'xtagan joydan ularning komandasini tomon erkin to'pi belgilash bilan davom ettiriladi.

21. O'yinchi uchib kelayotgan to'pni ongli ravishda hujumi to'xtatish uchun qo'li bilan ushlasa yoki yorib o'tayotgan raqib o'yinchisini gavdasi bilan to'ssa, qo'li, ko'ylagi, trusisidan ushlab qolsa, hakam bunga jiddiy hodisa deb qarashi va bunday o'yinchiga ogohlantirish berishi kerak.

22. "TO'PNI NAZORAT QILAYAPTI" – bu degani darvozabon to'pni qo'lida ushlab to'rgan payti tushuniladi.

Agar darvozabon to'pni ushlagach, unga ajratilgan vaqt ichida u to'rt qadam qo'yishi mumkin, bu paytda:

to'pni qo'lida ushlab turishi yoki to'pni yerga urishi va sakragan to'pni yana ilib olishi, yoki to'pni havoga otib yana ilib olishiga ruxsat etiladi.

Darvozabon to'rt qadam qo'ygach, u to'pni o'yinga kiritishi kerak, biroq darvozabon to'pni o'z nazoratiga olgach, oyoq bilan o'ynash maqsadida to'pni yerga qo'ysa, yuqoridagi huquqlardan mahrum bo'ladi. Shu damdan boshlab u hatto to'rt qadam tashlamagan bo'lsa ham jarima maydonidan tashqarida to'rgan komandadoshi to'pga tegmasa yoki jarima maydonida yoki undan tashqarida raqib o'yinchisi to'pga tegmasa, darvozabon to'pga qo'l urishi mumkin emas.

Demak, darvozabon to'pni o'yinga kiritishi yoki uni oyog'i bilan o'ynashi mumkin, so'nggi holda unga to'rt qadamdan ko'proq

yurishga ruxsat etiladi. Chunki u bu holda maydondagi boshqa o'yinchilar nikidek huquqga ega bo'ladi (№ 299 va 299 A, 353, FFAning xati).

Jarima va erkin to'plar

Jarima to'pi erkin to'pdan shunisi bilan farq qiladiki, jarima to'pi to'p tepilgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri darvozaga kiritilsa hisoblanadi. Erkin to'p tepilgach darvozaga kiritilgan to'p hisoblanishi uchun tepilgandan so'ng to'pga boshqa biror o'yinchining tegishi shart bo'ladi.

O'yinchi jarima yoki erkin to'pini o'z jarima maydonida bajarayotgan payti qarshi komanda o'yinchilari jarima maydoni tashqarisida bo'lishlari va to'p o'yinga kiritilmagunga qadar unga to'qqiz metrda kam bo'limgan masofada turishlari va to'p jarima maydonidan chiqmaguncha unga tegishga ruxsat etilmaydi. To'p o'yinga kiritilishi uchun u o'z aylanasi uzunligicha masofani bosib o'tishi va jarima maydoni tashqarisiga chiqishi kerak. Darvozabon to'pni tepib o'yinga kiritishi uchun to'pni qo'liga olishi mumkin emas.

Agar oyoq bilan berilgan zarbadan so'ng, to'p jarima maydoni tashqarisiga chiqmasa, ya'ni to'p o'yinga kiritilmagan bo'lsa, u boshqatdan tepiladi.

Jarima yoki erkin to'pni o'z jarima maydoni tashqarisida te-payotgan paytda raqib o'yinchilari to'pga 9 metrda yaqin turmasliklari kerak, faqat o'yinchilar darvoza ustunlari orasidagi darvoza chizig'i ustida "jonli devor" hosil qilib to'rganlarida to'pga 9 metrda yaqin turishlari mumkin va to'p o'yinga kiritilmagunga qadar o'z o'rinalidan qimirlamasdan turishlari kerak. Ma'lumki, to'p o'z aylanasi uzunligicha masofani bosib o'tgach o'yinga kiritilgan hisoblanadi. Agar qarshi komanda o'yinchisi jarima yoki erkin to'p tepilgunga qadar jarima maydoniga kirma yoki to'pga ruxsat etilgan 9 metrda yaqin masofada tursa, hakam zARBANI to'xtatib o'yinchi qoidani bajarmaguncha ko'tishi kerak.

To'p tepiladigan paytida to'p qimirlamasdan turishi kerak. To'pni tepgan o'yinchi ikkinchi bor to'pga boshqa o'yinchilardan oldin tegishi mumkin emas.

Qoidada ko'rsatilgan bo'lishiga qaramasdan, jarima va erkin to'plar tepilishi:

1. Agar jarima yoki erkin to'pni himoyalanuvchi komanda o'z darvoza maydoni chegarasida temsa, to'pni darvoza maydonining o'sha yarmiga tegishli ixtiyoriy nuqtasidan amalga oshiradi.

2. Agar hujum qiluvchi komanda erkin to'p tepish huquqini raqib darvozasi maydonida qo'lga kirlitsa, darvoza chizig'iga parallel bo'lgan darvoza maydoni chizig'idan qoida buzilgan yerga yaqin joydan amalga oshiradi.

Jazolash

Agar o'yinchi boshqa o'yinchilardan oldin jarima yoki erkin to'p tepegach, ikkinchi marta to'pga tegsa, raqib o'yinchilar qoida buzilgan joydan erkin to'p tepish huquqini qo'lga kiritadi. Agar o'yin qoidasini o'yinchi raqib darvoza maydonida buzgan bo'lsa, bunday hollar bundan mustasno, u paytda erkin to'p darvoza maydonining qoida buzilgan yarimining ixtiyoriy nuqtasidan amalga oshiriladi.

Ko'rsatma

1. Jarima to'pidan erkin to'pni farqlash uchun hakam erkin to'p tepishni belgilagach, bir qo'lini yuqoriga ko'tarishi kerak va to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha yoki o'yindan chiqib ketmangu gadar ko'tarib turishi kerak.

2. Jarima yoki erkin to'p tepilayotganda raqib o'yinchisi ongli ravishda to'pdan belgilangan uzoqlikda turmasa, unga ogohlantirish beriladi va u mazkur qoidani buzishni takrorlasa, maydon dan chetlashtiriladi. Hakam jarima yoki erkin to'pi tepishga har qanday xalaqit berishni jiddiy tartibbuzarlik deb baholashi kerak.

3. Agar jarima yoki erkin to'p tepilayotganda o'yinchilar sakrab yoki qo'llarini harakatlantirib raqibini chalg'itsa, uning harakati tartibbuzarlik, deb baholanib aybdorga ogohlantirish beriladi.

4. Agar o'yinchi to'pni tepegan boshqa o'yinchilardan oldin to'pni ongli ravishda ushlasa, buning uchun u jiddiy qoidabuzarlikda, ya'ni to'pni qo'li bilan ushlagani uchun ayblanib jazolanadi, ammo u boshqalardan oldin to'pga tekkandek jazolanmaydi. Mazkur qoida buzish uchun jarima to'pi yoki 11 metrli zarba ham belgilanishi mumkin, qachonki qoida qayerda buzilganligini hisobga olib.

Jarima yoki erkin to'pi tepishda himoyalanuvchi komanda o'z jarima maydonida nizomning qoidasiga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

11 metrli jarima to'pi

11 metrli jarima to'pi 11 metrli belgidan tepiladi. Jarima to'pi tepilayotgan paytda himoyalanuvchi komanda darvozaboni va to'pni tepuvchi (zarbani bajaruvchi) o'yinchidan boshqa barcha o'yinchilar maydon ichida, ammo jarima maydoni tashqarisida, (to'pdan) 11 metrli belgidan, 9 metr masofada bo'lislari shart. Darvozabon to'p tepib o'yinga kiritilmaguncha darvoza chizig'ida ustunlar orasida oyoqlarini qimirlatmasdan turishi kerak.

Zarbani beruvchi o'yinchi (to'pni tepuvchi) to'pni oyog'i bilan oldinga yo'naltirishi va unga boshqalardan ilgari ikkinchi marta tegmasligi kerak.

To'p o'z aylanasi uzunligicha masofani bosib o'tgach, o'yinga kiritilgan hisoblanadi. 11 metrli zarbadan so'ng to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan to'p hisoblanadi.

Agar 11 metrli zarba belgilangach, o'yining 1-yarmi yoki umuman o'yin vaqt tugagan bo'lsa ham 11 metrli zarbani bajarishga vaqt qo'shiladi. Agar 11 metrli zarba bajarilgandan so'ng, to'p darvozaga kirgunga qadar darvozabonga tegsa va bu paytda 1-yarmi yoki umumiy vaqt tugagan bo'lsa ham to'p gol hisoblanadi.

Jazolash

Mazkur qoidaning har qanday buzilishida:

a) himoyalanuvchi komanda o'yinchilari to'p darvozaga kiritilmasa, 11 metrli zarbani qaytarib tepishi kerak;

b) hujum qiluvchi komanda o'yinchilari zarba bergen o'yinchidan tashqari, gol bo'lsa gol hisoblanmasdan 11 metrli zarba takrorlanadi;

s) 11 metrli zarbani bajaruvchi o'yinchi tomonidan o'yinga kiritilgach qoida buzilsa, raqib komandasini qoida buzilgan yerdan erkin to'p tepish huquqiga ega bo'ladi.

Agar qoidaning "s" qismida ko'zda tutilgan qoida buzilgan bo'lib va raqib darvozasi maydonida sodir etilgan bo'lsa, erkin to'p qoida buzilgan tomonning istalgan nuqtasidan amalga oshiriladi.

Ko'rsatma

11 metrli zarba bajarilishida o'yinchilar o'yin qoidasi taqozo etadigan masofada turmagunlariga qadar hakam uning bajarilishiiga ruxsat etmasligi kerak.

2. Agar o'yinchi 11 metrli to'pni tepishda:

a) darvozaga yo'naltirilgan to'p begona kishi tomonidan yoki biror narsaga tegib to'xtatilsa, 11 metrli zarba qaytadan tepilishi kerak;

b) to'p darvozabondan, to'sin yoki ustunlardan tegib qaytgach, begona kishi yoki narsa tomonidan to'xtatilsa, hakam o'yinni to'xtatishi kerak va o'yinni to'p to'xtatilgan joydan talashish to'pi tashlash bilan davom ettiradi. Faqat bunda to'p darvoza maydonida to'xtatilmagan bo'lsa.

3. Agar hakam 11-metrli zARBANI bajarishga ruxsat etdi, biroq:

a) zarba berilgunga qadar hakam darvozabonning darvoza chizig'ida turmaganligini ko'rsa, zarba berilishiga xalaqit bermasligi kerak. Agar to'p darvozaga kiritilmasa, zarba takrorlanadi;

b) zarba berilgunga qadar darvozabon qimirlayversa, hakam zarba berilishiga imkoniyat berishi kerak. Agar to'p darvozaga kiritilmasa, 11 metrli zarba takrorlanadi;

s) to'p o'yinga kiritilgunga qadar himoyalanuvchi komanda o'yinchisi jarima maydoniga yoki 9 metrli radiusni chegaralovchi yoy ichiga kirsa, zarba natijasini ko'tish kerak. Agar to'p darvozaga kiritilmasa 11 metrli zarba takrorlanadi. Qoidani buzgan o'yinchiga ogohlantirish berish kerak.

4. Agar 11 metrli zARBANING bajarilishida:

a) zARBANI bajaruvchi o'yinchi tartibsizlik (qo'pollik) qilsa va zARBADAN so'ng to'p darvozaga kiritilsa, 11 metrli zarba takrorlanadi va qoidani buzgan o'yinchiga ogohlantirish berish kerak;

b) hakam 11 mertli to'p tepishga ruxsat bergandan so'ng, to'p tepib o'yinga kiritilgunga qadar zARBANI bajaruvchi o'yinchining komandadoshi jarima maydoniga yoki 11 metrli belgidan 9 metrli radiusni chegaralovchi yoy ichiga kirsa, hakam zARBANING natijasini ko'tishi kerak. Agar to'p darvozaga kiritilsa, 11 metrli zarba takrorlanadi.

O'yin qoldasini buzgan o'yinchiga ogohlantirish beriladi.

s) agar yuqorida ko'rsatilgan banddag'i kabi hol sodir etilganda to'p darvozabon, darvoza to'sini yoki ustunlariga tegib qaytib maydonga tushsa, hakam o'yinni to'xtatib, aybdor o'yinchiga ogohlantirish berishi va qoida buzilgan joydan erkin to'p belgilashi kerak. Erkin to'pni qarshi komanda o'yinchilari tepib o'yinga kiritadi.

Agar 11 metrli zARBANI bajarishda:

a) hakamning zARBANI bajarishga ruxsatidan so'ng, to'p o'yinga kiritilgunga qadar darvozabon darvoza chizig'idan oldinga chiqsa yoki oyoqlarini qimirlataversa va zARBANI bajaruvchi o'yinchining komandadoshi jarima maydoniga yoki 11 metrli belgidan 9 metrli radiusni chegaralovchi yoy ichiga kirsa, 11 metrli zarba takrorlanadi.

11 metrli zARBANI bajaruvchi o'yinchining qoidani buzgan komandadoshiga esa ogohlantirish beriladi;

b) 11 metrli zARBANI bajarishga hakam hushtak chalib ruxsat etgach to'p o'yinga kiritilgunga qadar ikkala komanda o'yinchilari jarima maydoniga yoki 9 metrli radiusni chegaralovchi yoy ichiga kirishsa, 11 metrli zarba takrorlanadi. Qoidani buzgan o'yinchilarga ogohlantirish berilishi kerak.

6. Agar o'yin payti 11 metrli zARBANI tepishga yoki takror te-pish uchun vaqt qo'shilgan bo'lsa, 1-yarim yoki umuman o'yin uchun ajratilgan vaqtiga to'g'ri bajarilgan 11 metrli zARBADAN so'ng tugatilishi kerak. Ya'ni hakam to'pni hisoblash yoki hisoblamaslik haqida oxirgi qarorni chiqargandan so'ng. Qachonki, to'p darvoza chizig'ini to'sin yoki ustunlar orasidan to'liq kesib o'tsa to'p darvozaga kiritilgan deyiladi.

a) to'g'ridan to'g'ri 11 metrli zARBADAN so'ng;

b) darvoza to'sini yoki ustunlariga tegib;

s) darvozabonga tekkandan so'ng yoki darvozabon bilan o'ynaganda. O'yin hakamning biror bir qarorga kelgan zahotiyoy tugatiladi.

7. 11 metrli to'pni tepishga qo'shilgan vaqt:

a) mazkur qoidaning 2-ko'rsatmasidagi "b" va 4-ko'rsatmaning "s" qismlaridan tashqari barcha shartlari bajariladi;

b) ko'rsatmaning 2-“b” va 4-“s” bo'lmlarida ko'rsatilganidek to'p darvozabon, darvoza to'sini yoki ustunlaridan qaytib tushgan zahotiyoy tugatilishi kerak.

To'pni tashlash (autdan tashlash)

To'p yon chiziqni yerdan havodan to'liq kesib o'tsa, yon chiziqni kesib o'tgan joydan maydonning ixtiyoriy yo'nalishi bo'yicha qo'l bilan tashlab o'yinga kiritiladi. To'pga oxirgi marta tekkan komanda o'yinchilariga to'pni tashlab o'yinga kiritish huquqi berilmaydi. To'pni tashlayotgan o'yinchi ikkala oyog'i bilan yon chiziqla ustida yoki maydon tashqarisida bo'lishi shart.

O'yinchi to'pni ikkala qo'li bilan boshining orqa tomonidan maydonga tashlab o'yinga kiritishi lozim.

To'p tashlanganidan so'ng maydonga kirgach, o'yinga kiritilgan hisoblanadi. To'pni tashlagan o'yinchiga boshqa o'yinchilardan oldin to'pga tegish huquqi berilmaydi.

Yon chiziqdan tashlab to'g'ridan-to'g'ri darvozaga kiritilgan to'p (hech kimga tegmasdan kiritilgan gol) hisoblanmaydi.

Jazolash

a) agar to'p noto'g'ri tashlansa, qarshi komanda o'yinchilari o'sha yerning o'zidan to'pni takroran tashlaydi;

b) to'p tashlagan o'yinchi ikkinchi marta boshqa o'yinchilardan oldin to'pga tegsa, qoida buzilgan joydan qarshi komanda erkin to'pi tepish huquqini qo'lga kiritadi. Qoida darvoza maydonida bu'llsa, to'p darvoza maydonining ixtiyoriy nuqtasidan tepiladi (qoidada ko'rsatilganidek amalga oshiriladi).

Ko'rsatma

1. Yon chiziqdan to'p tashlashni bajarayotgan o'yinchi, agar to'pga maydon ichida ikkinchi bor qo'li bilan tegsa va bu paytgacha boshqa o'yinchi unga tegmagan yoki o'ynamagan bo'lsa, jami'a to'pi belgilanadi.

2. Maydonga to'pni yon chiziqdan tashlab o'yinga kiritayotgan o'yinchi yuzi (old tomoni) bilan maydonga qaragan bo'lishi kerak.

3. Yon chiziqdan to'p tashlayotgan o'yinchiga qarshi komanda o'yinchisi sakrab yoki qo'llarini harakatlantirib to'pni tashlashga to'sqinlik qilsa, uning xulqi yomon hisoblanib, unga ogohlantirish berilladi.

4. Agar o'yinchi raqibini ongli ravishda to'p yon chiziqdan maydon tashqarisiga chiqqanda ursa, u ogohlantiriladi yoki maydonidan chiqqarib yuboriladi.

Agar to'p tashlanganda u yon chiziqni kesib o'tmay yerga urilsa yoki maydonga to'p kirmay yon chiziq tashqarisida qolsa, to'p avval tashlangan joydan takroran to'p tashlagan komanda o'yinchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Darvoza chizig'idan chiqib ketgan to'pni o'yinga kiritish zARBasi

(Darvoza oldidan bajariladigan zarba) Agar to'p darvoza to'sini yoki ustunlari tashqarisidan darvoza chizig'ini (kesib) to'liq kesib o'tishida oxirgi marta hujum qilayotgan komanda o'yinchilariga tekkan bo'lsa, darvoza oldidan beriladigan zarba belgilanadi. To'p darvozaning qaysi tomoniga yaqin masofadan darvoza chizig'ini kesib o'tgan bo'lsa, to'p darvoza maydonining o'sha tomoniga qo'yilib himoyalananuvchi komandaning o'yinchilari tomonidan oy-oq bilan beriladigan zarba orqali o'yinga kiritiladi, ya'ni maydona jarima maydonidan tashqariga chiqariladi.

Zarbani beruvchi o'yinchi to'pni o'yinga kiritish uchun darvozaboning qo'liga berish huquqiga ega emas. Agar to'p oyoq bilan tepilgach, jarima maydoni tashqarisiga chiqarilmasa (o'yinga kirtilmasa) to'p takroran tepiladi.

Zarbani bajargan o'yinchining ikkinchi marta boshqa o'yinchilardan oldin to'pga tegishiga haqqi yo'q.

Darvoza oldidan tepiladigan zarbadan to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan to'p hisobga olinmaydi. Darvoza oldidan tepiladigan zarba payti qarshi komanda o'yinchilari jarima maydoni tashqarisida turishlari va faqat to'p zarba berilib jarima maydoni chegarasidan tashqarisiga chiqqach, kirishlariga ruxsat etiladi.

Jazolash

Agar darvoza oldidan beriladigan zARBANI bajargan o'yinchi jarima maydoni tashqarisida boshqa o'yinchilardan oldin to'pga tegsa yoki to'pni olib o'ynasa, qarshi komanda o'yinchilari erkin to'pi tepish huquqini qo'lga kiritadi. O'yin qoidasi raqib darvoza maydonida sodir etilgan hollar bundan mustasno. U holda erkin to'p darvoza maydonining qoida buzilgan yarimidagi ixtiyorly nuqtadan tepiladi.

Ko'rsatma

1. Agar darvoza oldidan bajariladigan zarbani bajar-gan o'yinchi to'p jarima maydonidan chiqqunga qadar boshqa o'yinchilardan oldin ikkinchi marta tegsa, qoida talablarida ko'rsatilganidek, to'p o'yinga kiritilmaganligi sababli takrorlanadi.

2. Agar darvoza oldidan bajariladigan zarbani ijrochisi ong-Il ravishda to'p jarima maydonidan chiqqach, hali boshqa o'yinchi to'pga tegishidan oldin qo'li bilan o'ynasa, jiddiy qoida buzish hisoblanib qarshi komanda jarima to'pi tepish huquqini qo'lga kirltadi.

3. Agar darvoza oldi zarbasini bajaruvchi himoyachi to'pni jarima maydoni tashqarisiga tepib chiqarsa-yu, kuchli shamol uni jarima maydoniga qaytarib olib kirsa va boshqa o'yinchi to'pga tegmasidan himoyachi qo'li bilan o'ynasa, hakam 11 metrli zarba belgilashi kerak.

4. Agar darvoza oldi zarbasini darvozabon bajarsa va to'p jarima maydonidan chiqqach, kuchli shamol uni jarima maydoniga qaytarib olib kirsa (to'pga hali boshqalar tegmaganligi uchun) va to'pni darvozabon qo'liga olsa, biroq to'p darvozaga baribir kiritilsa, hakam erkin to'p belgilashi kerak.

5. Agar darvoza oldi zarbasini bajarishda to'p o'z aylanasi uzunligicha masofani bosib o'tsa-yu, ammo to'p jarima maydonidan chiqmasdan qarshi komanda o'yinchisi jarima maydoniga kirganda himoyachi unga nisbatan qo'pollik qilib qoidani buzsa, to'p o'yinga kiritilmaganligi uchun 11 metrli jarima to'pi belgilanmaydi.

Aybdor o'yinchi ogohlantirish oladi yoki maydondan chet-lashtiriladi va darvoza oldi zarbasi takroran tepiladi. Agar bunda to'p jarima maydoni tashqarisiga chiqqunga qadar o'yin to'xtatilsa, zarba qaytariladi, ya'ni qarshi komanda o'yinchisi to'p o'yinga kiritilmasdan jarima maydoniga kirgan hisoblanadi.

Burchakdan beriladigan zarba (burchak to'pi)

Agar to'p darvoza to'sini yoki ustunlari tashqarisidan darvoza chizig'lni to'liq kesib o'tishidan oldin oxirgi marta himoyalanuvchi komanda o'yinchilariga tegib chiqqanda, burchak to'pi belgilanadi va burchak (sektori) yoyidan hujum qiluvchi komanda

o'yinchilari tomonida to'p raqib darvozasining qaysi tomonidan chiqib ketgan bo'lsa, o'sha tomonidan to'pni o'yinga kiritadi. To'p to'liq yoning ichiga o'rnatilishi lozim. Zarbani bajargan o'yinchil uni bajarayotganda burchak bayrog'ini egishi, olib qo'yishi yoki o'rnini almashtirishiga ruxsat etilmaydi.

Burchak to'pidan to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan (darvozaga) to'p hisobga olinadi.

Burchak to'pini bajarishda raqib o'yinchilarini to'pga 9 metrdan yaqin masofada turishlariga ruxsat etilmaydi va bu qoida to'p o'z aylanasi uzunligicha masofani bosib o'tgunga qadar ta'sir etadi. Zarbani bajargan o'yinchining esa boshqa o'yinchilardan oldin to'pga ikkinchi marta tegishiga ruxsat etilmaydi.

Jazolash

- a) agar burchak to'pini bajaruvchi o'yinchil boshqa o'yinchilardan avval to'pga ikkinchi marta tegsa yoki o'ynasa qolda buzilgan joydan qarshi komanda o'yinchilari erkin to'pi tepish huquqini yo'lga kiritadi. Qoida darvoza maydonida buzilgandagi hol bundan mustasno, bu holda erkin to'p darvoza maydonining qoida buzilgan tomonidagi ixtiyoriy nuqtada tepiladi;
- b) burchak to'pini bajarishda boshqa o'yin qoidalari buzilganda burchak to'pini tepish takrorlanadi.

ILOVA

11 metrli zARBALAR seriyasi yordamida g'olibni aniqlashdagi FIFA qo'llanmasi

1. Hakam barcha 11 metrli belgidan bajarilayotgan zARBALAR darvozasini tanlaydi.
2. Hakam kapitanlar o'rtasida qur'a tashlab birinchi zARBANI bajarish huquqini olgan komandani aniqlaydi.
3. a) komandalar "s" va "d" shartlarga amal qilgan holda beshtadan zarba bajarishadi:
 - b) zARBALAR navbatma-navbat amalga oshiriladi;
 - s) agar komandalar beshta zARBADAN bajarganlariga qadar bit-ta komanda boshqasi barcha to'plarni bajarganda hisobni oshir-gan holda ham birinchi komanda kiritgan to'plar soniga yetmasli-
gi aniq bo'lsa, qolgan zARBALAR bajarilmaydi;
 - d) agar ikkala komanda beshtadan zARBADAN so'ng bir xil natijaga erishsa (gollari soni teng bo'lsa) yoki umuman darvoza-
ga to'p kIRITA olishmasa, zARBALARNI bajarish davom ettirilib, teng zARBALARDAN so'ng (beshtadan zarba bajarishlari shart emas), bitta to'p kIRITGUNGA qadar davom ettiriladi.
4. 3-punktnnng "a", "s", "d" bo'limgan holda qaysi komanda to'p kiritgan bo'lsa, u mu-sobaqaning g'olib deb tan olinadi.
5. a) zARBALARNI musobaqa nizomida ko'rsatilgan asosiy va qo'shimcha vaqt mobaynida maydonga tushgan ixtiyoriy o'yinchilari mumkin.
Shuningdek, o'yin tugaganligiga signal berilganda hakamning ruxsatli yoki beruxsat maydonni vaqtincha tark etgan o'yinchilar ham bu huquqqa ega;
 - b) agar darvozabon zARBALAR tepilganda jarohatlansa va o'z vazifasini davom ettirishga layoqatsiz bo'lsa, u musobaqa protokolida ko'rsatilgan darvozabon bilan almashtiriladi. Biroq bu komanda musobaqa nizomida belgilangan o'yinchilari almashtirish o'yin mobaynida foydalanib bo'limgan bo'lsagina almashtirishga ruxsat ettiladi.
6. ZARBANI hali to'pni tepmagan o'yinchilari tepadi. Faqat darvozabonli yoki 5-punkt talabiga asosan uni almashtirgan darvoza-

bon va barcha o'yinchilar bir martadan zarba berishgach, yana ikkinchi bor tepish huquqiga ega bo'lishadi.

7. 5-punkt qoidasiga asosan zARBalar berilayotgai istalgan paytda istagan o'yinchi darvozabon bilan o'rIN almashishi mumkin.

8. a) zARBalar bajarayotgan o'yinchi va ikki darvozabondan tashqari barcha o'yinchilar zarba berilayotgan paytda maydonning markaziy aylanasi chegarasida bo'lishlari shart;

b) zarba berayotgan o'yinchining komandadoshi bo'limgan darvozabon zarba berilayotgan jarima maydonidan tashqarida darvoza chizig'iga parallel holda 11 metrli belgidan 9 metr uzoqlikda turishiga ruxsat etiladi.

9. Ushbu ko'rsatmaning 1-, 8- punktlariga amal qilgan holda g'olib aniqlanganda o'yinning barcha qoidalari va ko'rsatmalar amalda bo'lishi kerak.

IZOH: Agar elektr yoritgichlari 11 metrli zARBalar tepilgunga qadar ishdan chiqsa, g'olib qur'a tashlanib aniqlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'yinchining kiyim-boshi nimalardan iborat topadi?
2. Hakam kim?
3. Yordamchi hakamlar nima vazifani bajaradilar?
4. O'yin uchun ajratilgan vaqt va necha bo'limdan iborat?
5. O'yin boshlanishi oldidan nima tashlanadi?

Futbolda ishlataladigan terminlar

GLOSSARY

Aut – aut, chetda. Sport o'yinlarida to'pning maydonidan chiqib ketishi

Bitum – bitum (karbon vodorodlardan iborat smolali moddalar)

Diskvalifikatsiya – sportchini o'yin qoidalarini buzgani uchun sport musobaqalariga qatnashishdan mahrum qilish.

Dyuym – dyuym (eski Rossiyada va hozirgi Angliyada uzunlik o'lchovi birligi; futning o'n ikkidan biri 25.4 mm ga teng.)

Kombinatsiya – kombinatsiya. Umuman sport o'yinlarida uzoqni ko'zlab qilingan harakat.

Krossovka – krossovka. Sportchilar kiyadigan maxsus yyengil oyoqlayimi.

Stadion – o'yingoh, stadion (stadion-musobaqalashish joyi)

Sekundomer – sekundomer. Juda qisqa vaqt oralig'ini soniyalar bilan o'lchash asbobi.

Tablo – tablo. O'yin bilan bog'liq bo'lgan ommaga aniq ko'rib olishga moslangan ekran, taxta, schit.

Ochko – ochko. Sport turlariga qarab g'oliblar uchun ochkolar har xil beriladi.

Taym aut – taym aut. Tanaffus.

Fint – chalg'itish, raqibni aldaydigan harakatlar.

Fut – fut (30.479 santimetrga teng keladigan rus va ingлиз uzunlik o'lchovi).

Rekord – rekord. Sport turlari bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda en g'uygori ko'rsatkichga erishib, birinchilikni egallash.

Zona – mintaqasi. 1 geografik maydon. Sport musobaqalarining dastlabki o'yinlari bir necha mintaqalarda o'tkazilishi mumkin.

Futbol – futbol. (foot-oyoq, ball-to'p).

Yard – yard (Angliyada-0,91 metrga teng uzunlik o'lchovi).

FIFA – Xalqaro Futbol Federatsiyasi.

UEFA – Yevropa futbol ittifoqi.

OFK – Osiyo futbol konfederatsiyasi.

O'zbekcha	Русча	Inglizcha
11 metrlik jarima chizig'i	Шрафная линия 11 м	11 m line
Hujum	Нападени	Assault
Markaziy liniya	Центральная линия	Centre line
Fol	Фол	Foot
Passiv o'yin	Пассивная игра	Passive play
O'yindan tashqari holat	Вне игры	Out of play
O'yin vaqtı	Время игры	Playing time
Otish uchun signal	Свисток для броска	Whistle for the throw-off
Ogohlantirish	Предупреждени	Warning
Darvozaning ichki chizig'i	Внешняя линия ворот	Outer goal line
Guruh jamoasining vakili	Официальный представитель команды	Team official
Shaxsiy jazo	Личное наказание	Personal punishment
Darvozaga otish	Бросок вратаря	Goalkeeper throw
Jarima otish chizig'i	Линия штрафного броска	Free throw line
Chiziqni kesib o'tish	Пересек линию ворот	Crossed the goal line
Diskvalifikatsiya	Дисквалификация	Disqualification
Aut	Аут	Aut
Sekundomer	Секундомер	Sekundomer
Fint	Финт	Fint
Ochko	Очко	Ochko
Zona	Зона	Zona
Rekord	Рекорд	Rekord
Jihozlar	Оборудования	Equipment

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akramov R.A. Yosh futbolchilarni tanlab olish va tayyorlash. – T., 1989.
2. Akramov R.A., Tolipdjonov A.I. Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash. O'quv qo'llanma. – T., 1994.
3. Kazakov P.N. Futbol. – T., 1987.
4. Iseev Sh.T. Futbol jamoalarining galaba kozonishida futbolchilarning standart vaziyatlardan samarali foydalanish. "Pedagogik ta'l'im" jurnali, № 2, 2003-y.
5. Кошбахтиев И.А. Управление подготовки футболистов высокими квалификациями. – Т., Groteks. 1998.
6. Кошбахтиев И.А., Нуриров Р.И. Программирование подготовки футболистов высоких квалификаций. – Т.: 2005.
7. Матвеев Л.П. Основы спортивной тренировки. – М., Фис. 1977.
8. Нуриров Р.И. Совершенствование тактических действий футболистов высокой квалификации. Учебное пособия. – Т., 2001.
9. Нуриров Р.И. Техника – тактические действия футболистов высокой квалификации. Учебное пособия. – Т., 2001.
10. Pavlov Sh.K. Qo'l topi. "Musobaqlar qoidalari". – Т., 1987.
11. Абдурахмонов Ф.А., Ливитский А.Н., Яротский А.И., Павлов Ш.К. Подготовка Гандболистов. Учеб.пособие. – Т., 1992.
12. Futbol uchebnik. Gruppa avtorov. – Т., 2005.
13. B. Nugmonov, F. Xujaev, K. Raimkulov. Sport o'yinlari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Т.: Ilm ziyo, 2007.

МУНДАРИЖА

Kirish.....	3
I BOB. Futbolning rivojlanish tarixi	6
II BOB. Futbol o'yini texnikasi.....	19
III BOB. Sport o'yinlarida trenirovka va o'rgatishning asoslari. O'quv-trenirovka jarayonining tuzilishlari	68
IV BOB. Maxsus jismoniy tayyorgarlik.....	81
V BOB. Psixologik tayyorgarlik	92
VI BOB. Nazariy tayyorgarlik.....	95
VII BOB. Futbol maydonining o'lchami va o'yin qoidasi	95
VIII BOB. Kichik futbol	128
Dars konspektini tuzish	142
Darsni tashkillashtirishda noan'anaviy o'qitish metodlaridan foydalanish.....	144
IX BOB. Harakatli o'yinlar	151
X BOB. O'yin qoidalari	184
Ilova	209
Glossariy	211
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	213

**ABDUQAYUM ABDULLAYEV
ABDULXAYEVICH**

**SPORT VA HARAKATLI O'YINLAR
O'QITISH METODIKASI
(FUTBOL)**

O'quv qo'llanma

**MUHARRIR: V. IBRAGIMOVA
TEXNIK MUHARRIR: O. MUXTOROV
SAHIFALOVCHI: H. SAFARALIYEV
DIZAYNER: I. ADILOVA**

K

I]

II

III

O'

IV

V

V]

V|

V|

D

D

o'

IX

X

Ilc

Gl

Fo

Original maket "TAFAKKUR" nashriyotida tayyorlandi.
Nashriyot litsenziysi A1 № 231, 16.11.12.
Bosishga ruxsat 13.12.2019 da berildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$, Ofset qog'oz.
Ofset bosma usulida bosildi.
"Cambria" garniturasi. Shartli bosma taboq 13,5.
Adadi 500 nusxa.

"TAFAKKUR" nashriyoti Toshkent tumani,
Qizg'aldoq, Bunyodkor MFY, Ko'l 17-tor ko'cha, 9-uy.
Tel, FAKS: (71) 244-75-88, (94) 664-40-03.
Email: tafakkurmaktub@mail.ru
"ADAD PLUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.



ISBN 978-9943-24-282-1

9 789943 242821